

821.111.(73)-31
B-74



GARRIET BICHER-STOU
**TOM TOGANING
KULBASI**

ROMAN II KITOB

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

GARRIET BICHER-STOU

TOM TOG'ANING KULBASI

Roman

Ikkinci kitob



ZIYORAT NASHR

Toshkent
2020

UO'K: 821.111(73)-31

KBK 84(7AQSh)

B 74

Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev

Tarjimon:

Sharif MIRZO

Bicher-Stou, Garriet.

B 74 Tom tog'aning kulbasi: ikkinchi kitob. [Matn]: roman / G. Bicher-Stou; tarjimon: Sh. Mirzo. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 240 b.

ISBN 978-9943-6439-1-8

Romanning birinchi kitobini o'qigan kitobxonlarimizning Tom tog'aning hayotidan, xo'jayinlari nochor ahvolga tushib qolganda uni sotib yuborganidan xabarları bor. Ikkinci kitobda esa Tom tog'a janubda paxta ekuvchi yovuz plantatsiya egasining qo'liga tushib qoladi. Birinchi xo'jayinning olivjanob o'g'li Genri Tom tog'ani qutqargani kelganida esa...

Ushbu qiziqarli asar zukko o'quvchilarimizning tasavvur dunyosini boyitishiga ishonamiz.

UO'K: 821.111(73)-31

KBK 84(7AQSh)

2020/ 6-484

ISBN 978-9943-6439-1-8

© Sharif Mirzo (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirları yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimmi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishta yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasi izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrlı ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jiddlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jiddlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni oлган. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratlari tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jiddlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'chamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jiddligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adapbiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adapbiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

Ofeliyaning kuzatishlari va fikrlari

Sen-Kler pul ishiga beparvo qaraydigan qo‘li ochiq kishi edi. Shu vaqtgacha barcha ro‘zg‘or xaridlarini Adolf qilardi, lekin Adolf ham o‘z xo‘jayiniga o‘xshagan beg‘am bo‘lib, ikkovlari pulini pala-partish sarflayverardilar. Ko‘p yillar davomida xo‘jayinining mulkini o‘z mulkidek asrashni odat qilgan Tom, ro‘zg‘orning isrofgarchilik bilan yurg‘izilishiga achinar va goho buni hazm qilolmaganini kinoyalar bilan izhor qilardi.

Avval unga Sen-Kler mayda-chuyda topshiriqlar berib turdi, lekin uning bama’niligini va ishbilarmonligini ko‘rib, kun sayin ko‘proq ishona boshladи: pirovardida, xo‘jalik ishlarining hammasi uning qo‘liga o‘tdi.

– Adolf, unday qilma, – dedi Sen-Kler, ish qo‘lidan ketayotgani uchun Adolfining norizo bo‘layotganini sezib, Tomga ozor berma. Sen o‘z ra‘yingga qarab sarf qilasan, Tom esa narx-navoga, qo‘lida bor pulga qarab ish tutadi. Bu ishning hammasini birovga topshirib qo‘ymasak, bora-bora xonavayron bo‘lishimiz mumkin.

Qo‘liochiq xo‘jayin Tomga haddan ziyod ishonar va pulni qaramay berib, ortib qolganini ham sanamay cho‘ntagiga solib qo‘yardi. Shunday ekan, o‘marib qolish uchun har doim qulay payt bo‘lardi. Lekin vijdonli Tom nafsini

tiyardi. Bunday odamlarga cheksiz ishonch bildirsangiz, ular yanayam halol bo'lishadi.

Adolfning fe'li esa boshqacha edi. Adolf beg'am, nafsi buzuq, xo'jayini ham uning shaxdini qaytarmas edi. Shuning uchun ham u, nima o'ziniki va nima xo'jayininiki ekanini bilmay, chuvalashib qoldi. Bu hol ba'zida Sen-Klerni ham g'azablantirardi. Bama'nilik tushunchasi Sen-Klerga „Xizmatkorlaringni o'g'irlilikka o'rgatish noto'g'ri va hatto xafvli“, der edi. Bu narsa uning vijdonini azoblardi, lekin bu azob uning odatini o'zgartish darajasida zo'r emas edi.

Tom o'zining xushchaqchaq, yengiltak, go'zal yosh xo'-jayiniga izzat-ikrom va otalarcha mehribonlik bilan qarardi.

Lekin janubdag'i uyda ro'zg'or ishlarini yurg'iza boshlagan Ofeliyaning son-sanoqsiz qayg'ularini kim tasvirlay olsin? Mari yalqov va go'daktabiat bo'lganidan, uning xizmatkorlari ham o'ziga o'xshagan edi. U, uydagi tartibsizlikni Ofeliyaga to'ppa-to'g'ri aytib berdi, ammo u, buning uchun o'zini gunohkor deb hisoblamasdi.

Ofeliya o'z vazifasini bajarishga kirishgan birinchi kunidayoq ertalab soat to'rtda turdi, u o'z bo'lmasini yig'ishtirdi, bu yerga kelgandan beri oqsoch xotinni o'ksitib bu ishni o'zi bajarardi, keyin kalitlarni qo'liga olib, shkaf va omborlarni astoydil ko'zdan kechirishga kirishdi.

Bir kunning o'zidayoq ombar, kiyim shkaflari, chinni idish-tovoq xonasi, oshxona va yerto'lalar – hammasi juda sinchiklab ko'zdan o'tkazildi. Ko'rik vaqtida yuradagi yashirin sirlar yuzaga chiqdi, oshxona va bo'lmalarda hukmronlik qilganlar juda hayajonlandilar, „bu shimol oyimlari haqida“ ancha-muncha pichir-pichir va gap-so'zlar bo'lib o'tdi.

Oshxonadagilar orasida katta obro' qozongan bosh oshpaz Dina kampirning, o'zi idora qiladigan ishlarga aralashilgani uchun qattiq jahli chiqdi.

Dinaning o‘ziga xos fe'l-atvori bor edi, bu to‘g‘rida o‘quvchilarimizga ba’zi bir tasavvurot bermasak bo‘lmas. Xloya xola kabi oshpazlik unga ham tug‘ma kasb edi, – umuman, negr xotinlar oshpazlikka qobiliyatli bo‘ladi. Ammo, Xloya xola tartibga o‘rgangan, Dina esa o‘jar va o‘ziga ishonganligiga borib, tez-tez yanglishardi. U aql va mantiq bilan ishi yo‘q, faqat o‘z ilhomiga, zavqiga ishonar va uni bu yo‘ldan qaytarish amri mahol. „Sen tutgan usuldan yaxshiroq usul ham bor yoki sening usulingga biroz o‘zgartish kirg‘izish mumkin“, degan gaplar unga zarracha kor qilmasdi. Uning eski bekasi – Marining onasi bunga yo‘l qo‘ygan edi. „Miss Marixon (Dina, yosh bekasi turmushga chiqqanda ham uni doim Marixon deb chaqirardi) Dina bilan tortishishidan ko‘ra, bo‘ysunish afzalroq deb topgan, shuning uchun ham Dina o‘z bilganicha hukmronlik qilaverdi. Buning ustiga, uning mulozamatchanligi, ishda esa benihoya o‘zboshimchalik va o‘jarlik qilishi bu hukmronlikka qo‘srimcha bo‘lib tushdi.

Dina tegirmonga tushsa butun chiqadigan usta xotin. U, oshpaz xato qilmog‘i mumkin emas, degan uzil-kesil fikrda edi. Janubdaggi oshpaz xotin esa har qanday gunoh va qilg‘iliqni boshqalarning zimmasiga ag‘darishni biladi va shunday qilib o‘z obro‘siga zarracha dog‘ tushirmaydi. Agar ovqat pishirayotganda biror nojo‘ya ish ro‘y berib qolsa, so‘zsiz bunga ellikta sabab chiqar, ellikta gunohkor topilar va Dina bularning ta‘zirini berardi.

Lekin Dinaning omadi kelmaydigan payt kamdan kam bo‘lardi. U ko‘pincha joy va vaqtini e’tiborga olmasdan, hamma narsani teskari qilsa ham va, odatda, uning oshxonasi quyun turgandek to‘polon ko‘rinsa ham va oshxonaning har bir buyumi bir kunda yuz joyga qo‘yilib tursa ham, uning shunday bir fazilati bor edi: agar uy egalari Dinani shoshirmay, toqat qilib kutsalar, u, lazzatli taomlar

?

tayyorlab berardi, uni yegan har qanday injia shinavanda ham taomdan biror nuqson topa olmasdi.

Ovqat pishirish uchun tayyorgarlik ko'rish vaqt bo'ldi. Dinaga dam olish va o'yash uchun ko'p vaqt zarur edi. U osoyishta dam olishni yaxshi ko'rardi. Hozir u kalta va yo'g'on trubkachani chekib, oshxonan poliga o'tirmoqda. U ovqat qilish uchun, zo'r hafsala keltirish uchun doim shuni chekardi.

Uning tevaragida bir talay negr bolalar yig'ilgan. Uman, janubdag'i har bir xo'jalikda bunday bolalar juda ko'p bo'ladi. Ular no'xat po'chog'ini archishadi, kartoshka tozalashadi, tovuqning patini yulishadi. Dina, yosh yordamchilardan birortasini mushtlash yo bo'lmasa qoshiq bilan boshiga shaqillatib solish uchun ba'zan xayol surishdan to'xtardi. Xullas, Dina bu qo'ng'irsoch bolalarni qattiq iskanjaga olgandi. Uning o'zi ham shu taxlitda o'sgan va endilikda shu usulni qattiq qo'llardi.

Yangi tartib joriy etmoq uchun uyni ko'rikdan o'tkazayotgan Ofeliya, oshxonaga ham kirdi. Dina, xo'jalikda bo'lishi kutilgan o'zgarishlar haqida turli manbalardan xabar eshitgach, muhofaza yo'lini tutib, g'alva ko'tarmasdan eski tartibni himoya qilishga, oshkora e'tiroz qilmay, yangi tartibga bo'y egmaslikka qaror berdi.

Oshxona keng, poliga g'isht yotqizilgan, uning ancha joyini eski o'choq egallagandi. Sen-Kler, bu o'choq o'miga ancha o'ng'ay bo'lgan hozirgi zamon plitasini qurish haqida Dinaga bir necha bor aytgan bo'lsa ham, u ko'nmag'an.

Sen-Kler birinchi marta shimolga borib-kelishida amakisining oshxonasida ajoyib tartib hukm surganini ko'rди va oshxonasi uchun idish qo'yadigan shkaflar, qutilar va boshqa har xil anjomlar sotib oldi, bu narsalar Dinaga aqalli tartib o'rnatisht uchun biroz yordam berar, deb o'yladi u. Lekin bu narsalarni Dinaga olib berish bilan olmaxon yoki

hakkaga olib bergen baravar edi. Yashik va shkaflar qancha ko'p bo'lsa, Dina uchun o'shancha yaxshi: uning eski lat-talari, taroqlari, yamoq kavushlari, lentalari, eskirib ketgan yasama qog'oz gullari va ko'ngil quvonchi bo'lmish boshqa narsalarini yashirish uchun joy ko'paygan bo'lardi.

Ofeliya oshxonaga kirganda, Dina qimirlamadi ham, u ko'z qiri bilan Ofeliyaning harakatini kuzatar ekan, bamay-lixotir tamaki chekib o'tiraverdi. U o'zini fikri-zikri atrofda bo'layotgan voqeа bilan banddek ko'rsatardi.

Ofeliya yashiklarni ocha boshladи.

– Bu yashikka nima solib qo'ygansan, Dina? – deb so'-radi u.

– Har xil buyumlarni, xonim, – dedi Dina.

Haqiqatda ham shunday edi. Ofeliya dastavval yashik-dan yupqa to'r dasturxon oldi. Dasturxon qon yuqi edi, unga xom go'sht o'ralgan bo'lsa kerak.

– Bu qanday gap, Dina? O'z bekangning eng yaxshi dasturxoniga go'sht o'raysanmi hali?

– Xudo ursin, xonim, unday emas. Bitta ham sochiq qolmagan ekan, shu dasturxонни olib qo'ya qoldim. Men uni yuvGANI ajratib qo'ygan edim, u yerda turishingi sababi shu.

„Epashanglik“ dedi ichida Ofeliya, yashikni kovlar ekan.

Ofeliya yashik ichidan muskat yong'oq qiradigan qirg'ichni oldi, yana ikki-uchta muskat yong'oq, duo yozilgan kitob, bir necha kir dastro'molcha, xom ip va to'qiy boshlangan to'r, bir quticha tamaki, trubka, bir necha pecheniy, ichiga allaqanday upa-elik solingen, zar yogurtirilgan ikkita chinni likopcha, eski botinkalar, ichiga anchagina mayda oq piyoz o'ralgan latta, har xil surp sochiqlar, bir necha bo'z sochiq, chilvir, qaviq ignalar va yirtiq paketlar chiqdi, paketlardan yashikka xushbo'y quruq o'tlar to'kilib yotar edi.

- Muskat yong‘oqlarni qayerda saqlaysan, Dina? – deb so‘radi Ofeliya, g‘azabini zo‘rg‘a bosib turgan kishiday.
- Ro‘para kelgan joyda, xonim. Bir nechtasi siniq kosa-da yotibdi, hov anavi shkafda ham muskat yong‘oqlar bor.
- Bir nechasi mana bu yerda – qirg‘ich yonida yotib-di, – dedi Ofeliya, yong‘oqlarni olarkan.
- Rosti bilan-a? Aytmoqchi, bugun ertalab solib qo‘ygan edim – hamma narsaning ko‘z o‘ngimda bo‘lishini yaxshi ko‘raman, – dedi Dina. – Hoy Jek, nega ishni to‘xtatding? Hoy yer yutkur! – Uzun qoshiq bilan bolani bir turtdi.
- Bu nimasi? – deb so‘radi Ofeliya, upa-elik solingan likopchani olarkan.
- U menga qarashli moy. Ko‘z o‘ngimda tursin, deb solib qo‘yganman.
- Moyni bekangning eng yaxshi likopchalarida saqlay-sanmi?
- Shoshilib solib qo‘yibman... Bugun boshqa idishga solmoqchi edim.
- Bu ikki surp sochiq-chi!
- YuvGANI beraman deb ertalab solib qo‘ygan edim.
- Kirlarni solib qo‘ygani boshqa joy quriganmi?
- Mister Sen-Kler kir uchun katta quti sotib olgan. Le-kin men uning ustida pecheniy qilishni yaxshi ko‘raman. Keyin uning qopqog‘ini ko‘tarish ham qiyin.
- Pecheniyni stol ustida qilsang bo‘lmaydimi?
- Sira mumkin emas, xonim. Stolning usti hadeb if-los idish va har xil narsaga to‘lib ketganidan, uning ustida bo‘sh joy bo‘lmaydi.
- Idishlarni yuvib, stolni tozalab qo‘ysang bo‘lmay-dimi?
- Idish yuvish deysizmi? – shang‘illab qichqirdi Dina, jahli chiqqanidan vazminligini yo‘qotib. – Xonim, o‘zlar ishni tushunadilarmi? Bilgim keladi. Agar butun vaqtim-

ni idish yuvish bilan o'tkazsam, xo'jayinga qay mahalda ovqat tayyorlab bera olaman? Mari xonim menga hech qachon „idish yuv“, degan emaslar, hech bir!..

– Xo'p, yaxshi, unday bo'lsa, buning ichiga piyoz qanday kirib qolibdi?

– Ehe, u bu yerda ekan-da! – dedi Dina, – Qayerga qo'y-ganimni esimdan chiqarib yuribman. Bu boshqacha piyoz, uni bugun tayyorlaydigan go'shtqoqiga atayin olib qo'y-ganman. Lattaga o'rog'liq ekani ham yodimdan ko'tarilibdi savil.

Ofeliya xushbo'y o't solingan qog'ozlarni oldi.

– Xonim bu yerdagi ikir-chikirlarga tegmasalar, deyman. Narsalarimning qayerda turganligini bilishni yaxshi ko'raman, – dedi qat'iy ravishda Dina.

– Paketlar yirtiq-ku axir.

– Yirtiqdan to'kish osonroq bo'ladi, – dedi Dina.

– Axir ko'rigin, hammasi yashikka sochilib yotibdi-ku.

– Albatta, xonim alg'ov-dalg'ov qilganlaridan keyin o'tlar sochilib ketadi-da. Xonimning o'zları sochganlar, – dedi bezovtalangan Dina yashik yoniga kelib. – Agar xonim uy yig'ishtiradigan kunimni kutib, yuqoriga o'tib ketaver-ganlarida, hamma narsa joy-joyida bo'lardi-ko'yardi. Lekin xonim tepamda turaversalar, men hech ish qilolmayman. Sem, nega yosh bolaga qanddonni berding? Hozir adabing-ni beraman, hali to'xtab tur.

– Dina, oshxonani ko'rib chiqib, bu yerni doimiy qilib tartibga solaman. Keyin sen uni yaxshi tutarsan deb umid qilaman.

– Ofeliyaxon, ey Xudoyim, xonim degan bunday ishlarga qo'l tekkizmasliklari kerak. Xonimlarning oshxonada ish qilganini hech ko'rganim yo'q. Na katta beka, na Mari xonim bunday ishni qilmaganlar, bunga ehtiyoj ham yo'q.

Ofeliya likopchalarni terib, bir dyujina qanddondagi qand yuqini to'plab bitta qanddonga solib, salfetka, das-turxon va sochiqlarni yuvmoq uchun ajratarkan, Dina jahli chiqib oshxonada u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Ofeliya nar-salarni o'z qo'li bilan juda epchil, juda tez yuvib, tozalab artishini ko'rib, Dina hayratda qoldi.

– Agar shimoldagi xonimlarning hammasi shunday ish-lasa, ular hech ham xonim emas ekanlar! – dedi u yordam-chilariga, so'zini birov eshitmasligiga qulaylik tug'ilishi bilan. – Yig'ishtirish vaqt kelganda, o'zim ham boshqalar-dan qolishmaydigan qilib yig'ishtiraman. Lekin atrofimda xonimlarning o'ralishib, narsalarimni yig'ishtirishlarini istamayman, chunki, keyin ularni qo'ygan joyimdan topol-mayman.

Dinaga tan bermoq kerak: unda goh-gohida ozodalik va tartib tutqanog'i paydo bo'lib qolar va bunday vaqtdu u „yig'ishtirish vaqt keldi“, der edi. Bu payt u zo'r g'ayrat bilan yashik va omborlardagi hamma narsani ostan-ustun qilib, oshxonadagi tartibsizlikni yanada orttirardi. Keyin u, trubkasini chekib, bu manzarani ohista tomosha qilardi; so'ng yosh yordamchilariga qalaydan yasalgan idishlar-ni tozalashni buyurardi, buning natijasida oshxonada bir necha soat haddan ziyod to's-to'polon bo'lardi. Har qanday e'tirozlarga pinagini buzmasdan: „Buning otini yig'ishtiruv deydilar, men yoshlarni hamma narsani batar-tib tutishga majbur etmoqchiman“, deb javob berardi. Dina o'zini tartibning mujassami, deb bilar, u, tartibsizliklarning hammasini yordamchilarim qiladi, deb hisoblardi. Hamma idish yuvilib tozalanganda, stollar oppoq qilib qirilganda, qolgan-qutgan narsalar burchak-burchaklarga tiqib tash-langanda, Dina yaxshi ko'yak va ozoda fartugini kiyar, uzun va yarqiroq chalmasini boshiga o'rар va oshxonaga yaqinlashmaslik haqida yordamchilarga buyruq berardi, u

birovning tartib buzishini xohlamasdi. Bu ozodalik tutqanog'i uydagilarga zo'r o'ng'aysizlik tug'dirardi, chunki Dina yuvilgan idish-tovoqlarning umrbod toza saqlanishini istar va bu tozalik tutqanog'i bosilmaguncha, idishlardan foydalanishga unamasdi.

Ofeliya uydagi hamma odatlarni bir necha kun ichida tubdan o'zgartirdi, lekin xizmatkorlarning fe'lini o'zgartirish uchun qilgan harakatlari bekor ketdi. Shuning uchun u bir kuni umidsizlanib Sen-Klerga murojaat etdi:

- Bularni tartibga o'rgatishning sira iloji yo'q.
- Gapingiz to'g'ri, sira iloji yo'q, – dedi Sen-Kler.
- Bunday epashanglik, isrofgarchilik va tartibsizlikni hech ko'rgan emasman!...
- Bo'lmasam-chi! Albatta ko'rgan emassiz.
- Ro'zg'orni o'zingiz yurgizganingizda, bunday bamylixotir gapirmagan bo'lardingiz. Ogyusten, men oshxonada shunday narsalarni ko'rdimki, aqlingiz bovar qilmaydi!
- Aqlim bovar qilmaydi? O'qlog'ing Dina karavoti ostida yotishini, qirg'ich uning tamaki soladigan cho'ntagida yurishini, uning burchak-burchagida kamida oltmisht beshta qanddon yotishini, idishni bir kun salfetka bilan artsa, ikkinchi kun eski ichki yubkasining irkit lattasi bilan artishini bilmaydi, deb o'ylaysizmi? Har nima bo'lganda ham, u juda lazzatli ovqat tayyorlaydi, ajoyib qahva pishiradi. Shuning uchun u haqida bir narsa der ekanmiz, jangchi yoki davlat arbobi ishiga qaraganday, uning ishiga qarab hukm chiqarishimiz kerak.
- Qancha oziq-ovqat va pul isrof bo'lyapti, buni ham e'tiborga olish kerak-da...
- Albatta, oshxonaga beriladigan oziq-ovqatni o'z na-zoratingizga oling, qulf-kalit qilib, hisoblab bering, qolgani bilan ishingiz bo'lmasin.

– Bu hol meni qiynaydi, Ogyusten. Xizmatkorlaringizning halolligiga gumanim bor. Ularning halolligiga ishonsa bo‘ladimi? Bunga imoningiz komilmi?

Ofeliya jiddiyat va tashvish bilan savol berganidan, Ogyusten qah-qah otib kulib yubordi.

– E, kuzina, buningiz haddan ziyod! Halollik emish! Ulardan halollik talab qilib bo‘ladimi? Halol dedingizmi? Albatta halol emas! Nima uchun ular halol bo‘lsin? Ularga buni kim o‘rgata oladi.

– Nega ularni to‘g‘ri yo‘lga solmaysiz, halollikka o‘rgatmaysiz?

– O‘rgatish emish? Behuda gap! Sizning-cha men ularni nimaga o‘rgata olaman? Men faqat shuning uchun yaratilibmanmi? Mariga kelganimizda, qo‘yib bersam, bir qo‘ra negrlarning boshini yeish qo‘lidan keladi-yu, lekin ularni haromxo‘rlikdan qaytara olmaydi.

– Nahotki ularning ichida haloli bo‘lmasa.

– Albatta, qaysi birini tabiat to‘g‘ri, rostgo‘y, sodiq qilib yaratgan bo‘lsa, har qanday yomon ta‘sir uni buzolmadı. Lekin sizga shuni ham aytib qo‘yayki, negr bolalarga to‘g‘ri yo‘l, bizga yopiq degan tushuncha, onasuti bilan kiradi. Ular avval ota-onalariga, so‘ngra xo‘jayinlariga, birga o‘ynaydigan o‘rtoqlariga shumlik qiladilar. Mug‘ambirlik va al-dash ular uchun zarur va muqarrar odat tusiga kirib qoladi. Ulardan boshqa narsani kutish befoyda. Buning uchun ularni jazolab ham bo‘lmaydi. Halollik masalasiga kelganda gap bunday: qul doim shunday qaram ahvoldaki, u xususiy mulk degan narsadan mutloq bexabar, ularga „Xo‘jayinning mulki seniki emas“, degan narsani tushuntirib bo‘lmaydi. Ularning qanday qilib halol bo‘la olishini tasavvur etolmayman. Lekin Tom tamoman boshqacha odam.

– Voy, sho‘rim qursin! – dedi Ofeliya. – O‘zingiz ham nomus qilsangiz kerak!

– Men hatto nomus qilish-qilmasligimni ham bilmayman. Butun dunyodagi yuqori va pastki tabaqa kishilariga qarang, hamma yerda shu ahvol: pastki tabaqadagilar yuqori tabaqadagilarga tanlarini ham, jonlarini ham, idrokclarini ham qurban qiladilar. Angliyada ahvol mana shunday... Umuman, butun dunyoda ahvol shunday... Lekin, ol-a, qo'ng'iroq chalindi. Kuzina, qani, Shimol bilan Janub o'rtasidagi janjalni qo'yib, ovqatga boraylik.

Kechqurun, Ofeliya oshxonaga kirganda, negr bolalar qichqirishdi:

– Ana, Pryu kelyapti, jag'i ochiq kampir kelyapti.

Novchadan kelgan qotma negr xotin oshxonaga kirdi. Boshida savat, savat ichida issiq bulka va suxariklar bor edi.

– Ha, keldingmi, Pryu? – dedi Dina.

Pryuning qovog'i soliq, jahli chiqqan, ovozi ming'illab chiqar edi. U savatini polga qo'yib, cho'kkaladi va qo'llarini tizzasiga qo'yib, dedi:

– Ey Xudoyim! Tezroq o'la qolsam edi!

– Nega o'lishni istaysan? – deb so'radi Ofeliya.

– O'lsam, bu azob-uqubatlardan qutulardim, – ko'zini poldan uzmasdan, dedi ayol xirillab.

– Ichishga kim majbur etyapti seni, Pryu? – deb so'radi olifta oqsoch kvarteronka, isirg'alarini selkillatib.

Ayol norizo bo'lgandek ma'yus qaradi.

– Ehtimol, bir kun kelib sen ham icha boshlarsan. O'shanda sening ahvolingni bir ko'raman! Qayg'ungni bosish uchun sen ham meningdek bir qultum aroq topsang xursand bo'lar eding.

– Beri kel-chi, Pryu, – dedi Dina, suxarilaringni ko'rsat. Beka uning haqini to'lamoqchi.

Ofeliya yigirma-o'ttiztacha suxari oldi.

– Tokchadagi siniq kuvachada ancha-muncha kupon bor, – dedi Dina. – Tur, Jek, ularni bu yoqqa ol.

- Kupon? Nima uchun kerak? – deb so‘radi Ofeliya.
- Biz kuponni Pryuning xo‘jayinidan sotib olamiz. Pr-yu bo‘lsa kuponni olib, bizga bulka beradi.
- Men uyga qaytganimda, xo‘jayin pul bilan kuponni sanaydi, kam chiqsa meni o‘lasi qilib uradi.
- Ajab qiladi, – dedi sho‘x oqsoch Jen, sen uning pulini ichkilikka sarflasang, shunday qilib yaxshi qiladi-da. Sendaqa xo‘jayinni ko‘tarsin...
- Bo‘lganim shu. Boshqa ilojim yo‘q. Ichaman va qayg‘umni unutaman!
- O‘z xo‘jayiningning pulini o‘g‘irlab, o‘zingni hayvon darajasiga keltirishing juda noma‘qul ish va ahmoqlik, – dedi Ofeliya.
- Juda to‘g‘ri aytyapsiz, xonim, lekin men shunday qilaveraman, ha qilaveraman. Yo Rabbim! O‘la qolsam koshki edi! Azob tortavermay, tezroq o‘la qolsam!
- Kampir kuchanib zo‘rg‘a o‘rnidan turdi-da, savatni boshiga qo‘ydi. Lekin chiqib ketishdan ilgari, hamon isirg‘asini silkillatib o‘ynab turgan qizga qarab:
 - Bu isirg‘am yarashadi deb o‘ylaysanmi? Quvon-chingdan boshingni silkip, atrofga mo‘ralaysan! Sen ham mendaqa qarib, xunuging chiqib, mijig‘lanarsan! Ilohim, sen ham mendek bo‘lgil. Ana unda ichishingni ko‘rasan! Ana unda senga ham odamlar: „Yaxshi qiladi-da, xo‘jayining...“ deyishadi.
- Shunday dedi-da, inqillab, oshxonadan chiqdi.
- Bundan ham xunuk qari hayvon bo‘larmakin! – dedi xo‘jayinining topshirig‘i bilan, soqol olish uchun qaynoq suvga kelgan Adolf. – Agar men uning xo‘jayini bo‘lsam, yanayam battarroq urar edim.
- Bunday qattiq urib bo‘lmaydi, – dedi Dina. – Uning orqasi momataloq bo‘lib ketgan, u aqalli ko‘ylak ham kiya olmaydi.

– Meningcha, bunday pastkash maxluqlarning bama'-ni oilalarga kelishiga yo'l qo'yish kerak emas, – dedi Jen xonim. – Bu to'g'rida siz nima deb o'ylaysiz, mister Sen-Kler? – Erkalanib sal bosh siltab, Adolfdan so'radi u.

Shuni ham aytish kerak. Adolf xo'jayinining bir qancha boshqa narsalari ichida uning nomiga ham egalik qilgan edi. Yangi Orlean negrlari uni to'ppa-to'gri Sen-Kler deb atashar edi.

– Fikringizga qo'shilaman, Benuar xonim, – dedi Adolf.

Mari qiz chog'ida Benuar familiyasida bo'lib, Jen uning oqsochi edi.

– Benuarxon, so'rasam mumkinmi: bu isirg'alar bu kungi bal uchun emasmi? Bu isirg'alar chindan ham kishi-ni sehrlaydi.

– Mister Sen-Kler, erkaklarning o'taketgan surbetlikka borganlariga hayron qolaman, – dedi Jen, isirg'a yana shildirasin deb chiroyli boshini silkib. – Agar bundaqa savollarni beraversangiz siz bilan bugun raqsga tushmayman!

– Bunchalik shafqatsiz bo'lmasangiz-chi! Bugun pushti to'r ko'ylagningizni kiyasizmi? Shu ko'ylagningizda ko'rishga intizorman, – dedi Adolf.

– Bu nima deganingiz? – deb so'radi kelishgan, sho'x kvarteronka Roza, pillapoyadan yugurib tushar ekan.

– Mister Sen-Kler surbetlik qilyapti!

– Azbaroyi Xudo, – dedi Adolf, – buni Rozaxon o'zi hal qilsin!

– U doim shundaqa surbet, bilaman, – dedi Roza, oyoq-chasini yerga urib va Adolfga jahl bilan qarab, – U mudom g'ashimga tekkani-tekkan.

– Oh, xonim, xonim! Yuragimni yuz pora qildingiz! – dedi Adolf. – Bir kun emas bir kun o'lib qolaman, buning uchun siz gunohkor bo'lasiz.

– Bu yaramasning og‘zidan chiqayotgan gaplarini eshitting! – deb xitob qilishdi har ikki xonim, qattiq xiqillab.

– Qani, bu yerdan tuyog‘ingizni shiqillatib qoling! Oshxonamda vaqqillashaverishlaringga toqatim yo‘q, – dedi Dina.

– Dina xolaning o‘zi balga borolmaydigani uchun g‘udunglayapti, – dedi Roza.

– Sizdaqa mulatlarning ballariga boradigan bekorchi oyog‘im yo‘q! – dedi Dina. – Pirillab aylanishib, o‘zlarini oq deb gumon qilasizlar. Aslida, sizlar menga o‘xshagan qora mo‘ndisizlar!

– Dina xola jingalak sochlarni to‘g‘ri qilib yozmoq uchun har kun sochiga yog‘ surkaydi, – dedi Jen.

– Lekin, baribir sochi jingalakligicha qolyapti, – dedi Roza, uzun ipak kokillarini silkitib.

– Sochim jingalakmi, to‘g‘rimi, Ollo-taolo uchun baribir emasmi? – deb e’tiroz etdi Dina. – Lekin yaxshisi beka aytsin-chi: sizga o‘xshaganning ikkitasi qimmatmi yoki menga o‘xshaganning bittasi qimmatmi. Yo‘qolinglar, shallaqlilar! Bu yerda pashshalashmanglar.

Bularning suhbatini Sen-Kler buzdi, u: „Hoy Adolf, soqol uchun qaynoq suvga ketib, oshxonada tunamoqchimisan“, deb qichqirdi. Xuddi shu on oshxonadan Ofeliya chiqib, dedi:

– Hoy Roza, Jen, nega bekor o‘tiribsizlar! Borib ishlariningni qilinglar.

Oshxonada keksa Pryu bilan bo‘lgan gaplarni eshitgan do‘stimiz Tom, uning orqasidan ko‘chaga chiqdi. U, Pryuning goh-goh yig‘isini bosib borayotganini ko‘rdi. Ana, Pryu kampir savatni ayvonga qo‘yib, yelkasidagi o‘nggan eski ro‘molini tuzata boshladi.

– Savatingni ko‘tarishib boraymi? – deb ko‘ngilchanlik qildi Tom.

– Nega? – deb so‘radi kampir. – Menga yordaming kerak emas.

– Tobing qochib qolgan, yo bo‘lmasa biron baloga yo‘liqqan ko‘rinasan, – dedi Tom.

– Betob emasman, – deb cho‘rt kesdi kampir.

– Ichkilikni tashlaganingda qanday yaxshi bo‘lar edi, – dedi Tom jiddiy ravishda. – Ichkilik seni nobud qiladi, bilmaysanmi? Qayerlik bo‘lasan?

– Kentukkilik. Meni bir odam, bola tug‘dirib o‘sirish uchun saqlar va bolalarim katta bo‘lgach ularni sotar edi. Eng oxiri, u, meni ham qulfurushga sotib yubordi. Qulfurush esa meni hozirgi xo‘jayinimga sotdi.

– Bo‘lmasa nega ichasan?

– Qayg‘umni unutish uchun ichaman. Bu yerga olib kelganlaridan keyin yana tug‘dim. Men bu bolamni o‘zimga qoldirarlar, deb o‘ylovdim. Chunki mening xo‘jayinim odamfurushlik qilmaydi. O‘g‘il sho‘x, tetik edi! Bekam ham unga avval g‘amxo‘rlik qilgandek ko‘rindi. Bola yig‘lamas, jo‘n, bo‘liqqina edi. Lekin bekaning tobi qochib qoldi, men unga qaray boshladim. O‘zim ham isitma bo‘lib qoldim, sutim qurib, bolamda et bilan suyak qoldi, bekam esa uning uchun sut sotib olishni istamadi. „Sutim qolmadi“ degan so‘zni bekam eshitgisi ham kelmadı. U – „Bolangga boshqalar yeydigan ovqatdan berib boqaver“, dedi. Bolam oriqlab ketaverdi. Tun-u kun yig‘lab, hammamizni qiyab yubordi, beka esa „Baloga qoldim“, deb aqlidan ozayozdi. U, bolamning o‘lishini istardi, kechasi uni yonimda yotqizmasdi, „Sen bilan birga yotsa, uxmlamay chiqasan, keyin, kunduzi, ishga yaramay qolasan“, der edi. U meni o‘z uyida yotishga majbur etdi, bolamni esa men boloxonaga – cherdakka olib chiqardim, bola bechora u yerda yig‘layverib, oxiri dami ichiga tushib o‘ldi. Ha, bolam o‘ldi, uning dod-faryodi mening qulog‘imdan sira ketmaydi. Men ana

shu ovozni o‘chirish uchun ichaman. Ha, men ichadigan bo‘lib qoldim. Endi go‘rga kirguncha ichaman.

U xo‘rsindi-da, boshiga savatni qo‘yib, jo‘nadi.

Tom orqasiga o‘girilib, qayg‘urgancha uyga ketdi. Hovlida u kichkina Yevani uchratdi. Uning boshida gulchambar bo‘lib, zavqlangan ko‘zlar porlar edi.

– Hoy Tom, keldingmi? Kelganing juda yaxshi bo‘ldi. Dadam: „Tom toyni olib chiqib, seni yangi aravachangda o‘ynatsin“ dedi, – Yeva uning qo‘lidan tutib, dedi: – Iyi, nima bo‘ldi, Tom? Nimaga xafasan?

– Juda mazam yo‘q, Yevaxon, – dedi ma'yus bo‘lib Tom. Lekin siz uchun otlarni qo‘shib chiqaman.

– Har holda, ayt-chi Tom, nima gap? Badjahl Pryu kampir bilan so‘zlashayotganiningni ko‘rib turuvdim.

Tom Yevaga Pryuning boshidan kechirganlarini sodda va to‘g‘ri qilib aytib berdi. Yeva boshqa bolalar kabi qichqirmadi ham, taajjublanmadni ham, yig‘lamadi ham. Yuzyidan qon qochdi va aqlli ko‘zlarini chuqur ko‘lanka qopladidi. U ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, og‘ir uf tortdi.

XIX BOB

Ofeliyaning kuzatishlari va fikrlari

– Tom, otni aravaga qo‘shma. Sayr qilishni istamayman, – dedi Yeva.

– Nega, Yevaxon?

– Haligi gap yuragimga igna bo‘lib sanchilyapti. Tom, – dedi Yeva. – Yuragimga sanchilyapti, – deb takrorladi u, jiddiy suratda. – Aravaga tushishni xohlamayman.

U qayrilib, uyga kirdi.

Bir necha kundan keyin suxarini Pryu kampir emas, boshqa xotin olib keldi.

Bu chog' Ofeliya oshxonada edi.

– E Xudo! – dedi Dina. – Pryuga nima bo'ldi?

– Pryu endi hech kelmaydi, – deb javob berdi xotin sirli yo'sinda.

– Nega? O'ldimi? – deb so'radi Dina.

– Unga nima bo'lganini uncha yaxshi bilmaymiz. U yerto'lada, – dedi xotin, Ofeliyaga qarab.

Ofeliya suxarini oldi. Dina esa ayolni eshik yonigacha kuzatib bordi.

– Ayting, unga nima bo'ldi? – deb so'radi u.

Aftidan, xotinning ham aytgisi kelib turgan ekan, sirli qilib javob berdi:

– Xo'p, aytsam aytay, lekin hech kimga aytmasan. Pryu yana ichgan ekan, kun bo'yi yerto'laga qamab qo'yishdi. Eshitishimga qaraganda mast Pryuni o'ldirib-dilar.

Dina qo'llarini osmonga ko'tardi va orqasiga qarab yonida turgan Yevangelinani ko'rdi. Qizchaning jovdiragan katta ko'zları dahshatdan kattargan, yuzlaridan qon qochgan, lablari oppoq edi.

– Voy Xudo! Yevaxon hozir hushdan ketadi! Qanday qilib u gaplarni eshitib qolibdi. Otasi jinni bo'ladi endi!

– Hushdan ketmayman, Dina, – dedi qiz qat'iy yo'sinda. – Nega bu gaplarni eshitmayin. Menga bu gapni eshitishdan ko'ra, bechora Pryuga azob chekish ancha og'irroq bo'lgandir.

– Sizga o'xshagan nozik va odobli yosh qizlar bunday gaplarni aslo eshitmasligi kerak! Siz uchun bu gap o'limday vahima!

Yeva uf tortib, pillapoyadan ohista tepaga chiqa boshladi.

Ofeliya tashvish tortgansimon: „Pryuga nima bo'libdi?“ deb so'radi. Ezma Dina unga hamma gapni ipidan ig-

nasigacha birma-bir aytib berdi. Tom esa Pryuning o'zidan eshitgan gaplarini bunga qo'shib qo'ydi.

– Ana shunaqa rasvo ishlar ham bo'ladi! – deb xitob qildi Ofeliya, Sen-Kler gazeta o'qib yotgan uyga kirarkan.

– Xo'sh, yana qanday qonunga xilof ish yuz berdi? – deb so'radi Sen-Kler.

– Qanday deysizmi? Pryu kampirni urib o'ldirishibdilar! – dedi Ofeliya, u voqeani boshdan oyoq hikoya qilar-kan, uning eng dahshatli joylarini bo'rttirib aytdi.

– Bir kunmas bir kun xuddi shunday bo'ladi, deb o'ylagan edim, – dedi Sen-Kler, gazeta o'qishda davom etib.

– Siz shunday deb o'ylaysiz-u... uning tarafini olmay-siz-da, – dedi Ofeliya. – Nahot bu yerda hech kim bunday ishlarga aralashmasa?

– Tirik mulkning omon bo'lishidan mulkdor manfaat-dor bo'lsa – shu negr uchun eng yaxshi himoya hisobla-nadi. Lekin kishilar o'z mulklarini yo'qotib yuborishga kirishar ekanlar, bunisiga hayronman. U sho'rlik o'g'ri va piyanista edi shekilli, shuning uchun uy egasidan biror marhamat ham kutmagan bo'lsa kerak.

– Axir, bu haddan ziyod berahmlik-ku! Bu juda yomon gap-ku. Ogyusten!

– Azizim kuzina, bu tartiblarni men yaratgan emasman va ularni o'zgartish qo'limdan kelmaydi. Qo'limdan kelsa, bunday shafqatsizliklarga yo'l qo'ymas edim. Axir, bag'ritosh, tund odamlar doim shafqatsiz va yomon ish qiladilar. Ular mutlaq hukmronliklaridan foydalanadilar: ular mas'-uliyat nima ekanini bilmaydigan mustabidlar. Negrlarni himoya qiladigan qonunlar yo'q o'zi. Yaxshisi ko'zni yumib, qulqoni berkitish va quldlorlarni o'z bilganlariga qo'yib berish. Bizning qo'limizdan keladigani ana shu.

– Ko'zni yumish? Qulqoni berkitish? Bunday jabr-zul-mlardan qanday qilib ko'z yumib bo'ladi axir?

– Aziz jigarim, nima demoqchisiz? Butun boshli xo'r-langan, ezilgan kishilar sinfi o'zlariga o'xshagan boshqa-larning ixtiyoriga to'la-to'kis va nazoratsiz topshirilgan va ular o'z manfaatlari g'amini yeishni ham bilmaydilar. Binobarin, bu razil jamiyatda yashovchi yaxshi odamga faqatgina ko'zni yumib, bag'ritosh bo'lish qoladi, xolos. Men jabrlangan negrlarning hammasini sotib ololmayman axir! Shuningdek, men jahongashta pahlavonga aylanib, shahrimizda sodir bo'layotgan har qanday ishga arala-sholmayman. Mening qo'limdan keladigan eng katta ish – boshqalar tutganday ish tutmaslikdir.

Sen-Klerning muloyim yuzini bir lahza g'am bosdi. U, jahllangandek bo'ldi, lekin birdan yana xurram kulimsirab dedi:

– Bo'ldi, kuzina, menga koyib qaramang. Siz pardani salgina ko'tarib, dunyoda bo'layotgan ishlarni ko'rdingiz. Agar biz turmushdagi barcha qorong'i tomonlarni axtarib topib, ularga suqilaversak, bular uchun yuragimiz chidamaydi. Bunday qilish, Dinaning oshxonasidagi mayda-chuyda narsalarga sinchiklab qarash bilan baravar bo'lardi.

Sen-Kler yana gazeta o'qishga kirishdi.

Ofeliya juda g'azablanib o'tirib, qo'liga ishini oldi. U zo'r berib to'r to'qiy boshladи, lekin ko'ksidagi o't jo'sh ura berdi. Oxiri u chidamadi, Sen-Klerga qarab, dedi:

– Shuni aytib qo'yayki, Ogyusten, men bu narsalarga siz kabi qaray olmayman. Bunday tuzumni himoya qiliishingizni juda bema'nilik deb hisoblayman.

– Nima deyapsiz? – deb so'radi Sen-Kler, unga qarab. – Haliyam o'sha to'g'ridami?

– Bunday tuzumni himoya qiliishingiz zo'r rasvogar-chilik, deyapman, – dedi Ofeliya tobora qizib.

– Uni himoya qilasan, deyapsizmi, azizim? Uni himoya qiladi, deb sizga kim aytdi? – deb so'radi Sen-Kler.

– Albatta, himoya qilasiz. Siz janubliklar, hammangiz uni himoya qilasiz. Yo'qsa nega qul saqlaysizlar?

– Kuzina, nahot dunyoda bir ishni noto'g'ri deb hisoblagan odamlarning hech biri o'sha ishni o'zi qilmaydi deb o'ylasangiz? Shuncha soddamisiz? Siz hech qachon o'z maslagingizga qarshi ish qilmaganmisiz?

– Agar men yomon bir ish qilib qo'ysam, keyin tavba qilaman, – dedi Ofeliya, to'r ignalarini qattiq silkib.

– Men ham, – dedi Sen-Kler, apelsin archirkan, – men doim tavba qilaman.

– Unday bo'lса, nega yomon ish qilaverasiz?

– Siz o'zingiz-chi, dilbar kuzinam, bir marta tavba qilib, uning orqasidan hech bir yomon ish qilgan emasmisiz?

– Qilganman, lekin nafs juda zo'r kelgandagina qilganman, – dedi Ofeliya.

– Ana xolos, menda ham nafs zo'r keladi, – dedi Sen-Kler. – Butun qiyinchilik ham ana shunda-da...

– Tavba qilgandan keyin har safar – „Endi qilmayman“, deb astoydil ahd qillardim va o'z va'damni bajarishga harakat qillardim.

– Men ham o'n yildan buyon endi qilmayman“ deb qattiq ahd qilib keldim, – dedi Sen-Kler, – lekin hozirgacha bajara olganim yo'q. Siz-chi, kuzina, o'z nuqsonlari-nigizning hammasidan xalos bo'loldingizmi?

– Ogyusten, – dedi Ofeliya jiddiy suratda va ishini yoniga qo'yib, kamchiliklarim uchun sizdan dakki yeyishim kerak, deb o'ylayman. Siz aytgan gaplar hammasi to'g'ri, haq gap. Hech kim buni mencha his etmaydi. Menimcha, har holda ikkovimizning oramizda biroz farq bo'lса kerak. Men, o'zim yomon deb o'ylagan ishni kun sayin qilgandan ko'ra, o'ng qo'limni shartta kestirib tashlashga roziman.

– Ey, kuzina, – dedi Ogyusten, polga o'tirib, uning tizzasiga boshini qo'yarkan, – bunchalik jiddiy bo'lmang!

Mening hamma vaqt yaramas, bebosh bola ekanligimni bilardingiz. Men g'ashingizga tegishni yaxshi ko'raman, vassalom. Sizning judayam ko'ngilchanligingizni bilaman. Lekin haq gapki, sizning ana shu ko'ngilchanligingiz joninga tegdi.

– Axir, bu masala ustida bosh qotirmasa bo'lmaydi jonginam, – dedi Ofeliya, uning peshonasiga qo'lini qo'yib.

– Nima qilay axir – dedi Sen-Kler. – Chivin chaqqan issiq kunlardagi, jiddiy gapni yomon ko'raman! Bunday jazirama issiqda yuksak axloq to'g'risida gapirib bo'lmaydi. Men ishonamanki, – deb xitob qildi Sen-Kler, to'satdan irg'ib turib, – shimol xalqlarining janubliklardan ko'ra saxovatliroq bo'lishining sababi mana shunda.

– Ogyusten, siz yomon ezmasisiz!

– Menmi? Balki, shundaydir. Lekin hayotimda bir marta jiddiy bo'lay-chi. Buning evaziga siz menga huv anavi apelsin savatni bering. O'zimni shu gapni davom ettirishinga majbur qilish uchun menga xushomad qilishingiz kerak axir. Qani, – deb davom etdi Ogyusten yoniga savatni tortib. – Boshladim... Ba'zi sharoitda o'ttiz-o'ttiz beshtacha qul saqlash zarur bo'lib qolganda afkor ommaga hurmat shuni talab qiladiki...

– Hali jiddiy bo'lganiningizcha yo'q, ko'r mayapman, deb uning so'zini bo'ldi Ofeliya.

– Sabr qiling, hozir jiddiy bo'laman, eshitasiz. Ish shundaki, – dedi u va qo'qqisdan uning go'zal chehrasida xayolparastlik alomati zohir bo'ldi, – qullik to'g'risida faqat bitta fikr bo'lishi mumkin. Qul ishlatib kapital orttiruvchi plantatorlar, bularga xushomad qiluvchi bo'lgan ruhoniylar, qullik yordami bilan davlatni idora qilishni xohlovchi siyosiy arboblar haqiqat to'g'risidagi har qanday tushunchani istagancha buza oladilar, ularning bu kashfiyotchiliklaridan esa butun dunyo hayratlanadi. Lekin pirovardida ularning

so‘zlariga o‘zlaridan bo‘lak hech kim ishonmay qoldi. Qullikni iblis o‘ylab chiqargan va menimcha, uning o‘ylab chiqarganlardan hech qaysi biri unga qullikday zo‘r omad yetkazgan emas.

Ofeliya to‘r to‘qishdan to‘xtadi. U taajjublangan ko‘ri nardi. Bunchalik hayratda qolgani uchun quvongan Sen-Kler, boshlagan gapini ulab yubordi:

– Taajjublandingiz, shekilli? Sizga hozir hamma narsa ravshan bo‘ladi. La’nati qullikning o‘zi nima. Uning ustida-gi ziynat-piynatlarning hammasini olib tashlang-da, to‘g‘ri uning ildiziga boqing. Nimani ko‘rasiz? Negr zaif va nodon bo‘lgani, men esam kuchli va o‘qimishli bo‘lganim uchun uning bor narsasini olaman, unga esa xohlaganimni bera-man. Mening uchun og‘ir bo‘lgan har bir ishni, iflos va yo-qimsiz ishning hammasini negrning gardaniga yuklayman. Men quyoshning issig‘ini yomon ko‘raman. Shuning uchun ham oftobda negr ishlashi kerak! Negrning ishlab topgan pulini tortib olib, o‘zimga sarflayman. Men ko‘lmakdan o‘taman, deb etigimni ho‘l qilishni istamayman, demak bu ko‘lmakda negr yotishi kerak, men uni ko‘prik qilib bosib o‘tay. U har kun o‘z tilagini emas, mening tilagimni bajaradi va to o‘lguncha shunday qiladi. Qullik mana shundan iborat. Bizning qullik haqidagi qonunlar majmuasini o‘qing, qani bundan boshqa narsani majmuadan topishga harakat qilib ko‘ring-chi. Qullikka suiiste’mol qiladilar, deyishadi odamlar. Behuda gap! Qullikning o‘zi boshdan oyoq suiiste’moldan iborat-ku.

Sen-Kler irg‘ib turib, u yoqdan bu yoqqa tez-tez yura boshladi, qattiq hayajonlanganda, u doim shunday qilar edi. Uning yunon haykallarining yuzlarini eslatadigan go‘zal chehrasida butun fikrlari ifodalangandi. Uning katta ko‘k ko‘zları chaqnar va beixtiyor hovliqib, qo‘lini tushirdi. Ofeliya uni bunday hayajonlangan holda hech ko‘rmagandi.

Ofeliya jim turdi.

– Men sizga e'tirof qilmoqchiman, – deb davom etdi Sen-Kler, to'satdan Ofeliya oldida to'xtab, – shunday vaqt-lar bo'lardiki, men o'ylardim: shu qabohatni yer yuzidan tozalab yubormoq uchun butun mamlakatimiz yer ostiga tushib ketsa, men ham darhol u bilan birga yer ostiga tushib ketardim. Men paroxodda sayohat qilganimda yoki o'z yerlarimni aylanib yurganimda bizning qonunlarimiz-ga muvofiq, har bir dag'al, razil va past odam juda ko'per, ayol va bolalarning mutlaq hokimi bo'lishi, ularni al-dashi va talab olishi mumkinligi haqida o'ylab, vatanimga la'natlar aytishga, butun kishilik dunyosiga la'nat aytishga tayyor bo'lar edim.

– Hoy Ogyusten! – dedi Ofeliya. – Bo'ldi! Men Shimolda ham bunaqa so'zlarni hech eshitgan emasman.

– Shimolda emish! – deb xitob qildi Sen-Kler va darhol odatdagicha bamaylixotir so'z boshladi. – Siz, shimolliklarning qonlaringiz sovuq. Sizlar doim xotirjamsizlar. Siz, kerak chog'da, o'qishni ham bilmaysiz!

– Tuzuk, lekin u masala... – deb so'zlamoqchi bo'ldi Ofeliya.

– E, qanday qilib shu ahvolga tushib qolishim masala-simi? La'nat shu masalaga. Bo'ldi, men sizga o'sha qadimgi yaxshi so'zlar bilan javob beraman: bular hammasi menga meros. Mening qullarim otamning, yana to'g'riroq qilib aytganimizda, onamning qullari bo'lgan. Endi esa ular – meniki, ulargina emas, ancha ko'payadigan avlod-lari ham meniki... Ana, choyga ham zang urildi. Yuring va bundan buyon „Ogyusten umrida men bilan ochiq va jiddiy so'zlashgan emas“, deb aytmang.

Stol yonida Mari Pryudan so'z ochdi.

– Kuzina, bizlarni „Bular hammasi yovvoyi ekan“, deb o'ylaysiz, deb qo'rqaman, – dedi u.

– Men bu ishni yovvoyilik deb hisoblayman, – deb javob berdi Ofeliya, ammo sizlarning hammangizni yovvoyi demoqchi emasman.

– Lekin, – dedi Mari, ba’zi bir negrlarni eplab olish mumkin emasligini bilaman. Ular shunday yomonki, yer yuzida yashashga ham haqqi yo‘q desa bo‘ladi. Bunday hodisalarga sira parvo qilmayman. Negrlar o‘zlarini jo‘n tutishsa, ularni hech kim ranjitmaydi.

– Lekin, oyi, – dedi Yeva, bechora Pryu juda sho‘r peshona ekan! Shuning uchun u icha boshlagan ekan.

– Ahmoqona gap! Bo‘limgur bahona! Menda ham baxtsizlik tez-tez bo‘lib turadi. Aniq gap, – dedi u xayol surib, – men Pryudan ko‘proq qayg‘u-g‘am tortganman. Bunga sabab shuki, ularning o‘zi ahmoq. Qattiqqo‘l bo‘lmasangiz, ba’zilarini eplab bo‘lmaydi. Otamning bir negri bor edi, esimda, juda yalqov edi... U ishdan qutulish uchun doim qochardi. U allaqanday botqoqlarda daydib, o‘g‘irlik va har xil yomon ishlar bilan shug‘ullanardi. Uni tutib urardilar, kor qilmasdi. Eng oxirida, yurolmaganidan o‘rmalab ketib, botqoqda o‘lib qoldi. Dadamnikida negrlarga juda yaxshi muomala qilganlaridan, buning hammasi hech sababsiz sodir bo‘ldi.

– Men esa, nazoratchilar va xo‘jayinlar tuzatolmagan bir negrni tuzatganman, – dedi Sen-Kler.

– Sen-a? – deb so‘radi Mari. – Qani aytchi, qanday qilib tuzatding?

– Bu negr asli afrikalik polvon edi. Afrikaning chin arsloni edi. Unda ozodlik tuyg‘usi – benihoyat kuchli ekanligi ko‘rinib turardi. Nomi Ssipion edi. Hech kim uni eplay olmas va u bir xo‘jayindan ikkinchisiga, qo‘ldan qo‘lga o‘tib yurardi. Pirovardi: „Tuzatib olarman“, degan niyat bilan uni Alfred sotib olibdi. Bir kun bu negr, nazoratchini urib shalpaytirib, qochib ketibdi. Men bu vaqtida Alfred-

nikida mehmonda edim. Alfred juda achchiqlandi. Lekin unga: „Ayb o'zingda dedim va u bilan shu negrni tuza-taman“, deb garov o'ynadim. Biz shunday shartlashdik: agar negrni ushlab kelsalar, sinash uchun uni olib ketadigan bo'ldim. Shundan keyin, olti-yetti kishi, qo'llarida miltiq, oldilarida it, uni ushlagani chiqishdi. Bilasizmi, kishilar kiyik oviga qanday qiziqsalar, odam oviga ham shunday qiziqadilar. Hatto men o'zim, negrni ushlagan chog'larida, bir balo qilib qo'yishmasin uchun vositachi bo'lib borgan bo'lsam ham, bunga ancha qiziqsindim.

Itlar hura boshladi, biz ot boshini qo'yib yubordik, oxiri, Ssipioni topdik. U kiyikday chopar va sakrar edi, shuning uchun uni uzoq vaqt tutolmadik. Lekin oxiri u juda qalin qamishzorga kirib, botib qoldi va o'zini himoya qila boshladi. Itlar bilan mardona olishganini ko'rsangiz edi. U itlarni to'rt tomonga yumalatdi. Mushti bilan urib uch ko'ppakni o'ldirdi. Lekin shu chog' o'q uzildi, o'q yeb, qonga belanib oyog'imga yiqildi. Bechora menga temilib qaradi, uning ko'zlarida mardlik va jasorat barq urib turardi. Uning atrofiga to'planib turgan odamlar va itlarni haydab, uni o'z asirim deb e'lon qildim. Mening qo'limdan kelgani shu bo'ldi, chunki ovning yurishib ketganiga qiziqib qolgan ovchilar uni otib tashlamoqchi edilar. Men aytganimni qildim – uni Alfreddan sotib oldim. Keyin ishga sola boshladim va ikki haftadan keyin shunday itoatkor va yuvosh bo'lib qoldiki, as'ti qo'yavering.

– Xo'sh, qanday qilib? – deb so'radi Mari.

– Uni o'z uyimga joyladim, yaxshi ko'rpa-to'shak soladirib berdim, yaralarini bog'ladim va butunlay tuzalguncha o'zim qaradim. Anchadan keyin unga ozodlik qog'ozini tayyorlab, o'z qo'liga berdim va „Endi ozodsan, xohlagan yeringga ketaver“, dedim.

– Ketdimi? – deb so'radi Ofeliya.

– Yo‘q. U aqlsiz ozodlik qog‘ozini parchalab tashladi-da, „hech qayoqqa ketmayman“, deb aytdi. Unday halol, yaxshi va vafodor xizmatkorni ko‘rmadim, keyin unga ko‘l bo‘yidagi qo‘rg‘onchamni nazorat qilib turishni topshirdim, u bu topshiriqni juda yaxshi bajarib turdi. Keyin vaboden o‘ldi. Aslini olganda, u men uchun hayotini fido qildi. Men kasal bo‘lib yotib qoldim, o‘lim to‘sagida edim, tevaragimdagи odamlarning bari qo‘rqib mendan qochib ketdi. Yonimda yolg‘iz Ssipion qoldi va jon-jahdi bilan urunib, meni o‘limdan qutqazdi. Bechora! Shundan keyin ko‘p vaqt o‘tmay, o‘zi oyoqdan yiqildi, uni qutqazhning iloji bo‘lmadi. Bunga chekkan musibatni men hech kimga chekmagan edim...

Sen-Kler bu voqeani hikoya qilarkan, Yeva borgan sari uning yoniga yaqinlashar edi. Uning og‘zi angraygan, ma’nodor ko‘zлari kattaygan, bu esa otasi gapirayotgan voqeani zo‘r diqqat bilan tinglab turganini ko‘rsatardi.

Sen-Kler hikoyani tamomlagach, Yeva otasining bo‘yniga qo‘l soldi-da, titrab yig‘lay boshladi.

– Yeva, Qizginam! Nima bo‘ldi? – deb so‘radi Sen-Kler.

Yevaning jajji gavdachasi yig‘idan titrardi.

– Bu bolaning bunday voqealarni eshitmagani yaxshi, u juda asabiy, – deb pichirladi Sen-Kler.

– Yo‘q, dada, men asabiy emasman, hech bir, – dedi Yeva, bolalarga xos bo‘lmagan qat’iylik bilan o‘zini tutib. – Men asabay emasman, ammo shunday voqealarni eshit-sam, yuragim sanchadi.

– Bu nima deganing, Yeva?

– Buni sizga tushuntirib bera olmayman, dada. Ummaman, hozir ko‘p o‘ylaydigan bo‘lib qoldim. Ehtimol, vaqt bilan hammasini sizga aytib berarman.

– Juda soz, istaganingcha o‘ylan, azizim, lekin yig‘lab,

otangni xafa qilma, – dedi Sen-Kler. – Buni ko'r, senga ajoyib bir shaftoli keltirdim!

Yeva shaftolini olib iljaydi, ammo asabiy lashganidan, hamon labining bir burchagi titrardi.

– Yur, oltin baliqlarni tomosha qilamiz, – dedi Sen-Kler, qizining qo'lidan ushlab ravoqqa chiqarkan.

Bir necha daqiqadan so'ng shod-xurram kulgi ovozi eshitildi. Yeva bilan Sen-Kler bir-birlariga gul otishar va xiyobonlarda quvalashib o'ynashardi.

Bizning kamtarin Tom og'aynimiz bu yuksak zot qahramonlarning sarguzashtlari ko'lankasida orqa planda qolib ketadi, deb xafvsirash mumkin. Ammo o'quvchilarimiz, bizning orqamizdan yurib, otxona tepasidagi kichkina boloxonaga chiqsalar. Tom haqida ba'zi bir narsalarni bilib oladilar.

Tom karavot, stul va kichkina stol o'rmatilgan bejirim bir xonada yashaydi. Shu tobda Tom ana shu stol ustida-gi toshtaxtani oldiga qo'yib, miyani qotiradigan ish bilan band bo'lib o'tiribdi.

Tom, yurtini sog'inganligidan, Yevadan bir varaq qo'g'oz so'rab oldi va yosh mister Jorj bergan saboqlardan orttirgan oz-moz bilimini to'plab, bolalariga xat yozmoqchi bo'ldi. Hozir u, toshtaxtada yozadigan xatini mashq qilmoqda. Tom juda xunob bo'lib o'tiribdi, chun-ki, ba'zi harflarning qanday yozilishini mutlaqo yodidan chiqargan, yodida qolganlarini esa qanday yozishni bilmaydi. U og'ir uf tortib o'tirarkan, Yeva qushek parpirab uning orqasidan kursiga chiqdi va yelkasi ustidan qaray boshladi.

– Hoy, Tom tog'a! Qanaqa qiziq ilgaklar chizyapsan?

– Bechora kampirim bilan bolalarimga xat yozishga urinyapman, Yevaxon, – dedi Tom ko'zini artib. – Lekin bu urinishimdan hech narsa chiqmas deb qo'rqaman.

– Jonim bilan senga yordam qilardim, Tom! Men xat yozishni oz-moz o'rgangan edim. O'tgan yili hamma harflarni bilardim, ehtimol, hozir yodimdan chiqmagan bo'lsa...

Shunday deb, Yeva tillarang boshchasini Tomning bo'shiga yondashtirdi, ular shu ko'yи yozish haqida astoydil muhokama yurita boshladilar, biroq har ikkalalarining ham hech narsa bilmasliklari ma'lum bo'ldi. Shunday bo'lsa ham, ular har bir so'zni muhokama qilib va kengashib xat yoza boshladilar.

– Ana, Tom tog'a, endi juda yaxshi chiqyapti-ku! – dedi Yeva, taxtaga zavq bilan qarab. – Xotining bilan bechora bolalaring juda sevinishadi endi! Ularning oldidan ketganing juda yomon bo'libdi! Men dadamdan so'rayman, bir qancha vaqtdan keyin qaytib ketgani senga ruxsat bersin.

– Mening bekam: „Zarur miqdorda pul jamg'arib seni qaytarib sotib olaman“, deb va'da qilgan edi, – dedi Tom. – Bekamning o'z va'dasini bajarishiga ishonaman. Yosh mister Jorj ham: „Seni olib kelgani boraman“ devdi u o'z va'dasini bajarish nishonasi uchun mana bu dollarni berib edi.

Shunday deb Tom, ko'ylagi ostida osig'lik dollarni olib Yevaga ko'rsatdi.

– Unday bo'lsa albatta keladi! – dedi Yeva. – Meni juda sevintirding!

– Shuning uchun, ular mening qayerda ekanligimni bilishsin va bu yerda turmushim juda yaxshi ekanligini bechora Xloyaga aytishsin, deb xat yozmoqchi bo'lган edim, yo'qsa, u bechora juda tashvishlanayotgandir.

Shu chog' eshikka yaqinlashib kelayotgan Sen-Klerming:

– Tom! – deb chaqirgan ovozi eshitildi.

Tom bilan Yeva o'rinalidan turishdi. – Bu nima? – deb so'radi Sen-Kler, kiraverib taxtaga qararkan.

– Bu Tom yozayotgan xat. Men unga yozgani yordam-lashyapman, – dedi Yeva. – Yomon chiqibdimi?

– Ikkovlaringni ham xafa qilishi istamayman, – dedi Sen-Kler, – lekin, xat yozib berishni mendan so'raganiningda yaxshiroq bo'lar edi, Tom. Mayli, ot sayridan qaytgach yozib beraman.

– Bu juda muhim xat, – dedi Yeva – Bilasizmi, dada, uning bekasi: „Seni qaytarib sotib olish uchun pul yuboraman“, degan ekan. Tom bekasining gapini menga aytdi.

Sen-Kler „Ko'ngilchan xo'jayinlar eski xizmatkorlarining qayg'usini yumshatish uchun, ko'pincha sotish oldidan shunday deb va'da beradilar, lekin uni bajarishni o'ylamaydilar ham. Ehtimol, bu ham shunday va'dalardan biridir“, deb o'yladi. Ammo u bu to'g'rida Tomga hech nima demay, sayrga chiqish uchun otlarni egarlashni buyurdi.

Kechqurun Tom nomidan xat ko'ngildagidek yozilib, pochta qutisiga tashlandi.

Ofeliya esa xo'jalikni o'z izidan yurgizmoqda edi. Dinnadan tortib negr bolagacha hamma Ofeliya „tentak“ deyishardi. Janubda qullar o'z xo'jalarini yoqtirmasalar, odatda, shunday deydilar. Bu uydagi negrlar jamoasining yuqori tabaqasi bo'lmish Adolf, Jen va Rozalar Ofeliyanı „xonim“ emas, degan qarorga kelishdi. Xonim hech qachon bunga o'xshab ish qilmaydi. Bundan tashqari, unda „mag'rur qiyofa“ ham yo'q. Shuning uchun ular: „Bu odam qanday qilib Sen-Klerning qarindoshi bo'lib qoldi ekan?“ deb taaj-jublanardilar.

Mari ham: „Ofeliyaning ishlashini ko'rib charchabman“, deyishgacha bordi. Bu shikoyat asosli edi. Ofeliya, xuddi qattiq zarurat majbur qilayotganidek, ertadan kechgacha zo'r berib ish tikardi. Kun kech bo'lgach, tikuveni yig'ishtirib, to'r to'qishga tushar va juda tez ishlar edi. Darhaqiqat, uning ishlashiga qarab turgan kishi toliqar edi.

Topsi

Bir kun ertalab Ofeliya ro'zg'or ishida band ekan, Sen-Klerning ovozini eshitdi, u pastan qichqirardi:

– Bu yoqqa tushing, kuzina! Bir nima ko'rsataman.
– Nima o'zi? – deb so'radi Ofeliya, qo'lidagi tikuvi bilan pastga tusharkan.

– Sizga bir narsa sotib oldim, ko'ring, – dedi Sen-Kler.

Shunday deb u sakkiz-to'qqiz yashar negr qizni Ofeliyaning oldiga surdi.

U boshqa negr bolalardan ham qoraroq edi. Uning shisha munchoqqa o'xshagan yumaloq va yarqiroq ko'zlar olazarak edi. Qizchaning og'zi taajjublanishdan nim ochilgan: yangi xo'jayinning mehmonxonasida ko'rgan ajoyibotlar uni hayratga solgan edi. Og'zida sadafdek oppoq tishlari yarqirardi. Jingalak sochlari bir nechta kokil qilib o'rilgan, ular har tomonga cho'chchayib turardi. Chehrasida badjahllik va ayyorlikdan iborat g'alati bir alomat ko'rinnardi, faqat o'zini ma'yus va sipo tutishigina buni uncha bilintirmasdi. Uning iflos va juldur ko'ylagi qopdan tikilgan edi.

Ofeliyaga uning ko'rinishi yoqmadi. U Sen-Klerga yuzini o'girib, dedi:

– Ogyusten, buni nega olib keldingiz?

– Uni tarbiyalab, haq yo'lga solib yuboring, deb maxsus siz uchun olib keldim. U menga xuddi Jimga o'xshab ko'rindi. Bu yoqqa kel, Topsi, – deb u kuchukni chaqirayotgandek hushtak chaldi. – Qani, bizga ashula aytib, o'yin tushib ber-chi.

Yarqiroq qora ko'zlarda allaqanday ayyorlik yaltirab ketdi. U, qo'l va oyoqlarini urib, toza ovozi bilan negrlar-

ning ajoyib bir ashulasini ayta boshladi. U pildirab aylanar, chapak chalar, juda chaqqonlik bilan tizzalarini urishtirar va tomog'idan g'alati sado chiqarardi. Eng oxirida u ikki marta irg'idi, parovoz hushtagiga o'xshatib chinqirdi va qo'qqisdan qo'l qovushtirib to'xtadi, yuzida yasma ta'zim va tantana aks etardi. U atrofga ko'z qiri bilan mug'ombirona nazar tashlardi.

Ofeliya hayratlanib, jim turardi. Sen-Kler uning hayratlanishidan lazzatlangandek ko'rinardi. U negr qizga qarab, dedi:

– Topsi, sening yangi bekang mana shu kishi bo'ladi. Seni shu kishiga berdim. O'zingni yaxshi tut.

– Xo'p, xo'jayin, – dedi Topsi itoatomuz, lekin uning badjahl ko'zlar chaqnadi.

– Sen yaxshi qiz bo'lishing kerak, Topsi, – dedi Sen-Kler.

– Xo'p, xo'jayin, – deb takrorladi Topsi, ko'zini yaltiratgancha, qo'llarini odob bilan qovushtirarkan.

Ofeliya Sen-Klerga xitoban dedi:

– Ogyusten, aytинг-chi, buni olib nima qilardingiz? Uyingizda bunaqa negr bolalar to'lib yotibdi-ku. Birortasini bosib olmayin, deb qadam bosgani qo'rqsasan. Erталаб eshikni ochsam, bittasi eshik ostida uqlab yotadi, yana bittasi stol tagidan qora boshini chiqarib turadi, uchinchisi eshik oldidagi bordonda yotadi. Bular nuqlu oshxonada yumatlashadi, o'ralashadi, irjayishadi, ag'anab yotishadi. Xo'sh, bu qizni olib kelib nima qilardingiz?

– Tushuntirdim-ku. Tarbiya qilasiz deb olib keldim. Tarbiya to'g'risida ko'p gapirasiz. Shuning uchun uni siziga in'om etmoqchi bo'ldim: u bilan shug'ullanib, to'g'ri yo'lga soling.

– Xo'p, bu ish chindan ham mening vazifamdir, balki, – dedi Ofeliya qizga xayrixohlik bilan razm solib.

Sen-Kler uning zaif toriga tegdi. „Sizning burchingiz mana shundan iborat“, deb sekin aytish bilan uni har ishni qilishga majbur etish mumkin edi.

– Lekin tushunmayapman, – dedi Ofeliya, – uni nega oldingiz? Uyda negr bolalar to‘lib yotibdi. Ularning o‘zлari ham jonimni olishadi.

– Kuzina, – dedi Sen-Kler, uni bir chetga tortib, – behuda ezmaligim uchun afv eting. Sizning juda ko‘ngilchanligingizni bilaman, binobarin sizni behuda gaplar bilan aldashning hojati yo‘q. Gap shundaki, bu qiz bizning yaqinimizdagi oshxona egalari bo‘lgan ikkita piyanistaning qo‘lida ekan. Har kuni shu oshxona yonidan o‘taman, men qizning dod-voyidan zerikdim: egalari hadeb uni so‘kib va kaltaklab turadilar. Qiz epchil va xushfe'l ko‘rinadi; menimcha, undan bir ish chiqarish mumkin. Shuning uchun, sizga in‘om qilaman, deb uni oldim. O‘z yo‘lingizga solib, Yangi Angliyada qanday tarbiyalashsa, shunday tarbiya qilishga harakat qilib ko‘ring, qani, undan nima chiqar ekan. Mening tarbiyachilikka qobil emasligimni bilasiz, lekin siz bunga harakat qilib ko‘rsangiz, xursand bo‘lar edim.

– Yaxshi, qo‘limdan kelganini qilib ko‘raman, – dedi Ofeliya, keyin qora o‘rgimchakdan hazar qilganday yurib yosh qizning oldiga bordi.

– Juda iflos... ham yalang‘och ekan, – dedi u.

– Pastga olib tushing-da, birortasiga aytинг: yuvib – tarab, kiyintirsinlar, – dedi Sen-Kler.

Ofeliya qizni oshxonaga olib ketdi.

– Hayronman, yangi negr qiz xo‘jayinga nimaga kerak bo‘lib qoldi ekan? – dedi Dina, qizni yotsirab nazardan o‘tkazarkan, – U oyog‘im ostida o‘ralshmas deb o‘ylayman!

– Fo‘! – dedilar Roza bilan Jen nafrat bilan. – Ko‘zimizga ko‘rinmasin! Tushunib bo‘lmaydi, xo‘jayinga yana yangi negrlar nima uchun zarur ekan!

— Jim! Sen bundan oq emassan, Roza, — dedi Dina, keyingi gap azbaroyi o‘ziga tegib ketganidan, — o‘zingni oq deb o‘ylaysanmi hali? Sen qora ham emassan, oq ham. Qaytaga butunlay qora bo‘lish yaxshiroq.

Ofeliya bilsa, bularning hech biri qizni yuvib-tarab, kiyintirishni ep ko‘rmaydi, shuning uchun bu ishni o‘zi qilishga majbur bo‘ldi. Jen istar-istamas, zo‘rg‘a unga qarashardi.

Sho‘rlik bolaning kirligini asti qo‘ying. Darhaqiqat, dunyoda ko‘p kishilar shunday sharoitda yashaydilarki, ularning kun kechirishlarini tasvirlashning o‘zi odamlarni hayajonga soladi. Ofeliya boshlagan ishini oxiriga yetka-zishga ahd qildi, u hazar qilishni yig‘ishtirib qo‘yib, ishga kirishdi va zarur narsani qildi. Qiz badanida, ayniqsa yelkasi bilan orqasida chuqur yara izlarini ko‘rib, rahmi kelganidan yuragi uvishdi, bu izlar bolaga nisbatan qo‘llanilgan tarbiya usulining izlari edi.

— Bu yoqqa qarang-chi, — dedi Jen, yara izlarini ko‘rsatib. — Bular qizning yomonligini ko‘rsatmaydimi axir? Qiz deb o‘lib bo‘lamiz hali, ko‘rasiz! Shu negr bolalarmi jonimdan battar yomon ko‘raman! Afti qursin! Hayronman, xo‘jayin buni olib nima qilarkan!

Bu gaplarni Topsi odatdagicha itoatkorlik va ma'yuslik bilan tinglarkan, Jenning yashnab turgan isirg‘asiga yashirinchcha o‘tkir nazar tashladi. Uni yuvintirib, sochini kalta qilib qirqib, yaxshi ko‘ylak kiygizganlardan keyin, Ofeliya uning mutlaqo boshqa qiyofaga kirganini ko‘rib, qanoat hosil qildi.

Uni tarbiyalash haqida Ofeliyaning miyasida ba’zi bir fikrlar paydo bo‘ldi. U Topsi oldiga o‘tirib, so‘ray boshladi:

— Necha yoshga kirding, Topsi?

— Bilmayman, xonim, — deb javob berdi qiz, tishlarini irjaytirib.

– Nechaga kirganiningni bilmaysanmi? Hech kim aytgan emasmi? Onang kim?

– Hech qachon onam bo‘lgan emas, – dedi qiz irjayib.

– Hech qachon onam bo‘lgan emas deysanmi? Nima deganining? Qayerda tug‘ilgansan?

– Men tug‘ilgan emasman, – dedi qiz qat’iy va yuzini g‘alati qilib tirishtirdi. Mabodo Ofeliya asabiyroq bo‘lganda edi, o‘z oldida turgan bolani shaytonvachcha deb gu-mon qilardi.

Lekin Ofeliyaning asablari joyida, o‘zi aqlii va ishchan, shuning uchun u jiddiy suratda dedi:

– Menga bunday javob bermagin, xo‘pmi. Sen bilan hazillashayotganim yo‘q. Ayt: qayerda tug‘ilgansan, ota-onang kim?

– Hech tug‘ilmaganman, – deb qizg‘in javob berdi qiz, – na otam, na onam – hech kimim bo‘lgan emas! Men bir savdogarnikida o‘zimga o‘xshagan bolalar bilan o‘s-ganman. Bizlarni Syu degan qari xotin boqardi.

Qiz, aftidan, samimiyo so‘zlamoqda edi. Shuning uchun Jen kulimsirab dedi:

– Xonim, bunga o‘xshaganlar ko‘p. Bularni savdogarlar kichkinaligida arzonga olishadi, keyin sotish uchun bo-qishadi.

– Xo‘jayinlaringnikida ko‘p yashadingmi?

– Bilmayman, xonim.

– Qancha axir, bir yilmi, yo ko‘pmi, ozmi?

– Bilmayman, xonim.

– Ko‘rdingizmi, xonim, bu qabih negrlar bir og‘iz gapni ham uddalab aytolmaydilar. Yil bilan oyning nimaligini bilmaydilar, – dedi Jen. – Necha yasharliklarini ham aytib berolmaydilar.

– Tikishni bilasanmi? – deb so‘radi Ofeliya, gap mav-zusini o‘zgartib.

- Bilmayman, xonim.
 - Bo‘lmasa, nimani bilasan? Xo‘jayinlaringnikida nima qilarding?
 - Suv tashirdim, idish yuvardim, pichoq tozalardim, kelgan-ketganlarning xizmatini qilardim.
 - Ular seni xafa qilishmasmidi?
 - Yo‘q, – dedi qiz, Ofeliyaga mug‘ombirlarcha qarab.
- Ofeliya gapni to‘xtatishga qaror qildi. Uning orqasida, kursiga suyanib, Sen-Kler turardi.
- Mana sizga ochilmagan qo‘riq, o‘toq qilishingizning hojati yo‘q. Xohlagan narsangizni ekavering.

Ofeliyaning boshqa fikrlari singari, tarbiya sohasidagi fikri ham juda qat’iy va mustahkam, yuz yil ilgari Yangi Angliyada hukm surgan va temiryo‘l bormagan uzoq bur-chaklarda hozir ham hukm surayotgan fikrlar kabi qat’iy edi. Ularni bir necha so‘z bilan ifoda etish mumkin: bolalar so‘zlashdan ilgari yaxshigina o‘ylasinlar. Ularga tikish va o‘qishni o‘rgatish kerak. Yolg‘on gapirsalar urish kerak. Haytovur, Ofeliyaning tarbiya haqida bilganlari shu edi. Ofeliya zo‘r g‘ayrat bilan bu yovvoyi yosh qizga ana shu tuzumni qo‘llashga kirishdi.

Uydagilar, Topsi Ofeliyaniki, deb hisoblardilar. Oshxonada qizga uncha tuzuk qaramaganlari uchun, Ofeliya uni o‘z xonasida tarbiyalamoqchi bo‘ldi. U o‘ziga joy solish va bo‘lmani yig‘ib-sidirish ishini Topsiga o‘rgatish kerak, degan qat’iy qarorga keldi.

Ofeliya ishni shundan boshladi. Topsini bo‘lmasiga olib kirib, ko‘rpani qanday solish kerakligini o‘rgatishga kiringdi.

Yuvining, bir vaqtlar o‘zining quvonchi bo‘lgan kokilari qirqilgan, toza ko‘ylak va ohorli fartuk kiygan Topsi, Ofeliya oldida odob saqlab tik turar edi.

– Endi, Topsi, senga joyni qanday solishni ko'rsatay. Men juda yaxshi joy solingenanini yoqtiraman. Joyni solishni yaxshi o'rganishing kerak.

– Xo'p, xonim, – dedi Topsi, chuqur uf tortarkan, ma'-yus va jiddiy suratda.

– Qani, endi bu yoqqa qara, Topsi; mana bu – ro'janing mag'izi, mana bu-avrasi, mana bu-astari. Esingdan chiqarmaysanmi?

– Ha, xonim, – dedi Topsi, u yana uf tortdi.

– Yaxshi. Pastki ro'jani yostiq ostidan solib, keyin yaxshilab to'shak ostiga mana bunday qilib qistirishing kerak, ko'rdingmi?

– Ha, xonim, – dedi Topsi, zo'r e'tibor bilan boqarkan.

– Ustki ro'jani esa, – dedi Ofeliya, – mana bunday qilib solish kerak, silliq bo'lzin uchun oyoq tomonini to'shak ostiga mahkamgina qistirish kerak, mana bunday qilib: en-siz mag'iz oyoqqa to'g'ri bo'lzin.

– Ha, xonim, – deb takrorlayverdi Topsi.

Lekin, Ofeliya orqasini o'girishi bilan, u bir juft qo'll-qop bilan lentani ola solib, darrov yengi ichiga tiqdi, keyin qo'llarini qovushtirib turaverdi.

– Qani, Topsi, ko'rsat-chi, qanday qilib joy solasan, – dedi Ofeliya va karavotdagi narsalarni olib tashlab, kursiga o'tirdi.

Topsi jiddiyat bilan, Ofeliyaning aytganlarini chaqqon bajarib, uni xursand qildi. Topsi ro'janing g'ijimlarini yozdi, lekin bu harakati vaqtida yengidan lentaning bir uchi chiqib, osilib qoldi, bunga Ofeliyaning nazari tushdi. Ofeliya darhol uni ushladi.

– Muttaham, o'g'ri qiz, bu nima qilganing? Hali lentani o'g'irladingmi?

Lenta Topsining yengidan tushdi, lekin u uyalmadi, balki taajjublangansimon ma'yus nazar bilan Ofeliyaga boqdi.

– Bu lenta Ofeliyaxonning lentasi-ku? Bu mening yengimga qanday qilib kirib qoldi ekan?

– Ahmoq qiz, yolg'on gapirma! Buni o'g'irlagansan!

– Xonim, o'g'irlaganim yo'q deyapman-ku. Men uni endi ko'rib turibman.

– Topsi, yolg'on so'zlash yaxshi emas, bilmaysanmi? – dedi Ofeliya.

– Men hech bir yolg'on so'zlamayman. Ofeliyaxon. – dedi Topsi ko'rinishidan juda to'g'ri odamga o'xshab. – Hozir ham rost gapni aptyapman.

– Topsi, yolg'on gapiradigan bo'lsang, kaltaklayman!

– Xonim, meni ertadan kechgacha urganingizda ham baribir bundan boshqa narsani aytolmayman, – deb javob berdi Topsi, yig'i aralash. – Uni hech ko'rganim yo'q. U, yengimga, o'lay agar, o'zi kirib qolgan. Ehtimol, Ofeliyaxon esidan chiqarib, karavotda qoldirgan bo'lsa-yu, u ro'jaga tushib, undan mening yengimga kirib qolgan bo'lsa.

Bu yolg'oni eshitib, Ofeliya juda g'azablandi va Topsining ikki qo'lidan ushlab, silkiy boshladi.

– Yolg'on gapirma!

Silkish zo'ridan ikkinchi yengidagi qo'lqoplar ham tushdi.

– Aha, – dedi Ofeliya. – Tag'in: „Lentani o'g'irlamadim“ deysanmi?

Topsi qo'lqopni o'g'irlaganiga iqror bo'lsa ham, lentani o'g'irlaganini aslo bo'yniga olmadi.

– Hoy, Topsi, – dedi Ofeliya, – agar iqror bo'lsang, kaltaklamayman.

Buni eshitgach, Topsi hamma o'g'irligini bo'yniga oldi va oshkora tavba qildi.

– Endi menga hammasini aytib ber. Bilaman, uyga kelganidan buyon boshqa narsani ham olgansan, chunki kecha men senga ijozat berdim. Kun bo'yи hamma xonalarda

yurding. Xo'sh, ayt-chi, yana nimalarni olding? Aytsang urmayman.

– O, xonim Yevaxon bo'yniga taqadigan qizil narsani olib edim.

– Obbo iflos qiz-ey! Xo'p! Yana nima olding?

– Rozaning qizil isirg'asini oldim.

– Ikkovini ham darrov keltirib ber!

– Ular yo'q endi. Yoqib yuborganman.

– „Yoqib yuborganman deysanmi?“ Yolg'on gapirasan!

Bor, olib kel, bo'lmasa kaltak yeysan.

Topsi qattiq yig'lab, keltira olmasligini bayon etdi.

– Ular yonib ketgan, yonib ketgan!

– Nega yondirding ularni? – deb so'radi Ofeliya.

– Chunki men yomon qizman. Juda yomonman! O'zimga kuchim yetmaydi.

Bo'limga Yeva kirib keldi. Uning bo'ynida bir shoda marjon bor edi.

– Yeva, bo'yningdagi marjonnini qayerdan olding? – deb so'radi Ofeliya.

– Qayerdan oldim? Kun bo'yi taqib yuribman, – dedi Yeva.

– Kecha ham bo'yningdamidi?

– Ha, eng qizig'i – bo'ynimdan olmay uxbabman. Yotarkanman, bo'yindan yechish esimdan chiqibdi.

Ofeliya juda gangib qoldi. Lekin bo'limga dazmollangan libos solingan savatni boshiga qo'yib, qulqlarida isirg'asi bilan Roza kirib kelganda, yanayam hayron bo'lib qoldi.

– Bu bolani nima qilsam ekan endi! – dedi Ofeliya, garang bo'lib, – nima uchun menga: „Bu narsalarni oldim“ deding, Topsi?

– Xonim, o'zлari „Hammasini bo'yningga ol“ deb ayt-dilar-ku. Men nimani bo'ynimga olishni o'ylab topolmadim, – dedi Topsi, ko'zyoshini artarkan.

— Men senga „Qilmagan gunohni bo‘yningga ol“, deganim yo‘q. — dedi Ofeliya. — Axir, bu ham boyagidaqa yolg‘on gap-ku!

— Rostmi? — deb so‘radi Topsi, ma’sum taajjublanish bilan.

— Bu o‘zi shunaqa yolg‘onchi bola, — dedi Roza, o‘qra-yib Topsiga qarab. — Agar men mister Sen-Klerning o‘rnida bo‘lsam, qoniga belanguncha urardim! Menga yolg‘on gapirib ko‘rsin edi!

— Yo‘q, yo‘q, Roza, — dedi Yeva, buyruq qilgan ohanda. — Bunaqa dema, Roza. Men bunaqa gaplarni yoqtirmayman.

— Xudoyim! Yevaxon, siz juda ko‘ngilchanligingizdan negrlar bilan qanday muomala qilishni bilmaysiz. Ularni urmoqdan bo‘lak chora yo‘q.

— Roza! — dedi Yeva. — Bo‘ldi, gapirma! Bunaqa gapni gapirma... bir og‘iz ham gapirma!

Uning ko‘zлari chaqnadi, yuzлari qizardi.

Roza darhol shashtidan tushdi.

— Yevaxon otalariga o‘xshagan qiziqqon. Bu kishi ham otalariga o‘xshab, har kimning tarafini olaveradilar, — dedi-da, Roza xonadan chiqib ketdi.

Yeva Topsiga qarab turardi. Nihoyat u, muloyimgina:

— Bechora Topsi, nega o‘g‘irlilik qilasan? Endi seni yaxshi parvarish qilishadi. Yaxshisi, senga narsalarimdan berayin, lekin o‘g‘irlilik qilma, — dedi.

Topsining umrida birinchi marta eshitgan yaxshi so‘zi shu edi. Shuning uchun ham bu yaxshi so‘z uning qotib qolgan, dag‘al yuragiga qattiq ta’sir qildi va uning yumaloq, o‘tkir ko‘zлari jiqqa yoshga to‘ldi. Lekin u darhol qiqillab kulib, odaticha tishini irjaytirdi. Yo‘q! Haqoratdan bo‘lak narsani eshitmagan qulooqqa yaxshi so‘zlar allaqanday ishonchsiz eshitiladi. Yevaning so‘zлari Topsiga

shubhali va kulgili ko'rindi, shuning uchun bu so'zlarga ishonmadi.

Endi Topsini nima qilish kerak? Bu hodisa Ofeliyani boshiberk ko'chaga kirgizib qo'ysi. Uning tarbiyalash so-hasidagi qonun-qoidalari mutlaqo qo'llab bo'lmaydigan chiqib qoldi. Ofeliya hamma narsani o'ylab chiqmoqchi va o'ylab chiqquncha Topsini qamab qo'ysi. Ofeliya, qanday ish tutish to'g'risida bir qarorga kelguncha, qorong'i ombor yaxshilik nimaligini qizga anglatib qo'yari, degan umidda edi.

– Bu bolani urmay, qanday qilib tarbiyalasam ekan, bilmay qoldim, – dedi u Sen-Klerga.

– Ha, istaganingizcha kaltaklayvering. Nimani ma'ql ko'rsangiz, o'shanday qiling, deb to'la huquq berib qo'ydim.

– Bolalarni doim uradilar. – dedi Ofeliya – Urmasdan ularni tarbiyalash mumkin, degan gapni hech bir eshitmagandanman.

– Albatta, – dedi Sen-Kler. – Sizningcha qanday ma'ql bo'lsa, shunday qiling. Sizga faqat bittagina maslahat bermoqchiman: bu bolani kosov, belkurak, otashkurak va qo'lga kirgan bor narsa bilan urganlarini ko'rghanman. Aftidan, u bunday muomalaga ko'nikib qolgan. Siz, unga kor qilsin desangiz, yanayam qattiqroq urarsiz, deb qo'rqaman.

– Unday bo'lsa, nima qilish kerak uni? – deb so'radi Ofeliya.

– Masala jiddiy, – dedi Sen-Kler, bu savolga o'zingiz javob bersangiz yaxshi bo'lar edi. Kaltak zo'ri bilan idora qilinadigan inson bolasini nima qilish mumkin? Agar kaltak yetmasa-chi? Axir, ko'pincha shunday bo'ladi-ku...

– Nima qilishni bilmay qoldim. Bunday bolani umrimda ko'rghan emasman.

– Bizda bunaqa bolalar ko‘p. Bolalargina emas, erkak va xotinlar ham bor. Bularni qanday idora qilish kerak? – deb e’tiroz qilib so‘radi Sen-Kler.

– Bunga aqlim yetmaydi, – dedi Ofeliya.

– Meniki ham yetmaydi, – dedi Sen-Kler. – Gazeta-larda yozilgan benihoya rahmsizlik va xo‘rlash hodisalari, masalan, Pryu hodisasi – nimadan bo‘ladi? Bunday hodisalar ko‘pincha ikki tomonning asta-sekin dag‘al bo‘lishi orqasida ro‘y beradi, ya’ni quldor borgan sari shafqatsiz bo‘ladi, qullar esa bora-bora hissiz bo‘lib qoladi. Haqorat va kaltak afyun singari ta’sir qiladi: sal ko‘proq afyun bersangiz, sezgi-his ko‘proq kamayadi. Quldor bo‘lganimdan so‘ng buni tez orada anglab oldim. Shuning uchun men bu ishni boshlamasdim, basharti boshlasam, qayerga borib to‘xtashini bilmayman. Xizmatkorlarim o‘zlarini erka bolalardek tutadilar. Menimcha, bir-birimizni pastkashlikka solgandan ko‘ra, bunday qilish ular uchun ham, men uchun ham yaxshiroq. Siz, ularning tarbiyasi uchun bizning javobgarligimiz haqida juda ko‘p so‘zlar edingiz. Binobarin, men istardim – mana shunga o‘xhash minglarcha bolalardan lo-aqal bittasini tarbiyalab ko‘rsangiz.

– Shunday bolalarni vujudga keltirgan sizning tuzumингиз, – dedi Ofeliya.

– Bilaman. Lekin ular vujudga keltirilganlar, ular mavjud, ularni nima qilish kerak?

– Menga bu tajribani qilishga imkon berayotganingiz uchun sizga minnatdorlik bildirib, riyokorlik qilmayman. Lekin bu ish mening burchim bo‘lib qolgani uchun butun kuchimni sarf qilaman, – dedi Ofeliya.

Shundan boshlab, Ofeliya zo‘r berib Topsini tarbiyalashga kirishdi; ma’lum soat vaqt ajratib, uni o‘qish va tikishga o‘rgata boshladi.

Qiz alisbeni oson o'rgandi. U harflarni tez bilib, uncha qiyin bo'lmanan xatlarni o'qiydigan bo'lib qoldi. Ammo tikishga ancha qiyaldidi. U mushukdek chaqqon va maymundek epchil bo'lsa ham, tikuv ishini yoqtirmandi. Ninalari sindirib, yashirinchada derazadan otib yuborardi yoki devorning yorig'iga tiqib qo'yardi. Ipni esa chigallar, uzar va kir qilardi, ba'zida ipni g'altagi bilan otib yuborardi. Ko'z boylovchidek, afty-basharasini har xil qiyofaga kiritadi. Garchi Ofeliya, ketma-ket buncha yomon hodisalar o'z-o'zidan sodir bo'lishi mumkin emasligini yaxshi tushunsa ham, Topsini bu nayranglarni qilib turganda qo'lga tushirolmas edi.

Tez orada uydagilarning hammasi Topsiga e'tibor qilishadigan bo'lib qoldi. Uning har qanday tentaklik, yuz burishtirish va taqlid qilishga bo'lgan qobilgining oxiri yo'qday edi. U, o'yinga tushar, irg'ishlar, qo'shiq aytar, hushtak chalar, o'zini maftun qilgan har bir ovozga taqlid etib, o'shanaqa ovoz chiqarardi. Topsi ishdan bo'sh ekanida, uydagi bolalarning hammasi taajjub va zavqdan og'izlari ochilib, uning orqasidan yugurardilar. Bu bolalar dan Yevaxon ham istisno emas. U, yaltiroq ilonga maftun bo'lgan kaptar kabi, Topsining ajoyib nayrangleridan sehrlanganday ko'rindirdi. Yevanining Topsi bilan buncha ko'p vaqt o'tkazishi Ofeliyaga yoqmas edi, shuning uchun u Sen-Klerdan Yevaga buni man etishni so'radi.

– Bolani tinch qo'ying, – dedi Sen-Kler. – Topsi bilan birga bo'lishi unga foyda yetkazadi, xolos.

– Axir, Topsi juda buzilgan bola! Yevani yomon yo'lga boshlashidan qo'rqmaysizmi?

– U Yevani hech bir yomonlikka o'rgata olmaydi. Boshqa bolalarni o'rgatishi mumkin. Yevaga yomonlik yuqmaydi, karamning ustiga tushgan shabnamdek, yuqmay to'kilib ketadi.

– Bunchalik ishonaver mang, – dedi Ofeliya. – Men o‘z bolamga aslo Topsi bilan o‘ynagani ijozat bermasdim.

– Bo‘pdi – sizning bolalaringizga man qilinadi, – dedi Sen-Kler, mening qizimga esa mumkin. Yevani buzish mumkin bo‘lganda, uni allaqachon buzgan bo‘lardilar.

Avvalda yuqori darajali xizmatkorlar Topsiga nafrat bilan qarardilar, keyin bu fikrdan qaytdilar. Topsini kim ranjitsa, o‘sha bir baloga yo‘liishi ma’lum bo‘ldi: yo isirg‘asi, yoki yaxshi ko‘rgan birorta narsasi yo‘qoladi, yo bulmasa kiyimining biror joyi butunlay yirtib tashlangan bo‘ladi, yoki u dilozor odam qaynoq suv to‘la paqirga qoqilib ketadi, yoki yangi ko‘ylak kiygan bo‘lsa, ustiga yuqoridan iflos suv quyilar edi. Bu hodisalarining hech birida aybdor bo‘lganni topib bo‘lmash edi. Topsini xonaki sud qilishardilar, lekin hamma sinovlardan u omon chiqar edi. Bu ishni kim qilganligi hammaga ayon bo‘lsa ham, gumonlarni tasdiqlaydigan hech qanday dalil yo‘q edi. Ofeliya esa azbaroyi odil bo‘lganidan, Topsini bekordan bekorga jazolashni istamasdi.

Topsi o‘z „qiliqlari“ uchun epchillik bilan payt topardi va shuning uchun hech qo‘lga tushmasdi. Masalan, Roza dan yoki Jendan o‘ch olish uchun shunday paytni tanlardi; ular bekaning g‘azabiga uchrangan vaqtida, u o‘ch olardi va bu chog‘da ularning har qancha shikoyatlari nazarga olin masdi – bunday paytlar esa ko‘p bo‘lar edi. Xullas, Topsi o‘ziga ozor bermaslik ancha foydaliroq ekanini tezda isbot qildi. Shuning uchun unga hech kim tegmaydigan bo‘ldi.

Topsi juda chaqqon va épchil, nimani o‘rgatsalar juda tez o‘rganardi. Bir-ikki ko‘rsatishdan keyin u Ofeliyaning bo‘lmasini juda puxta yig‘ishtiradigan bo‘ldi, hatto Ofeliyaning o‘zi ham bundan hech qanday nuqson topolmasdi. Hech kim Topsidaqa ro‘ja yoza olmas, yostiq tuzatolmas va chang arta olmasdi; buning uchun faqat bir narsa, ya’ni

Topsida istak bo'lishi shart, ammo istak unda kamdan kam bo'lardi. Agar uch-to'tt kun yaxshilab va chidam bilan nazorat qilgandan keyin Ofeliya soddalik qilib: „Endi Topsi hamma ishni o'zi qiladi“, deb nazoratsiz qoldirsa va boshqa ishga ovora bo'lib ketsa bormi, Topsi darhol butun xonani ostin-ustun qilib yuborardi. U joy solish o'miga, yostiq jildini yechib, jingalaksoch boshini surkar va natijada, sochiga par va tivitlar yopishib, ajoyib bezakka o'xshab ko'rinardi. U karavotning panjara-siga chiqib, boshini pastga osiltirar, ro'jalarni hilpiratib aylantirib polga solib qo'yardi, yostiqlarga Ofeliyaning tungi ko'ylagini kiy-gizar, ularga turli yo'sinda o'ynab, tinmay qo'shiq aytar, hushtak chalar va ko'zgu oldiga kelib, yuzini turli-tuman qilib burishtirar edi.

Bir kuni Ofeliya parvosizlik qilib, yashiklardan birining kalitini unutib qoldiribdi. Qaytib kelgach ko'rsa, uning eng yaxshi hind ro'molini boshiga chalma qilib o'rabi, Topsi ko'zgu oldida tomosha ko'rsatmoqda.

– Topsi! – deb qichqirdi u, toqati toq bo'lib. – Bunday qilishga nima haqing bor?

– O'zim ham hayronman, xonim. Yomonligimdan bo'lسا kerak.

– Seni nima qilsam ekan, Topsi?

– Meni urishingiz kerak, xonim. Ilgari bekam meni urgani-urgan edi. Urmasalar, ishlashni bilmayman.

– Axir, Topsi, seni urishni istamayman. Bekaltak ham juda yaxshi ishlaysan. Nega ishlaging kelmaydi?

– Nima qilay axir, kaltakka o'rganib qolganman-da. Hadeb kaltak yemasam ish qilgim kelmaydi, shuning uchun kaltak menga foydali deb o'layman.

Ahyon-ahyonda Ofeliya bu kengashga muvofiq ish tutar va unday chog'larda Topsi doim qattiq dodlar, qichqirar, inqillar va tavba qilib yolvorardi. Yarim soatdan keyin

esa bir to'da negr bolalar o'rtasida, birorta ayvon chetida o'tirib, ro'y bergen hodisani sira pisand qilmaganini bildirardi.

– Ofeliyaning urishi urishmi? Bundaqa urganchidan bilan pashshani ham o'ldirib bo'lmaydi. Ilgarigi xo'jayinimning urishini ko'rsangiz edi. Ana u po'stagimni boplab qoqar edi!

Topsi qilgan yomonliklari va noma'qul harakatlaridan har doim g'ururlanardi.

– Siz, negrlar! – der edi u somelariga. – Bilasizmi, ham-mangiz gunohkorsizlar? Ha, ha, har biringiz gunohkorsiz. Oqlar ham gunohkor – Ofeliya shunday deydi. Lekin, menimcha, negrlarning gunohi ko'proq bo'lsa kerak. Ammo hech qaysilaring menga yetolmaysizlar! Men shunday yomonmanki, hech kim meni hech nima qilolmaydi. Ilgarigi bekam meni hadeb qarg'ardi. Menimcha, butun dunyoda mendan yomon odam bulmasa kerak.

Topsi o'mbaloq oshar va o'zidan mamnun bo'lib, sira tuzalmas gunohkor ekanligi bilan maqtanar edi.

Ofeliya yakshanba kuni uni ibodatga o'rgatardi. Topsi juda zehnli bo'lganidan, duolarni tez yodlab olar va shu bilan ustozini hayratga solardi.

– Bu yod olishdan unga nima foyda? – deb so'radi Sen-Kler bir kuni.

– Yod olish bolalar uchun har doim foydali. Shuning uchun ularga hamma narsani yod olishni buyuradilar, – deb javob berdi Ofeliya.

– Yod olayotgan narsalarini tushunmasalar ham-a? – deb so'radi Sen-Kler.

– Xotirjam bo'ling: bolalar avval hech nimani tushunmasalar ham, katta bo'lganlaridan keyin tushunib oladilar.

– Kichkinaligimda miyamga o'rnatgan narsalarining hammasi yodimda bo'lsa ham, – dedi Sen-Kler, – haligacha hech nimani tushunganim yo'q.

– Siz doim yaxshi o‘qir edingiz, Ogyusten. Sizdan umidim katta edi.

– Umidingiz haliyam yo‘qolgan emasmi? – deb so‘radi Sen-Kler.

– Men sizni bolaligingizdagidek yaxshi bo‘lishingizni istardim, Ogusten.

– O‘zim ham shuni istardim, – dedi Sen-Kler – Bo‘pti, Topsiga o‘rgatavering-chi. Balki, yana biror narsaga erisharsiz.

Bu suhbat chog‘ida, odob bilan qo‘l qovushtirib, qora haykaldek qotib turgan Topsi Ofeliyaning imosi bilan sabog‘ini o‘qiy boshladи. U saboqni juda yaxshi bilar, faqat ba‘zan qiyin so‘zlarni g‘alati qilib buzib aytar va xatoni tuzatish uchun Ofelyaning zo‘r berib urinishlariga qaramay, bu xatoni hadeb takrorlayverardi. Sen-Kler esa Topsining bunday xato qilishidan allaqanday orom olar va ermakni istagan chog‘ida yoniga chaqirar va Ofeliyaning norozili-giga qaramay, bu xatolarini takrorlashga majbur etardi.

– Uni siz hadeb xatoni takrorlashga majbur etaver-sangiz, mening harakatlarimdan bir narsa chiqarmidi? – derdi u.

– Tavba qilibman, endi qilmayman. Nima qilay? Bu qizning uzun jumlalarni aytganda tutilishini yaxshi ko‘raman.

– Axir, siz bu bilan uni atayin xato qilishga undayapsiz-da.

– Baribir emasmi? Unga so‘zni qanday qilib aytma, hammasi bir.

– Uni biror narsaga o‘rgating, degan edingiz. Shuni unutmangki, u aqlijonivor, shuning uchun unga ta’sir joriy etishga harakat qilishning o‘zi yaxshi ish.

– Sho‘rim qursin! Unutmaslikka tirishaman. Lekin, Topsi aytgandek, men juda yomonman!

Topsini bu xil tarbiyalash ikki yilcha davom etdi. Ofeli-

ya, uni o‘qitaman, deb eski kasal bilan olishgan odamdek, tun-u kun azob chekardi, pirovardida u kishilar nevralgiyaga yoki boshog‘riqqa ko‘nikkanlaridek, bunga ko‘nikib qoldi.

Sen-Klerni esa Topsi nayrangboz to‘ti yoki hunarmand it kabi ovuntirardi. Binobarin, Topsi qilmishlari uchun dakk-i yeishi lozim bo‘lgan paytlarda doim Sen-Kler kursisi yonida jon saqlab qolardi. Ishqilib, Sen-Kler uni har doim qiyin ahvoldan qutqazib olardi. Ba’zida Sen-Kler Topsiga pul berar, Topsi bo‘lsa yong‘oq, novvot olib, uydagi hamma negr bolalarga ularshardi. Insوف bilan aytganda, Topsi ko‘ngilchan, saxiy edi va o‘zini saqlash tuyg‘usigina uni badjahl bo‘lishga majbur etardi.

XXI BOB

Kentukki

O‘quvchilarimiz biroz vaqtlarini berib, Tom tog‘anining Kentukkidagi kulbasiga qaytib, u qoldirgan odamlar ahvolidan xabar olishdan bosh tortmasalar kerak.

Dim yoz kuni. Oqshom yaqinlashmoqda. Katta mehmonxonaning eshik va derazalari lang ochiq, go‘yo u, bu uyni ziyorat qilishni istagan har bir yelpindi shabadani taklif qilganday ko‘rinardi.

Mister Shelbi qo‘rani gir aylantirib o‘rab olgan uzun ayvonda o‘tiribdi, u tushki ovqatni yegan, hozir esa kresloga chalqancha yotgan holda oyoqlarini ikkinchi bir kresloga qo‘yib, sigara chekib orom olmoqda. Eshik orqasida chok tikib Shelbi xonim o‘tiribdi.

– Yangi gap: Xloya Tomdan xat olibdi, – dedi Shelbi xonim.

– A xat olibdimi? Tom u yerda do‘sst orttirganga o‘xshaydi. Xo‘sh, nima deb yozibdi? Turmushi qanday emish?

– Uni ololyanob bir oila sotib olibdi, dedi – Shelbi xonim. – Unga yaxshi muomala qilishar emish, ishi ham oz emish.

– Juda soz, tinch bo‘lsa, xursandman. Juda xursandman! – samimi suratda dedi mister Shelbi. – Menimcha, Tom janubda yashashga o‘rganib qolib, bu yoqqa qaytishni ham xohlamas.

– Aksincha, u tashvishlanib – „Meni qaytarib sotib olish uchun sizlar qachon pul jamg‘arasizlar?“ deb bizdan sorabdi, – dedi Shelbi xonim.

– Qachon jamg‘arilishini o‘zim ham bilmayman, – dedi mister Shelbi. – Odam bir marta qarzga botmasin, keyin undan chiqib olishi qiyin bo‘ladi. Xuddi bir botqoqdan ikkinchi botqoqqa sakrayotgandek, birovdan qarz olib ikkinchi odamga berasan, keyin uchinchi bir kishidan olib birinchi odamga berasan, keyin qarabsanki, ko‘z ochib yumguningcha veksellar, qarz xatlari yog‘ilaveradi, xullas, kalava chuvalgan, bir daqiqa ham tinchlik yo‘q!

Meningcha, bu ko‘ngilsiz hollardan qutulish qiyin emas; otlarning hammasini sotaylik, fermaning ham birini sotaylig-u qarzlarimizning hammasini birato‘la uzib qo‘ya qolaylik.

– Kulgili gapni gapirasan, Emili! Juda jonon xotinsan, Kentukkida sendan yaxshi xotin yo‘q. Lekin bunday ishlarda hech nima tushunmasligingni esingga ham kel-tirmaysan. Umuman, xotinlar bunday ishlarni tushunmaydilar.

– Mayli, shunday ham bo‘lsin. Lekin sen, qiyinchiliklar haqida hech bo‘lmasa men bilan kegasha olmaysanmi? – dedi Shelbi xonim. – Qarzlaringning ro‘yxatini, qarzdorlaringdan olishing lozim bo‘lgan pullarning miqdorini menga aytsang, ishni amallash yo‘lini ko‘rsatishga urinib ko‘rardim axir.

– Ajab gapni gapirasani! Qiynamasang-chi, Emili! Senga aniq va ravshan hisob berish qo'limdan keladimi? Sen bu ishlarni Xloya xolaning pirogidaqa yumaloq-yostiq qilib silliqlab bo'ladi deb o'ylaysanmi? Yo'q, bu ish ancha qiyin... sen baribir hech nima tushunmaysan!

Mister Shelbi, dalillari ishonchliroq bo'lsin uchun ovozini balandlatdi – jentlmenlar o'z xotinlari bilan ish haqida munozara qilganlarida shunday oddiy va qulay usulni qo'l-laydilar.

Shelbi xonim bir uf tortib, gapni to'xtatdi. U idroklili, ishchan, uddaburon xotin; irodasi esa erinikidan ko'ra kuchliroq edi. Shuning uchun ham, uning ishlarini birgalashib muhokama etish haqidagi taklifi, mister Shelbi o'ylagancha mantiqsiz emasdi. U Tom bilan Xloya xolaga bergen va'dasini chindan bajarishni istardi, ammo to'siq tobora ortayotganini ko'rib, qayg'urdi.

– Tomni qaytarib sotib olish uchun pul jamg'arishga biror chora topib bo'lmasmikin? Bechora Xloya xola-yey! U juda ishongan edi!

– Afsuski, iloji yo'q. Men yengillik qilib ularga va'da berib qo'ygan ekanman. Xloya xolaga: „Tom yaqin o'rtada qaytadi, deb umid qilma“, deganimiz yaxshi bo'lmasmidi? Bir-ikki yildan keyin Tom boshqa xotin olardi, Xloya ham o'ziga boshqa er qilsa yaxshi bo'lardi.

– Mister Shelbi, men Xloyaga hech vaqt bunday maslahat berolmayman. Biz kabi Tom bilan Xloyaga ham nikoh buzilmas bir ahd. Boshqa yo'l bilan pul topish mumkin bo'lmasa, men musiqadan dars bera boshlayman. Xotirjam bo'l, pul topish qo'limdan keladi.

– Yo'q Emili! Sen bu ahvolga tushmaysan! Sening xo'rланishingga yo'l qo'ymayman!

– Xo'rланish emish! Odamlarga vijdonan so'z berib qo'yib uni bajarmaslikdan ortiq xo'rланish bo'lmaydi.

– Sen hamma vaqt tantilik qilishni yaxshi ko'rasan, Emili, – dedi mister Shelbi, – lekin bu safar sendan astoydil iltimos qilaman: donkixotchililingdan qayt.

Ravoqda Xloya xola ko'rinish qolganidan, suhbat uzildi.

– Beka, marhamat qilsangiz, – dedi u.

– Nima gap, Xloya? – deb so'radi Shelbi xonim turib ayvon chetiga kelarkan.

– Beka, jo'jani bir ko'rmaydilarmi? – deb so'radi Xloya. – Balki, bekaning ko'ngillari jo'jadan pashtet xohlar?

– Xloya xola, rostini aytsam, menga farqi yo'q. Istagan ovqatingni qilaver.

Xloya qo'lida jo'jalarni ushlab dong qotib turardi, bu on uning fikri aslo jo'jalarda emasligi sezildi. Oxiri u bo'-lib-bo'lib kula boshladи: ko'pincha negrlar birovga bir narsani taklif qilmoqchi bo'lsalar-u, buning bajarilishiga uncha ishonmasalar shu yo'sinda kuladilar.

– Oh, xonim! – dedi u. – Nega mister bilan siz puldan tashvishlanyapsiz? Ko'z o'ngingizda turgan narsadan foydalansangiz bo'lmaydimi?

U yana kuldii.

– Gapingga tushunmadim, Xloya, – dedi Shelbi xonim.

U, Xloyaning harakatlaridan, eri bilan orada o'tgan gapni ipidan ignasigacha eshitganini tushundi.

– Juda oson, xonim, – dedi Xloya o'sha bo'liq kulgi bilan, – boshqa xo'jayinlar o'z negrlarini pul ishlagani yuboradilar va bu ularga yaxshi daromad keltiradi.

– Pul ishlagani kimni yuborsak deysan, Xloya?

– Hech kimni. Sem aytdiki, Luizvillda bir odamga keks, pirog va pecheniylarni yaxshi pishiradigan negr xotin kerak emish. U odam har haftada to'rt dollardan haq berarmish..

– Xo'sh, nima bo'libdi, Xloya?

– Men o'yladimki, xonim, endi Sellining o'zi ham ish-

layversa bo'ladi. U mening shogirdim, ovqat tayyorlashni yaxshi biladi. Bekam menga javob bersalar, pul topardim. Mening pecheniyim konditerxonanikidan yomon emas. Men har qanday konditerni yo'lida qoldirib ketaman.

– Lekin, Xloya, bolalaringni tashlab ketgani ko'ngling bo'ladimi?

– Ularga hech nima qilmaydi. O'g'illarim o'sib qoldi, ishga boraversa ham bo'ladi. Ishning uddasidan chiqisha oladi... Kichkinasini esa vaqtinchalik Seldi oladi!.. Qizaloq yuvosh, unga qarab turish uncha qiyinmas.

– Luizvill... juda uzoq-ku.

– Uzoq bo'lsa nima? Qo'rqligining man. Bu joy Janubdaku. Cholim ham u yerdan uzoqda bo'lmasa kerak? – deb so'radi Xloya Shelbi xonimga nazar tashlab.

– Yo'q, Xloya. U undan ham uzoqda, u yerdan bir necha yuz mil narida yashaydi... – dedi Shelbi xonim.

Xloyaning yuzida ma'yuslik aks etdi.

– Mayli, Xloya, u yerda sen Tomga har holda yaqinroq bo'lsan. Mayli, bor. Oyliginingti tiyinigacha ehtiyyot qilib olib qo'yaveraman. Tomni shu yo'l bilan qaytarib sotib olamiz.

Yarqiroq quyosh nuri porlashi bilan qora bulut kumushga aylangani kabi, Xloyaning yuzi ham bu so'zlaridan charaqlab ketdi.

– Bunday mehribon bekam bo'limganda, qanday ahvolga tushar edim! Men hammasini o'ylab qo'ydim. Menga hech narsa kerak emas, na ko'yak, na kavush; hech nima kerak emas, men tiyin-tiyinigacha ehtiyyot qilaman. Bir yil necha hafta, beka?

– Ellik ikki hafta, – dedi Shelbi xonim.

– Rosti bilan-a! Har haftada to'rt dollardan! Bir yilda qancha bo'ladi?

– Ikki yuz sakkiz dollar, – dedi Shelbi xonim.

– Rostmi?! – deya sevinib va taajjublanib qichqirdi Xloya. – Pulning hammasini jamg‘arish uchun ko‘p ishlashim kerakmi?

– To‘rt-besh yil, Xloya. Lekin buncha uzoq ishlamasan – men yordam beraman.

– Xonimning dars berib qiynalishlarini hech-hech istamayman, xo‘jayin to‘g‘ri aytdi: bu ishingiz yaramaydi. Ishonamanki, qo‘llarim bilan boshim omon ekan, oilangizdan hech kim bu qiynoqqa tushmaydi.

– Qo‘rqma, Xloya. Oilam yuzini yerga qaratmayman, – kulimsirab dedi Shelbi xonim. – Sen qachon jo‘namoq niyatidasan?

– Menda hech qanday niyat-piyat yo‘q: Sem u yerga toylarni olib ketar ekan: „Xohlasang, seni ham olib keta-man“, dedi. Shuning uchun narsalarimni yig‘ishtirsam bo‘ladi. Agar beka javob bersalar, Sem bilan ertaga ertalab jo‘nasam, faqat beka menga pasportimni bersalar va tavsiyanoma yozsalar bo‘lgani.

– Yaxshi, Xloya, mister Shelbi qarshi bo‘lmasa, hammasini to‘g‘irlayman. Men u bilan gaplashishim kerak.

Shelbi xonim eri oldiga ketdi. Xloya esa quvonib, yo‘l taraddudini ko‘rgani kulbasiga jo‘nadi.

Kulbaga kirgan Jorj, Xloyaning bolalar kiyimini titayotganini ko‘rdi. Xloya esa unga:

– Ey, mister Jorj! Men ertaga Luizvillga ketyapman, bilmaysiz ham! – dedi, – har haftada to‘rt dollardan ishlayman, Bekam esa cholimni qaytib sotib olgani u pullarni yig‘adi.

– Juda soz! – dedi Jorj. – Yaxshi niyat – yarim mol, shunday emasmi? Qachon jo‘naysan?

– Ertaga, Sem bilan. Endi, mister Jorj, o‘tirib cholimga xat yozib bersangiz.

– Albatta yozaman, – dedi Jorj. – Tom tog‘aga bizdan xabar borsa juda sevinadi-da! Hozir uyg‘a borib qog‘oz bi-

lan siyoh keltiraman. Bilasanmi, Xloya xola, men xatda yangi qulunlar va hamma narsalar to‘g‘risida yozaman!

— Albatta, albatta, mister Jorj! Tezroq boring, men esam sizga tovuq, ishqilib, bir narsa pishirib qo‘yaman. Bundan keyin siz bechora Xloya xolangiz bilan kechki ovqatni yeysiz.

XXII BOB

„O‘t quriydi... gul so‘liydi“

Ikki yil Tomga uncha bilinmasdan kunma-kun o‘tib ketaverdi. U o‘z diliga yaqin hamma narsadan ajratilgandan, tez-tez oilasini sog‘inar, shunga qaramasdan, har hol-da uni butunlay baxtsiz deb bo‘lmash edi.

U yuqorida eslatib o‘tilgan xatiga yosh Jorjan javob oldi, bu maktub o‘quvchi bola tomonidan chiroqli va yu-maloq qilib yozilgan. Tomning aytishicha, xatni xonanинг u chetida turib o‘qish ham mumkin edi. Maktubda o‘quv-chilarimizga ma’lum bo‘lgan turli yangiliklar, masalan, Xloya xolaning Luizvilldagи bir konditerchinikiga ishga kirganligi, u yerda keks, pirojka va krendel pishirish yo‘li bilan juda ko‘p pul topajakligi, bu pullar tiyinigacha sarf qilmay to‘planib, Tomni qaytarib sotib olish uchun ishlatilishi; Moz va Pitning omon-esonligi, kichkinaning esa Selli bilan xo‘jayinning hamma oilasi nazorati ostida uyda o‘ynab yurganligi yozilgandi.

Hozir Tom tog‘aning kulbasi yorig‘, lekin Tom uyga qaytgandan keyin, kulbaning yoniga qanday yangi binolar solishini va uni qanday yasatajaklarini Jorj o‘z xatida juda boplab tasvirlabdi. Xat oxiriga Jorj maktabda o‘qiyotgan darslarining ro‘yxatini solgan, har bir darsning nomi jimjimador bosh harflar bilan yozilgan. Xat-

ning bir chekkasiga Tom ketganidan keyin tug‘ilgan to‘rt qulunning nomlari yozilgan va ota-onasining salomatligi bildirilgan edi.

Umuman, xatda izchillik yo‘q va jumlalar ham uncha silliq emas edi; lekin Tomning nazarida, u dunyo adabiyotining shoh asarlaridan yuqori ko‘rindi. U xatga qarashdan sira toliqmas va hatto bir kun Yeva bilan bu xatni ramkaga solib, devorga osib qo‘ysak qanday bularkan, deb kengashdi ham. Lekin qog‘ozning har ikki tomonini baravar ko‘radigan qilish mumkinmasligi uni niyatidan qaytardi.

Qiz o‘sgan sari Tomga mehri osha bordi. Shuning uchun uning istaklarini bajarish va aytganlariga ko‘nish Tom uchun eng katta quvonch bo‘lib qoldi. Ertalab u Yevaga bozordan eng yaxshi guldasta topib kelardi; uning uchun eng yaxshi shaftoli va apelsinlar olardi.

Hammadan ham Yevaning oltinsoch boshchasini devordan chiqarib, ingichka ovozi bilan: „Ha, Tom tog‘a, bugun menga nima olib kelding?“ – deb so‘rashini yaxshi ko‘rardi.

O‘z navbatida Yeva ham Tomga xizmat qilgani tiri-shardi. Kichikligiga qaramay, harflarni yaxshi tanir va Tomga tez-tez kitob o‘qib berib turardi.

Shu kunlarda Sen-Kler oilasi Ponshartren ko‘lidagi bog‘ uylariga ko‘chib bordi. Saratonning jazirama issig‘i, imkoniyati borlarning hammasini dim va issiq shahardan yoqimli dengiz shabadasi esadigan ko‘lga qochishga majbur etdi.

Sen-Klerning hind usulida solingan bog‘ uyi (villa)ni yengil bambuk ayvonlar o‘rab olgan edi. Mehmonxonadan xushbo‘y, nafis tropik o‘simgiliklar va gullarga to‘la katta bog‘chaga chiqilardi. Ilonizi so‘qmoqlar ko‘lga olib borar, uning kumush sathi esa quyosh nurlarida to‘xtovsiz jilvalanib, yanayam go‘zalroq ko‘rinardi.

Oqshom payti. Oltin tusli shafaq ufqni qopladi, u osmon singari jilvalangan suvda aks etdi. Butun ko'l pushti va oltin rangga o'raldi; oq yelkanli kemalar suv sathida suzmoqda: osmondagi oltin yulduzchalar shafaq alangasi orasidan mo'ralashib, suvdagi jilvagar akslariga boqadilar.

Tom bilan Yeva shiypondagi yumshoq skameykada o'tirishardi.

– Tom tog'a, – dedi Yeva, – men u yoqqa ketaman.

– Qayerga, Yevaxon?

Qiz o'midan turib, osmonni ko'rsatdi. Shafaq alangasi uning sochini va lovullagan yuzini yoritdi.

Tomning vafodor keksa yuragi shuv etib ketdi. Keyingi olti oy ichida u, Yevaning qo'llari oriqlaganini, terisi oqaribroq qolganini, nafas olishi yomonlashayotganini sezgan edi. Ilgari Yeva bog'da bir necha soatlab o'ynar va yugurardi, endi bo'lsa tez charchaydigan bo'lib qoldi. Tom Ofeliyadan „Yo'taldori Yevaga foyda qilmayapti“, degанини eshitgan edi. Ayni shu tobda ham Yevaning yuzi bilan qo'llari sil kasali haroratidan yonib turardi. Lekin shunga qaramasdan, Yevaning hozir aytgan gapi Tomning aqliga hech bir kirmagan edi.

Ofeliyaning xavotirlanib aytgan chaqirig'i ularning suhbatini buzdi.

– Yeva! Hoy Yeva! Sovuq tushib qoldi! Bog'da o'tirganning bo'lar endi!

Ofeliya bolalarga qarashni yaxshi bilardi. U bolalik chog'idanoq yangi Angliyada yashab, aziz va go'zal odamlarni ko'plab qabrga olib ketadigan va hayot ipini uzmashdan, avval ularga o'lim tamg'asini bosuvchi, sirtdan uncha bilinmaydigan og'riqli kasalning ilk nishonalarini yaxshi o'rgana olgan edi.

U Yevaning quruq qilib yengil yo'talganini va yuzning dard aralash qizarganini sezdi. Yeva ko'zlarining chaqnab turishi va quvnoqligi Ofeliyani chalg'itolmasdi.

U, xavotirini Sen-Klerga bayon etdi. Lekin Sen-Kler jerkip bunga qat'iy e'tiroz bildirdi, bu hol uning beparvo hazilkashligi bilan hech bog'lanmasdi.

– Qag'illayvermang, kuzina, men qag'illaganni yomon ko'raman! – dedi u. – Bola o'sayotibdi, ko'rmayapsizmi? Bolalar o'sayotganda doim eti qochadi.

– Yo'talishi-chi?

– Hechqisi yo'q! Yo'tal hech narsa emas. Biroz shamol-lagan bo'lsa, ehtimol.

– Axir Eliza, Jen, Ellen va Merayya Senderslarning kasallari ham xuddi shunaqa bo'lib boshlangan edi.

– E, behuda afsonangizni qo'ying! Siz kampirlar ham-mangiz eski urf-odatga botgansiz; bola yo'talsa yo aksa ursa bormi – nazaringizda, o'layotgandek ko'rindi. Qizdan boxabar bo'ling, tungi sovuqdan ehtiyyot qiling, o'ynagan chog'ida charchab qolmasin, shunday qilinsa, u salomat bo'ladi.

Sen-Kler shunday dedi, lekin uning yuragiga tashvish tushdi. U, kun sayin qattiqroq hayajonlanib, Yevani kuza-tib borardi va uning tashvishlanishi:

– Bola soppa-sog', yo'tali hech narsa emas: bu – bolalarda tez-tez bo'ladigan surunkali yo'tali, – degan so'zni hadeb takrorlashidan bilinardi.

U ilgarigidan ko'ra ko'proq Yeva bilan birga bo'la boshladi, o'zi bilan Yevani ot sayriga olib chiqdi va kishiga darmon beradigan dorilar retseptini tez-tez uyga keltirib turdi. – Qiz bunga muhtojligidan emas, – derdi u retseptni olib kelganda, balki bu dorilar unga ziyon qilmaydi.

Ammo Yevadagi fikr va tuyg'ularning tobora o'sishi

uni qattiq azobga qo'ydi. Garchi bunday qaraganda Yeva yosh bola bo'lsa ham, so'zlashganda ko'pincha o'ylamay-netmay juda ma'nodor, chuqur fikrlarni aytardi. Bunday paytlarda Sen-Klerning badani jimirlashib ketar va u Yevani qattiq quchoqlab olardi. Bu astoydil quchoqlash go'yo bolani xatardan himoya qila oladigandek bo'lar, dilida esa qanday qilib bo'lsa ham, qizni yaqinlashib keelayotgan o'limdan olib qolish qarori avj olar edi.

Yevaning yosh yuragi yaxshilik qilish va sevish niyati bilan to'lib-toshganday edi. U hamma vaqt ko'ngilchan edi, lekin hozir hamma Yevada ayollarga xos ta'sirchan sezgirlikni payqay boshladi. U boyagidek, Topsi va boshqa negr bolalar bilan o'ynashni yaxshi ko'rardi, lekin endi o'yinga bevosita qatnashmay, ko'proq tomoshabinnik qilardi. Topsining qiziq-qiziq qiliqlarini ko'rib, yarim soatcha sho'x-sho'x kular, keyin yuziga allaqanday ko'lanka tushar, ko'zi xayolchanlanib, fikri uzoqlarga ketib qolardi.

– Oyi, – dedi u bir kun, – nega biz negrlarimizni o'qishga o'rgatmaymiz?

– Bu nima deganing, bolaginam? Ularni o'qitish rasm emas.

– Nima uchun? – deb so'radi Yeva.

– Chunki ular uchun o'qishni bilishning hech keragi yo'q. O'qishni o'rganib, keyin yaxshiroq ishlaydigan bo'larmidilar? Ular faqat ishlagani yaratilgan.

– Ofeliyaxon Topsini o'qishga o'rgatdi-ku.

– Ha, o'rgatgan bilan unga foyda yetkazibdimi, ko'rapsan-ku. Umrim bino bo'lib Topsidaqa rasvo qizni ko'rigan emasman!

– Bo'lmasa bechora Memmi-chi? – dedi Yeva. – Unga men o'qib bera olmaydigan bo'lib qolsam, ular nima qiladi?

Mari bu vaqt allaqanday bir qutini titmoqda edi.

– Tez kunlarda boshqa narsalar to‘g‘risida o‘ylaydigan bo‘lsan, Yeva. Negrlarni xat yozishga o‘rgatish xayolingdan ko‘tariladi. Kiyinib, jamoat ichiga kira boshlaganingdan keyin bo‘s sh vaqting qolmaydi. Bu yoqqa qara, – deb gapini bo‘ladi u, – bu marvaridlarni marosimga borayotganingda beraman. Birinchi marta balga qatnashganimda taqqan edim. Senga aytsam, Yeva, balda hammaning ko‘zi menda bo‘lgan.

Yeva qutidan marvarid oldi. Ko‘zi xayolga botib, shodaga tikildi, ammo fikri uzoqda yurgandek edi.

– Marvaridga hech bir qiziqmaysan-a, qizim? – dedi Mari.

– Marvarid qimmat turadimi, oyi?

– Albatta! Otang uni Fransiyadan oldirib kelgan. Bu shoda marvarid butun bir davlat bo‘ladi.

– Shu marvaridlar meniki bo‘lsa-yu, xohlaganimni qilsam, – dedi Yeva.

– Nima qilarding?

– Sotib, puliga ozod shtatlardan joy olardim, u joyga negrlarimizni o‘tkazardim, ularni o‘qish va yozishga o‘rgatish uchun o‘qituvchi yollardim...

Onaning kulgisi Yevanинг so‘zini kesdi:

– Negrlarga pansion qilar ekansan-da! Ularni yana royal chalish va baxmalga rasm chizishga ham o‘rgatarsan?

– Men ularni bir-birovlariga xat yozishga va bir-birovlaridan olgan xatni o‘qishga o‘rgatardim, – qat‘iy qilib dedi Yeva. – Bilaman, oyi, savodsizlikdan ular juda qiyinaladi. Tomga ham qiyin. Memmiga ham, boshqalariga ham. Ularni o‘qitmay, juda yomon ish qilamiz.

– Bo‘ldi, bo‘ldi, Yeva, sen hali yoshsan! Bu masalalarda sen hech nima tushunmaysan, – dedi Mari. – Bundan tashqari, ezmaligingdan boshim og‘rib qoldi.

Agar biror gap ma'qul kelmasa, darrov Marining bosh og'rig'i qo'zg'ar edi.

Yeva chiqdi. Shundan keyin zo'r berib Memmini o'qita boshladi.

XXIII BOB

Anrik

Sen-Klerning akasi Alfred, o'n ikki yashar o'g'li bilan birga, bir necha kunga mehmon bo'lib keldi.

Aka-ukalar egizak bo'lib, ularni ko'rgan odamlar juda hayratda qolishardi. Tabiat ularni bir-birovlariga o'xshatib yaratish o'miga, batamom boshqa-boshqa qilib yaratgan edi. Shunday bo'lsa ham ularni qandaydir sirli bir tugun bir-birovlariga oddiy do'stlardan ko'ra ko'proq va mah-kamroq bog'lagan edi.

Ogyustonning ko'zi moviy, sochlari tillarang, o'zi qotma, chaqqon, chehrasi ochiq edi. Alfredning ko'zi qora, chehrasi qadimgi rumoliklarga o'xshar, qomati kelishgan, yuzidan takabburligi ko'rinish turardi. Ular har doim bir-birovlarini ayblar, bir-birovlarining qilgan ishlari va fikrlarini noma'qul topar, lekin bularga qaramay, birga bo'lganlarida, o'zlarini juda yaxshi his etardilar. Monandsizlik ularni bir-birlariga tortardi.

Alfredning katta o'g'li Anrik chiroyli, mag'rur, qora-ko'z, tetik va aqli bola edi. Yevangelinaning havoyi jilvasi birinchi qarashdayoq bolani o'ziga jalb qildi.

Yevaning qordek oppoq, jimit otchasi bor edi. Yeva bu otchani juda yaxshi ko'rardi. Uni minganida otni beshikda tebratgandek bo'lardi. Otcha Yevaning o'zidaqa beozor edi. Tom jimit otchani ayvon yoniga olib keldi, o'n uch yashar mulat bola esa, Anrikka atab yaqinda katta pulga sotib olingen to'riq arab otini olib chiqdi.

Anrik o‘zining yangi oti uchun bolalarcha g‘ururlanardi. O‘zining kichkina kucheridan tizginni olarkan, otga diqqat bilan qaradi-da, xo‘mraydi.

– Hoy, Dodo, erinchoq itvachcha! Nima uchun bugun ertalab otimni tozalamading?

– Tozalagan edim, xo‘jayin, – deya sadoqat bilan javob berdi Dodo, – lekin u yana ag‘anab, iflos bo‘libdi.

– Jim, ablah! – deb qichqirdi Anrik, g‘azab bilan qamchisini ko‘tarib. – Gap qaytarma!

Dodo chiroyli va shahloko‘z mulat bo‘lib, bo‘yi Anrik bilan baravar edi. Jingalak sochlari ochiq va tetik yuziga gardish bo‘lib tushib turardi. Uning yuzi lovullab, ko‘zi chaqnadi.

– Mister Anrik... – deb gap boshladi u.

Anrik uning yuziga qamchi bilan urdi. Qo‘lidan ushlab, o‘z oldida tiz cho‘kishga majbur qildi, keyin darmoni quriguncha qamchiladi.

– Mana senga, shilqim it! Endi gapimga gap qaytarmaslikni o‘rganasan! Otni ol-da, yaxshilab tozala. Men senga ko‘rmaganingni ko‘rsatib qo‘yaman!

– Yosh xo‘jayin, – dedi Tom, – Dodo sizga, otni otxonadan olib chiqayotganda tuproqqa yumalaganini aytmoqchi edi. Otingiz juda sho‘x ekan. Shuning uchun iflos. Dodo tozalagan edi. Uning tozalayotganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.

– Tilingni tiy, sendan so‘rayotganim yo‘q! – dedi Anrik va birdaniga ortga qayrilib, ot sayri uchun maxsus tikilgan libosni kiyib ayvonda turgan Yeva bilan so‘zlashgani pilla-poyadan chiqa boshladi. – Kechir, singlim, bu ahmoq seni kutishga majbur qilyapti, – dedi u. – Otni tozalab bo‘lguncha dam olib o‘tirishni istamaysanmi?.. Iyi, nima bo‘ldi senga? Nega bunday ma‘yussan?

– Nima uchun Dodoga bunday berahmlik qilding, nega yomon ranjitding? – dedi Yeva.

– Berahmlik qilding? Yomon ranjitding? – deb xitob qil-di Anrik, chindan hayratlanib. – Nima deganing bu, Yevaxon!

– Bunaqa qilsang, meni Yevaxon deb aytma! – dedi Yeva.

– Jon jiyaninam, Dodoni sen bilmaysan. Boshqacha yo'l bilan uni eplab bo'lmaydi. U shunday yolg'onchi, ayyorki, doim bir bahona topadi. Birdan bir chora-darrov tanbeh bermoqli, shunda qaytib og'zini ochmaydi. Dadam ham shunaqa qiladi.

– Tom tog'a: „U rost aytdi“, dedi-ku. Tom tog'a hech vaqt yolg'on gapirmaydi.

– Unday bo'lsa, bu qari negr allaqanday alomat ekan-da, – dedi Anrik, – Dodo og'zini ochdi deguncha yolg'on gapira boshlaydi.

– Buning uchun o'zing aybdorsan. Uni hadeb ko'r qilaverganing uchun seni aldaydi.

– Yeva, uni muncha yoqlaysan, bunday bo'lsa, men se-ni rashk qila boshlayman.

– Uning hech gunohi yo'q edi, sen esa urding.

– Bo'pti, buni kelgusi yaxshilik hisobiga yozib qo'ysin. Yanagi safar u gunoh qilganda urmayman. Bir necha ortiq-chacha qamchi yesa ziyon qilmaydi. U – shaytonning o'zgini-nasi! Lekin senga yoqmas ekan, oldingda uni hech urmaganim bo'lsin.

Bu va'da Yevani qanoatlantirmadi, lekin u o'zining bar-cha fikr va hislariga qo'shilishni go'zal qarindoshidan talab qilish mumkin emasligini tushundi.

Ko'p o'tmay, otlarni yetaklab Dodo keldi.

– Balli, Dodo, juda boplabsan, – dedi Anrik, ancha shaxtidan tushib. – Bu yoqqa kel, Yevaxonning otini ush-lab tur, men u kishini egarga o'tirg'izib qo'yay.

Dodo jimit ot yoniga kelib, to'xtadi. Uning kayfi buzuq edi, ko'zlaridan yig'laganligi bilinib turardi. O'zining na-

zokatliligidan g'ururlanuvchi Anrik Yevani ildam egarga o'tqizdi-da, tizglnarni berdi.

Lekin Yeva Dodo turgan tomonga egilib:

– Rahmat senga, Dodojon! – dedi.

Dodo qizning nafis yuziga hayrat bilan nazar tashladi, yuziga qon yugurdi, ko'zi yashnadi.

– Dodo, bu yoqqa kel! – deya buyurgansimon qichqirdi xo'jayin.

Dodo yugurib borib, Anrik egarga o'tirib olguncha-uning otini ushlab turdi..

– Mana bu chaqa pulga novvot ol, Dodo, – dedi Anrik, keyin Yevanining orqasidan chopib ketdi.

Dodo anchagacha ular ortidan qarab qoldi. Biri unga pul berdi, biri uning uchun puldan qimmatroq bo'lgan yo-qimli, yaxshi so'z aytdi. Dodoni onasidan ajratganlariga bir necha oy bo'lgan edi. Alfred qul bozoridan uni chiroyli yuziga qiziqib sotib olgan edi. Chunki u go'zal arab otiga juda mos edi.

Aka-uka Sen-Klerlar bo'lib o'tgan mojaroni boshdan oyoq ko'rdilar.

Ogyustenning yuzi lovulladi. Lekin odaticha, mazax va beparvo ohang bilan dedi:

– Bizda buni respublikacha tarbiya, deb aytadilar shekilli-a, Alfred?

– Anrikning jahli kelib qolsa, shaytonning o'zi bo'lib ketadi, – deya parvosiz javob berdi Alfred.

– Jahlitezlik Anrik uchun foydali deb hisoblasang kerak? – sovuqqina dedi Ogyosten.

– Bu menga ma'qulmi, yo'qmi, nachora, baribir qo'-limdan hech nima kelmaydi. Anrik quyunning o'zi. Biz xotin ikkimiz unga allaqachon qo'l siltab qo'yganmiz. Lekin Dodo ham tuzuk, bir-ikki kaltak bo'lsa ortiqchalik qilmaydi.

– Bundan tashqari, bu narsa Anrikka respublika katexizisining: „Barcha kishilar teng va ozod tug'iladi“, degan birinchi satrini o'rgatadi.

– Be! – dedi Alfred. – Fransuzlarga xos behuda gapni aytasan-a! Bu so'zlarni bizning zamonimizda eslash kulgili.

– Men ham shunday deb o'ylayman, – deya mubham javob berdi Ogyusten.

– Odamlarning hammasi, – dedi Alfred, – teng va ozod tug'ilmasligi mutlaqo ravshan. Men bu respublikacha mahmadonalikni behuda gap deb hisoblayman. Tarbiyali, ma'lumotli, nafosatning nimaligini tushunadigan va boy odamlar teng bo'la oladi... Lekin avom ozodlik uchun tug'ilgan emas.

– Koshki sen avomga bu fikrlarni tushuntiolsang edi! – dedi Ogyusten. – Avom o'zining kim ekanligini Fransiyada bir bor ko'rsatdi.

– Shuning uchun uni iskanjada tutish, qattiq va shafqatsiz idora qilish kerak... Men xuddi shu yo'sinda ish tutaman, – dedi Alfred qattiq depsinib, go'yo razil avom o'sha yerda bo'lgandek.

– Ammo avom sizning bo'yinturug'ingizni irg'itib tashlasa, osmonning ham alangasi chiqib ketadi, – deb javob qaytardi Ogyusten. – San-Domingodagi voqealarni eslab ko'r!

– Lekin, – dedi Alfred, – mamlakatimizda bunga yo'l qo'ymaymiz. Negrlarni taraqqiy ettirish kerak, ularga bilim berish kerak, degan va hozir rasm bo'lib qolgan gaplarga qarshi kurashishimiz lozim. Past sinfga bilim kerak emas.

– Hozir bu to'g'rida so'zlashning vaqtি o'tgan, – dedi Ogyusten, – ular bilimli bo'ladilar. Lekin butun masala – ular oladigan bilimning qay xilda bo'lishida. Biz ularni nimaga o'rgatishimiz mumkin – yovvoyilik bilan shafqat-

sizlikka o'rgatishimiz mumkin, xolos! Biz ulardag'i barcha insoniy xislatlarni yo'qotamiz-da, dag'al hayvonga aylantiramiz. Bir kun kelib ular bizga hokim bo'lib qolsalar, ana unda buning mevasini o'zimiz totib ko'rajakmiz.

— Ular hech qachon bizga hokim bo'lolmaydilar — dedi Alfred.

— Par mashinani ol, — dedi Ogyusten, — qopqoqlarini och va ustiga o'tir, keyin ko'ramiz, o'zingni qayerda ko'rар ekansan.

— Bo'pti, — dedi Alfred, — ko'ramiz. Qozon butun bo'lib, mashina yaxshi ishlasa, men qopqoq ustida o'tirishdan qo'rqlayman.

— Lyudovik XVI zamonida dvoryanlar ham shunday deb o'ylagan edilar. Shu choqqacha Avstriya bilan Piy IX ham shunday deb o'laydilar. Bir kun kelarki, qozonlar yorilib ketar, ana o'shanda sizlar hammangiz osmonda uchrashib qolasizlar.

— Tirik bo'lsak, ko'ramiz! — dedi Alfred kulimsirab.

— Lekin men senga aytib qo'yay, — deb e'tiroz bildirdi Ogyusten, — xuddi bizning zamonimizda omma bosh ko'taradi va quyi sinf hokimiyatni o'z qo'liga oladi.

— Respublikachilarning bu qizil safsatalarini eshitganimiz, Ogyusten! Sen o'tkir ko'cha agitatori bo'lishing mumkin. Sening iflos, irkit avoming hukmronlik qilmasdanoq o'lsam koshki edi.

— Irkitmi, irkit emasmi, lekin vaqtি keladi o'sha avom ustingizdan idora qiladi, — dedi Ogyusten. — Siz hozir u bilan qanday muomala qilayotgan bo'lsangiz, u ham sizlar bilan shunday muomala qiladi. Fransuz dvoryanlari xalqni ishtonsiz qildi va ishtonsizlar dvoryanlarni tumtaraqay haydadi. Gaitida xalq...

— Qo'ysang-chi, Ogyusten! Shu rasvo, razil Gaitini og'zingga olma endi! Gaitiliklar past, razil va xarob

odamlar ekan, lekin ular ingliz-saksonlar emas-ku. Ular ingliz-sakson bo'lganlarida ishi butunlay boshqacha bo'ldi. Ingliz-saksonlar azaldan dunyo hokimi, hamma yerda hukmron irq bo'lganlar va doim shunday bo'lajak. Bizdan ko'ngling to'q bo'lsin! Hokimiyat – bizning qo'lda. Bu qashshoq, qaram irq esa, – dedi u yana qattiqroq yer tepib, – pastda turibdi va shunday bo'lib qolajak ham. Yarog'-aslhamizni ishlatish uchun bizda yetarli kuch bor.

– Hali, o'g'ling Anrik kabi tarbiya olgan farzandlar yarog'-aslaha omborlarini yaxshi qo'riqlaydi, demoqchimisan? Farzandlaringizning qanchalik sabot va vazminligi ma'lum-ku! „O'zini idora qilolmagan odam, boshqalarni ham idora qilolmaydi“, degan maqolni unutma, – dedi Ogyusten.

– Ha, albatta, – xayol surib dedi Alfred, – bizning ijtimoiy tuzumimiz sharoitida bolalarni tarbiyalash qiyin. Bu tuzum ehtiroslarimizning kuchayishiga keng maydon ochib beradi. Holbuki bizning iqlimimizda ehtiroslar busiz ham jo'shqin. Anrik meni tashvishlantiradi. U ko'ngilchan, lekin jahlitez bola. O'tning o'zginasi. Men uni o'qigani shimolga yubormoqchiman. U yerdagi kishilarda itoat qilish – bizdagidan ko'ra kuchliroq, u yerda u bo'ysunganlar ichida emas, balki tengdoshlar orasida bo'ladi.

– Bolalarni tarbiyalash insonning eng muhim maqsadi bo'lganidan, – dedi Ogyusten, – sening so'zlarining yana bir marta bizning bu tuzumimizning hech nimaga yarmaganligini tasdiqlaydi.

– Shuncha amaliy harakat qilganimiz yetmaydimi, Ogyusten! Buni biz ming marotaba muhokama qilganmiz. Yaxshisi, bir triktrak o'ynab olaylik.

Aka-uka avvonga chiqib, yengil bambuk stoli yoniga o'tirdilar. Soqqalarni taxtaga terarkanlar, Alfred dedi:

– Bilasanmi, Ogyusten, men ham sen kabi o‘ylaganimda edi, biror ish qilgan bo‘lur edim.

– Bunga shak-shubha yo‘q. Sen korchalon odamsan.

Xo‘sh, nima qilarding?

– Tajriba uchun qullaringning aqlini o‘sirish bilan shu‘ullan, – yarim nafratomuz tabassum bilan dedi Alfred. – Ularga bilim ber. O‘qit!

– Ularning gardaniga, Etna tog‘i kabi og‘ir, barcha hokim sinflar minib olgan. Bu sharoitda ular o‘qiy oladilarmi? Butun jamiyat unga qarshi bo‘lar ekan, bitta odamning qo‘lidan hech narsa kelmaydi. Ularni davlat o‘qitishi kerak yoki hech bo‘lmasa ularning o‘qishiga qarshilik ko‘rsatmasligi lozim.

– Yurish sendan, – dedi Alfred.

Aka-uka o‘yinga sho‘ng‘ishди va ayvon yonida ot tuyoqlari ovozi eshitilganga qadar o‘ynashdi.

– Bolalar ham kelishdi, – dedi Ogyusten turarkan. – Bu yoqqa qara, Alf! Bunday go‘zallarni hech ko‘rganmisan?

Chindan ham bolalar go‘zal edi. Qora sochli, qip-qizil yuzli, keng, ochiq manglayli Anrik go‘zal kuzinasiga ergashib shod-xurram kulardi. Yeva ko‘k amazonka bilan ko‘k qalpoqcha kiygan edi. Otda tez yurganligidan uning yuzi qizargan va shu sababli uning gezargan terisi va oltin sochi yanayam go‘zalroq ko‘rinardi.

– Xudoyim! Buning go‘zalligi ko‘zni oladi! – dedi Alfred. – Katta bo‘lganda qanchadan qancha yuraklarni maf-tun qilar ekan!

– So‘zsiz maftun qiladi. Xudoga ayon. Men ana shundan qo‘rqaman! – dedi Ogyusten va uning ovozidan bu onda azob chekkanligi bilindi.

U Yevani egardan tushurish uchun shoshilib pastga tushdi.

– Yeva, azizam, uncha charchamadingmi? – dedi u, qizini bag'riga bosib.

– Yo'q, dada, – dedi qiz.

Lekin uning qisqa va og'ir nafas olishi otasini hayajonlantirdi.

– Nega otni qattiq choptirding, jonim! Senga ziyonligini bilasan-ku.

– Maza qildim! Ot choptirishni juda yaxshi ko'raman. Shuning uchun ot minganimda foyda-ziyon esimdan chiqadi.

Sen-Kler uni ko'tarib mehmonxonaga olib kirdi-da kushetkaga yotqizdi.

– Anrik, Yevadan hushyor bo'lib tur, – dedi u. – Birga bo'lganingda otni tez choptirma.

– Doim hushyor bo'laman, – dedi Anrik kushetkaga o'tirarkan, Yevanining qo'lini ushlab.

Tez orada Yeva o'zini tuzuk his etdi. Kattalar yana o'yinni boshladilar. Bolalar yolg'iz qolishdi.

– Bilasanmi, Yeva, men xafaman: dadam ikki kundan keyin ketamiz deyapti. Seni anchagacha ko'rolmayman! Sen bilan qolganimda, xushko'ngil bo'lishga tirishardim. Dodoni urmasdim. U bilan yomon muomala qilishni aslo istamayman, lekin jahlim tez! Bilasanmi, Dodoga uncha yomon muomala qilganim yo'q. Unga ba'zan pul bera-man. Uning yaxshi kiyinganligini ko'rding. Menimcha, u yomon yashamaydi.

– Qalay, dunyoda hech kim seni sevmasa, turmush yaxshi bo'larmidi?

– Menikimi? Albatta yaxshi bo'lmas edi!

– Sen esa Dodoni ota-onha, qavmi-qarindoshidan ajratib olgansan, uning hozir mehribonlik qiladigan yaqin kishisi yo'q. Insonni birov sevmasa, uning turmushi yaxshi bo'lmaydi.

– Xo'sh, men nima qilay! Unga ona topib berolmasam, o'zim ham uni hech bir sevolmasam.

– Nimaga uni sevolmaysan? – deb so'radi Yeva.

– Dodoni-ya? U menga yoqishi mumkin. Lekin sen ham xizmatkorlaringni sevmaysan-ku?

– Albatta sevaman.

– Qiziq ish-ku!

Yeva javob bermadi. Uning ko'zлari bir lahza yiroq-yi-roqlarga tikildi.

– Har holda, aziz kuzinim, – dedi u, – bechora Dodoni sev va unga yaxshi muomala qil, hech bo'lmasa, azbaroyi mening uchun shunday qil!

– Sening uchun men har kimsani sevishga tayyorman, chunki sendaqa yaxshi qizni ko'rganim yo'q!

Anrik bu so'zlarni ehtiros bilan aytganidan, go'zal yuzi lovullab ketdi. Yeva bo'lsa bu maqtovni, yuzini ham o'z-gartirmay, shunchaki qabul etdi va quvnoqlik bilan dedi:

– Senga yoqqanim uchun xursandman, Anrik. Ishonaman, meni yodingdan chiqarmassan.

Tushki ovqatga urilgan qo'ng'iroq ovozi ularning suhabatini uzdi.

XXIV BOB

Mash'um nishonalar

Anrikning kelishidan xursand bo'lgan Yeva otga minib chopar va o'zi ham haddan tashqari ko'p yugurardi. U ketgandan keyin qiz tez darmonsizlana boshladi. Sen-Kler shifokor bilan maslahatlashmoqchi bo'ldi. Hozirgacha u shifokorga murojaat qilmay keldi, chunki ulardan dahshatli gap eshitishdan qo'rqardi.

Lekin oxiri Yevaning holi juda yomonlashdi, u ikki

kungacha uydan chiqmadi. Shundan so'ng Sen-Kler doktorga odam yubordi.

Mari qizining betobligi va holdan ketishiga e'tibor bermasdi, chunki ikki-uchta yangi dardni o'rganish bilan band edi. U o'zini bu dardlarning qurboni deb hisoblardi. U „Hech kim mendek azob chekmaydi va cheka olmaydi“, deb qattiq ishongandi. U, atrofidagi odamlardan birortasi kasal bo'lishi mumkin, degan gapni sira-sira eshitgisi kelmasdi. U boshqalarning kasalini yalqovlik va beboshlik natijasi der, o'zi chekayotgan zahmatlarni esa hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi, deb hisoblardi.

Ofeliya uning onalik shafqatini qo'zg'atishga juda ko'p urindi, ammo barchasi muvaffaqiyatsiz chiqdi.

– Men unda hech kasallik alomatini ko'rmayman, – deb e'tiroz bildirardi Mari. – Yuguradi, o'ynaydi, sho'xlik qiladi.

– Yo'talini ko'rmaysizmi axir!

– Yo'talmish! Yo'taldan gapirmang menga. Mana mening yo'talimni yo'tal desa bo'ladi, yoshligimdan beri butun umr yo'talaman. Yevaday bo'lganimda, meni sil deb o'yashgan. Memmi kechalari boshimda o'tirib chiqardi. Ey, Yevaning yo'tali meniki oldida hech nima emas.

– Axir u darmonsizlanib ketyapti, yo'talganda nafas ololmay qoladi.

– Ey, bu ahvol menda yillab bo'lardi! Buning hammasi – asabdan.

– Kechalari terga botib ketadi axir!

– Men ham... keyingi... O'n yil ichida... ko'pincha kechalari shunday terlaymanki, siqsangiz ko'ylagimdan suv oqadi. Tungi ko'ylaklar shilta bo'ladi, ro'jalarimni esa Memmi yozib quritadi. Yeva mendaqa qattiq terlamas.

Ofeliya ancha vaqt indamay yurdi.

Lekin Yevaning kasali ravshan bo'lib qoldi, uyda doktor paydo bo'ldi. Mari qo'qqisdan fikrini o'zgartirdi. Uning

so'ziga ko'ra, o'zining sho'rpeshona onalardan ekanligini ilgaridan sezib kelgan. Mana endi bemorligi ustiga, sevgan va yagona bolasi uning ko'zi oldida, qabr yoqasida. Kechalari u to'xtovsiz yig'layerverib Memmini bezor qila boshladi, kunduzlari esa o'zining boshiga tushgan yangi kulfatlar uchun yanayam ko'proq hayratlanib ming'illay berdi.

– Jon Mari! Bo'ldi!! – deya uni yupatardi Sen-Kler. – Birdaniga buncha umidsizlanish kerak emas.

– Sen ona hissini tushunmaysan, Sen-Kler! Sen meni tushunmagansan. Sen hech nima tushunmaysan!

– Lekin umid uzildi, deb gapirish kerak emas-da!

– Men bunga sendan beparvo qarolmayman. Yolg'iz bolamizning joni xatarda bo'la turib, sen hech narsani sezmasang ham, men sezaman. Kechirgan azoblarim ustiga bu hol menga haddan ziyod zarba.

– Rost! – dedi Sen-Kler. – Yeva juda nozik qiz, buni bilardim. U juda tez o'sdi, bu hol uning kuchini yanayam kamaytirdi. Bundan tashqari, u hozir o'spirinlik davriga o'tmoqda. Boz ustiga hozir yoz issig'idan zaiflangan, keyingi kunlarda esa Anrikning kelishi uni bezovta qildi. Doktor – „Tuzalib ketar, umid bor“ deb aytdi.

– Hamma narsaga xom xayol bilan qaraganingdan keyin, shunday bo'ladi-da! Bag'ritosh odamlar baxtli bo'ladiilar. Sezayotgan narsalarimni sezmag'an bo'lganimda shod bo'lardim. Tashvishlanaverib, axiyri sog'lig'imni ham yo'qotdim. Koshki sizlardaqa sovuqqon bo'lsam.

Hamma uning sovuqqon bo'lishini istardi, chunki u atrofdagilarni azoblash va qiyash uchun o'zining yangi baxti qoraligidan foydalanardi. U, tevaragida aytilayotgan hamma so'zlar, bo'layotgan hamma ishlar uni shafqatsiz va mehrsiz kishilar o'rab olganligini va bular uning zo'r qayg'usiga beparvo qarayotganlarini yana bir bor tasdiqlaydi deb o'ylardi.

Bechora Yeva ba'zan bu so'zlarni eshitar va onasiga rahmi kelib, uni shuncha azobga solganlari uchun qayg'u-rib, yig'lardi.

Ikki haftadan keyin Yevaning ahvoli ancha yaxshilan-di. Lekin bu hol kishini aldaydigan, yurakda qabr yoqasida ham umid uyg'otadigan yaxshilanishlardan edi. U bog'da va ayvonda yugurib yurardi, yana kulib-kulib o'ynardi va buni ko'rib o'zida yo'q xursand bo'lgan otasi: „U tezda butunlay tuzaladi va baxtli bo'ladi“, derdi. Lekin kasalning bu soxta osoyishtaligi Ofeliya bilan doktorgagina taskin bermasdi.

Ulardan boshqa yana bir yurak buning hammasi aldov ekanligini sezardi, u – Yevaning yuragi edi.

Yeva ayrilib ketishi lozim bo'lgan kishilari haqida chin qalbidan qayg'urardi. Xususan, otasiga rahmi kelardi. Ota-si uni dunyoda hammadan ortiq sevishini u ich-ichidan sezardi. U onasini sevardi, chunki seuvuchan qiz edi va onasidagi o'jar xudbinlik uni faqat qayg'urtirar va hayrat-ga solardi. U bolalik qilib, oyim yomon ish qilishi mumkin emas, deb o'ylardi. Shunday bo'lsa ham onasida allaqanday bir narsa bor ediki, Yeva uning tagiga yetolmasdi.

Yeva yaxshi va sodiq xizmatkorlarga ham shafqat qilar, ular uchun quyosh nuri edi. Bolalar xulosa chiqarishga moyil emaslar, lekin Yeva haddan tashqari aqliraso bola bo'lganidan, falokatli qullik tuzumi tug'diradigan hamma narsa yuragiga mahkam joylashib qolardi. G'ira-shira bo'lsa ham unda faqat o'z qullarinigina emas, balki dunyo-dagi hamma quillarni baxtiyor qilish istagi bor edi.

Oq ko'ylak kiygan Yeva ayvon zinasidan otasi oldiga chiqdi, uning yuzi lovullar, ko'zi allaqanday g'alati chaq-nardi; oqshom quyoshining nuri uning oltinsoch boshiga tushgan edi.

Sen-Kler Yevaga atab olgan haykalchani ko'rsatish uchun uni chaqirgan edi. Qizni ko'rib, Sen-Kler qattiq ta'-

sirlandi. Shunday barq urgan va mo'rt go'zallik bo'ladiki, ko'tgan zamon yurak achinib ketadi. Ota qiznini birdan bag'riga bosib, aytmoqchi bo'lgan so'zini unutdi.

– Yeva, azizim, keyingi kunlarda ancha yaxshi bo'lib qolding-a? Shundaymi?

– Dada, – dedi Yeva qat'iy yo'sinda, – siz bilan gaplashmoqchiman! Ahvolim yanayam yomonlashib qolmasdan ilgari siz bilan bir so'zlashib olmoqchiman.

Yevani tizzasiga o'tqizarkan, Sen-Kler bir cho'chib tushdi. Qiz uning yelkasiga boshini qo'yib, dedi:

– Endi gapni yashirishning hojati yo'q, dada: sizlarni tashlab ketadigan vaqtim yaqinlashyapti. Men ketaman va hech qaytib kelmayman.

Shunday deb, Yeva yig'lab yubordi.

– Yo'q, unday emas, azizim, kichkina Yevam!

Sen-Kler ichidan zil ketayotgan bo'lsa ham, ovozida quvnoqlik ohangi bor edi.

– Sen asabiylashyapsan, xolos, – deb so'zini uladi Sen-Kler, – ruhing tushib, umidsizlanyapsan. Bunday yomon fikrlarga berilish kerak emas. Buni ko'r-chi, senga qanaqa haykalcha olibman.

– Yo'q, dada, – dedi Yeva, chinni haykalchani nari surib, o'zingizni aldamang! Ahvolim yaxshilangani yo'q, juda yaxshi bilaman. Asabiylashayotgan ham emasman, ruhim ham tushayotgani yo'q. Siz bilan va barcha do'stlarim bilan judolik bo'limganda edi, men o'zimni juda baxtiyor his etardim.

– Bu yerda senga nima yoqmayapti, bolaginam, seni nima qayg'urtadi? Seni baxtiyor qilish uchun hamma narsani qildim, berish mumkin bo'lgan narsaning hammasini berdim.

– Men o'z do'stlarim uchungina yashashni istardim. Bu yerda meni ko'p narsa qayg'urtadi, ko'p narsa menga juda

yomon ko'rindi. Bundan tashqari, sizni tashlab ketishni xohlamayman. Siz bilan judolik yuragimni poralaydi!

– Seni nimalar qayg'urtadi! Nimalar senga yomon, xunuk bo'lib ko'rindi, Yeva?

– Men bechora qullarimiz uchun azob chekaman. Ular hammasi meni sevishadi, hammasi menga xushko'ngil, ularning hammasi ozod bo'lishini istardim, ota.

– Iye, Yeva, qo'zim, bu nima deganing? Biznikida ular yaxshi yashayaptilar-ku...

– Sizga biror hodisa bo'lib qolsa, keyin ularning ahvoli nima bo'ladi? Sizga o'xshagan odamlar juda kam, ota. Alfred amakim sizdaqa emas, onam ham. Bechora keksa Pryuning xo'jayinlarini eslang.

Shunday deb Yeva titrab ketdi.

– Aziz bolaginam, sen juda ta'sirchan qizsan. Bunday voqealarни eshitishga yo'l qo'yganim uchun juda afsuslanaman.

– Meni mana shu ahvol azoblaydi, ota. Siz mening baxtiyor bo'lishimni, hech bir qayg'u-hasrat va azob chekmassisligimni, juda ko'p kishilar butun umr baxtsiz bo'lganlari holda, mening qayg'uli voqealarни eshitmasdan yashashimni istaysiz. Men esa o'sha sho'rliklar haqida o'ylaganim-o'ylagan. Ota nahotki qullarning hammasini ozod qilib bo'lmasa?

– Bu mushkul masala, azizim. Shubhasiz, qullik juda yomon narsa. Ko'p kishilar shunday deb o'ylaydilar, men ham shunday deb o'ylayman. Men mamlakatimizda bitta ham qul bo'lmasligini istayman. Lekin bunga qanday qilib erishish yo'lini bilmayman.

– Ota, siz yaxshisiz, oliyjanob, xushko'ngil kishisiz va siz ko'ngilga monand gaplar gapirasiz – siz yurib, odamlarga – „Mana shunday qilish kerak“, deb tashviqot qilsangiz bo'lmasmidi? Ota, o'lganimdan so'ng hozirgi sizga aytgan

gaplarimni o'ylaysiz va buni men uchun qilasiz, xo'pmi? Basharti ozod qilish ixtiyorimda bo'lganida, hamma qullarni ozod qillardim!

– „O'lganimda“ deysanmi, Yeva?! – hayajonlanib xitob qildi Sen-Kler. – Oh, bolam, bu so'zni menga aytma! Mening uchun dunyoda eng aziz kishim bu – sensan!

– Bechora keksa Pryuning bolasi ham dunyoda uning eng qaddrond, aziz jigargo'shasi edi, Pryu esa bolasining dodlaganini eshitar, unga yordam berolmasdi! Dada, siz meni qanday yaxshi ko'rsangiz, bu sho'rpeshonalar ham o'z bolalarini shunday yaxshi ko'rishadi. Azbaroyi shular uchun bir ish qiling! Mana, bechora Memmi bolalarini shuncha yaxshi ko'radi... Men bir kun uning bolalari haqida so'zlab yig'laganini ko'rdim. Tom ham bolalarini yaxshi ko'radi. Ularning bolalaridan ajralib yashashlari juda yomon-ku, ota!

– Xo'p, xo'p, azizim! – dedi Sen-Kler uni yupatib. – Faqat qayg'urma va o'lim to'g'risida so'zlama, men esam istaklariningni to'la-to'kis bajaraman.

– Menga va'da bering, otajon! – Yeva to'xtadi va keyin ikkilanibroq dedi: – Sizlardan ayrilishim bilanoq Tom tog'ani darhol ozod qilasiz.

– Xo'p, azizim, dunyoda nima istaging bo'lsa, barchasini bajo keltiraman, nimani so'ragan bo'lsang, hammasini qilaman.

– Otajon, – dedi qiz, uning yuziga lovullagan yuzini bosib, – koshki edi ikkimiz birga ketsak!

Sen-Kler indamay, uni bag'riga qattiqroq bosdi.

– Mening oldimga kelasiz, – dedi qiz xotirjamlik va ishonch bilan.

– Orqangdan boraman. Seni unutmayman.

Oqshom ko'lankasi tobora quyuqlashardi. Sen-Kler gap-so'zsiz, qizining nozik gavdasini bag'riga bosardi. U

endi Yevaning chuqur ko‘zlarini ko‘rmasdi va orqada qolgan butun hayoti, ya’ni: ilgarigi yaxshilik qilmoq uchun tirishganliklari, kishilar maqtaydigan kiborlarda bekorchi hayot kechirish yillari ko‘z oldidan birma-bir o‘tdi! Sen-Kler ko‘p narsani tushundi, ammo hech nima demadi. Qorong‘ilik tusha boshlashi bilan qizini yotoqxonaga olib kirdi, Yevani yechintirganlaridan keyin, xizmatchilar ni chiqarib yubordi va to uxlatguncha qizini qo‘lidan qo‘ymay, allalab o‘tirdi.

XXV BOB

Yosh nasihatgo‘y

Yakshanba. Oqshom payti. Ayvonda bambuk kresloda o‘tirgan Sen-Kler o‘z g‘amini sigara chekib bosmoqqa urinardi. Ochiq deraza qarshisida, divanda Mari yonboshlab yotardi. Siyrak to‘qilgan parda uni chivinlardan saqlardi. Marining qo‘lida chiroyli muqovali duo kitobi. Mari kitobni yakshanba bo‘lgani uchun qo‘liga olgan va o‘zini go‘yo o‘qiyotgandek ko‘rsatsa ham, aslida, mudrab o‘tirardi.

– Ogyusten, menga qara, – dedi Mari, boshini ko‘tarib, shaharga odam yuborib, shifokorim Pozini olib kelish kerak. Yuragimning mazasi qochayotganga o‘xshaydi.

– Poziga odam yuborishning nima keragi bor? Yevani davolayotgan doktor ishning ko‘zini biladigan, tajribali shifokor ko‘rinadi.

– Kasalim jiddiy, unga ishonib qaratolmayman, – dedi Mari. – Kasalim juda yomon, bilaman! Tuni bilan shuni o‘ylab chiqdim. Kasalim juda qiynayapti. Ta’bim xira!..

– Mari, bu odatdagи vahimang, xolos. Yurak kasaling borligiga ishonmayman.

– Ishonasan deb ham o‘ylaganim yo‘q, – dedi Mari. – Bunday deyishingni bilardim. Yeva yo‘tala boshladimi, ha-yajonlanasan. Yevaning zarracha tobi qochsa, qattiq tash-vishga tushasan, lekin meni hech o‘ylamaysan.

– Yuraging kasal bo‘lishini ma’qul ko‘rsang – marhamat, qarshiligidim yo‘q. – dedi Sen-Kler. – Lekin yuraging kasalini birinchi marta eshitib turibman.

– Keyin attang deb qolasan, deb qo‘rqaman, ammo unda hech asqatmaydi! – dedi Mari. – Xoh ishon, hoh ishonma. Yevaning sog‘lig‘i to‘g‘risida tortgan hamma tashvishlarim, bu qizni qutqazib qolish uchun qilgan butun harakatlarim hammasi ichimda yashirinib yotgan kasalimning ku-chayishiga sabab bo‘ldi.

Uni o‘z qizini „qutqarib qolish“ uchun qilgan „harakat-lari“ nimadan iborat ekanligini aniqlash mumkin emas. Sen-Kler „toshyrak“ odam kabi chekishini davom etdirarkan, ayvon yoniga arava kelib to‘xtadi va undan Yeva bilan Ofeliya tushdi.

Ofeliya shlapa va ro‘molini yechib qo‘yish uchun har doimgidek, to‘g‘ri o‘z xonasiga o‘tib ketdi. Yeva esa ota-sining tizzasiga o‘tirdi.

Ofeliya bo‘lmasining eshik va oynalari ayvonga qara-gandi. Hayal o‘tmay u yerdan allaqanday g‘azabli so‘zlar eshitildi.

– Topsi nima balolar qilibdi? – dedi Sen-Kler. – Bu to‘-polonlar o‘shaning uchun bo‘lsa kerak.

Birozdan so‘ng Topsini sudrab, g‘azablangan Ofeliya chiqdi.

– Yur, bu yoqqa yur! – derdi u. – Hammasini xo‘jayi-ningga aytmoqchiman.

– Xo‘s, nima gap? – deb so‘radi Sen-Kler.

– Gap shuki, ortiq bu bola bilan olishib jonimni azobga quyolmayman! Uning ustidan qulflab „Darsingni o‘rgan“

deb ketgan edim. Nima qilibdi deng? Kalit qo'yadigan joyimni topib, shkafni ochibdi, shlapalarning mayda-chuydasiga ketadigan gazlamani olibdi va o'z qo'g'irchoqlariga ko'ylak qilish uchun uni parcha-parcha qilib qirqibdi! Urimda bunday bolani ko'rghan emasman!

– Men sizga, kuzina, bu negrlarga qattiq muomala qilmasangiz bo'lmaydi deb aytdim-ku, – dedi Mari – Agar ixtiyor menda bo'lsa edi, – davom etdi u, Sen-Klerga ta'na qilgandek qarab, – bu qizni boplab kaltaklattirardim. To cho'zilib qolguncha urdirardim.

– Gumanim yo'q, – dedi Sen-Kler. – Mana kerak bo'lsa xotinlarning nozikligi...

– Bu yerda sendaqa ikkilanishning keragi yo'q, Sen-Kler, – dedi Mari. – Kuzina aqlli xotin, mana u ham mendaqa xulosaga kelibdi.

– Ro'zg'orda ishning ko'zini biladigan har qanday ayol singari, Ofeliya ham Topsining qiliqlarini ko'rib, g'azabini to'xtatolmadi. Shubhasiz, asarimizni o'quvchi ko'pgina ayollarimiz ham shu kayfiyatda bo'lardilar. Lekin Marining so'zlari uning izzat-nafsiga tegdi, shu sababli uning g'azabi biroz bosildi.

– Qizni chala o'lik qilib urgani hech yo'l bermayman va buni qilmayman, – dedi u. – Lekin rosti, Ogyusten, nima qilishini bilmay qoldim. Unga juda ko'p ta'lim berdim, qizartirdim, urdim, aqlimga kelgan har bir yo'l bilan jazoladim, lekin u qanday bo'lsa, o'shanday qoldi!

– Bu yoqqa kel, Topsi, maymun bola! – deb qizni yoniga chaqirdi Sen-Kler.

Topsi keldi. Uning hadiksiragan yumaloq ko'zlarida mug'ombirlik ko'rindi.

– Nega o'zingni bunday yomon tutasan? – deb so'radi Sen-Kler. Topsining basharasi hadeb o'zgarib turishi uni ovuntirdi.

– Chunki men yaramas qiz bo‘lsam kerak, – deb bosiq javob berdi Topsi. – Filixon: „Sen yaramassan“, deb aytadi.

– Ofeliyaxonning senga qilgan yaxshiligin bilmay-sanmi? U aqlimga kelgan narsaning hammasini qildim de-yapti-ku.

– Ha, ha, xo‘jayin! Mening ilgarigi bekam ham shunaqa derdi. U meni Filixondan ko‘ra qattiqroq urardi, sochimdan sudrardi, boshimni eshikka urardi, lekin bu ham menga yordam bermasdi! O‘ylaymanki, boshimda-gi sochimni bittadan yulib olsalar ham menga yordam bermaydi, men shunday yaramasman! Axir men negr qizman.

– Uni birovga berib yuboraman, – dedi Ofeliya. – U bilan ortiq jonioymi qiyashga madorim qolmad. Bu man-zaraga indamay qarab turgan Yeva, Topsiga seknigina „Orqamdan yur“, deb ishora qildi. Ayvon yonida kichkina oynali ravoq bo‘lib, unda Sen-Klerning qiroatxonasi joy-lashgan edi. Yeva bilan Topsi o‘sha yerga kirdilar.

– Yeva nima qilmoqchi ekan – ko‘rish kerak, – dedi Sen-Kler.

U oyoq uchida yurib eshik yoniga keldi va pardani ko‘tarib, ravoqqa qaradi. Keyin barmog‘ini labiga qo‘yib, Ofeliyaga „Bu yoqqa keling“, deb imo qildi.

Bolalar yuzlarini eshik tomonga o‘girib, polda o‘tirardilar. Topsining yuzi odatdagicha, qiziq va beg‘am edi, uning qarshisida hayajonlangan va ko‘zidan yoshlар tomizib Yeva o‘tirardi.

– Topsi, nega bundaqa tentak-alishsan? Nega yaxshi qiz bo‘lishni xohlamaysan? Hech kimni yaxshi ko‘rmaysanmi, Topsi?

– Men hatto yaxshi ko‘rish nima ekanligini ham bil-mayman. Novvotni yaxshi ko‘raman, xolos, – dedi Topsi.

- Ota-onangni yaxshi ko'rarsan axir?
 - Menda ota-onal hech bo'lman, bilasiz. Sizga buni aytgan edim, Yevaxon.
 - Ha, bilaman, – ma'yus dedi Yeva. – Akang, singillaring yo xolang, hech kiming yo'qmi?..
 - Hech kimim yo'q. Aslida, hech kimim bo'lman.
 - Lekin Topsi, agar yaxshi bo'lishga harakat qilsang edi, u vaqtida...
 - Baribir qancha harakat qilsam ham negr qizligimcha qolaveraman, – dedi Topsi. – Agar po'stimni sidirib olib, oq bo'lganimda edi, u vaqtida, urinib ko'rsam bo'lar edi.
 - Qora bo'lsang ham odamlar seni yaxshi ko'rishlari mumkin, Topsi. Agar yaxshi bo'lganingda, Ofeliya seni yaxshi ko'rgan bo'lar edi.
- Topsi uzuq-uzuq qilib qattiq kulib quydi. Bunday kuli-shi uning ishonmaganligini ifoda etardi.
- Ishonmaysanmi hali? – deb so'radi Yeva.
 - Ishonmayman, u meni yomon ko'radi, chunki men negr qizman! U qurbaqadan ham mencha hazar qilmay-di! Negrlarni hech kimning yaxshi ko'rishi mumkin emas, shuningdek, negrlar ham hech kimni yaxshi ko'ra olmay-dilar! Ha, yaxshi ko'rmasa ko'rmasin, menga baribir, – dedi Topsi va hushtak chala boshladı.
 - Hoy bechora Topsi, seni men yaxshi ko'raman! – dedi Yeva birdan unga rahmi kelib va oppoq, nozik qo'lini uning yelkasiga qo'yib. – Seni men yaxshi ko'raman, chunki sening na otang, na onang, na do'stlarining bor, chunki sen bechorasan, xo'rangan bir bolasan! Men seni sevaman va sening xushko'ngil bo'lishingni istayman. Men qattiq kasalman, Topsi va uzoq yashamayman. Shuning uchun sening tentakligingdan qattiq azobga tushaman. Men istardimki, meni deb yaxshi bo'lishga harakat qilsang – axir tezda sen bilan umrbod ayrilishaman.

Qora qizning yumaloq o'tkir ko'zлari yoshga to'ldi. Dona-dona yosh tomchilari birin-ketin oppoq qo'lchaga tomdi. Topsi boshini tizzasi orasiga oldi-da, ho'ngrab yig'lay boshladi.

– Xo'p, azizim Yevaxon, jonginam Yevaxon, – derdi u – yaxshi bo'lishga harakat qilaman. Tirishaman men, ilgari buni hech o'ylamagan edim!

Sen-Kler pardani tushirdi.

– Yeva onamni eslatadi, – dedi u Ofeliyaga.

– Negrlarni azaldan jinim yoqtirmasdi, – dedi Ofeliya, – Topsi rost aytadi: undan hazar qilardim. Lekin mening hazar qilishimni u sezadi deb o'ylamagan edim.

– O'z nafratingizni boladan yashiraman deb o'ylamang, – dedi Sen-Kler. – Agar sizda bolalarga nafrat hissi bo'lsa va ular buni sezsalar, qanchaki yaxshilik va iltifot qilmang, ulardan hech qachon minnatdorlik ko'rmaysiz. Bunday qaraganda g'alatiroq ko'rinsa ham, aslida, shunday.

– Bilmayman, o'z nafratimni qanday qilib yengsam ekan, – dedi Ofeliya. – Negrlarni umuman yoqtirmayman, bu bolani esa ayniqsa. Sezgim shunday bo'lsa nima qilay?

– Mana, Yeva o'z nafratini yengyapti shekilli.

– Uning o'zi juda mehribon-da axir, – dedi Ofeliya. – Men ham Yeva kabi bo'lishni istardim. Undan ko'p narsani o'rganishim mumkin.

– Kattalarning kichkina boladan ta'lim olishi birinchi marta bo'layotgani yo'q, – dedi Sen-Kler.

XXVI BOB

O'lim

Boshqa xonalar kabi Yevaning yotog'i ham keng avvonga chiqadigan katta bo'lmalardan edi. Yotoqning bir

tomoni ota-onalar bo‘lmasiga, ikkinchi tomoni Ofeliya bo‘lmasiga tutashgandi. Yevaning yotog‘ini Sen-Kler o‘z didiga mos qilib jihozlagandi. U yotoqni qizining xarakteriga mos qilib yasatilgan bo‘lishini istardi. Derazalarga oq va pushti pardalar osilgan. Polga Sen-Kler chizib bergen nusxaga qarab Parijda tayyorlangan maxsus bordon – polos yozilgan, polosning tevaragiga yaproqlar va gul g‘unchalarining rasmi solingan, o‘rtasida ochilgan gullar surati bor: karavot, kursilar va kreslolar bambukdan bo‘lib, juda nafis; ular juda chiroyli usulda ishlangan. Karavotning qoshida, ganch ustida, qo‘liga guldasta ushlagan farishta qanotlarini osiltirib turadi. Guldastaga kumushdan tikilgan nozik pushti pardalar qadalgan, ular bu iqlimda, har bir yotoqda bo‘ladigan chivinlardan saqlardi. Chiroyli bambuk kreslolarga ko‘plab pushti atlas yostiqchalar tashlab qo‘yilgan. Yotoqxonaning har joy-har joyiga qo‘yilgan haykalchalar karavot ustidagi haykalga o‘xshab doka pardalarni qo‘llarida ushlab turadi. Yengil, chiroyli bambuk stol yotoqxona o‘rtasiga qo‘yilgan, ustida nilufar g‘unchasi shaklidagi oq chinni vaza doim gulga to‘la turadi. Bu stolda Yevaning kitoblari, har xil o‘yinchoqlari va qizining xat yozishni o‘rganishga havasini ko‘rib otasi hadya qilgan juda chiroyli yozuv asbobi turadi. Devorlarga bolalar rasmlari solingan anchagina go‘zal suratlar osilgan. Xullas, tevarak-atrof go‘zallik, osoyishtalik va beg‘ubor bolalik davrini ifodalardi. Yeva ertalab uyqudan turarkan, taskin beruvchi va yoqimli fikrlar tug‘diruvchi narsalarnigina ko‘rardi.

Yevaning yolg‘ondakam tetiklanish payti tez orada tamom bo‘ldi. Ayvonda uning yengil qadamlari tobora kam eshitila boshladi, u ochiq deraza oldidagi kresloda, kattakon, moviy ko‘zlarini ko‘lning jilvagar to‘lqinlariga tikib yotgani-yotgan edi.

Oqshom yaqinlashmoqda. Yeva kresloda yonboshlab yotibdi. U to'satdan onasining ayvonda turib qattiq qich-qirganini eshitdi:

– Bu nima qilganing, yaramas? Gulni sen uzding-mi, a?

Yevaning qulog'iga shapaloq ovozi eshitildi.

Topsining:

– Oh, beka! Gulni Yevaxonga uzgan edim, – degan ovozi keldi.

– Yevaxonga? Ana bahona! U sening gulingga orzumand deb o'ylaysanmi, yaramas! Guling bilan yo'qol bu yerdan!

Yeva shu ondayoq kreslodan irg'ib turib, ayvonga yugurib chiqdi.

– Unday qilmang, oy! Bu gul juda kerak menga. Gulni bering! Gulni berishsin!

– Yeva, axir xonangda gul to'lib yotibdi-ku.

– Gul qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi, – dedi Yeva. – Topsi, gulni bu yoqqa olib kel.

Boshini ham qilib turgan Topsi Yeva yoniga kelib, gulni uzatdi. U hadiksirab, uyalib turar, uning o'ziga xos odadagi sho'xligi batamom yo'qolgan edi.

– Juda chiroyli guldasta bo'libdi! – dedi Yeva gulni tomosha qilarkan.

Bu guldasta oddiy guldastalarga sira o'xshamasdi, yashnagan, qip-qizil anjirgul va yaproqlari yaltirab turgan oq yapon guli bir dasta qilib bog'langandi. Topsining dastani rang-barang qilishga astoydil uringani yaqqol ko'rinish turardi. U har bir gul va bargni zo'r havas bilan to'plab, bog'-lagan edi.

– Topsi, guldasta qilishga judayam usta ekansan, – dedi Yeva. – Mana – guldanni ol. Har kun mana shu guldonga guldasta qilib tur.

Topsi Yevaga minnatdorlik bilan qaradi.

– Qiziq odat, – dedi Mari. – Bu senga nima uchun dar-kor bo‘lib qoldi.

– Darkor-da, oyi, Topsining guldaста qilishiga qarshimisiz?

– Yo‘q, qarshi emasman. Sen nimani xohlasang, shuni qilsin, jonim. Topsi, bekachangning gaplarini eshitdingmi? Esingdan chiqarma.

Topsi darrov tiz cho‘kib, bosh egdi. Keyin, ketmoqchi bo‘lib orqasiga qayrilarkan, Yeva uning qora yuzlaridan oqayotgan ko‘zyoshlarini ko‘rdi.

– Mana, ko‘rdingizmi, oyi, – dedi Yeva, – bechora Topsining men uchun biror yoqimli narsa qilmoqchi ekanligini bilardim.

– Bo‘limgan gap! U odamning g‘ashiga tegishni yaxshi ko‘radi, buni mana shuning uchun qilgan. U gul uzmasligi kerakligini biladi, bilgani uchun uzadi. Ha, uning fe‘lini bilaman. Lekin sen uni „Gul uzaversin“, desang mayli uza-versin, sen aytgancha bo‘lsin.

– Oyi, mening nazarimda Topsi hozir ilgarigidaqa emas. U yaxshi qiz bo‘lishga tirishyapti.

– Ha, uning yaxshi bo‘lishiga hali ko‘p zamon bor, – nafratomuz kulib dedi Mari.

– Uning qanchalik baxtsizligini bilmaysiz, oyi. Unga doim hamma qarshi.

– Lekin bizning uyimizda emas. Unga nasihatlar ham berdik, yalindik, o‘rgatdik, ammo u yaramasligicha qoldi. Umrbod shunday bo‘lib qoladiyam. Qancha harakat qilma, baribir undan hech nima chiqmaydi.

– Lekin, oyi, mendaqa do‘stlari orasidagi tarbiyalanishi bilan biznikiga kelguncha ko‘rgan tarbiyasi orasida katta farq bor: mening do‘stlarim faqat meni yaxshi va baxtli qilish haqida o‘ylaydilar.

– Ehtimol, – dedi Mari esnab. – Ey Xudoyim, muncha issiq bo‘lmasa.

– Oyi, men bir necha kokilimni kestirmoqchiman, – dedi Yeva. – Anchasini kestirmoqchiman.

– Nima uchun? – deb so‘radi Mari.

– Qurbim yetganida uni do‘stilarimga ulashmoqchiman. Xolamni chaqiring, sochimni qirqsin.

Mari yon bo‘lmada o‘tirgan Ofeliyani chaqirdi.

Ofeliya kirganda qiz yostiqdan turdi-da, uzun oltin ko‘killarini silkitib, hazilomuz dedi:

– Keling, qo‘zichoqning sochini oling.

– Nima gap? – deb so‘radi Sen-Kler, Yevaga meva olib kirarkan.

– Ota, xolam sochimni olib qo‘ysin deyapman. Sochim ko‘pligidan boshim qizib ketyapti. Bundan tashqari, sochimni ulashib bermoqchiman.

Ofeliya qaychi keltirdi.

– Ehtiyot bo‘ling, – dedi ota, – pastdan, ko‘rinmaydigan yeridan qirqing. Yevanинг kokillari – ko‘nglimning quvonchi...

– O, ota – dedi Yeva ma'yus.

– Ha, ko‘nglimning quvonchi. Men seni amakingning plantatsiyasiga, Anrik bilan ko‘rishgani olib borayotganda ham sochlaringning shunday go‘zal bo‘lib turishini istayman, – dedi Sen-Kler xursandlik bilan.

– U yerga hech bormayman, ota! So‘zimga ishoning. Kun sayin darmondan qolayotganimni ko‘rmaysizmi?

– Nima uchun bunday rahmsizlikka ishonmog‘imni istaysan, Yeva? – deb so‘radi ota.

– Shuning uchunki, bu haq gap, ota. Agar siz hozir ishonsangiz, ehtimol, men bo‘limganimidan keyin sizga yengilroq bo‘lar.

Sen-Kler labini qimtidi va birin-ketin Yevanинг tizzasi-

ga tushayotgan go'zal va uzun sochlarga g'amgin nazar soldi. Yeva sochlarini qo'liga olib, xayolchan tikilib turar, ingichka barmoqlariga o'rар va goho otasiga tashvish bilan ko'z tashlardi.

– Buni azaldan bilardim! – dedi Mari. – Bu hol salomatligimni kun sayin ketkazib, meni qabrga tortib boradi. Lekin menga hech kim e'tibor bermaydi. Bu ishlarning nima bilan tamom bo'lishini allaqachon anglagandim. Haq ekanimni tez kunda ko'rasan, Sen-Kler!

– Keyin – bundan taskin topasan, albatta, – dedi sovuq va zaharxandalik bilan Sen-Kler.

Mari kresloga chalqancha yotib, yuzini batist dastro'-molcha bilan yopdi. Yevaning yorqin ko'zлari goh otasiga, goh onasiga tikilardi. Yeva ularning har xil odamlar ekanligini endi aniq bilib va tushunib olgandi.

U qo'li bilan otasiga ishora qildi. Otasi kelib qizi yonga o'tirdi.

– Dada, kun sayin darmonim quriyapti. O'lishimni bilaman. Lekin yana aytadigan ba'zi so'zlarim, qiladigan ba'zi bir ishlarim bor, ammo siz bu haqda so'zlashimni istamaysiz. Lekin endi payt keldi, kechiktirib bo'lmaydi. Endi gaplarimni aytib olishga ruxsat bering!

– Bolaginam, aytadigan so'zlarining ayt, jonim bilan eshitaman! – dedi Sen-Kler.

U bir qo'li bilan ko'zini to'sdi, ikkinchi qo'li bilan Yevaning qo'lidan ushladi.

– Gap bunday: hamma odamlarimizni bu yerga chaqir-sangiz. Ularga aytadigan so'zlarim bor.

– Yaxshi, – dedi bo'ysunib Sen-Kler.

Ofeliya negrlarga odam yubordi, hayal o'tmay xona ichi xizmatkorlarga to'ldi.

Yeva yostiqlar ustida yotardi. Sochlari sochilgan, oq yuzida xastalik darakchisi bo'lgan qizil xol yonib turar

va kattakon ko‘zlar xizmatkorlarning har biriga o‘ychan boqardi.

Qullar to‘satdan hayajonlana boshladilar. Yevaning ruhlangan yuzi, yonida sochilib yotgan qirqma sochlari, Sen-Klerning yuzini o‘girib turishi, Marining yig‘lashi – ularga zo‘r ta’sir qildi. Qullar xonaga kirarkanlar, bir – onalariiga qarashar, uf tortishar va boshlarini qimirlatishardi. Janozadagi kabi chuqur jimjitlik hukm surardi.

Yeva joyidan andak qo‘zg‘alib, tevaragiga uzoq tikilib qaradi. Hamma ma’yus va parishon ko‘rinardi. Ko‘p xotinlar yuzlarini etaklariga yashirib yig‘lardilar.

– Sizlarni shuning uchun chaqirtirdimki, do‘stilarim, – dedi Yeva, – men sizlarni sevaman. Tez kunda men sizlarni tashlab ketaman. Bir necha haftadan keyin meni qaytib ko‘rmaysizlar...

Oh-voh va yig‘i-sig‘ilar qizning so‘zini uzdi. Bu sadolar qizning zaif ovozini bosib ketdi. Yeva bir lahma to‘xtab, keyin davom etdi:

– Agar meni yaxshi ko‘rsangiz, gapirishimga xalaqit bermang...

– Albatta, Albatta! Sizni hammamiz yaxshi ko‘ramiz! – degan ovozlar eshitildi Yevaga javoban.

– Ha, bilaman... Hammangiz menga xush ko‘ngil edingiz. Shuning uchun sizlarga bir narsani xotira uchun bermoqchiman. Har qaysingizga sochimdan jindak beraman.

Unga qaraganingizda, sizlarni sevganimni eslab yuring.

Qullar yig‘lashib, dodlashib, qizni o‘rab olganlarini, qiz qo‘lidan uning muhabbatining so‘nggi nishonasi bo‘lgan narsani olish manzarasini tasvirlashning imkonini yo‘q. Ular tiz cho‘kishib, ho‘ngrashar, duo qilishar va qizning etagini o‘pishardi.

Sochni olgan zamon bo‘lmadan chiqib ketishni Ofeliya ishora qilib turdi.

Eng oxirida, bo‘lmada Tom bilan Memmi qoldi.

– Mana, Tom tog‘a, – dedi Yeva, – senga mana bu go‘zal kokilimni beraman. Senga ham aziz, jonajon, xushko‘ngil Memmi! – dedi u, keksa enagasini mehribonlik bilan quchoqlab.

– Yevaxon, men sizsiz yashayolmayman! Aslo yashayolmayman! – dedi Memmi, – nazarimda, siz ketsangiz, bu yer huvullab qoladi! – dedi Memmi va kuyunib yig‘lab yubordi.

Ofeliya Tom bilan uni ochiqko‘ngil bilan bo‘lmadan chiqarib, endi hech kim qolmadi, deb o‘yladi. Lekin orqasiga qayrilib, Topsini ko‘rdi va:

– Bu yerga qanday kirding? – deb so‘radi.

– Men shu yerda edim, – dedi Topsi ko‘zyoshini arrib. – Yevaxon, men mudom yomon qiz bo‘ldim. Lekin siz menga hech nima bermaysizmi?

– Bechora Topsi, senga ham beraman, albatta. Mana... har qachon bu sochga qarab, seni yaxshi ko‘rganimni va yaxshi qiz bo‘lishingni istaganimni esla.

– Yevaxon! Harakat qilaman, – dedi Topsi jiddiy ravishda. – Ey Xudoyim, lekin, yaxshi qiz bo‘lish juda qiyin ekan! Balki bu hali o‘rganmaganidandir.

Topsi yuzini etagi bilan yopdi. Ofeliya uni bo‘lmadan ohista kuzatib qo‘ydi. Chiqib ketarkan, Topsi aziz soch tolasini bag‘riga mahkam bosib borardi.

Hamma chiqib bo‘ldi, Ofeliya eshikni yopdi. Soch ularshish marosimi paytida bu muhtaram xonimning ko‘zidan ancha yosh to‘kildi. Ofeliya bu hol Yeva uchun zararli deb qo‘rqardi.

Sen-Kler yuzini qo‘li bilan bekitib o‘tirardi.

– Ota! – muloyimgina dedi Yeva, uning qo‘liga teginib.

Sen-Kler cho‘chib tushdi, lekin javob bermadi.

– Otajonim! – dedi Yeva.

– Chidolmayman, – dedi Sen-Kler o‘rnidan turib, bunga bardosh berolmayman!

– Ota, yuragimni poralamang! – dedi Yeva, o‘rnidan turib va uning quchog‘iga otilib. – Buncha azoblanish kerak emas. – Shunday deb qiz qattiq yig‘lab yubordi.

U, holdan ketgan kabutar kabi, otasi qo‘lida yotardi. Otasi esa qizining ustiga engashib, uni shirin so‘zlar bilan yupatardi.

Mari, o‘rnidan turib, shoshib o‘z bo‘lmasiga jo‘nadi, Marining qattiq tutqanog‘i boshlandi.

– Yeva, menga sochingdan bermading, – dedi otasi, ma’yus bo‘lib.

– Sochlarim hammasi sizniki, ota, – deb javob berdi-u kulimsirab, – siz bilan oyimniki. Sizlar aziz xolachamga ham sochimdan istagancha berishingiz kerak. Sochlarimi-ni odamlarimizgagina o‘zim ulashmoqchi edim, chunki, bilasizmi, ota, mendan keyin ularni unutishlari mumkin, yana shunisi ham borki, ular meni yaxshiroq eslarida tutsinlar, dedim.

Sen-Kler ortiq bir so‘z demadi.

Yeva tez so‘nmoqda edi. Ortiq hech umid qolmadı. Uning shinam yotog‘i kasalxona palatasiga aylandi. Ofe-liya kecha-yu kunduz Yevaning yonida o‘tirardi, uning bu xizmatini ko‘rgan kishigina, bu olıyanob ayolning fazilatlariga to‘la baho bera oladi. Uning qo‘li juda epchil, ko‘zi hushyor bo‘lib, kasallik vajidan kelib chiqqan ko‘ngilsiz hodisalarini juda ustalik bilan yo‘qotar, hamma ishni o‘z vaqtida bajarar, aqli-xushi joyida, doktorning topshiriqlarini so‘zsiz yodida tutardiki, uning o‘rnini hech kim bosolmasdi. Uning uncha-muncha g‘alati odatlarini ko‘rib, yelkałarini qisib taajjublanib yurgan beg‘am janubliklar, endi uyda uning eng kerakli odam bo‘lib qolganini e’tirof qilishga majbur bo‘ldilar.

Yevaning bo'lmasiga Tom tez-tez kirib turardi. Qizda asabiy holat kuchaygan, bundan u qattiq azob tortar va qo'lda ko'tarib yurishganda o'zini ancha tuzuk his etardi. Uning yostiq ustiga yotqizilgan nozik gavdasini goh bo'lma ichida va goh ayvonda ko'tarib yurish Tom uchun eng zo'r quvonch edi. Ko'ldan yoqimli shabada esib qiz sal tetiklandi deguncha, Tom uni ko'tarib bog'ga, apelsin daraxtining ostiga chiqar va ular yaxshi ko'rgan eski skameykaga o'tirardilar. Otasi ham Yevani tez-tez ko'tarib yurardi. Lekin Sen-Kler Tomdan kuchsizroq edi va u charchaganda, Yeva der edi:

– Ota, meni Tom ko'tarsin! U bechora meni ko'tarishni juda yaxshi ko'radi. Mening uchun bundan boshqa bir narsa qilish qo'lidan kelmaydi! Holbuki, u menga nuqlu yaxshiliklar qilishni istaydi!

– Men ham, Yeva – derdi otasi.

– Lekin siz istagan narsangizni qila olasiz, ota.

Siz menga kitob o'qib berasiz, kechalari men bilan o'tirasiz. Tom esa faqat ko'tarib yura oladi, xolos, keyin bilaman, bu ish sizdan ko'ra unga osonroq. U juda baquvvat!

Tomning butun fikri-zikri Yeva uchun biror yoqimli ish qilishda edi, lekin faqat ugina emas, uydagi har bir negr Yevani xursand qilishga harakat qilar va har biri qo'lidan kelganini qilardi. Bechora Memmi jon-dili bilan o'z arzandası oldiga kirishga urinardi. Lekin uning oldiga kirib turish uchun Memmida hech qanday imkon yo'q edi.

Marida uyqusizlik boshlandi. Modomiki u uxlamas ekan, boshqalarni ham uxlagani qo'ymasdi. U kechasi bilan Memmini yigirma marta uyg'otar yo oyog'ini uqalab qo'yishni, yo boshiga latta ho'llab qo'yishni, yo dastro'molchasini topib berishni, yoki Yevaning yotog'ida nima shov-qin bo'layotganligini bilishni, bo'lmasi juda yorug' bo'lib

ketganligidan pardani tashlab, yoki juda qorong'i bo'lib ketganligidan pardani ko'tarib qo'yishni talab qilardi.

Memmi Yevaning oldiga kunduzi kirib, uning kamko'stiga qarashib chiqishga urinsa, Mari aql bovar qilmaydigan g'alati ishlarni o'ylab topardi. Shuning uchun Memmi Yeva bilan faqat yashirinchha ko'rishishga muyassar bo'lardi.

– Sezishimcha, hozirgi burchim – o'zimni yaxshilab parvarish qilishdir! – derdi Mari. – Umuman olganda, men judayam darmonsizman, buning ustiga aziz bolamni parvarish qilishga ham to'g'ri keladi.

– Ey, shundaymi, azizim! – dedi Sen-Kler. – Men esam, kuzina Ofeliya seni bolaga qarashdan bo'shatib qo'yganadir, deb o'ylagan edim.

– Siz erkaklar hammangiz shunaqa o'ylaysiz. Bola shu ahvolda yotar emish-u, onasini unga qarashda bo'shatib bo'larmish! Aytganday! Boshimdan nima kechayotgani ni hech kim bilmaydi. Men senga o'xshab parvoysi-palak emasman.

Sen-Kler kulimsiradi. Shunday vaqtida o'zini tabassumdan to'xtatolmagani uchun afv etishingiz kerak. Bu chog'da u ham kulimsiray olardi! Yeva shunday bemalol va tinch holda go'r yoqasida yotardiki, o'limning yaqinlashayotganini tasavvur etish ham mumkin emasdi. Qiz qyinoqni sezmasdi, bu hol osoyishta va asta-sekin darmonsizlanish edi, u bilinmay kun sayin zo'rayib borardi. Yeva shunchalik go'zal, shunchalik sermuhabbat, shunchalik vafodor va baxtiyor ediki, hamma uning pok yuragiga maftun edi.

Sen-Klerda g'alati xotirjamlik paydo bo'ldi. Bu tuyg'u-kuzda, qo'qqisdan yorug' va qalin o'rmonga kirib, rangbarang tovlanib turgan daraxtni va buloq yonida so'liyotgan so'nggi gullarni ko'ranimizda paydo bo'ladiganday

osoyishta va tinch tuyg'u edi. Garchi biz bu narsalarning tezda yo'qolib ketishini bilsak ham uni ko'triboq quvonamiz.

Vafodor Tom Yevanining orzu va sezgilarini boshqalaridan ko'proq bilar edi. Otasiga aytishga botinolmagan gaplarining hammasini Yeva unga aytardi. Tom bora-bora o'z bo'lmasida tunamaydigan bo'lib qoldi va chaqiriqni eshitgani zamon o'midan turish uchun tayyor bo'lib ayvonda yetardi.

– Tom tog'a, nima uchun daydi it kabi ro'para kelgan joyda yotadigan bo'lib qolding? – dedi Ofeliya. – Men seni har doim o'z ko'rpasida yotishga odatlangan tuzuk odamlardan, deb o'ylardim.

– Ha, bo'lmasam-chi, Ofeliyaxon, – dedi Tom sirli qilib. – Lekin endi...

– Nima endi?

– Astaroq gapirishaylik, mister Sen-Kler eshitishi mumkin. Bilasizmi, Ofeliyaxon, bugun kechasi birortamiz uxlamasak, deyman.

– Tom tog'a, nima bo'ldi, Yevaxon bugun o'zini yomonroq sezyapman, deb aytdimi?

– Yo'q, lekin bugun ertalab uzilishim yaqin deb aytdi. Ofeliya bilan Tom orasida o'tgan bu gap kechasi soat o'n bilan o'n bir o'rtasida bo'ldi. Ofeliya uxlagini yotish uchun ichkari eshikni yopgani bordi va ostona yonida cho'zilib yotgan Tomni ko'rdi.

Ofeliya asabiy yoki har narsa ta'siriga beriluvchan xotin emasdi, lekin Tomning g'alati so'zлari uni juda hayratda qoldirdi. Yeva butun kechasi o'zini juda xursand va tetik his etdi. U karavotda o'tirib, o'yinchoqlarni qarab, ularni do'stlariga taqsimladi. Uning harakatlari jonliroq, ovozi ham keyingi vaqtdagidan ko'ra xiyol dadilroq edi. Kechasi uning qoshiga otasi keldi. Uning nazarida, qizi

kasal bo‘lmasdan ilgarigidek ko‘rindi. U xayrlashib Yevani o‘parkan, Ofeliyaga dedi:

– Kuzina, uni qutqarib qolamiz. U ancha tuzuk.

U ketdi, shunda yuragida yengillik his etdi, bir necha haftalardan beri hech bunday bo‘limgandi.

Yarim kechasi Yevaning yotog‘ida shovqin eshitildi. Allakimning tez yurib ketayotgani bilindi. Shoshilib borayotgan odam – tong otguncha uxlamaslikka ahd qilgan Ofeliya edi. Yarim kechasi u qizning yuzida shunday bir narsani ko‘rib qoldiki, tajribali enagalar buni aynish deb aytadilar. U shoshib eshikni ochgan zamon, har doim tayyor turgan Tom chaqqon irg‘ib turdi.

– Doktorga yugur, Tom! Bir daqqa ham kechikma! – dedi Ofeliya, keyin Sen-Klerning eshigini qoqdi.

– Ogyusten, bu yoqqa chiqing.

Bu so‘z Sen-Klerning yuragiga, tobut qopqog‘i yerga tegib chiqargan ovozday taqillab tegdi. U o‘rnidan irg‘ib turdi. Bir lahzada Yevaning yotoqxonasiga kirib, jimgina uxlayotgan qizi ustida engashdi.

Nima ko‘rdi deng? Nega uning yuragi gumurib ketdi? Na Sen-Kler va na Ofeliya bir-birlariga bir og‘iz so‘z qotmadi.

Qizning yuzida hech qanday o‘lim nishonasi yo‘q. Uning yuzi yorug‘ va ulug‘vor edi. Shunga qaramay, Sen-Kler hamma narsa tamom bo‘lganini butun vujudi bilan sezdi. Bir necha daqiqadan keyin Tom doktorni olib keldi. Doktor qizga qaradi-da, indamay to‘xtab qoldi.

– O‘zgarish qachon boshlandi! – deb sekingina pichirlab so‘radi u Ofeliyadan.

– Yarim kechaga yaqin, – deb javob berdi u.

Doktoring kelishi bilan uyg‘ongan Mari narigi bo‘lmadan shoshilib yugurib kirdi.

– Ogyusten. Kuzina... Hoy! Nima gap?.. – deb tez so‘-ray boshladi u.

– Sekin – xirillab dedi Sen-Kler. – Qiz jon beryapti!

Bu so‘zni eshitib Memmi xizmatkorlarni uyg‘otgani yugurdi. Hayal o‘tmay, uydagilarning hammasi oyoqqa ko‘tarildi. Chiroqlar miltillar, qadam ovozlari eshitilar, qo‘rqan va yig‘lagan kishilar oynakli eshikdan mo‘ralardilar. Lekin Sen-Kler hech narsa eshitmas va so‘zlamasdi, uxlayotgan qizining chehrasinigina ko‘rardi.

– Oh, agar u uyg‘onib bir narsa desa edi! – deb pi-chirladi u.

Keyin unga engashib, qulog‘iga dedi:

– Yeva, azizim!.. Kattakon ko‘k ko‘zlar ochildi, yuzida tabassum ko‘rindi. U boshini ko‘tarib, so‘zlashga harakat qilardi.

– Meni taniyapsanmi, Yeva?

– Otajonim! – dedi qiz va so‘nggi kuchini yig‘ib, uning bo‘yndan quchoqladi.

Lekin qo‘lchalar shu ondayoq tushib ketdi, Sen-Kler uning boshini ko‘targan edi, qizning yuzini o‘lim titrog‘i bosdi. U, nafas olishga urinib, kichkina qo‘llarini yuqori ko‘tardi.

– Qanday dahshat! – dedi Sen-Kler yuzini o‘girib va ni-ma qilayotganini o‘zi ham bilmay, Tomning qo‘lini siqdi. – Oh, Tom, do‘stim, bunga chidayolmayman.

Tom ham xo‘jayinining qo‘lini siqdi. Uning qora yu-zidan yoshlari oqardi.

– Ibodat qil, tezroq azobdan qutulsin. U yuragimni til-ka-pora qilyapti! – dedi Sen-Kler.

– Tamom bo‘ldi! Tamom bo‘ldi, aziz xo‘jayin! Unga qarang, – dedi Tom.

Qiz og‘ir nafas olib yostiqlarda yotardi. U bo‘g‘ilar, kat-takon, ravshan ko‘zları olayib, so‘ng to‘xtab qolardi. Lekin

uning chehrasi hali ham ulug‘vor, hali ham porlar edi. Buni ko‘rgan odamlarning qayg‘uli yig‘isi o‘chib qoldi. Hammalar ni nafas olmay, jimgina uning tevaragiga to‘planishdi.

Sen-Kler mayin qilib, mehribonlik bilan:

– Yeva, – deya chaqirdi uni.

U ortiq otasining ovozini eshitmadni. Uning yuzidan nuli tabassum o‘chdi va u bo‘lib-bo‘lib, dedi.

– Muhabbat... shodlik... orom!

Bir necha daqiqadan keyin u uzildi.

XXVII BOB

Dunyoning ishi mana shunday tugar ekan

Yevaning yotog‘idagi haykal va rasmlarga oq pardalar tortildi. Kishilarning bosiq oh-vohlari va sekin bosayotgan qadam ovozlari eshitiladi; kunduzgi yorug‘lik derazalar dan, nim yopiq pardalardan o‘tib uyga tushgandi.

Karavotga oq choyshab yozilgan, unda kichkina jasad mangu uxlamoqda.

Yevaga, uning eng sevgan oddiy oq ko‘ylagi kiydiril-gandi. Pardalardan o‘tayotgan och pushti nurlar murdaning muzdek yuziga issiq shu’la separdi. Uzun kipriklar qizning nozik yuziga tushgan, boshi bir yoniga sal qiyshaygan, u go‘yo uxbab yotgandek edi.

Sen-Kler qo‘llarini qovushtirib qiziga boqib turardi. Oh! Uning nima o‘layotganini kim biladi? Kishilarning: „U o‘ldi“, degan ovozlari eshitilgan chog‘dan boshlab bu xonani dahshatli qorong‘ilik bosdi. Sen-Kler atrofidagi kishilarning so‘zlarini eshitardi; undan so‘rasalar javob berardi: „Yevani qachon ko‘mamiz, qayerga qo‘yasiz?“ – deb so‘radilar: u betoqatlik bilan: „Menga baribir“, deb javob berdi.

Adolf bilan Roza bo'lmani tuzadilar. Ular ikkalasi ham yengiltak, beg'am va bachkana, lekin yuraklari muloyim va sezgir edi. Bo'lmani tuzashga Ofeliya boshchilik qildi, kam-ko'stlarini ko'rsatib turdi, lekin hamma narsaga nozik na shoirona tus bergen va muzdek xonadan hamma og'ir va motamsaro ko'rinishini quvib chiqargan Adolf bilan Roza bo'ldi. Yangi Angliyadagi janoza marosimlari xuddi mana shunisi bilan farq qiladi.

Burungidek etajerkalarda barglari so'lgan, oq, nozik, muattar gullar turardi. Yevaning oq dasturxon solingen stolchasiga uning sevgan guldoni qo'yildi va uning ichiga serbarg oq gulning bitta g'unchasi solindi. O'z xalqiga xos yuksak didli Adolf bilan Roza ancha vaqt syuzana va pardalarning qatlarini yozish bilan shug'ullandi.

Roza asta-asta yurib, oq gullar solingen savatni ko'tarib bo'limga kirganda, Sen-Kler xayolga cho'mib, qizi oldida turardi. Roza uni ko'rib, hurmat yuzasidan chekindi, lekin uning sezmayotganligini bilib, qizning yoniga keldi-da, tevarak atrofiga gullar qo'ya boshladi. Roza Yevaning kichkina qo'lchasiga chiroyli ra'nogul shoxchasini ushlatganini, qolgan gullar bilan esa yotog'ini chiroyli qilib bezatganini Sen-Kler tushida ko'rayotgandek bo'ldi.

Eshik ochilib, Topsi ko'rindi. Ko'zlar yig'idan shishgan edi. U nimadir etagiga yashirib turardi, Roza „Kirma!“ degandek po'pisa qilsa ham u bo'limga kirdi.

– Bu yerdan chiq, – dedi Roza pichirlab. – Unga sening keraging yo'q!

– Qo'yvor meni! Men gul olib keldim... Juda chiroyli – dedi Topsi, nim ochilgan qizil gul g'unchasini uzatarkan – ruxsat ber, faqat mana shu bittagina gulimni qo'yay.

– Yo'qol bu yerdan.

– Uni qo'y! – dedi Sen-Kler, birdan yer depsinib. – U kirishi mumkin. Kiraversin.

Roza ko'nishga majbur bo'ldi. Topsi o'lik yoniga yaqinlashib, oyoq tomoniga gulni qo'ydi, keyin birdan o'zini karavot yonida polga tashlab, qattiq yig'lay boshladi.

Bo'limga shoshilib Ofeliya kirdi. U Topsini turg'izib, tinchitishga urindi, lekin urinishlari behuda edi.

– Oh, Yevaxon! Men ham o'lay, o'lib qo'ya qolay!

U o'kirib va chinqirib dodlardi. Sen-Klerning murda-dek oppoq yuziga qon kirdi va Yeva o'lgandan keyin birinchi bor uning ko'zida yosh paydo bo'ldi.

– Tur, bolam, – dedi Ofeliya. – Bunday dodlama. Kerakmas... Yevaxon endi samoga uchgan...

– Uni endi hech qachon ko'rmayman axir! – deb xitob qildi Topsi. – Uni endi hech qachon ko'ra olmayman!

Shunday deb Topsi yana qattiq yig'ladi. Ancha vaqt hammalari indamay turishdi.

– U menga: „Seni yaxshi ko'raman“ derdi! Mening hech kimim qolmadi, endi nima qilaman, hech kimim qolmadi, – dedi Topsi.

– Bu to'g'ri gap! – dedi Sen-Kler. – Lekin, kuzina, – deb u, Ofeliyaga murojaat qildi. – Bir iloj qilib sho'rlikni tinchiting.

Ofeliya uni erkalab, ammo dast ko'tarib, bo'lmasdan olib chiqdi. Ofeliyaning ko'zidan yosh oqmoqda edi.

– Topsi, bechora qizcha, – dedi u Topsini o'z bo'lmasiga olib kelib. – Unday dema! Garchi men Yevaga o'xshagan bo'lmasam ham, seni yaxshi ko'raman. Endi yaqinlarimni sevishni undan o'rganaman. Endi men seni yaxshi ko'ra olaman... Hozir seni yaxshi ko'rdim.

Ofeliyaning ovozi aytgan so'zidan ko'ra ishonchliroq edi, yuzidan oqayotgan yoshlari esa so'zining samimiyligini tasdiqlab turardi. Shu ondan boshlab u Topsini o'ziga uzil-kesil maftun etdi.

„Oh, jonio Yeva, qisqagina umringda qanchadan qancha yaxshiliklar qilding! – deb o'yldi Sen-Kler. – Lekin men o'zimning arzimas va samarasiz o'tgan ko'p-ko'p yillarimdan nimani ko'rsata olaman?“

Bo'lmada ancha vaqt sekin pichirlashish va yurish eshitilib turdi. Do'stlar Yeva bilan vidolashgani kelardilar. Keyin tobut keltirishdi... So'ngra ko'mish marosimi boshlandi. Eshik yoniga ekipajlar kelib to'xtar, uyg'a begona kishilar kirardi... Oq ro'mol va lentalar, qora motam belgilari ko'zga chalinardi... Sen-Kler hayot, yurar va qimirlardi. U ortiq ko'zyosh to'kmasdi. U faqat bir narsani – tobutdagi oltinsoch boshchani ko'rardi. Keyin u buni ro'ja bilan yopishganini va tobut qopqog'ining bekilganini ko'rdi... Keyin u hamma bilan birga bog'ning etagi, skameyka yoniga bordi: bu yerda, Yeva ko'pincha, Tom bilan gaplashib o'tirar, qo'shiq aytar, kitob o'qir edi, hozir esa bu yerda kichkina qabr qazilgan... Sen-Kler qabr chetida turib, unga xolis tikilib qoldi. U tobutni tushirganlarini ko'rdi... Kichkina qabrga tuproq tashlab, uni ko'mganlaridan so'ng esa, u yerda qizi – Yevajoni yotganligiga va undan umrbod ajralganiga ishonmasdi.

Keyin hamma tarqalib, ortiq Yeva qaytib kelmaydigan xonalarga kelishdi. Mari xonasining derazasiga pardalashlog'liq edi. Mari karavotda yotib, joni boricha dodlar va hamma xizmatkorlarini daqiqa sayin yoniga chaqirardi. U hatto ularni yig'lagani ham qo'ymasdi. U ishonardiki, yolgiz ugina qayg'u chekadi, dunyoda hech kimning u kabi sezgisi yo'q, bo'limgan va bo'lmaydi ham.

– Sen-Kler, sendan bir qatra ham yosh tommadi! – dedi u. – Odam ham shunchalik hissiz bo'ladimi! Mening qanday azob chekayotganimni u tushuna olarmidi!

Kishilarni tashqi taassurot ko'pincha aldab qo'yadi; shuning uchun ham qullarning ko'pi chindan ham: „Mari qi-

zi uchun hammadan ortiq qayg‘urarkan“, degan fikrga keldi. Ayniqsa unda tutqanoq talvassasi boshlanib, u shifokorga kishi yuborgandan keyin va nihoyat: – „Men ham bugun erta o‘laman“, deb aytganidan so‘ng, bu fikr yana-da mustahkamlandi. Hamma uyning u boshidan-bu boshiga yugurar, qaynoq suv to‘ldirilgan shishalar va qaynoq suvgaga ho‘llangan dokalarni ko‘tarib borishardi. Hamma gangib qolgan, to‘polon – bu esa, aslida, bemorga orom berardi.

Lekin Tom xo‘jayiniga chin mehr qo‘ygandi. Sen-Kler qayerga bormasin, Tom qayg‘urib kuzatardi. Sen-Kler Yevanining bo‘lmasida, rangi oqarib, indamasdan o‘tirarkan, Tom uning quruq va harakatsiz ko‘zlaridan, u Marining barcha dod-faryod va yig‘i-sig‘ilaridan kuchliroq bo‘lgan azob-uqubat kechirayotganini ko‘rardi.

Sen-Kler oilasi bir necha kundan keyin shaharga qaytdi. Qayg‘u-g‘am ezgan Ogyusten, fikrlarini boshqa nar-saga yo‘naltirmoq uchun sharoitni o‘zgartirishi lozim edi. Shuning uchun ular kichkina qabrli bog‘ bilan yozlik uyni tashlab, yangi Orleanga qaytdilar. Ovoragarchilik va yangi taassurotlar bilan o‘z dardini unutmoq maqsadida Sen-Kler ko‘p vaqtini ko‘chada o‘tkazardi. U kulimsirab so‘zlashar, gazetalarni o‘qir, siyosat haqida gapirar va ishlar bilan qiziqib turardi. Yo‘qsa, bu ko‘chada yoki qahvaxonada uchratganlar, uning musibatini faqat shlapasidagi motam alomatidan bilardilar. Beg‘am tabassum tagida qabr singari qop-qorong‘i yurak yashirinib yotganini kim bilardi deysiz?

– Sen-Kler qiziq odam, – deb Mari Ofeliyaga hasrat qilardi. – Uning yaxshi ko‘rgan kishisi bo‘lsa, u faqatgina bechora Yevamiz, deb o‘ylardim. Lekin u Yevani tez yodidan chiqaribdi. Uni aqallli Yeva haqida so‘zlashga ham majbur etolmayman. Hech bo‘lmasa u gapirishganda dardini aytar, deb o‘ylagan edim.

– Daryoning qayeri tinch oqsa, o'sha yeri chuqurroq bo'ladi, – dono maqol tarzida dedi Ofeliya.

– Be, bunga ishonmayman! Bular hammasi safsata. Agar kishi chuqur his etsa, boshqaga bildiradi, uni yashirib turolmaydi. Chuqur his etmoq katta baxtsizlik demakdir! Sen-Klerdaqa bo'lsam koshki edi. Mening zo'r sezgirligim yuragimni poralaydi.

– Ey, xonim, mister Sen-Klerning suyagi qoldi, xolos! U hech nima yemas emish, – dedi Memmi. – Men bila-man, Yevaxon sirayam uning yodidan chiqmaydi. Yolg'iz uningga emas, aziz kichkintoyimiz hech kimning yodidan chiqmaydi! – dedi u, ko'zyoshini artarkan.

– Har holda u menga nisbatan juda beg'am, – deb davom etdi Mari. – U menga bir og'iz shirin so'z aytgani yo'q axir, u ota yuragiga qaraganda ona yuragi sezgirroq bo'lishini bilishi kerak. Ichimdan nimalar o'tayotganini hech kim tasavvur etmaydi. Meni yolgiz Yeva tushunardi, lekin u yo'q endi!

Shunday deb Mari o'zini kresloga chalqancha tashlab, betinim yig'lay boshladi.

Mari har bir narsa yo'qolgandan keyingina uning qadr-qimmatiga yetadigan odamlardan edi. U o'ziga qarashda har bir narsadan kamchilik topardi, lekin biror narsasi qo'ldan ketdimi, buning uchun – benihoya aza tuta boshlardi.

XXVIII BOB

Sen-Klerning uyida kunlar, haftalar birin-ketin o'taverdi. Kichkina qayiqcha botib ketgan joyda hayot to'lqin-lari o'z odatlarcha tebranardi. Kundalik ko'ngilsiz hayot hissiyotlarimizni mensimasdan, iltifot qilmay, sovuq, beparvo o'tib borardi. Biz yemog'imiz, ichmog'imiz, uxlamog'imiz, uyg'onmog'imiz, sotmog'imiz, xarid qilmo-

g‘imiz, surishtirmog‘imiz, savollarga javob bermog‘imiz lozim – xullas, hech qanday qiziqish qolmagani holda, minglarcha ro‘yolar ortidan quvish va sovuqqina, shundayin kun o‘tkazmoqqa odatlanish qoladi. Sen-Kler butun orzu-istiklari qizi bilan bog‘liq ekanini ilgari sezmag'an ham ekan. U Yevani deb o‘zining pulli ishlarini to‘g‘rilar, Yevani deb vaqtini taqsimlar edi. U hamma ishni – narsalar xarid qilishni, ishlarni yaxshilash, o‘zgartish va yo‘lga solishni faqat Yeva uchun qilishga juda o‘rgangan ekan, endi Yeva ketgandan keyin, unga o‘ylaydigan narsa va qiladigan ish qolmagandek ko‘rindi.

U yangi Orleanga qaytgandan keyin, tezda Tomni ozod qilish payiga tushdi. Ishning barcha rasmiy tomonlarini tamomlashi bilanoq, Tomni ozod qilib yubormoqchi edi. Lekin kundan-kun, u Tomga qattiqroq bog‘lana boshladi. Uning nazarida, bo‘sab qolgan bu olamda hech kim Yevani Tom kabi eslatmasdi. Shuning uchun u doim Tomning o‘z yonida bo‘lishini talab qilardi va kishilar oldida ichki hissiyotlarini oshkor qilishni sevmaydigan, ichida sir saqlaydigan bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha Tom huzurida o‘z fikrini baralla aytaverardi. O‘zining yosh xo‘jayini orqasidan Tomning doim, hamma joyda, muhabbat va sadoqat bilan ergashib yurishi shuning uchun ham taajjublanarli emasdi.

– Gap shunday, Tom, – dedi Sen-Kler, uni ozod qilish harakatiga kirishgan kunining ertasiga, – seni ozod kishi qilmoqchiman. Narsalaringni yig‘ishtiraver. Kentukkiga jo‘naysan.

Tomning yuzida quvonch nuri sochildi. U qo‘lini os-monga ko‘tarib, ruhlanib, dedi:

– Tangrim, senga shukr!

Bu gap Sen-Klerni ajablantirdi. U – Tom mendan oson-likcha ajralib ketolmas“, deb o‘ylagandi.

– Biznikida turmushing yomonmidi? Nega bunday quvonasan? – deb sovuqqiga so'radi Sen-Kler.

– Yo'q, yo'q, xo'jayin! Siznikidan ketishim uchun quvonmayman, ozod bo'lishim uchun quvonaman!

– Tom, sening uchun ozod bo'lishdan ko'ra qullikda yashash yaxshiroq emasmi?

– Yo'q albatta yo'q, mister Sen-Kler, – qat'iy dedi Tom. – Albatta yo'q!

– Lekin sen menikidagidek yashamoq uchun o'z mexnating bilan pul topolmaysan-ku. Bunday yaxshi kiyim kiyish uchun ham...

– Buning hammasini bilaman, mister Sen-Kler. Xo'jayin, siz menga juda saxiysiz. Shunday bo'lishiga qaramay, xo'jayin, yomon bo'lsa ham o'z kiyimim bo'lsin, yomon uy bo'lsa ham o'z uyim bo'lgani afzalroq, yo gapim noto'g'-rimi, xo'jayin?

– To'g'ri aytasan, Tom. Bir oydan keyin ketishing mumkin, andak o'g'ringandek dedi Sen-Kler. – Chindan ham senda ketmaslik uchun sabab yo'q, – ancha xursandlik bilan dedi u.

Shunday deb o'rnidan turdi-da, bo'lizada yura boshladи.

– Xo'jayinning musibati yo'qolmaguncha men ketmayman, – dedi Tom. – Xo'jayinimga zarur ekanman, u bilan qolaman.

Deraza yonida turgan Sen-Kler Tom yoniga keldi-da, uning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Ey Tom. Yuraging mucha muloyim va tentakchalish!

Mehmonlarning kelishi ular suhabatini uzdi.

Mari Yevaning vafotiga qo'lidan kelgancha qayg'u chekardi. Yeva shafqatsiz 'bekaning xudbin talablaridan xizmatkorlarni tez-tez qutqazib turardi. Mari boshiga biror kulfat tushib qolganida, boshqalarning tinkasini quritishga qobil bo'lganidan, xizmatkorlar Yevaning o'limiga qat-

tiq afsuslanardilar. Xususan, oilasidan ajratilgan bechora Memmi kampir betinim qayg'urardi. Yeva uning yagona ovunchog'i edi. U kun-u tun yig'lar, bekasini ilgarigidek parvarish qilolmas va shuning uchun bekasidan tez-tez dakki eshitardi.

Ofeliya ham Yevadan judo bo'lganidan qayg'urardi, lekin bu dard uning mehribon, sof dilida samara qoldirdi. Yana ham nazokatli va muloyim bo'lib qoldi. U, Topsini o'qitishga yanayam jiddiyroq kirishdi, Topsining qo'li badaniga tegib ketganda, ijirg'anmaydigan va umuman undan hazar qilmaydigan bo'lib qoldi. Topsi ham birdaniga yaxshi bo'lomadi, albatta, lekin Yevanинг hayoti va o'limi unda yaqqol o'zgarish yasadi.

Hech narsa bilan ishi bo'lmaslik kayfiyati yo'qoldi, umid va orzular paydo bo'ldi, yaxshilik qilish uchun intilishlar tug'ildi; bular bari qandaydir tartibsiz holda, o'qtin-o'qtin, lekin tobora ko'proq ro'y bera boshladи.

Bir safar Ofeliya chaqirganda, u qo'yniga bir narsani shoshilgancha tiqib keldi.

– Qo'yningdagi nima, yaramas? Yana biror narsani o'g'irladingmi? – dedi Roza va dag'allik bilan uning qo'lidan tortdi.

– Kechirasiz, Rozaxonim! – dedi Topsi uning qo'lidan chiqishga urinib. – Bu sizning ishingiz emas!

– Bir narsani yashirayotganiningni ko'rdim. Nayranglariningni bilaman! – dedi Roza va qo'lidan tutgancha qo'yniga qo'l tiqmoqchi bo'ldi.

Topsining jahli chiqdi va kuchi boricha qo'l va oyoqlari bilan tepinib, o'zini himoya qila boshladи. To's-to'polon ustiga Ofeliya bilan Sen-Kler yetib kelishdi.

– Bu bir narsani o'g'irlabdi! – deb qichqirdi Roza. – Hech narsa o'g'irlaganim yo'q! – deb javob berdi Topsi, qattiq yig'lab.

– Sen nimani yashiryapsan? Bu yoqqa ber, – qat’iy dedi Ofeliya.

Topsi avval ikkilanib turdi, ammo ikkinchi bor „ber“ deb talab qilingandan so‘ng, qo‘ynidan o‘zining eski pay-pog‘iga solingan paketni oldi.

Ofeliya paketni yozdi. Uning ichidagi qogozga o‘ral – gan narsa soch ekan: buni hamma bilan xayrashgan o‘sha unutilmas kunda Yeva Topsiga bergen edi.

Sen-Kler qattiq ta’sirlandi. Topsi polga o‘tirib, boshiga etagini yopdi-da, dodlab yig‘lay boshladи. Bu voqeа bir tomondan kishini ta’sirlantirsa, ikkinchi tomondan kulgisini qistatardi.

Sen-Kler kulimsiradi. Lekin: – Qo‘y, yig‘lama, narsangi ni qaytarib olasan! – derkan, ko‘zidan jiqla yosh oqdi.

Keyin uning tizzasiga paketni tashlab, Ofeliya bilan mehmonxonaga kirib ketdi.

– Men chindan ham undan bir narsa chiqara olasiz degan fikrga kelyapman, – dedi u. – Chinakam qayg‘u chekishga qobil har bir dil hamma yaxshilikka ham qobil bo‘ladi.

– Qiz balo chiqyapti, – dedi Ofeliya. – Undan umidim katta. Lekin, Ogyusten, – deb davom etdi uning yongiga qo‘lini qo‘yib, uning kimnikiligini bilmoqchiman – menikimi, siznikimi?

– Uni sizga hadya qilganman, – dedi Ogyusten.

– Ha, so‘zda, lekin men uning qonunan meniki bo‘lishini istardim, – dedi Ofeliya.

– Hali shunday deng! – dedi Ogyusten. – Abolitsionistlar nima deb o‘ylar ekan? Agar siz quldor bo‘lib qolsangiz, bunday gunohni yuvib yuborish uchun ular butun kun ro‘za tutadilar.

– Behuda gap! Uni o‘zimizniki qilib olmog‘imning sababi shuki, uni ozod shtatlarga olib ketib, u yerda ozod

qilib yubormoqchiman. Yo'qsa barcha harakatlarim bekorga ketadi.

– Ey, kuzina, bu qanday gunohki, kishi yaxshilik qilish uchun yomonlik qiladi“. Men bu tentakligingizni ma'ql topmayman.

– Hazillashmasdan, aqlliroy fikr yurgizishingizni istardim, – dedi Ofeliya. – Agar uni qullikdan xalos qilolmas ekanman, tarbiyalashga harakat qilishning keragi ham yo'q. Agar, chindan ham uni menga berishni istasangiz, qonunda belgilanganicha hujjat yozing.

– Xo'p, – dedi Sen-Kler. – Yozaman.

U o'tirib, gazeta o'qiy boshladi.

– Lekin men istardim – shu hujjatni hozir yozsangiz, – dedi Ofeliya.

– Nega buncha shoshilasiz?

– Qolgan ishga qor yog'adi, hozirgi ishni kechga surish kerak emas, – dedi Ofeliya. – Mana qog'oz, pero va siyoh, yozing!

O'ziga o'xshagan ko'p odamlar kabi, Sen-Kler bir ishni shu onning o'zidayoq qilishni uncha yoqtirmasdi, shuning uchun Ofeliyaning qattiq turib olishi unga yoqmadи.

– Qayoqqa shoshilasiz? – dedi u. – So'zimga ishonmaysizmi?

– Men bu ishning albatta yuzaga chiqishini istayman, – dedi Ofeliya. – Siz o'lib qolishingiz yoki xonavayron bo'lishingiz mumkin, u vaqtda Topsini kimoshdi savdosiga qo'yib sotib yuboradilar.

– Siz juda pishiq xotinsiz! Xayr, modomiki yankining qo'liga tushgan ekanman, itoat qilishdan bo'lak ilojim yo'q.

Sen-Kler ishning barcha rasmiy tomonlarini yaxshi bilardi: u in'om xatini dona-dona qilib, katta harflar bilan qiynalmay yozdi va ostiga chiroyli qilib imzo chekdi.

– Ana, masala hal, Vermont xonim! – dedi u Ofeliyaga qog'ozni uzatarkan.

– Balli, – kulimsirab dedi Ofeliya. – Aytganday, qog'ozni tasdiqlattirish kerak emasmi?

– Oh, bunisiyam bormidi, – dedi u va Mari xonasining eshigini ochib, – Mari, kuzina avtografigni yodnama qilib olmoqchi. Mana bu yerga, tagiga nomingni yoz.

– Nima gap? – dedi Mari qogozga ko'z yogurtirib. – Ajab kuzina taqvodor va xudojo'y odam, quldarlikni gunoh hisoblaydi, deb o'ylardim... Lekin uning miyasida bunday xayol tug'ilgan bo'lsa, jonio bilan xohishlarini bajaraman.

Shunday deb Mari, e'tibor qilmay, o'z nomini yozdi.

– Ana endi joni va tani sizniki, – dedi Sen-Kler unga qog'ozni berarkan.

– Ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday, – deb javob berdi Ofeliya. – Lekin endi unga yordam berib, homiylik qila olaman.

Sen-Kler mehmonxonaga kirib, yana gazeta o'qishga kirishdi.

Mari bilan o'tirishni yoqtirmagan Ofeliya qog'ozni ehtiyyot qilib yashirib, Sen-Klerning ortidan mehmonxonaga kirdi.

U kresloga o'tirib, ish to'qiy boshladi. Keyin birdan so'radi:

– Ogyusten, mabodo o'lib qolsangiz, unda qullaringizni nima qilish haqida birorta vasiyatnoma yozib qo'ydingizmi?

– Yo'q, – dedi Sen-Kler, o'qishida davom etib.

– Unday bo'lsa, sizning beg'amligingiz zo'r shafqatsizlikka aylanib ketishi mumkin.

Sen-Kler o'zi ham bu haqda ko'p o'ylardi, lekin men-simay javob berdi:

– Ha, men vasiyatnoma yozib qo'ymoqchiman.

– Qachon?.. – deb so‘radi Ofeliya.

– Shu kunlarda.

– Siz undan ilgariroq o‘lib qolsangiz-chi?

– Nega muncha menga yopishaverasiz, kuzina? – dedi Sen-Kler va gazetani o‘qishdan to‘xtab, Ofeliyaga taaj-jublanib qaradi. – Menda sariq isitma yoki vabo nishonasini sezdingizmi? Nega buncha jon kuydirib, o‘limimdan keyingi ishlarimni tuzish bilan shug‘ullanasziz?

– O‘lim hayotimiz yashnab turganda ham bizni olib ketgani keladi, – dedi Ofeliya.

Sen-Kler o‘rnidan turib, gazetani qo‘ydi va ko‘ngilsiz suhbatga xotima berish uchun parvo qilmay, ayvonning ochiq eshigi yoniga keldi. U o‘lim degan so‘zni o‘zicha takrorlab panjaraga suyandi-da, fontandagi suvning otilib chiqishiga qaray boshladi. Hovlidagi gullar, daraxtlar, gul-donlar, uning ko‘ziga tutun ichidan ko‘ringandek edi, va u hammaning og‘zida oddiygina bir so‘z singari aytiladi-gan, lekin, aslida, juda dahshatli kuchga ega bo‘lgan sirli „o‘lim“ so‘zini dilida takrorladi.

„Qiziq, – deb o‘yladi u, – shunday so‘z bor va shunday hodisa bor, lekin biz doim uni unutamiz. Odam bugun sho‘x, chiroyli, umid va orzularga to‘lib yashaydi, ertaga esa u yo‘q, butunlay yo‘q va abadiy bo‘lmaydi!“

U xayol surib ayvonda yurar va butunlay o‘z fikrla-riга chulg‘angandek ko‘rinardi. Tom tog‘a: „Choyga zang urildi“, deb ikki marta aytgandan keyingina Sen-Klerning diqqati unga tortildi.

Choy vaqtida u parokanda holda o‘ylanib o‘tirdi. Choydan keyin esa indamay, Mari bilan Ofeliya ortidan meh-monxonaga kirdi.

Mari, chivindan qo‘riqlaydigan shoyi choyshabni ustiga yopib, kushetkaga yota solib qattiq uxbab qoldi.

Ofeliya ish to‘qirdi. Sen-Kler bo‘lmaning u boshidan bu boshiga yurardi. Keyin:

– Bir ko‘chani aylanib kelay. Bahona bilan kechki gazetalarni ham qarayman, – dedi-da shlapasini olib chiqib ketdi.

Tom, Sen-Klerni darvozagacha kuzatdi va: – „Siz bilan birga chiqaymi?“ – deb so‘radi.

– Yo‘q do‘stim, – dedi Sen-Kler. – Men biror soatdan keyin qaytaman.

Tom ayvonda qoldi. Go‘zal oydin kecha edi. Tom oti-lib tushayotgan fontan suvini tomosha qilib va suvning jildirashini tinglab o‘tirdi. U o‘z oilasini, o‘z uyini esladi. Tez kunda u ozod kishi bo‘ladi va oilasiga qayta oladi. U xotinini va bolalarini sotib olish uchun ko‘p ishlayajak. U tez kunda o‘z qo‘llarim o‘zimniki bo‘ladi, oilamni ozod qilish uchun shu qo‘llar bilan ishlayman, deb o‘yladi-da, baquvvat muskullarini ushladi. Keyin u, yosh va oliyjanob xo‘jayini haqida o‘ylay boshladi; keyin uning esiga go‘zal Yeva tushdi. Tom uni shuncha ko‘p va uzoq o‘yladiki, fonzanning yarqiroq suvlari orasidan Yevaning oltin sochli boshchasi, xursand bo‘lib kulimsiragan yuzi ko‘ziga ko‘rina boshladi. Suvning jildirashi uni allalarkan, uxbab qoldi va tushiga Yeva kirdi: go‘yo u, boshida ra’no gulchambar o‘ralgan holda, odatdagidek sakrab-sakrab Tomning yoniga kelayotgandi, uning yuzlari qip-qizil va ko‘zlari zavqlanib chaqnarmish.

Birdan allakim darvozani qattiq qoqdi, odamlarning ovozi eshitildi, Tom uyg‘ondi.

U yugurib borib darvozani ochdi. Bir qancha begona odamlar ohista qadam qo‘yishib, allaqanday bir chakmon-ga o‘ralgan odamni ko‘tarishib kirdilar. Odamning yuziga yorug‘ tushdi va shu onda Tom qattiq ovoz bilan dod-

lab yubordi. Begona odamlar, yukni ko'tarib, Ofeliya ish to'qib o'tirgan mehmonxonaning ochiq eshididan kirdilar.

Kechki gazetalarni ko'rish uchun Sen-Kler qahvaxo-naga kirgan ekan. U gazeta o'qib turgan vaqtida, ikki mast odam mushtlashib qolibdi. Sen-Kler va yana birovlar ular-ni ajratmoqchi bo'lib, mushtlashayotganlardan birining qo'lidagi pichoqni olmoqchi bo'libdilar. Shu vaqtida haligi mast odam shu pichoqni Sen-Klerning biqiniga suqib yuboribdi.

Uy dod-faryod va yig'i-sig'iga to'ldi. Xizmatkorlar aqldan ozgandek sochlarini yulishar, o'zlarini yerga ko'ta-rib urishar va duo o'qib, nima qilishni bilmay, tevarak-atrof-da o'ralashardi. Faqat Tom va Ofeliya biroz tetik edilar; Marining qattiq tutqanog'i boshlandi. Ofeliyaning buyrug'i bilan mehmonxonadagi divanga darrov joy qilib, qonga belangan tanani qo'ydilar. Sen-Kler og'riq azobi va ko'p qon ketishi natijasida holdan ketgan edi. Ofeliya unga mador kirgizuvchi dori bergandan keyin, o'ziga kelib ko'zini ochdi, bo'limga razm solib, har bir narsaga diqqat bilan qarab chiqdi, eng oxiri uning nazari onasining rasmida to'xtadi.

Shifokor kelib ko'rdi. Shifokorning yuzidan ma'lum bo'ldi – umid yo'q. Shifokor jarohatni o'zi bog'lamoqchi bo'ldi va Ofeliya hamda Tomning yordami bilan buni bama-ylixotir bajardi. Bu chog' eshik hamda ayvon derazalari yonida to'plangan va qo'rqqan xizmatkorlar oh-vohlashar va duo o'qishardi.

– Endi, – dedi shifokor, – bularning hammasini xona-don chiqarish kerak. Kasal juda tinch bo'lsin.

Sen-Kler ko'zini ochdi va Ofeliya bilan shifokor chiqa-rayotgan sho'rlik qullariga tikilib qaradi.

– Bechora odamlar! – dedi Sen-Kler va uning yuzida achchiq pushaymon aksi ko'rindi.

Adolf chiqishdan qat'iy bosh tortdi. Bu dahshatli ho-

disa uni judayam aqldan ozdirib qo'ygandi: u o'z-o'zni polga ko'tarib urdi, uni hech kim yotgan joyidan ko'tara olmasdi.

Boshqalar Ofeliyaning talabiga bo'ysunib, chiqib ketdilar. Ofeliya: „Kasal xo'jayiningizning hayoti uning tinchligi va osoyishtaligiga bog'liq“, deb xizmatkorlarni ishontirdi.

Sen-Kler zo'rg'a gapirardi. Uning ko'zi ochiq edi: aftidan, uni achchiq fikrlar azoblardi. U anchadan keyin yonida tiz cho'kib turgan Tomning qo'liga qo'lini qo'yib dedi:

– Tom, bechora!

– Nima deysiz, xo'jayin? – deb ma'yus so'radi Tom.

– Men o'lyapman, – dedi Sen-Kler uning qo'lini qisib.

U Tomning qo'lidan ushlagancha jimgina, unga tikildi. Keyin ko'zini yumdi, lekin qo'lini qo'ymadidi. Mangulik darvozasi oldida qora va oq qo'llar bir-birlarini do'stona qisishib birlashdilar.

– Hushidan ketyapti, – dedi shifokor.

Sen-Klerning yuzi murdadek oqara boshladidi. Ammo shu bilan birga, uxlayotgan go'dakning yuzidagi kabi go'-zal osoyishtalik paydo bo'ldi.

U bir necha lahma mana shunday yotdi. Keyin u quvongan ko'zlarini ochdi, go'yo birovni tanigandek: „Ona“ dedi va jon berdi...

XXIX BOB

Himoyasizlar

Biz, o'zlarining saxovatli xo'jayinidan ajralgan qul negrlarning qanchalik umidsizlikka tushishi haqida ko'p eshitamiz. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, chunki judolikka uchragan qullandidan ortiq himoyasiz kishi dunyoda bo'lmaydi.

Otasidan ajralgan bolani do'stlari va qonun himoya qiladi, uning huquqlari e'tirof qilinadi. Qulning hech narsasi yo'q. Qonun buyicha uning hech qanday huquqi yo'q, chunki qonun unga mol deb qaraydi. Qullarga inson sifatida yashamoq imkoniyati yolg'iz, tasodifan ular saxovatli xo'jayin qo'liga tushgan chog'laridagina beriladi, xo'jayin o'lganda esa qulning hech nimasi qolmaydi.

O'z hukmronligidan insonlarcha va olivjanob foydalanana oladigan odamlar dunyoda kam. Bu hammaga ma'lum, hammadan ko'ra qullarga yaxshiroq ma'lum, o'ndan to'q-qiztasi yomon va zolim xo'jayinning qo'liga tushishlari muqarrarligini juda yaxshi tushunadilar.

Mana shuning uchun qullar saxovatli xo'jayinning va-foti uchun uzoq vaqt motam tutadilar.

Sen-Kler jon berganda butun uyni dahshat va umidsizlik bosdi. U kuchga to'lgan, qirchillama chog'ida qo'qqisidan halok bo'ldi! Hamma xona va yo'laklardan yig'i ovozi chiqardi.

Hamma injqliklari va havoyi orzulariga har doim yo'il qo'yib kelinishi orqasida asablari bo'shashib ketgan Mari bu og'ir zarbaga bardosh berolmadi va eri jon berayotgan paytda, hadeb hushidan ketaverdi, shuning uchun ham unga nikoh ahdi bilan biriktirilgan kishi uni abadiy qoldirib ketar ekan, unga hatto so'nggi „alvido“ni ham aytolmay, dunyodan o'tdi.

Ofeliya, o'ziga xos subut bilan, so'nggi damgacha Sen-Kler yonidan ketmadi. Uning butun vujudi ko'z, qulqoq va g'amxo'rlikka aylandi; shu tobda nima qilish mumkin bo'lsa, u hammasini qilardi.

Sen-Klerni dafn etishga hozirlayotganlarida, oddiy ko'krak tumor topdilar: uning qopqog'i prujinali: bossa ochiladi. Unda aslzoda, qorasoch, parivash xotinning rasmi bor edi. Tumorni qaytib jonsiz ko'krakka qo'ydilar.

Ko'mish dabdabali o'tdi, shundan keyin kundalik tur-mushning sovuq va loyqa to'lqinlari yana mavjilana bosh-ladi; hammaning ko'z oldida: „Endi nima qilish kerak“, degan savol tug'ildi.

Bu savol Marida ham paydo bo'ldi. Tashvishlangan qullar bilan o'ralgan Mari katta kresloda o'tirib, motam uchun keltirilgan qora matolarni ko'rardi. Bu savol Ofeli-yada ham paydo bo'lsa-da, u vataniga qaytib ketishi haqi-da o'ylay boshlagandi. Bu dahshatli savol bekaning mehr va shafqatsiz fe'lini yaxshi bilgan qullar oldida ham pay-do bo'ldi: ular endi ana shu berahm bekalarining qo'lida qolgan edilar. Ularning hammasi shu choqqacha foydala-nib kelgan iltifotlarning bekadan emas, balki xo'jayindan chiqqanligini juda yaxshi tushunardi. Endi u vafot etib, shafqatsiz va buning ustiga, dard tortaverib berahm bo'lib qolgan xotinning beboshligi va zulmidan ularni himoya qiladigan hech kimsa qolmagan edi.

Sen-Kler dafn etilganidan keyin ikki haftacha vaqt o'tdi. Kunlarning birida Ofeliya o'z bo'lmasida ish qilib o'tirarkan, eshikning sekin-sekin qoqilganini eshit-di. Ofeliya eshikni ochdi va yosh xizmatchi – Rozani ko'rди. Uning sochlari to'zigan va ko'zi yig'lamoqdan shishgan edi.

– Oh, Ofeliyaxon! – deb chinqira boshladi u tiz cho'kib yiqilib va uning etagidan ushlab. – Boring, boring, Mari xonimdan iltimos qilib, meni qutqarib qoling! U meni kaltaklatish uchun axloq tuzatuv uyiga yuboryapti!

Shunday deb Ofeliyaga bir qog'oz uzatdi.

Bu qog'oz – Marining nozik qo'lchasi bilan rahmsiz bir ablahga yozilgan buyruq edi, bu ablah esa o'sha vaqtida qullarni darralash uchun maxsus jazoxona tutardi.

Qog'ozda:

„Ushbuni ko 'rsatuvchiga o'n besh kaltak urilsin“, deb iltimos qilingan edi.

– Nima qilib qo'yding? – deb so'radi Ofeliya.

– Bilasizmi, Ofeliyaxon, fe'limning yomonligini bila-siz-ku! Men o'zim juda yomon ish qildim! Mari xonimni kiyintirayotgan edim, yuzimga bir shapaloq urdi.

Men esam, o'ylamay-netmay unga qattiq gapirib yubor-dim. U: – „Seni taftingdan tushirib qo'ymasam bo'lmaydi“, deb shu xatni yozib, qo'limga berdi va: „O'zing olib bor!“ – dedi. Bundan ko'ra meni o'ldirgani yaxshi edi.

Ofeliya, nima qilish kerakligini o'ylardi.

– Bilasizmi, Ofeliyaxon, – deb davom etdi Roza, me-ni siz yoki Marixonimning o'zi ursa mayli edi. Lekin erkak kishiga, tag'in haliday yomon odamning oldiga yuborib urdirishini o'ylang, Ofeliyaxon, bundan uyat nar-sa bormi. Ofeliya, xotin va qizlarni maxsus jazonaga kaltaklatgani yuborish va ularni eng battarin, qabih erkaklarning qo'liga topshirish odatini yaxshi bilardi, bu erkaklar shunday kasbni tanlaganliklari uchun ham eng qabih kishilardir.

Kelishgan qomatli Roza nima qilishini bilmasdan pitillardi. Ofeliyada ayollik nomusi jo'sh urdi, Yangi Angli-yaning ozod fuqarosi qon tomiridagi kuchlar yurishdi, yuzi qizardi va g'azabdan yuragi ura boshladi.

Lekin har qachongidek ehtiyyotkor Ofeliya, o'zini og'ir tutdi va qo'lidagi qog'ozni mahkam siqb, Rozaga oddiy qilib, dedi:

– Tura tur, bolam, bekang bilan so'zlashib ko'raman.

– Sharmandalik! Razillik!

– Dunyoda bundan ham rasvo ish bo'ladimi! – deya mehmonxonaga borarkan, o'z-o'ziga aytardi Ofeliya.

Mari kresloda o'tirardi. Memmi uning sochini tarar, Jen esa polda o'tirib oyog'ini uqalardi.

– Bugun kayfiyatningiz qanday? – deb so'radi Ofeliya.
Mari avval javob bermadi, faqat chuqur uf tortib, ko'zini yumdi. Keyin:

– Ey, bilmayman, kuzina! Birday shekilli, – dedi.
Shunday deb Mari, keng qora hoshiyali batist dastro'-molcha bilan qo'lini artdi.
– Men siz bilan, – dedi Ofeliya, odatda, qiyin gap oldidan boshlanadigan qisqa va quruq yo'talib, – bechora Roza to'g'risida so'zlashgani keldim.

Mari ko'zini ochdi, qonsiz yuzlari qizarib ketdi va:
– Unga nima bo'libdi? – deb keskin so'radi.
– U qilgan gunohiga juda pushaymon.
– Pushaymon? Buni avvalroq o'yashi kerak edi! Uning bezbetliklariga xo'p chidadim. Endi u meni esidan chiqarmaydi!.. Adabini beraman... Qo'limda ipakdek muloyim bo'lib qoladi...

– Uni bunday rasvo yo'l bilan qilmay, boshqacharoq yo'l bilan jazolay olmaysizmi? Axir uni, bu uyat o'ldiradi-ya!
– Men ham xuddi uyatga o'ldirmoqchiman-da! Hadididan oshib ketdi! O'zini katta olib yubordi! Beka qizman deb o'laydi, chiroyli bo'lmay o'lgur! Oddiy cho'rilingini esidan chiqargan. Men uning shunday ta'zirini berayki, ko'zi ochilsin!

– Lekin o'ylab ko'ring, kuzina, siz uning uyatchanlik hissayotini tahqirlasangiz, behayo qilsangiz, uni buzib yuborasiz!

– Uyatchanlik emish! – dedi Mari, nafratomuz xanda qilib. – Qoralar koshki bu nozik narsaning fahmiga yetsa! U ko'cha changitib yurgan yirtiq kiyimli fohishalardan aslo kam emas, – shuni isbot qilmoqchiman. Kaltakdan keyin oldimda tumshug'ini ko'tarmaydi!

– Bunday qilish juda rahmsizlik bo'ladi, dedi qat'iy yo'sinda Ofeliya.

– Rahmsizlik! Buning nimasi rahmsizlik ekan? Unga o'n besh kaltak urilsin, keyin qattiq urilmashin, deb buyruq berdim. Menimcha, bu hech rahmsizlik bo'lmasa kerak!

– Rahmsizlik emasmish! – deb xitob qildi Ofeliya men aminman uning o'mida boshqa qiz bo'lganda ham bunday jazodan ko'ra o'lishga rozi bo'lardi.

– Siz o'zingizga qarab bichyapsiz. Ammo negr xotinlar bunday jazoga o'rganib qolgan. Ular bilan sal xushmuomala bo'lsangiz boshingizga chiqib olishadi. Hamisha qullarimning ahvoli shu. Endi men ularni o'z joylariga o'tirg'izib qo'yaman! Ular o'zlarini qanday tutish kerakligini bilsinlar, men shuni istayman, yo'qsa ularning hammasini kaltaklataveraman! – dedi Mari, tevaragiga qat'iyat bilan qarab.

Bu gaplarning hammasi bevosita o'ziga taalluqli ekanligini tushunib, Jen junjikdi va boshini ham qildi. Ofeliyaning ko'rinishi miltiq dorisi yutgan-u saldan keyin bu dori portlashga tayyordek edi. Lekin u, bu kajbas va shafqatsiz xotin bilan adi-badi qilib o'tirishning foydasiz ekanini bilib, labini qattiq qimtidi-da, o'rindan turib bo'lmadan chiqdi.

Rozaga, „Iltimosingni qaytardilar“, deyish unga og'ir bo'ldi. Tezda qullardan biri kelib: – „Beka menga Rozani kaltakxonaga olib borishni buyurdi“, dedi. Hammma yalinishlari va ko'zyoshlar to'kishiga qaramay, Rozani olib ketishdi.

Oradan bir necha kun o'tib ketdi. Tom ravoqda turardi, uning yoniga Adolf keldi. Xo'jayni o'lgandan keyin bu yigitning yuragi bejo va juda ruhi tushgan edi. U Marining hech yoqtirmasligini bilar, lekin Sen-Kler hayot ekan, bunga kam e'tibor berardi. Endi Sen-Kler o'lgandan keyin esa Adolf, taqdirining qanday bo'lishini bilmashan, butun kun qo'rqib, titrab-qaqshab yurardi. Mari o'z gumashtasi bilan bir necha marta kengashgan edi. Sen-Kler akasining maslahati bilan Mari butun qo'rg'onchani va shaxsan o'ziniki bo'lganlardan boshqa hamma xizmatkorlarni sotishga qaror qildi. O'zi

esa otasinikiga ko'chib ketmoqchi, o'ziga qarashli xizmatkorlarni otasining plantatsiyasiga obormoqchi bo'ldi.

– Bilasanmi, Tom, hammamizni sotishadi. – dedi Adolf.

– Kim aytди? – deb so'radi Tom.

Bekamiz gumashta bilan so'zlashayotganda, pardа orqasiga yashirinib olgандим. Bir necha kundan keyin hammamizni auksionga yuboradilar, Tom.

– Xudoga topshirdik! – dedi Tom va qo'lini qovushtirib, chuqur uf tortdi.

– Bunday xo'jayinni endi hech ko'rmaymiz. – Ishonch bilan dedi Adolf. – Lekin bekamizning qo'lida qolgandan sotilib ketgan afzalroq!

Tom orqasini o'girdi. Uning yuragi zirqiradi. Ozod bo'-lish umidi, uzoqdagi xotini va bolalarining orzusi uning sersabr jonini g'alayonga keltirdi, sohilga yetay deganda suvga botayotgan dengizchi katta to'lqinlar orqasidagi qo'ng'iroqxonani va tug'ilgan qishlog'inинг jonajon tomlarini ko'rganda va ular bilan vidolashganda shunday bo'ladi. Tom ko'ksiga qo'ygan qo'llarini yana-da qattiqroq siqdi. Uning zahmat chekkan ko'ngli ozodlikning yaqinligiga qattiq ishonganidan, Adolf aytgan bu yangilik uning uchun juda qattiq zarba bo'lib tushdi va u: „Xudoga topshirdik!“ – deb qancha ko'p aytса, shuncha qattiqroq azob chekdi.

U, Yeva vafotidan keyin unga ancha xushko'ngillik bilan qaraydigan bo'lib qolgan Ofeliyani axtarib ketdi.

– Ofeliyaxon, – dedi Tom, – xo'jayin Sen-Kler... U menga ozodlik va'da qilgandi. U menga ozodlik qog'ozlarini to'g'rilayotganini aytgandi. Endi, Ofeliyaxon bir yaxshilik qilsalar-u, beka bilan gaplashib ko'rsalar: balki, bekam mister Sen-Klerning irodasini bajo qilarlar.

– Sening to'g'ringda gaplashaman, Tom, qo'limdan kelganini qilaman, – dedi Ofeliya. – Ammo bu ish Sen-Kler

xonim bilan bitadigan bo'lsa, oldidan aytib qo'ya qolay: umid oz.

Bu gap Roza voqeasidan bir necha kun keyin, Ofeliyxonim Shimoldagi o'z yurtiga qaytib ketish hozirligi bilan band vaqtda bo'ldi.

U jiddiy o'ylab ko'rib, shunday fikrga keldi: Mari bilan o'tgan safar so'zlashganda haddan tashqari qiziqqonlik qilgan ekan, shuning uchun bu safar imkon boricha og'ir bo'lishga qaror qildi. U tikayotgan ishini ko'tarib, Mari bo'lmasiga jo'nadi. U, avvaldanoq: „Tom haqidagi gapni butun layoqatimni ishlatib, diplomatlarcha epchillik bilan olib boraman“, deb ahd qildi.

Mari divanda tirsagini yostiqqa tirab yotar, bozor qilgани borgan Jen esa uning oldiga har xil nozik matolarning namunalarini birma-bir yozib ko'rsatardi:

– Mana bunisi men bop ekan, – dedi Mari, namunalaridan birini tanlab. – Lekin buning chinakam ekaniga uncha ishonchim yo'q.

– Yo'g'-e xonim! Asl o'zi! – deb gappa chechan Jen javob berdi. – General Derbennonning xotini o'tgan yoz, general o'lgandan keyin xuddi mana shunaqa ko'ylak kiyagan edi. Juda yarashgan.

– Siz nima deysiz? – deb Mari Ofeliyadan so'radi.

– Har kimning didi boshqa, – dedi Ofeliya. – Siz, libos kiyishni mendan ko'ra yaxshiroq tushunsangiz kerak.

– Gap shundaki, – dedi Mari, – hech bir kiyadigan kiyimim qolmadi. Ishlarni tamomlab, yanagi hafta otamnikiga ketmoqchiman, shuning uchun biror matoni tanlab olishim kerak.

– Shuncha tez jo'namoqchimisiz?

– Xa, Sen-Klerning akasi bilan gumashta: jihozlar bilan negrlarni auksionga chiqarib sotish yaxshiroq, qo'rg'onchani sotishni esa gumashtaga topshirish kerak, deyaptilar.

– Bir ish to‘g‘risida siz bilan so‘zlashmoqchi edim, – dedi Ofeliya. – Ogyusten Tomga ozodlik berishni va‘da qilib, ba’zi bir zarur rasmiy jihatlarini ham tayyorlay boshlagan ekan. Eringiz boshlagan ishni oxiriga yetkazsangiz kerak, deb o‘ylayman?

– Tomni ozod qil deysizmi? Bo‘lmaydi! – keskin dedi Mari. – Tom eng qimmatbaho qullardan hisoblanadi... Yo‘q bu haqda og‘zingizni ham ochmang, buning iloji yo‘q! Unga katta pul berishadi. Keyin unga ozodlikning nima keragi bor? Uning uchun hozirgi turmush ming marta yaxshi.

– Axir u ozod bo‘lishni jon deb istaydi, bundan tashqari, xo‘jayini: „Seni ozod qilaman“, deb va‘da bergen, – dedi Ofeliya.

– Istasa istayversin! – dedi Mari. – Ularning hammasi ozod bo‘lgisi keladi, chunki ular doim norizo va mumkin bo‘lмаган narsalarni xohlaydi. Yo‘q, men negrlarning ozod qilinishiga qat‘ian qarshiman. O‘z negrlariga g‘amxo‘rlik qilishni xo‘jayinga topshirib qo‘ya qoling, natijada ularning hech bir qayg‘u va ehtiyojsiz yashashini ko‘rasiz. Ozod qilishingiz bilanoq, ular dangasa bo‘lib qoladi, ishyoqmaslik qiladi, piyanistalik qila boshlaydi va butun umrini ichkilik bilan tugatadi. Bunday hodisalarni yuz martalab ko‘rganman. Ozodlik ular uchun ziyon.

– Axir, Tom, mehnatkash, vazmin va xudojo‘y-ku.

– Bu bilan nima demoqchisiz? Bundaylarni yuzlab ko‘rganman. U yaxshi odamning qo‘lida turguncha yaxshi, vas-salom!

– Menga qarang:, – dedi Ofeliya, – agar sotsangiz, U juda yomon odamning qo‘liga tushib qolishi mumkin-ku.

– Bo‘lмаган gap! – deb e’tiroz bildirdi Mari. – Yaxshi negrlarning yuzdan bittasi yomon xo‘jayinning qo‘liga tu-shadi. Xo‘jayinlarning ko‘pchiligi xushko‘ngil va ishonchli odamlar. Ular to‘g‘risida har narsa deyishaveradi. Men

mana shu yerda, Janubda o'sib, yashab kelyapman va men ko'rgan xo'jayinlarning hammasi negrlar bilan ularning yurish-turishlariga qarab muomala qiladi, negrlar nimaga loyiq bo'lsa, shunga qarab ish tutishadi. Bundan xafvisi-ramaslik kerak.

– Mayli, bu shunday bo'lsin. – qat'iy dedi Ofeliya, – Lekin men bilamanki, eringizning o'lim oldidan bildirgan istaklaridan biri – Tomni erkinlikka chiqarnsh edi. U Yeva o'layotganda bu va'dani unga bergen. Eringizning o'lim oldidan aytgan so'zini mensimas ekansiz, deb hech xayolimnga keltirmagan edim.

Buni eshitib Mari ko'zini ro'mol bilan yopdi-da, qattiq yig'lab, dori solingan shishasini hidlay boshladи.

– Hamma menga qarshi! – deb ming'illadi u. – Hech kimda shafqat yo'q. O'lganlarni eslatasiz, deb hech kutmagan edim. Rahmingiz kelmaydimi? Hech kim boshimga tushgan og'ir kulfatlarni o'ylagisi kelmaydi. Xudoyim, qanday bebaxt ekanman! Bitta-yu bitta qizim bor edi, u ham yo'q! Mening har bir gapimni tushunib, qadrimga yetadigan erim bor edi, u ham mendan tortib olindi! Meni tushunish esa juda qiyin. Siz bo'lsangiz, boshimga tushgan dahshatli musibatlarni esimga solib, shafqatsizlik qilasiz. Ehtimol, bu gaplarni bilmay aytgandirsiz, lekin, aslida, bu yaxshi gap emas, juda shafqatsizlik bo'lib chiqdi.

Shunday deb, Mari yana yig'lay boshladи. Uning nafasi qisilar, Memmini chaqirib – „Derazalarni och, kamforani olib kel, boshimni ho'lla, ko'ylagimni yech“, derdi. Odadagi to'polon boshlandi va Ofeliya shoshilib o'z bo'lmasiga chiqib ketdi.

U Mari bilan gaplashishdan hech narsa chiqmasligini uzil-kesil tushundi. Mari o'zini tutqanoq tutganga solishga nihoyatda usta edi. Unga „Marhum eringiz va Yeva hamma xizmatkorlarni ozod qilmoqchi edilar“, deb aytilishi bila-

noq, u darhol tutqanog'i tutdi. Shunday bo'lsa ham, Ofeliya Tom uchun qo'lidan kelgan so'nggi ishni qildi: u Shelbi xonimga xat yozib, Tomning kulfatlaridan darak berdi va Tomni qaytib sotib olishni iltimos qildi.

Ertasiga oltitacha quyllar bilan birga Tom va Adolfni quj bozoriga jo'natdilar. U yerdan qulfurush savdogar ularni auksionga jo'natmoqchi edi.

XXX BOB

Qullar bozori

Qullar bozori! Bu dahshatli joyni o'quvchilarimizning ba'zilari: Dantening jahannami kabi, yirtqich hayvonlarining qop-qorong'i, sassiq uyasiga o'xhash bo'lsa kerak, deb o'yplashlari ehtimol. Yo'q unday emas, soddadil do'stlarim! Hozirgi davrimizda kishilar, tuzukkina jamiyatning nazar va hissiyotini tahqir qilmasdan, ustalik va muloyimlik bilan jinoyat qilishni bilib olganlar. Bozorda mol o'mida sotiladigan odam qimmat turadi, shuning uchun uni yaxshi boqib semirtiradilar, ozoda saqlaydilar; u salomat bo'lsin va xaridchlarni o'ziga tortsin, deb parvarish qiladilar. Yangi Orleandagi qullar bozori oddiy bir uyda joylashgan; bu uy boshqa uylardan uncha farq qilmaydi. Uni pokiza tutadilar; bino yonidagi uzun bostirma tagida siz erkak va ayol negrlarni ko'rishingiz mumkin: ular bu bino ichida nima sotilishi hammaga ayon bo'lsin, deb bu yerda turishadi. Sizni hurmat bilan, ichkari kirib, molni ko'rishga taklif qiladilar: siz, u yerga kirib juda ko'p erkaklar, xotinlar, aka-ukalar, opa-singillar, otalar, onalar, kichkina bolalarni ko'rasiz. Bularni „xaridorning xohishiga qarab alohida-alohida yoki birga“ sotadilar. Ularni naqd pulga olish yoki garov qoldirib nasiyaga olish, yo bo'lmasa boshqa bir molga almashti-

rish mumkin – xullas, xaridorming xayoli nimani istasa o’shani qilsa bo‘ladi.

Ofeliya bilan Mari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan gapdan ikki kun keyin Sen-Klerning qullaridan Tom, Adolf va yana besh-oltitasi ertasiga belgilangan kimoshdi savdosida soitish uchun qul bozorining egasi – mister Skegsga topshirildi.

Ko‘pgina qullar kabi Tom ham ichiga kiyim-kechak va boshqa buyumlarini solgan sandig‘ini ko‘tarib olgan edi. Kechasi negrlarning hammasini uzun bir xonaga joyladilar. Turli yoshdagi va badani turli rangdagi erkaklar to‘plangan bu xonadan xaxolab kulishgan ovozlar eshitilib turardi.

– Mana bu ishlaring joyida! Xursandchilik bilan o‘tinglar, yigitlar! – derdi mister Skeggs. – Menikida hamisha negrlar xursandchilik qilishadi! Balli, Sembo! – deya ma’qullab xitob qildi u, to‘mtoq hazillari bilan tevarakdagilarni xursand qilib turgan barvasta negrga qarab.

Tomning xursandchilikka mayli yo‘q va undan xursand bo‘lishni kutish ham mumkin emas. U sandiqchasi ni shovqin solayotgan xaloyiqdan mumkin qadar nariroq qo‘yib, boshini devorga suyab o‘tirdi.

Odamfurushlar har doim qullarni to‘polon va xursandchilikda tutishga harakat qiladilar, bu usul – qayg‘uli fikrga cho‘mishga qarshi eng yaxshi vositadir, vaqtincha xursandchilikda qullar o‘zlarining og‘ir ahvollarini unutadilar. Shimol bozorida sotilib, to Janubga olib kelinguncha, negrni beparvo, o‘ysiz va dag‘al holda tutishga harakat qiladilar. Qulfurush bir to‘da negrlarni Kentukkidan yoki Virjiniyadan mol singari terib oladi va ularni semirtirish uchun havosi yashil joyga, ko‘pincha kurortga olib boradi. U yerda qullarni kun bo‘yi boqadilar; ba’zilari shunda ham diqqatchilikka berilib ketganidan, ular uchun atayin skripkachi yollaydilar va ularni raqsga tushishga majbur

etadilar. Xotinini, bolalarini, uyini o'ylab, bundaylarni xafaqon, o'jar va xafvli deb hisoblaydilar; bundaylarni mas'uliyatsiz va shavqatsiz kishilar doimo haqoratlaydilar. Qullarni, ayniqsa, begona odamlar oldida shod, sho'x va epchil bo'lishga majbur etadilar, qullar ham yaxshi xo'jaiyin qo'liga tushish umidida kuchlari boricha shod bo'lishga tirishadilar.

Shu payt:

– Bu negr bu yerda nima qilib yuribdi? – deb so'radi Sembo, mister Skeggs bo'lmasidan chiqqach, Tomning yoniga kelib.

Sembo qozonkuyadek qop-qora, harakatchan va epchil ulkan negr edi. U doim hazillashar va masxarabozlik qilardi.

– Bu yerda nima qilib o'tiribsan? – deb so'radi yana Sembo, Tomga yaqinroq kelib va hazillashib uning biqiniga musht bilan turtib.

– Ertaga meni kimoshdida sotishadi, – yuvosh holda dedi Tom.

– Kimoshdida sotishadi deysanmi? Ha-ha-ha! Hey, yigitlar, buning gapini eshitinglar! Men ham kimoshdida sotilsam derdim! Aytinglar-chi, hamma xaridorni kuldirmasmidim-a? Xo'sh, bunisi kim o'zi? Buni ham ertaga sotisharkanmi? – dedi Sembo, tortinmasdan Adolfning yelkasiga qo'lini qo'yib.

– Menga ozor bermang! – dedi g'azab bilan Adolf va nafratlanib o'zini tortdi.

– Ey, yigitlar, buni qaranglar! Bu oq negr ekan, momaqaymoqdeq oq! – dedi Sembo, Adolfning yoniga kelib, uni hidlab. – Yo Rabbim! Bu asl tamaki do'konni uchun yaratilgan ekan-ku – xuddi atirdek, xuddi hidlaydigan tamakidek bo'y beradi! Azbaroyi Xudo, do'konni anqitib yuboradi-ku bu!

– Tegma deyapman senga! – deb baqirdi g'azablangan Adolf.

– Biz, oq negrlar juda nozik bo‘lamiz-da! Bizga bir qarab qo‘ying! – deb Sembo qiziq qilib Adolfning g‘ashi-ga tegdi. – Mag‘rurlanib, tumshug‘imizni osmonga ko‘ta-rib olamiz! Yaxshi oilada yashaganga o‘xshaymiz-a?

– Ha – dedi Adolf, – mening shunday xo‘jayinim bor ediki, u hammamizni qora chaqaga sotib ololardi.

– Shunaqa deng-a, – deb qichqirdi Sembo, – juda keliшган jentlmenmiz-da!

– Men Sen-Kler oilasiga qarashli edim, – dedi faxrlanib Adolf.

– Rosti bilan-a! Agar u oila bunday asl zotdan qutulgani uchun xursand bo‘lmasa, meni osinglar! Ular seni siniq idish-tovog‘-u qaqir-ququr bilan birga sotib yubori-shar! – dedi Sembo, Adolfning g‘ashini keltirish uchun yu-zini burishtirib.

Bu masxaralashdan juda jahllangan Adolf so‘kindi va qulochkashlab dushmaniga hamla qildi. Xonada o‘tirganlar hammasi baqirib kula boshladilar, bu to‘s-to‘polonni eshitib xo‘jayin kirib qoldi.

– Nima gap, yigitlar? – dedi u, kirarkan uzun qamchini o‘ynatib.

Hamma har tomonga sochildi. Masxarabozligi uchun imtiyozdan foydalanayotgan Sembogina joyida turib, yu-zini burishtirib, xo‘jayin qamchisiga chap berdi.

– Bizda hech gap yo‘q, xo‘jayin, biz tinch va jo‘n o‘tribmiz, yangilar bemazagarchilik qilishyapti! Juda bur-ni shishgan... Bizning g‘ashimizni keltirib, masxara qiliшhyapti.

Buni eshitib xo‘jayin Tom bilan Adolf tomonga buril-di-da, kim haqli va kim aybdorligini surishtirmsandan, ularni bir necha musht va tarsaki bilan „siyladi“. Keyin ham-maga uqlashni buyurib, chiqib ketdi.

Bu paytdan foydalanib kitobxon, ehtimol, xotinlar bi-

nosiga kirib-chiqishni ham istar. Kitobxon u yerda qoradan tortib oqqacha – hamma rangdagi va go'daklardan tortib kampirlargacha – hamma yoshdagi juda ko'p ayollarni ko'radi. Bular uxbab yotadilar. Mana, o'n yoshlarga kirgan yaxshigina nozik bir qiz: uning onasini kecha sotganlar, qiz butun kechasi bilan yig'lab-yig'lab keyin uxbab qolgan va hech kim unga qaramagan. Mana, hilvirab qolgan keksa negr kampir: uning ingichka qo'li va ilgakdek barmoqlari og'ir mehnat qilganidan darak beradi. Ertaga uni yaramas mol sifatida kepak narxiga sotadilar. Yana qirq-elliktacha xotin boshlarini odeyalga yoki birorta kiyimga o'rab unda-bunda yotibdi. Lekin burchakda boshqalardan ajralib, ikki ayol o'tiribdi; ularning aft-basharasi ham boshqacharoq. Biri-yuvoshko'z, yoqimli yuz, ellik yoshlarga borgan, yaxshi kiyingan mulat ayol. U boshiga eng yaxshi och qizil adres ro'molini uzunasiga chiroyli salsa qilib o'ragan, eg-nida yaxshi matodan bejirim tikilgan toza ko'yak. Xo'jayinlari unga yaxshi qarashganligi ko'rinish turadi. Yonida, unga yopishib o'n besh yoshlar chamasidagi qizi o'tiradi. Qiz onasiga juda o'xshasa ham, badanining ancha oqligi uning kvarteronka ekanini ko'rsatib turadi. Qizning ko'zlarini ham jozibali va qora, lekin kipriklari onasinkidan ham uzunroq, hashamatli, jingalak sochlari esa dolchinrang. U ham bashang kiyingan va oppoq nozik qo'llari uning og'ir ishni ko'rmaganligidan darak beradi. Ular ikkalasi ham ertaga Sen-Klerning nullari bilan sotilishlari kerak.

Ularning ikkisi, onasining nomi – Susanna, qizining nomi – Emmelina, Yangi Orleanda tuzuk bir xudojo'y xonimning qo'lida ishlashardi, u xonim bularga g'amxo'rlik qilardi. Ona va qizning har ikkalasini o'qish-yozishga o'r-gatishgan, ular eng tuzuk cho'ri darajasida baxtiyor edilar. Ularga qarashli bo'lgan bekaning yolg'iz o'g'li onasining xo'jalik ishlarini yurgizardi. Bu o'g'il beg'am va bepar-

voligi orqasida qarzga o'ralib qolib, pirovardida xonavayron bo'ldi. Nyu-Yorkdagi B. Va K. nomli ferma uning eng katta kreditorlaridan hisoblanardi. Bu ferma egalari Yangi Orleandagi vakillariga uning singani haqida xabar qildi. Vakil uning, asosan, o'sha ikki ayol va plantatsiyada ishlaydigan bir necha negrdan iborat bo'lgan mulkiga qamoq soldi. Vakil bu to'g'rida Nyu-Yorkka xat yozdi. B. ozod shtatda yashagani uchun vakilning bu xati uni qiyin ahvolga solib qo'ydi. U qul savdosini yoqtirmas edi – ha, yoqtirmas edi, albatta – lekin gap o'ttiz ming dollar haqida borar, bu esa juda katta pul bo'lib, tuzum uchun uni nazarga ilmaslik mumkin emasdi. B. keyin vijdon azobini chekmasligi uchun tegishli kishilar bilan uzoq maslahatlasha boshladi. Bu kishilarning esa „Sizniki ma'qul“, deyishlarini u ilgaridan bilardi. Shundan so'ng u, vakiliga: „O'z bilganiningizcha ish ko'ring va qarzni undirish uchun sud ishini oxiriga yetkazing“, deb xat yozdi.

Xat Yangi Orleanga kelgandan keyin, ertasi kuni Susanna bilan Emmelinani yaqinda bo'ladigan auksionda sotmoq uchun qul bozoriga jo'natdilar. Mana hozir, panjarali derazadan tushayotgan oy nuri ularni yoritarkan, biz ularning so'zlarini tinglaylik. Ikkovlari ham yig'lashyapti, lekin bir-birlariga eshittirmaslik uchun ohista yig'lashga urinmoqda.

– Oyi, boshingizni tizzamga qo'yib picha uxlasangizchi, – dedi qiz, onasiga o'zini xotirjam ko'rsatishga urinib.

– Uxlayolmayman. Emma, sira uxlayolmayman! Sen bilan eng oxirgi kecha birga bo'lishimiz, qizim!

– Oyi, bunday demang! Ehtimol, ikkovimizni birga sotishar. Axir u odam, bizni – yaxshi mol ekansizlar, yaxshi joyga sotamiz, – deb aytdi-ku.

U odamning ko'zi va so'zлari Susannaning esiga tushdi. U kishi Emmelinaning qo'llarini ushlab, jingalak

sochlarini ko'tarib ko'rib, birinchi navli mol deb e'lol qilgan edi. Susanna bu manzarani eslarkan, yuragi yorilgudek tuyuldi. Uning himoya qiluvchi kishisi, ishonadigan narsasi yo'q.

– Oyi, biz juda yaxshi joylashamiz. Birorta oilaga siz oshpaz bo'lib kirasiz, men bo'lsam xizmatkor yoki tikuvchi bo'lib kiraman. Xuddi shunday bo'ladi, bunga ishonaman. Shod-xurram bo'lib ko'rinyaylik, qo'limizdan keladigan hamma ishni aytaylik, ehtimol, biz birga sotilib ketsak, – dedi Emmelina.

– Ertaga sochingni silliq qilib tarab qo'yaman, – dedi Susanna.

– Nega, oyi? Silliq soch menga yarashmaydi.

– Lekin yaxshi odamga sotilasan.

– Nima uchun? – deb so'radi qiz.

– Agar kamtar va sodda ko'rinsang, o'zingni chiroyli qilib ko'rsatishga harakat qilmasang, seni mo'tabar bir oila darhol sotib oladi. Bularning hammasini sendan yaxshiroq bilaman. – dedi Susanna.

– Bo'pti, oyi sochimni silliq tarattiraman.

Mana, tong ham otdi, hamma qo'zg'alib qoldi. Muh-taram mister Skeggs mollarini kimoshdiga yaxshilab tay-yorlash uchun, zo'r berib harakat qilmoqda. U qullarning kiyim-boshlariga bir nazar tashlab, har qaysisiga „O'zingni xursandroq tut“, deb buyruq berdi; eng oxiri u, sotish oldidan qullarning hammasini doira qilib tizdi va so'nggi bor ko'zdan kechirmoqchi bo'ldi.

Boshiga palmetto deb ataladigan shlapa kiygan va og'ziga sigara solgan mister Skeggs atrofda aylanib yuribdi.

– Bu nimasi? – dedi u, Susanna bilan Emmelina yonida to'xtab. – Jingalak sochlaring qani, hoy qiz?

Qiz qo'rqib-pisib onasiga jilmaydi. Ona esa negr xotin-larga xos muloyimso'zlik bilan ohista dedi:

– Sochi har tomonga hurpayib turmasin uchun unga siliq va soddagina qilib tarashni buyurdim. Uning shu ko‘rinishi muloyimroq.

– Bo‘limgan gap! – dedi xo‘jayin va qizga buyurdi: – Bor, sochingni chiroyli kokil qil-u, – tayog‘ini hamla qilgansimon siltab davom etdi: – Tezroq qayt. Sen unga ko‘maklashgin, – dedi u qizning onasiga. – Kokili bo‘lsa, uni yuz dollar qimmat sotish mumkin.

Chiroyli, qubbali binoning marmar polida hamma millat kishilar u yoqdan bu yoqqa yurib turishadi. Hamma burchaklarga auksionchilar uchun kichkina minbarlar qo‘yilgan. Xonaning ikki chetidagi ikki minbarni olifta va qobil ikkita jentlmen band qilgan. Ular, inglizchani fransuzchaga aralashtirib, o‘zlariga qarashli har turdag'i mollarning afzalligini shukuh bilan maqtayaptilar. Uchinchi minbar hozircha band qilinmagan; savdo qachon boshlanishini kutib turgan bir guruh kishilar uni o‘rab olishgan. Sen-Klerning xizmatkorlari – Tom, Adolf va boshqalar shu yerda edi. Qo‘rqan va aql-hushlarini oldirgan Susanna bilan Emmelina ham o‘z qismatlarini kutib shu yerda turardilar. Ularni turli-tuman tomoshabinlar o‘ragan va bularni olish-olmaslik haqida ularning o‘zları ham bir qarorga kelmagan edilar. Ular otlarning fazilatini muhokama qilayotgan chavandoz kabi qullarni bermalol ushlab ko‘rar, qaddiqomatini, aft-basharasini o‘zaro muhokama qilishardi.

– Salom, Alf. Bu yoqqa seni qaysi shamol uchirdi? – deb xitob qildi bir olifta yigit, Adolfga lornetkadan qaratotgan va bashang kiyangan yigitning yelkasiga urib.

– Menga malay kerak edi. Eshitsam, Sen-Klerning qullari sotilarmish. Shularni bir ko‘ray deb keldim...

– Sen-Klerning odamlarini olishdan Xudo saqlasin. Buzuq negrlar, ichida birorta tuzugi yo‘q. Shaytondan ham battar surbet, jilovsiz, – dedi boshqasi.

– Bundan qo'rqlayman! Mening qo'limga tushsin-chi, darrov epaqaga solib qo'yay. Ular xo'jayinlari endi misye Sen-Kler emas, boshqa odam ekanligini tezda tushunib olishadi. Azbaroyi Xudo, shu satangni olganim bo'lzin! Ko'rinishi menga ma'qul.

– Senga qimmat tushib ketadi, ko'rasan. U pulni behuda isrof qilishga o'rganib qolgan. Hamma narsangni talontaroj qiladi.

– Hech-da, bu to'ra qo'limga tushsin – xo'jayinning molini isrof qilish odatini darrov tashlaydi. Bir necha marta politsiya uchastkasiga yuborib, po'stagini yaxshilab qoqtirsam bo'lgani. Ko'rasan, uning miyasini joyiga solib qo'ya olaman! Uddasidan chiqaman, xotirjam bo'l! Sotib olaman, gap shu!

Tom „Kimni xo'jayinim desam ekan“, deb atrofida millillab turganlarga tikilib qarardi. O'quvchi, mabodo siz ikki yuz kishi orasidan o'zingizga mutloq hukmronlik qiluvchi bir kishini tanlab olish zaruriyatiga tushib qolsangiz, Tom kabi siz ham o'z qismatingizni xotirjamlik bilan ishonib topshirib qo'yadigan odamlarning juda kam ekanligini tushunib olardingiz. Tom har xil odamlarni: novcha, barvasta, dag'al odamlarni; kichkina, chiyildoq, qurib-qovjirab qolgan odamlarni; juda savlatli, qotma va badjahl odamlarni, aqlsiz va esipast ko'pgina odamlarni ko'rardiki, bularning bari qullar bilan xuddi cho'pdek muomala qilardilar. Ular zarur bo'lsa bu cho'pni o'tga tashlar, zarur bo'lmasa – savatda qoldirardilar. Lekin Tom Sen-Klerga o'xshagan bitta ham kishini ko'rolmadidi.

Savdo boshlanay deb qolgan paytda bir guruuh qullar yoniga katak ko'ylakli, ko'kragi ochiq, eski, iflos cholvor kiygan, yelkasi keng, paydor bir kishi keldi. U tirsagi bilan olomonni turtib o'ziga yo'l ochib borardi. U yaqinlashib kelarkan, Tomni nihoyatda qattiq jirkanch va qo'rquv hissi

chulg'ab oldi. Past bo'yligiga qaramay, bu odamning juda baquvvat ekanligi ko'rinish turardi. To'g'risini aytganda, uning yumaloq kallasi, och kulrang katta ko'zları, paxmoq oqish qoshi, quyoshda o'ngib ketgan va qalin sochlari kishida allaqanday yomon taassurot qoldirardi. U beso'naqay katta og'zini to'ldirib nosvoy otgan va goh-goh shiddat bilan og'zidan tamaki aralash tupurardi. Sepkil bosgan serjun qo'llari benihoya qotgan, u quyoshda qoraygan; kir tirnoqlari juda o'sib ketgan. Bu odam nazar-pisand qilmay, qullarni birin-ketin ko'zdan kechirib chiqdi. U Tomning jag'idan ushladi va tishini ko'rish uchun og'zini ochdi; paylarini ko'rish uchun yengini shimardi; orqa-oldiga aylantirdi va qanchalik epchilligini bilmoq uchun sakratib ham ko'rdi.

– Asling qayerdan? – deb lo'nda qilib so'radi u, Tomni boshdan oyoq ko'rarkan.

– Kentukkidan, xo'jayin, – dedi Tom, xuddi najod izlagandek atrofiga qarab.

– Nima qilarding?

– Ferma boshqarardim, xo'jayin, – dedi Tom.

– Ishonib bo'pman so'zingga! – dedi u qisqa qilib, Tom yonidan ketarkan.

Adolf oldida u biroz to'xtadi. Keyin uning yarqiroq botinkasiga tamaki suvini tupurdi-da, nafratomuz kulib, boshqalarni ko'rgani o'tdi. Keyin Susanna bilan Emmelina oldida to'xtab, og'ir va iflos qo'li bilan qizni o'ziga tortdi va uning ko'kragi va bo'ynini, qo'llarini ushlab ko'rdi, tishlarini qaradi va keyin onasining oldiga itarib yubordi.

Bu badburush begona kishining qo'li qiziga tekkan sari mushtipar ona qattiq azoblanar va bu azob uning jafokash yuzida aks etardi.

Qiz qo'rqib yig'lay boshladi.

– Yig'lama, haromi! – dedi sotuvchi. – Yig'lash mumkin emas, savdo boshlanyapti!

Shu bilan savdo boshlandi.

Birinchi ko'trishdayoq sotib olishga qaror bergen yosh jentlmenga Adolfni katta pulga sotdilar.

Sen-Klerning boshqa qullarini har xil xaridorlar sotib olishdi.

– Qani, endi navbat senga keldi, chol! Eshitdingmi, hoy? – dedi auksionchi Tomga qarab.

Tom hadiksirab atrofiga razm solgancha kat ustiga chiqdi. Atrofdagi hamma ovozlar uning fazilatini maqtab, ingliz va fransuz tilida qichqirayotgan sotuvchining ovozi, shoshilib baho aytayotgan xaridchlarning ovozi – hammasi bir-biriga qo'shilib g'ala-g'ovur hosil qilgandi. Bir daqiqadan keyin, so'nggi marta bolg'aning taqillagani va jumla-ning „dollar“ degan oxirgi so'zi eshitildi. Shu bilan Tomning masalasi hal etildi. U xo'jayinli bo'ldi.

Uni katdan itarib yubordilar. Ho'kizbosh, yelkasi keng bir odam Tomning yelkasidan ushlab olib, chetga turtib yubordi va: „Bu yerda tur!“ – dedi.

Nima bo'layotganini Tom zo'rg'a fahmlardi. Savdo davom etardi: qars-qurs va taqir-tuqur ovozlar, goh inglizcha, goh fransuzcha xitoblar. Bolg'a yana bir marta taqilladi, Susannani sotdilar! U katdan tushayotganida bir lahza to'xtab, sarosima bilan orqasiga qaradi. Qizi unga qo'lini cho'zyapti. Sotib olgan kishiga u, yuzini bujmaytirib qarayapti. U odam ko'rinishidan xushko'ngil, o'zi o'rta yashar edi.

– Hoy, xo'jayin, umringiz uzun bo'lsin, qizimni ham oling!

– Jonim bilan olardim, lekin pulim yetmas deb qo'rqa-man, – dedi jentlmen.

U, yosh qizning kat ustiga ko'tarilishiga, cho'chib va yuragi dov bermay, tevarakka olazarak boqishiga achin-gansimon qiziqib qarardi.

Qizning oppoq yuziga qon quyildi, hayajonlanganidan ko'zi charaqladi, bu bilan yanayam chiroyliroq bo'lib ketganini ko'rgan ona oh tortdi. Auksionchi uning go'zalligidan foydalanishga shoshildi va ingliz tilini fransuzchaga aralashtirib, uning xislatlarini chiroyliboralar bilan maqtay berdi. Qizning bahosi tez ko'tarila boshladi.

– Kuchimga yarasha bir narsa qilishga urinib ko'raychi... – dedi xushko'ngil ko'rinishli jentlmen, xaridorlarga qo'shilib.

Ammo birpasta qizning bahosi shunday oshdiki, haligi jentlmenning puli kamlik qilib qoldi. U jim bo'ldi. Auksionchi qizib ketyapti, lekin xaridorlar asta-sekin chekinmoqdalar; faqat ikki kishi qoldi; qari bir aristokrat bilan haligi yumaloqkalla oshnamiz. Aristokrat o'z raqibiga nafrat bilan qarab, birmuncha vaqt narxni oshirib bordi. Lekin yumaloqkalla ustunlik qildi: u, juda o'jar va ko'rinishi xunuk bo'lsa ham, boy ekan. Tortishuv to'xtadi. Nihoyat, bolg'a tushdi va qiz yumaloqkallaga qoldi.

Qizning xo'jayinini mister Legri deydilar, u Qizil daryo bo'yidagi paxta plantatsiyasining egasi ekan. U qizni Tom va yana ikki qul turgan tomonga itardi. Qiz ho'ng-ray-ho'ngray qullar yoniga keldi.

Xushko'ngil jentlmen achinyapti. Lekin bunday hodisalar har kuni yuz beradi-ku! Bunday savdolarda ko'pincha yig'laganlarni ko'rasan: bir-birlaridan judo bo'layotgan onalar va qizlar har doim yig'laydilar. Ilojingiz yo'q! Dunyoning ishi shunday ekan. Shuning uchun xushko'ngil jentlmen o'zining yangi xaridini olib ikkinchi tomonga qarab ketdi.

Ikki kundan keyin B. va Q. vakillari fermaga tegishli pulni to'la-to'kis yuborishdi.

XXXI BOB

Ko‘chish

Qizil daryoda suzib borayotgan kichkina va xarobgina kemaning quyi palubasida qo'l va oyoqlari kishanlangan Tom o'tirardi. Uning yuragida kishandan ham og'ir tosh yotardi. Tom uchun hamma narsa so'ngan – osmon ham, oy ham, yulduzlar ham. Suzib borilarkan, huv anavi qирг'oqlar va daraxtlar birin-ketin o'tib ketayotgani kabi, Tom uchun hamma narsa o'tib ketdi va endi hech qachon qaytib kelmaydi. Kentukki, xotini va bolalari, saxovatli xo'jayinlari, Sen-Klerning uyi, undagi nozik tabiatlilik va zeb-ziynatlar, yoqimli va ma'sumko'z Yevanинг oltin sochli boshchasi, o'ziga mag'rur, chiroylı va beparvo bo'lgan xushko'ngil Sen-Kler, yengil va betashvish istirohat chog'lari – hammasi o'tib ketdi! Xo'sh, bularning o'rniغا nima qolyapti?

Qullikning eng achchiq tomonlaridan biri shuki, ziyrak va hushyor negr oliyjanob oilada yashab, bu oilaning did va odatlarini o'ziga singdirib oladi; shundan keyin u, dag'al va shafqatsiz xo'jayinning qo'liga tushib qoladi. Masalan, bir vaqtlar go'zal mehmonxonani bezab kelgan kursi yoki stol, provardida, sinib va shilqillab iflos oshxonaga yoki fahsh bir joyga tushib qoladi. Lekin ikki o'rtadagi katta farq shundaki, kursi yoki stol hech nimani his etmaydilar, ammoinson his eta oladi. Negrni „tutib olish, qonunga muvofiq sud qilish va jonli mulkka aylantirish“ mumkin, lekin shunga qaramay, uni muhabbat, qo'rquv va umid kabi jajji xotirot va kechinmalar olamidan mahrum etish mumkin emas.

Tomning xo'jayini mister Saymon Legri Yangi Orleanning turli joylaridan qul xarid qildi. Ularni juftlab kishanladi va Qizil daryoda suzishga tayyor bo'lib turgan „Pirat“ paroxodiga olib keldi.

Paroxod jo'nagandan keyin, Legri aylanib, o'z qullarini bilarmandlik bilan ko'zdan kechira boshladi. U Tom oldida to'xtadi. Tom juda yasangan edi: auksionchining buyrug'iga muvofiq xaridorlar e'tiborini yaxshiroq tortish uchun, Tom eng yaxshi kastum va kraxmallangan ichki ko'yak kiygan edi. Legri unga:

– Tur! – deb qisqa qilib do'q urdi.

Tom o'midan turdi.

– Tashla bu bo'yinturuqni!

Kishandan vazminlashgan Tom yechina boshlaganda, Legri unga yordam bera boshladi, keyin dag'allik bilan Tomning bo'ynidan yoqasini tortib olib, cho'ntagiga soldi.

Keyin u Tomning sandiqchasi yoniga keldi – buni ilgari kavlab ko'rgan edi – undan ikkita eski cholvorlarni va Tom otxonada ishlaganda kiyadigan juldur kurtkani oldi, keyin Tomning qo'lini kishandan bo'shatdi-da, yashiklar orasidan pana joyni ko'rsatib, buyruq berdi:

– Ana u yerga borib, bularni kiy!

Tom uning buyrug'ini bajarib, bir necha daqiqadan so'ng joyiga qaytib keldi.

– Etikni yech! – dedi mister Legri.

Tom etikni ham yechdi.

– Mana, – dedi Legri, odatda, qullar kiyadigan bir juft qo'pol kavushni oldiga tashlab, – kiy buni!

Keyin mister Legri Tomni yana kishanladi va shoshmasdan, uning cho'ntaklarini tintiy boshladi. Cho'ntakdan shoyi dastro'molchani olib o'z cho'ntagiga soldi. Yeva yaxshi ko'radigan har xil mayda-chuyda narsalarni Tom cho'ntagida asrab yurardi. Legri bularni olib, nafrat bilan ko'zdan kechirib, yelkasidan oshirib daryoga tashladi.

Keyin Legri Tomning ancha-muncha libosi solingan sandiqchasini oldi-da, kemaning tumshuq qismiga bordi: ha-yal o'tmay bu yerda uni matroslar o'rabi olishdi. Jentelmen

bo‘lishni istovchi negrlarni zo‘r berib masxara qildilar, tezda hamma narsalar birin-ketin sotildi, bo‘sh sandiqcha esa kimoshdi savdosiga qo‘yildi. Hammalari bu ishni hazilkashlik deb hisoblardi. Tom o‘zining har bir narsasi qismatiga judayam achinib, yig‘lagundek bo‘lib unga qarardi, bu qarashiga, ayniqsa, mazax qilib kulishdilar. Ammo sandiqchanning kimoshdi savdosiga qo‘yib sotilishi yanada qiziqroq ko‘rindi va ko‘pgina zaharli qochirmalarga sabab bo‘ldi.

Saymon bu ishni tamomlab, qullari oldiga qaytdi.

– Endi, Tom, seni ortiqcha yukdan xalos qildim. Bu libosni yaxshilab asra, senga hali-veri boshqa libos tegmaydi. Negrlarni men o‘z narsalarini asrashga o‘rgataman. Menda bir yilda bir martagina kiyim beriladi.

Keyin Saymon Emmelining oldiga keldi: u, boshqa bir xotin bilan qo‘silib kishanlangancha o‘tirardi.

– Qani, dilbarim, – dedi Legri uning bag‘baqasiga urib, – xursandroq bo‘lib o‘tirsang-chi!

U, qizning yuzida beixtiyor paydo bo‘lgan qo‘rquv va jirkanchni payqadi-da, jahl bilan ho‘mraydi:

– Sen bu hunarlaringni tashla, jonio! Sen bilan so‘zlashtayotganimda shirin-shirin kulimsirashga majbursan, eshitdingmi? Sen esa eski sariq po‘stak, – dedi u Emmelina bilan kishanlangan mulat ayolni tepib, – nega qovog‘ingni solib olisan? Kulibroq qara! Kulimsira! – keyin ikki qadam chekinib, boshqalarga qarab, dedi: – Hammangiz menga qarang... Menga qarang... Ko‘zimga tikilib qarang... To‘g‘ri ko‘zimga qarang... – deb takrorladi tepinib.

Xuddi sehrgarlardek, hammalari uning chaqnayotgan kulrang ko‘ziga tikilib qaray boshladilar.

– Endi, – deb u temirchiping bolg‘asiga o‘xhash katta va og‘ir mushtini yumib ko‘rsatdi, – bu mushtini ko‘rdingizmi? Qani, buni tortib ko‘r-chi! – dedi u mushtini Tomning qo‘liga qo‘yib. – Sizlarga aytsam, men musht bilan

negrлarni uraman. Bir musht urishim bilan o‘mbaloq oshib yiqilib tushmagan negrni hali ko‘rganim yo‘q, – deb mush-tini Tomning yuziga shunday olib keldiki, Tom, ko‘zini pirpiratib, o‘zini orqaga tortdi. – Men lan’ati nazoratchilar saqlayman, men o‘zim nazoratchiman. Men hamma nar-sani sezaman. Hamma narsani... Shuning uchun oldindan aytib qo‘yay: bir og‘iz so‘z aytishim bilan xursand bo‘lib yur, kulib qara! Men bilan faqat mana shunday qilib mu-rosa qilishingiz mumkin. Mendan silliq muomala kutmang. Menda qitdak ham shafqat yo‘q.

Ayollarning ko‘ksidagi nafas beixtiyor to‘xtadi va sak-kiz nafar qulning hammasi hushi uchib, g‘amgin holda pol-ga cho‘kdi. Bu vaqt Saymon orqaga qayrildi-da, bir-ikki ryumka aroq ichgani paroxod bufetiga ketdi.

– Men o‘z negrlarim bilan mana shunday tanisha bosh-layman, – dedi u, yonida turgan ollyjanob qiyofali notanish odamga. – Mening tuzumim – mushtdan boshlanadi, toki ularni nima kutishni o‘zlarini bilsin.

– Rosti bilan-a? – deb so‘radi notanish kishi, tabiat-shunos shu vaqtgacha hech bir ko‘rilmagan yirtqich hay-vonni qanday sinchiklab ko‘zdan kechirsa, u ham Saymon-ga shunday qiziqib qarab.

– Men negrlar bilan halala-hashtu o‘ynaydigan va ablak nazoratchilarga aldatadigan oqbilak plantatorlardan emas-man. Muskullarimni ushlab ko‘ring, mushtumga bir qarang. Bilasizmi, ser, negrlarni urib mashq qilaverib muskullarim yanayam qattiq bo‘lib qoldi, buni ushlab ko‘ring-a!

Notanish odam uning mushtini ushlab ko‘rib, dedi:

– To‘g‘ri, mushtingiz ancha qattiq ekan. Keyin, mening nazarimcha, – deb davom etdi u, – mushtingiz bilan birga yuragingiz ham tosh bo‘lib ketgandir.

– Xotirjam bo‘ling! – dedi Saymon, o‘zidan mammun hol-da kulib. – Men kabi mehr-u shavqati kam odam dunyoda

bormikan? Meni aldash ham oson emas. Meni alday oladigan negr hali onasidan tug'ilgani yo'q. Ko'zyoshi bilan ham, xushomad bilan ham meni qo'lga olib bo'lmaydi – bu aniq gap!

– Olgan qullaringiz yomon emas, – dedi notanish odam.

– Bo'lmasam-chi! – dedi Saymon. – Mana masalan, anavi Tomni olaylik. Uni menga bir mo'jiza deb aytishdi. Uning uchun picha ortiqroq to'lab yubordim, ammo ziyoni yo'q – uni men kucher va qo'rg'onchaning boshqaruvchisi qilib qo'yaman. Lekin ilgari ishlagan joyida miyasiga singib qolgan hamma be'maniliklarni yulib tashlash kerak. U yerda uni juda erkalatishgan, negrlarni esa erkalatib yuborish yaramaydi; mana shuning uchun u tentak bo'lib qolgan. Mana bu sariq jodugarga kelsak, meni qo'lga tushirishdi. Nazarimda u, nimjon va dardchil ko'rinyapti, lekin har holda unga to'lagan pulimni qaytarib olaman; u hali yana ikki yil ish beradi. Men negrlarni uncha uzoq asramayman. Negrdan oxirigacha foydalanaman-u, yangisini sotib olaman – tutgan yo'lim ana shu. Tashvish ham ozroq, ham arzon tushadi, – dedi Saymon, stakandan oz-oz ho'plab.

– Siznikida ular necha yil bardosh bera oladi? – deb so'radi notanish odam.

– Ochig'ini aytsam, o'zim ham yaxshi bilmayman. Salomatligiga bog'liq. Baquvvatlari olti-yetti yilga borishadi, bo'limg'urlari esa ikki-uch yildan keyin ishdan chiqadi. Bu ishni boshlagan vaqtimda, ularga ko'p behuda uringan edim: ularni qo'llashga harakat qildim, kasal bo'lib qolsa hatto davoladim, ko'rpa-to'shak va libos berdim; xullas, ularga har qanday qulayliklar tug'dirishga harakat qildim. Keyin qarasam, bularning hammasi befoyda ekan. Ortiqcha pul sarf-u bir talay tashvish. Endi men negrdan: kasalmisan, sog'misan deb so'rab-netib o'tirmayman. Negr o'lishi bilan boshqasini sotib olaman va shunday qilish oson ham arzon deb bilaman.

Bu vaqtida paroxodning quyi palubasida Emmelina bilan unga kishanlangan mulat ayol orasida mutlaqo boshqa mavzuda suhbat borardi. Ular tabiiy, bir-birlariga o‘z qisalarini hikoya qilishardi.

- Sening xo‘jayining kim edi? – deb so‘radi Emmelina.
- Xo‘jayinim mister Ellis edi. U Livestridda turardi. Balki, uyini ko‘rgandirsan?
- Senga u yaxshi muomala qilarmidi? – deb so‘radi Emmelina.

– Kasal bo‘lmasidan ilgari yomon emas edi. U olti oydan oshiqroq kasal bo‘lib yostiqda yotdi va juda injiq bo‘lib qoldi. Na kunduzi, na kechasi hech kimga orom bermasdi. Meni kechalari uxlagan qo‘ymasdi, shuning uchun men butunlay holdan toyib qoldim. Bir marta kechasi uxbab qolgan edim, u meni so‘kib – „Seni eng ashaddiy, yomon xo‘jayinga sotaman“ – dedi. Ilgari esa – „Men o‘lgandan keyin sen ozod bo‘lasan“ – derdi.

- Do‘srlaring bormidi? – deb so‘radi Emmelina.
- Erim bor. Temirchi. Odatda, xo‘jayin uni boshqa joylarga pul ishlagani yuborardi. Meni shunday tez olib ketishdiki, hatto u bilan ko‘risha olmadim ham. Mening to‘rtta bolam ham bor! Yo Rabbim! – dedi xotin va qo‘li bilan ko‘zini yopdi.

Ba’zi odamlar birovning chekayotgan jafolari haqida hikoya eshitganlarida, uni yupatish uchun o‘zlarida tabiiy bir istak his etadilar. Emmelina ham unga taskin beruvchi so‘z aytmoqchi edi, lekin hech narsa o‘ylab topolmadi. Uni nima deb yupata olardi ham? Ular, hozirgi xo‘jayinlari bo‘lgan rasvo odam haqida, xuddi so‘z biriktirib qo‘ygan-dek, qo‘rqanlari va jirkanganlardan so‘z ochmasdilar.

Qayg‘uli yuk ortilgan paroxod Qizil daryoning loyqa-qizil suvi ustida tik va egri-bugri yastangan qirg‘oqlar orasidan suzib borardi. Ko‘pgina ma’yus ko‘zlar qizil tuproqli

tikka qirg'oqlarga toliqib boqardi. Nihoyat, paroxod kichkina bir shaharcha yonida to'xtagach, Legri o'z negrlari bilan paroxoddan tushdi.

XXXII BOB

Xafagazak joylar

Tom bilan hamrohlari yurish qiyin bo'lgan yo'ldan, beso'naqay arava ortidan og'ir qadam bosib bordilar.

Aravaning oldida Saymon Legri, kishanlangan ikki ayol esa orqadagi yuklar orasida o'tirardi. Bular Legrining olis plantatsiyasiga borardilar.

Buzuq yo'l goh shamol shoxlarini silkib, g'amgin shitirlayotgan qarag'aylar o'sgan yaydoq yerlar orasidan, goh yog'och ko'priklar tashlab qo'yilgan botqoqlardan o'tardi; motamsaro qoramtil tuklar bosgan sarv daraxtlari suyuq botqoqlik ustidan bo'y cho'zib turardi; unda-bunda suv ichida chirib yotgan shoxlar ustidan badburush zaharli ilonlar o'rmalab o'tardi.

Yaxshi ot ustida, cho'ntagini pulga to'ldirib, birorta muhim ish bilan bu yo'ldan birinchi marta chopib borayotgan odamni tasavvur eting. Bu odamga ham bu yo'l hech so'zsiz ko'ngilsiz ko'rindari.

Lekin har qadam bosgan sari, orzu qilgan va sevgan narsalaridan uzoqlashayotgan qullarga bu yo'lning qanchalik dahshatli va noumid ekanini tasavvur qila olasizmi?

Qullarning qora yuzlari g'amgin edi. Ularning ma'yus ko'zlari yo'lda uchragan har bir narsaga diqqat va itoat bilan qarardi.

Faqat ot haydab borayotgan Saymonninggina dimog'i chog' ko'rindari. Goh-goh u ichiga aroq quyilgan cho'ntak shishasini og'ziga tutib, o'zini tetiklardi.

– Hoy! – deb qichqirdi u, orqasiga qararkan, g‘amgin yuzlarni ko‘rib. – Qani, bir ashula aytinlar, yigitlar!

Qullar sarosimalanib, bir-birlariga qaradilar. Legri dahan-shat bilan qamchini siltadi.

Darhol ashulachi topildi, u, qullar orasida ko‘p tarqal-gan ma’nosiz ashulalardan birini aytta boshladи:

*Bir kun suqsurni tutdim,
Hoy, hoy, hoy!
Xo ‘jayinni kuldirdim:
„Oyni qayerda ko ‘rding?“
Xo-xo-xo! Hoy! Xo!
Xo-xo-xo! E! O!*

Ashulachi og‘ziga kelgan so‘zni aytar, ohangni buzmaslikka urinib, ma’noga e’tibor bermasdi. Negrlar unga jo‘r bo‘lishardi.

*Xo-xo-xo! Hoy! Xo!
Tepaga! E! O! Tepaga! E! O!*

Ular joni boricha xursand bo‘lib ko‘rinishga harakat qiliishi. Biroq eng qattiq faryod ham bu chapanicha ashuladagi kabi qayg‘uli sado bermasdi. Lekin Saymon ularning ovozlarida yashiringan g‘amgin yolvoruv ohanglarini eshitmasdi. U faqat qo‘shiqning shovqinini va negrlarini „shodlantirib“ yuborgani uchun xursand edi.

– Xo‘s, kichkintoy, – dedi u Emmelinaga qayrilib va uning yelkasiga qo‘lini qo‘yib, – yarim soatdan keyin uyda bo‘lamiz.

Legri so‘kinib g‘azabi toshar ekan, Emmelina qo‘rquv-dan titrardi, lekin Legri muloyim so‘zlaganda esa Emmelina battarroq qo‘rqardi. Uning qarashi Emmelinani qiziqtirdi. Qiz yonida o‘tirgan mulat aylolga o‘z onasiday beixtiyor yopishadi.

— Sen hech vaqt isirg'a taqmaganga o'xshaysan-a, — dedi Legri, qizning jajji qulochasini yo'g'on, dag'al barmoqlari bilan ushlab.

— Hech, xo'jayin, — deb javob berdi Emmelina, titrab-qaltirab va yerga qarab.

— Agar sen yaxshi qiz bo'lsang, isirg'a olib beraman. Qo'rhma, sen ko'p ishlamaysan. Sen vaqtingni men bilan o'tkazasan, uyimning bekasi bo'lib yashaysan. Faqat yaxshi qiz bo'lishing kerak.

Legri mast edi. U ko'p ichganidan, ko'ngli xush muomalani tusab qoldi. Uzoqda uning plantatsiyasi ko'rindi. Bir vaqtlar bu plantatsiya hafsalasi zo'r badavlat bir jentl-menniki edi, u odam mulkinining chiroyli bo'lishi uchun astoydil harakat qilardi. Lekin u jentlmen sinib qoldi, keyin o'ldi. Legri uning yerini sotib oldi va dunyoda boshqa narsalardan qanday foydalansa, bu mulkdan ham shunday foydalana boshladi — ishqilib, undan ko'proq pul siqib olinsa bas edi. Hozir bu yerda hamma narsa qarovsiz va yarim vayron holda edi.

Bir vaqtlar oldida gulzor va tarashlangan maysalar bo'lgan uy oldini endi ot payxon qilgan, yovvoyi o'tlar bosib ketgandi; unda teshik paqirlar, poxol, somon va boshqa har xil balo-yu battarlar sochilib yotardi. U yerbu yerda ra'nogul novdalari uchrar, ularning tanalari yonboshlab qolgan nafis ustunga chirmashgandi; ustunlar hozir ot bog'laydigan qoziq xizmatini o'taganidan yonboshlab qolgan edilar. Keng bog'ni ham yovvoyi o'tlar bosgandi, faqat har joy-har joyda nodir o'simliklar saqlanib qolgan, ularning hech kimga kerak bo'lmanan gullari dikkayib turardi. Oranjereyaning hamma oynaklari singan, lekin tokchalarda tuprog'i quruq bir necha tuvak ko'rinar va ulardan barglari xazon bo'lgan quruq shoxchalar chiqib turardi.

Arava shag'al to'kilgan yo'lkaga kirdi: yo'lkani ham o't bosgandi. Yo'lkanning har ikki tarafiga bir vaqtlar juda chiroyli xitoy daraxtlari o'tqazilgan; ular haliyam o'zlarining go'zalliklarini va to'q zangor yaproqlarini yo'qotmaganlar, chunki, bu daraxtlar yerga juda chuqur tomir otganliklaridan har qanday ofat ularga shikast yetkazolmasdi.

Janubiy hamma uylar kabi, keng va go'zal uy esa hamma tomondan ikki qavat ayvon bilan o'ralgan va hamma xonalar eshiklari shu ayvonlarga chiqardi. Bu ayvonlarning ostiga g'isht ustunlar qilingandi.

Lekin bunday qaraganda uy odamsiz va qarovsizdek huvullab ko'rinardi; derazalarning ba'zisiga taxta qoqilgan, ba'zisiga esa to'r parda o'miga kir lattalar osilgan; hamma narsa uyga hech kim qaramay, tashlab qo'yilgandan darak berardi.

Hamma yerda g'o'zalar, to'p-to'p poxol, bo'sh bochka va yashiklar yotardi. To'rtta qopog'on it aravaga tashlandi; agar juldur kiyimli qullar yordamga kelib itlarni haydamaganda, ular Tom va o'rtoqlarini g'ajib tashlardi.

– Sizlarni nima kutishini endi ko'rdingizmi? – dedi Legri, itlarni erkalatarkan, Tom va uning hamrohlariga. – Endi ko'rdingizmi, mabodo menikidan qochmoqchi bo'lsangiz, sizni mana nima kutadi. Bu ko'ppaklar qochqin negrlarni ovlash uchun o'rgatilgan. Bularning fikri-zikri sizlarni g'ajib o'ldirishda. Bu narsa yodingizdan chiqmasin... Ishlar qanday, Sembo? – deb qichqirdi u egilib ta'zim qilib turgan yirtiq shlapali sayoqqa. – Ishlaringiz qalay?

– Joyida, xo'jayin.

– Kvimbo, – dedi u, joni boricha xo'jayinning e'tiborini o'ziga tortmoqchi bo'layotgan ikkinchi sayoqqa qarab, – senga bergen buyrug'im esingda turibdimi?

– Esimda turibdi, xo'jayin.

Bu ikki negr plantatsiyada eng e'tiborli kishilar edi.

Legri o‘z buldoglarini qanday o‘rgatgan bo‘lsa, bularni ham shunday o‘rgatib, ularga badjahllik va qonxo‘rlikni singdirishga uringandi. Uzoq mashqlardan so‘ng u, o‘z maqsadiga erishdi va bu ikki negr ko‘ppaklardan ham battar bo‘lib yetishdi.

Bizga tarixdan ma’lum bo‘lgan ko‘pgina hokimlar kabi, Legri ham qo‘l ostidagi kishilar orasida nizo-janjallar chiqarish yo‘li bilan ularga hukmronlik qilardi. Sembo bilan Kvimbo bir-birlarini jon-jahdlari bilan yomon ko‘rardilar, boshqa negrlar esa bularning ikkisini ham jon-jahdlari bilan yomon ko‘rardi. Bular orasidagi o‘zaro adovatdan foydalangan Legri bir narsadan ko‘nglini to‘q tutishi mumkin edi: agar plantatsiyada biror hodisa yuz bersa, unga al-batta xabar berajaklar.

Har bir odam boshqa kishilar bilan hech bo‘lmasa biroz yaqinlik qilib turishga muhtoj. Shuning uchun Legri bu ikkala laganbardoriga, garchi juda dag‘al va kamsitgan tarzda bo‘lsa-da, do‘stlik qilardi. Lekin bu do‘stlik ularning har ikkisi uchun juda xafvli edi, chunki xo‘jayinning bitta imo-ishorasi bilanoq ular bir-birlarini jon-jon deb g‘ajib tashlashga tayyor turardilar.

– Qani, Sembo, – dedi Legri, – bu azamatlarni barak-larga olib bor-chi... Buni ko‘r, senga qanday xotin olib keldim, – dedi yana u, mulat ayloning zanjirini Emmelinadan bo‘shatib va uni Sembo tomonga turtib yuborib. – Men senga xotin va’da qilgan edim, so‘zimning ustidan chiqdim.

Ayol cho‘chib tushdi va o‘zini orqaga tashlab, yolvora boshladi:

– Hoy, xo‘jayin, mening erim Yangi Orleanda qoldi-ku.

– Ha, nima bo‘libdi? Bu yerda ering boshqa bo‘ladi. Og‘zingni yum! Bor! – deb baqirdi Legri, qamchini ko‘tarib. – Sen esa, jonginam, – deb Emmelinaga murojaat qildi, – men bilan yurasan.

Derazadan qora yuzi g'azablangan birov ko'rindi, keyin Legri eshikni ochganda shoshilib do'q qilayotgan ayol ovozi eshitildi. Emmelina ortidan tashvishlanib qarab turgan Tom, Legrining jahl bilan bergan javobini eshitdi:

– Tilingni kaltaroq qil! Nimani xohlasam o'shani qilaman, seni ham, boshqalarni ham.

Tom ortiq hech narsa eshitolmadi. Sembo uni barakka olib ketdi. Negrlar posyolkasi xo'jayin uyidan uzoqda – iflos ko'chaning ikki chetiga joylashgan ayanch bostirmalardan iborat edi. Bu baraklarni ko'rib Tomning yuragi orziqdi. Tom esa bechorahol bo'lsa ham, og'ir ishdan keyin dam olish mumkin bo'lgan o'ziga qarashli tinch va ozoda, kichkina uyni orzu qilgandi! U avval bir barakka qaradi, keyin ikkinchisiga ko'z tashladi. Baraklar ichida qattiq taxtalardan bo'lak hech qanday jihoz yo'q edi. Polda iflos poxollar yotar, ular oyoq ostida rosa toptalgan edi.

– Qaysi barak meniki bo'ladi? – deb ma'yus so'radi Tom Semboden.

– Bilmadim... Seni bu yerga tiqsammikin, – dedi Sembo. – Bu yerda bitta joy bo'shga o'xshaydi. Hamma barakkarda negrlar to'lib yotibdi. Yangilarni qayerga tiqishni bilmay qoldim.

Uzoq va og'ir mehnatdan horigan qullar gala-gala bo'-lib baraklariga qaytganlarida vaqt ancha kech bo'lib qolgandi. Bu juldur kiyimli erkak va ayollar yangi kelganlariga qovoqlaridan qor yog'ib xo'mrayib qarardilar. Butun posyolkada zaharli o'shqirish ovozlari eshitilardi. Negrlar o'zlariga xos kekirdak ovozi bilan keli uchun bir-birlari bilan so'kishardilar: kechasi yeydigan nonlarni pishirish uchun ularning har qaysisi o'ziga tegishli yaramas mak-kajo'xorini kelida tuyib olishi kerak edi. Ularning boryo'q ovqati yolg'iz o'sha nondan iborat edi. Ular tongdan qorong'i kechgacha nazoratchilarning qamchisi ostida da-

lada ishlardi. Qizg'in ish vaqtি bo'lganidan, ularning har birini holdan ketguncha ishlatar edilar.

Ehtimol, biron bekorchi takasaltang nazar-pisand qilmay: „Paxta terish shuncha og'ir ish ekanmi?“ – degan savolni berardi.

Og'ir emasmi? Boshingizga bir tomchi suv tushsa, shunga bardosh berish og'irmi? Qani ayting-chi? Hech og'ir emas. Lekin inkvizitsiyaning eng qattiq jazo choralaridan biri shundan iboratki, kishi boshining bir joyiga ko'p soatlar davomida suv tomchilab turaveradi. Hadeb ayni bir harakatni bir necha soat takrorlayversangiz va buni o'z xohishingiz bilan qilmayotganingizni bilsangiz, aslida, og'ir bo'lmanish ham kishini holdan toydiradigan darajada og'ir bo'lib qoladi.

Tom yangi o'rtoqlari orasidan, loaqlal birorta xushko'ngil va xushyuzlisini topishga urindi, lekin bunday kishini topolmadi. U faqat badqovoq va badjahl erkaklarni, madorsiz va yurak oldirgan xotinlarni yoki zarracha xotinlik xislati qolmagan dag'al ayollarni ko'rди. Kuchli odam kuchsizini ezardi. Har kim faqat o'z g'amini yerdi. Bu qullar bilan hayvon kabi muomala qilardilar, binobarin ularning xuddi hayvonday bo'lib qolganliklariga taajublanmasa ham bo'lardi! Yarim kechagacha baraklarda janjal va so'kinish to'xtamasdi. Keli yetishmasdi, zaifroq kishilar hammadan keyin tuyardilar.

– Hoy, menga qara! – dedi Sembo mulat ayolning yoniga kelib, unga bir xalta don tashlarkan. – Oting nima?

– Lyusi, – dedi ayol.

– Ho'sh, Lyusi, endi sen mening xotinimsan. Mana bu donni tuyib, menga kechki ovqat tayyorlagin. Eshityapsanmi?

– Men sening xotining emasman va hech qachon xotining bo'lmayman ham! – dedi ayol, juda tashvishlangan holda o'zida botirlik his etib. – Yo'qol, ko'zimga ko'rinsa!

– Menga qara, kaltak yeysan! – dedi Sembo, dahshat bilan oyog‘ini ko‘tarib.

– Mayli, o‘ldirib qo‘ya qol! Qancha tez o‘lsam, shuncha yaxshi. Dunyoda yashagim kelmaydi, – dedi u.

– Hoy, Sembo, qullarni mayib qilsang, xo‘jayinga arz qilaman, – dedi Kvimbo.

U donlarini tuymoqchi bo‘lib turgan ikki-uchta madorsiz ayolni keli yonidan tepib yuborib, o‘zi keli bilan ovora bo‘lib turgan edi.

– Men ham xotinlarga keli bermayotganligingni xo‘jayinga aytaman! – deb baqirdi Sembo. – Navbat kutishing kerak.

Yo‘l yurib charchagan Tom juda och edi. U ovqat yegisi kelib, yuragi gumurganidan hushidan ketayozgandi.

– Ol, – dedi Kvimbo unga xaltachada don tashlab – Birato‘la hammasini yeb qo‘yma, negr. Boshqa olmaysan. Shu bir haftaliking.

Tom donni tuyib olish uchun yarim kechagacha navbat kutdi. Lekin navbatni yetganda ikki xotinni ko‘rdi: bular juda holsiz edilar, don tuyishga kuchanib ko‘rdilar, bo‘lmaidi, holsizlanib yiqilib qoldilar. Tom bularning donini tuyib berdi, ular uchun o‘tga bir necha g‘o‘la tashlabdi, shundan keyingina o‘z ovqatini tayyorlagani tutindi. Tom ikki ayolga xizmat qilib, arzimas yordam ko‘rsatdi, xolos, ammolarning shafqatsizlik tufayli dag‘allashgan yuraklarini yumshatish va ularda minnatdorlik hissini uyg‘otish uchun shugina ham kifoya bo‘ldi. Ayollarning dag‘al yuzlarida muloyim tabassum paydo bo‘ldi, shundan so‘ng ular ishga tutindilar va Tomga xamir qilib, non pishirib berdilar.

Tom ovqat yeb bo‘lib, boyas „Shu yerda yashaysan“, deb aytilgan barakka oyog‘i tortmay borib, uxlamoq uchun joy qidira boshladi. Pol uxlayotgan odamlarga to‘lib yotar edi. Dim barakdan sassiq hid anqib turardi. U tashqarida

yotmoqchi bo'ldi, ochiq havo sovuq va zax edi. Uning tansasi istirohat talab qilardi. U poxolga yotib, ustiga yirtiq ko'rpani yopdi.

XXXIII BOB

Kassi

O'zining yangi hayotida Tom nimaga ishonish mumkin va nimadan qo'rqish kerakrligini juda tez tushunib oldi. U har qanday ishni uddalab ketaverardi; u buyurilgan ishni o'z vaqtida, ko'ngildagidek qilib bajaruvchi, vijdonli odam edi. U og'ir va yuvosh bo'lib, shu fe'li bilan zo'r berib ishlab, ahvolini yaxshilashga umid qilardi. U shuncha zahmat-mashaqqat chekdi, unga shunday ozor berishdi va azoblashdiki, oxirida kuchdan ketib, o'zini har doim kasal his eta boshladi; shunday bo'lishiga qaramay: „Ahvolim bir kun bo'lmasa bir kun yaxshilanib qolar“, degan umid bilan tinmay ishlayverdi.

Tomning kuchi boricha tirishib ishlaganini Legri alla-qachon sezgan bo'lsa ham, indamay yurdi. U qo'liga bunday yaxshi xizmatkor tushib qolganiga juda xursand edi, lekin dilida Tomga chuqur nafrat bilan qarardiki, zotan, yomon odam yaxshi odamga shunday qaraydi. Legri himoysiz kishilar bilan vahshiyona muomala qilishini Tomning ko'rayotganligini sezardi. Tom bir narsa demasa-da, Legrining qiliqlariga chin qalbidan ranjiganini ham sezardi. Xo'jayin esa, tabiiy, o'z qulining bunday qarashini yoqtirmaydi. Tom qayg'udosh o'rtoqlariga xushmuomala bo'lar, jon-dili bilan ularga har xil yordam ko'rsatardi, bu esa qullarga qiziq va g'alati ko'rinardi. Legri buni payqab qoldi. Tomni sotib olarkan, keyinchalik uni nazoratchi qilib, u yoq-bu yoqqa jo'nagan vaqtida butun xo'jalikni Tomga

topshirib ketmoq niyatida edi. Ammo, uning nazarida, yaxshi nazoratchi, birinchi galda shafqatsiz bo'lishi lozim edi. Shuning uchun Legri Tomning tabiatidan rahm-shafqat degan tuyg'ularni siqib chiqarishga qaror berdi. Tomning plantatsiyaga kelganidan bir necha hafta o'tgach, Legri bu niyatini amalga oshirishga kirishdi.

Bir kun ertalab Tom hamma qatori ishga borarkan, bir ayolni ko'rib qoldi; Tom uni ilgari hech ko'rmagandi. Ayolning qiyofasi uni hayratda qoldirdi. U novcha, qomati kelishgan, qo'l va oyoqlari nozik, ozoda va yaxshi kiyingandi. Yoshi o'ttiz besh yoki qirqda bo'lsa kerak. Uning yuzi bir qarashdayoq esda qolardi. Shuningdek, bir qarashdayoq, uning boshidan allaqanday vahshiyona, azob-uqubat to'la bir hodisa kechganini ham fahmlash mumkin edi. Uning peshonasi keng, qora qoshlari kamondek tortilgan. To'g'ri burni, kichkina, nafis og'zi, chiroyli boshi va bo'yni yoshlida go'zal ayol bo'lgandan darak berib turardi. Lekin endi yuziga qayg'u va xo'rlik ajinlari tushgandi. Yuzi qonsiz, xasta, ikki chakkasi ichiga botgan, butun qiyofasi ozgandi, qattiq jafo chekkidan, u madorsizlanganday ko'rinardi. Uning ma'yuslik va umidsizlik bilan to'lgan qop-qora, katta ko'zları, tim qora, uzun kipriklari kishini hayratlantiradi. Uning yuzidagi har bir chiziqda, labining tuzilishida, a'zoyi badanining har bir harakatida g'urur va kishining jig'iga tegadigan allaqanday takabburlik sezilib turardi; mana shuning uchun ham uning mag'rur, zaharxanda va nafrat ufurib turgan yuzidagi umidsizlik hamda chuqr azoblanishini bildirib turgan ko'zlarini ko'rish g'alati taassurot qoldirardi.

Tom uning kimligini va qayerdan kelganini bilmasdi. G'ira-shira qorong'i bo'lgan mungli iliq tong payti u, Tom yonida tik va mag'rur borardi. Boshqa negrlar uni

tanishardi. Uning atrofidagi juldur kiyimli kishilar ayolni ko'rib juda hayron qolishdi.

– O'ynab bo'libdi! – dedi bir negr. – Allaqachon shunday bo'lishi kerak edi.

– Hi-hi-hi! – deb kului yana bittasi. – Endi bizning turmushimiz qanday ekanligini bilasan.

– Ko'ramiz, qanday qilib ishga qo'l urar ekan!

– Kechqurun kaltak yeishi turgan gap!

– Savalaganlarini ko'rsam bir hordiqdan chiqardim-da!

Ayol bu masxarashlarga e'tibor bermas, faqat nafratomuz kulimsirardi. Butun umri yaxshi tarbiya olgan, madaniy kishilar orasida o'tgan Tom uning yaxshi tarbiya topgan ayollardan ekanini darhol fahmladi. Tom bu ayolning qanday qilib cho'ri bo'lib qolganini bilishga urinib ko'rsa ham, hech nima chiqmadi. Ayol unga sira qaramadi, bir og'iz so'z demadi, ammo hamma vaqt uning yonida boraverdi.

Tom zo'r berib ishlay boshladidi, ammo boyagi g'alati ayol uning yaqinida ishlayotgani uchun, ahyon-ahyonda ko'z qirini solib qo'yardi. Ayol tug'ma epchilligi va ud-daburoligidan, boshqalardan ko'ra yaxshiroq ishlardi, Tom darhol buni payqadi. Xotin jadal ham puxta ishlar va o'z-o'zini hamda uni bu ishga majbur etgan ahvolni mas-xaralagansimon nafratomuz kulimsirardi.

Tomning yaqinida yana bir xotin – u bilan birga sotib olingan mulat ayol ishlardi. Tom tez-tez uning oh-faryodini eshitib turardi. Tom ayolning yoniga keldi-da, gap-so'zsiz, qopidan bir necha tutam paxtani olib, uning qopiga soldi.

– Kerakmas! Kerakmas! – dedi ayol unga taajjublanib, qarab. – Baloga qolasan.

Ular yoniga Sembo yugurib keldi. Bu ayolni u, ayniqsa, yomon ko'rardi. Qamchini ko'tarib, xirqirab dahshat bilan qichqirdi:

– Bu nimasi, Lyusi? Muttahamlik qilyapsanmi? A? – Sembo ayolni nag‘al qoqilgan og‘ir etigi bilan tepdi va Tomni qamchi bilan urdi.

Tom indamay ishini davom ettirdi. Ammo busiz ham so‘nggi darajaga yetib holsizlangan ayol hushidan ketdi.

– Hozir buni hushiga keltiraman! – dedi nazoratchi, qahrlanib kulimsirab. – Menda kamforadan ham yaxshi dori bor!

Bu so‘zlarni aytib, u yengidan to‘g‘nag‘ichni sug‘urib oldi-da, ayolning badaniga bor bo‘yi suqib yubordi. Ayol oh tortdi-da, o‘rnidan turdi.

– Tur, iflos, ishga tush, yo‘qsa teringga yangi bir dori yuboraman!

Ayol hatto inson qurbi yetmaydigan zo‘r kuch bilan o‘rnidan turdi-da, ishiga tutindi.

– Tezroq qimirla! – dedi Sembo. – Dangasalik qilsang, go‘shtingni uzib olamanki, joningdan ham kechib yuborasan!

– Shunday ham jonimdan to‘yanman, – deb pichirladi ayol.

Tom yana kaltak yeishini o‘ylab-netib turmay, tergan paxtasining hammasini olib Lyusining qopiga soldi.

– Kerakmas! Ular seni, Xudo ko‘rsatmasin, juda yomon qilib qo‘yishlari mumkin! – dedi mulat ayol.

– Kaltakka sendan ko‘ra men tuzukroq bardosh bera olaman, – deb Tom, o‘z joyiga qaytdi.

Buning hammasi bir daqiqa ichida bo‘lib o‘tdi.

Boyagi g‘alati xotin Tomning so‘nggi so‘zini eshitdi. U qora ko‘zlarini suzib, taajub bilan Tomga og‘ir nazar tashladi. Keyin o‘z savatidan ozgina paxta olib Tomning qopiga soldi.

– Sen bu plantatsiya to‘g‘risida hech narsa bilmaysan, – dedi u. – Agar o‘zingga nima tahdid qilishini bil-

ganingga edi, paxtangni birovlarga bermasding. Bir oydan keyin hech kimga yordam bermaysan, faqat o'z joningni o'ylaydigan bo'lib qolasan!

Ayol o'z paxtasini Tomning qopiga solganini nazorat-chi ko'rди va qamchisini o'qtalib, ayol oldiga kela boshladi.

– Nima?! Nima?! – deb baqirdi nazoratchi unga g'azab bilan. – Sen ham muttahamlik qilyapsanmi? Endi qo'limga tushding-ku, adabingni beraman.

Ayolning qora ko'zlaricha qamqoqdek yaltirab ketdi. Lab-lari burishdi, burun kataklari titradi. Qayrilib, g'azab va nafrat bilan nazoratchining yuziga tikildi.

– Ko'ppak! – dedi u. – Qani, menga tegib ko'r-chi. Seni itlarga yegizib yuborishga, tiriklay o'tga yondirishga yoki tilka-pora qildirib tashlashga hali kuchim yetadi. Bir og'iz aytsam kifoya!..

Sembo cho'chib tushdi.

– Hayronman, bu yerda nima qilib yuribsan? – dedi u va labi osilib, ikki qadam chekindi. – Men sizni ranjitishni istamagandim, Kassixon!

– Kimligingni unutma! – dedi ayol.

Sembo dalaning narigi burchagiga qarab jo'nab qoldi.

Ayol yana ishga kirishdi, u juda abjir ishlardi, buni ko'rib Tom hayron qoldi. Unga allaqanday bir jodu yordam beradi, deb o'ylash mumkin edi. Kun hali botganicha yo'q, lekin uning savati liq to'lib, yopilgan va bog'langandi; hol-buki u, tergan paxtasidan bir qanchasini Tomning qopiga ham solgandi.

Qorong'i tushgach, negrlar savatlarini boshlariga qo'yib saroya jo'nashdi; saroyda paxta tortib olinar va shu yerda saqlanardi. U yerda Legri ikkala nazoratchi bilan qizg'in so'zlashib o'tirardi.

– Tom bo'limg'ur ishlarni qilyapti: Lyusining savatiga paxta solmoqchi bo'ldi. U xumpar tezda hamma negrlarni

„Bizni xafa qilishyapti“, deb arz qilishga o‘rgatadi. Xo‘jayin uni qo‘lga olishi kerak, yo‘qsa ishni rasvo qiladi, – dedi Sembo.

– He, qora shayton-ey! – dedi Legri. – Uning adabini berish kerak!

Ikkala negr xunuk irjaydi.

– Xo‘jayin Legrining o‘zi uning adabini bersin! Shayton ham negrni xo‘jayinimizdek darrov bo‘ysundirolmasa kerak, – dedi Kvimbo.

– Biror kishini kaltaklashga Tomni majbur qilamiz, yigitlar! Shunday qilinsa, miyasidagi hamma yaramas fikrlari, tentakligi yo‘qoladi.

– Xo‘jayin uning qo‘liga osonlikcha qamchi oldirolmasa kerak.

– Nima bo‘lsa ham uning miyasidan ahmoqona fikrlarni chiqarib tashlash kerak, – dedi Legri, og‘ziga tabak sola turib.

– Ana, Lyusining o‘zi ham kelyapti! Butun plantatsiada uningdek „zaharli ilon“ bo‘lmasa kerak! – dedi Sembo.

– Ehtiyot bo‘l, Sem! Uni nima uchun yomon ko‘rishning bilaman.

– Shuning uchun yomon ko‘ramanki, u xo‘jayinning buyruqlariga bo‘ysunmaydi. Xo‘jayin unga: „Semboga xotin bo‘lasan“, deb edi, u unamayapti.

– So‘zimga ko‘nmasa, qamchiga ko‘nadi, – dedi Legri tupurib. – Afsuski, hozir dalada ishning qizigan payti, u esa juda ozg‘in; ozg‘in odam esa uzoq vaqt turishi kerak, chunki ular yomon o‘jar bo‘ladi. Uni ra’yidan qaytarish uchun chala-o‘lik bo‘lib qolguncha urish kerak, ursang, u ishga yaramay qoladi.

– Axir u badbaxt baribir hech ish qilmaydi, buning ustiga vaysagani-vaysagan, uning uchun Tom ishlab beradi.

– Tom deysanmi? Unday bo'lsa uni Tom ursin. Qani, Tom biroz huzur qilsin-chi. Tom uchun bu yaxshi saboq bo'ladi, keyin menga ham foyda bo'ladi, sababki, Tom uni sizlar singari qattiq urmaydi.

– Xo-xo-xo! Hu-hu-hu! – deb qah-qahladi ikki ablah.

– Lekin uning savati to'la, xo'jayin. Tom bilan Kassixon paxtalaridan Lyusining savatiga solib berishgan, xo'-jayin.

– Uning savatini o'zim tortaman, – dedi Legri ma'nodor qilib.

Ikki nazoratchi yana xunuk xaxolab kulishdi.

– Kassixon ular bilan kun bo'yi birga ishladimi? – deb so'radi Legri.

– U shaytondek epchil ishladi!

– Chindan ham uning ichiga shayton hamma bolalari bilan kirib olgan, – dedi Legri va qo'pol so'kinib, tarozi qo'yilgan saroyga jo'nadi.

Horigan kishilar saroyga ohista kirishar va o'z savatlari tortmoq uchun qo'rqib tarozibonga berardilar.

Toshtaxtaga qullarning nomlari yozilgan qog'oz yopishtirilgan. Har qaysi nomning ro'parasiga Legri o'sha quiltergan paxtaning miqdorini yozib qo'yardi.

Tomning savati tortilib, uning og'irligi ma'qullandi. Tom ish vaqtida inoq bo'lib qolgan mulat ayolga tashvishlanib qaradi.

Mulat ayol kuchsizlikdan chayqalib yurib borib, taroziga savatini qo'ydi. Legri savatning og'irligidan yetarli paxta terilganini payqasa-da, jo'rttaga jahli chiqqan bo'lib, baqirdi:

– Dangasa, hayvon! Tag'in yetmaydi! Bir chetga o't, sen bilan keyin gaplashamiz!

Mulat ayol, nima qilishini bilmay, bir oh tortib, skameykaga o'tirdi.

Tarozi yoniga „Kassixon“ deb aytilgan ayol keldi. U takabburlik va nafrat bilan taroziga savatini qo‘ydi. Legri zaharxanda, ammo tashvishlanib uning ko‘ziga termilib qaradi.

Ayolning qora ko‘zлari unga tikildi, lablari andak harakatga keldi, u fransuzchalab bir nima dedi. Uning nima deganiga hech kim tushunmadi, lekin Legrining yuzi g‘azabdan burishdi. U qo‘l ko‘tarib Kassiga hamla qilay deganda, Kassi unga nafratlanib g‘azab bilan qaradi-da, o‘girilib jo‘nadi.

– Bu yoqqa kel-chi, Tom, – dedi Legri. – Seni qoraish qildirgani olmaganimni o‘zingga aytgandim. Senga men yuqoriroq mansab berib, nazoratchi qilib qo‘yishga qaror qildim. Bugun yangi vazifangga tushishing kerak. Mana bu xotinni savala. Odamni qanday savalaganliklarini bir necha marta ko‘rgansan.

– Afv eting, xo‘jayin, – dedi Tom. – Men bundaqa ishga yaramayman. Umrimda hech kimni urgan emasman. Bu mumkin emas, xo‘jayin.

– Ko‘p ishlarni qilmagan bo‘lishing mumkin. Mening qo‘limda yo tez mulla bo‘lasan, yoki go‘rga kirgizib yuboraman! – dedi Legri va mol terisidan qilingan qayishni ushlab, Tomning yuziga ustma-ust urdi.

– Xo‘sh, nima deysan? – deb so‘radi u qo‘li charchaganda. – Haliyam „urolmayman“ deyaverasanmi?

– Urolmayman, xo‘jayin, – deb javob berdi Tom, yuzidan oqayotgan qonni artarkan. – Men tun-u kun ishlashga, o‘lgunimcha ishlashga tayyorman, lekin nohaq ishni qilolmayman. Men hech kimni hech qachon urmayman, xo‘jayin. Hech qachon!

Tomning ovozi juda mayin edi, u o‘zini odobli tutardi, shuning uchun Legri uni qo‘rqoq hisoblab, epaqaga solish oson bo‘ladi, degan fikrga kelgandi. Lekin Tomning

so'nggi so'zlaridan shu yerdagi xaloyiqning hammasini hayrat titrog'i bosdi.

– Yo Xudo! – deb xitob qildi sho'rlik mulat ayol, qulochini yozib.

Hamma ixtiyorsiz bir-biriga qaradi va qattiq to's-to'polon bo'lishini kutib, entikib qoldi.

Legri birinchi paytda garang bo'lib qoldi shekilli, keyin benihoya g'azablanib, o'shqira boshladi:

– Nima deding?! Lan'ati qora hayvon! Men uni nohaq ishni qilishga majbur etayotgan emishman-a! Sizlarga o'xshagan qabih qora galaning nima ish haq, nima ish nohaqligi haqida bir narsa deyishga haqi bormi? Yo'q, bunga chek qo'yaman! Sen kimsan o'zing? O'z xo'jayiningga haqqoniyat to'g'risida ta'lim berishga jur'at qilarkansan, demak, o'zingni jentlmen deb hisoblasang kerak, a, janob Tom? Demak seningcha, bu xotinni savalashadolatsizlikmi? Nohaq ishmi?

– Nohaq, xo'jayin, – dedi Tom. – U bechora kasal, zaif. Bunday odamni urish shafqatsizlik bo'ladi, men buni hech qilmayman. Meni o'ldirmoqchi bo'lsangiz, o'ldiring. Lekin men hech kimga hech qachon qo'limni ko'tarmayman. O'lsam o'laman, ko'tarmayman!

Tomning yumshoq ovozida po'lat kabi mustahkamlik sezilardi. Legri g'azablangandan titrardi. Uning och zangor ko'zları yaltiradi. Lekin Legri, xuddi o'z o'ljasini tilka-pora qilishdan ilgari, uni o'ynatishni istagan yirtqich hayvondek, birpas o'zini tutib turdi.

– Qarang, biz gunohkor odamlarga qandaqa taqvodor ko'ppak kelib qolibdi! – deb boshladi u so'zini. – Bu avliyo hamda jentlmen bizdaqa gunohkorlarni va bizning gunohlarimizni fosh qilyapti. Sendaqa xudojo'yni qara-yu! Sen muttaham o'z injilingda: „Qullar, xojalar ingizga bo'y-suningiz“, degan so'zni hech o'qimaganmisan? Men sening

xojang emas ekanmanmi? Sening qora po'staging to'la hamma narsa uchun bir ming ikki yuz dollar to'lamadimi? Sening tanang, sening joning meniki emasmi? – deb qichqirdi u, kuchining boricha og'ir etigi bilan Tomni te-pib. – Javob ber!

Qon ko'zyoshi bilan aralashib Tomning yuzidan oqardi. Shunday bo'lsa ham u javob berdi:

– Yo'q, yo'q, yo'q, mening jonim sizniki emas, xo'jayin. Uni sotib olmagansiz, sotib ololmaysiz ham. Siz mening jonimga hech qanday yomonlik qilolmaysiz ham.

– Qilolmaymanmi? – deb qaytarib so'radi Legri kulimsirab. – Ko'ramiz! Hoy Sembo, Kvimbo! Bu ko'ppak shunday boplab urilsinki, bir oygacha qimirlayolmasin!

Ikki ulkan negr darrov Tomni ushlab olishdi. Ularning yuzi tantanabozlik va yomonlikka quvonishdan yorishib ketdi. Sho'rlik mulat ayol dod deb qichqirdi. Hamma to'sat-dan paydo bo'lgan bu g'ala-g'ovurda o'midan qo'zg'aldi. Ammo bu vaqt endi jallodlar Tomni sudrab chiqishgan, u esa hech bir qarshilik ko'rsatmay, o'sha jallodlar yonida borardi.

XXXIV BOB

Kvarteronkaning qissasi

Tun. Tom tashlandiq taxta omborida siniq asbob-uskunalar, tashlandiq paxta va har xil axlatlar orasida qoniga belanib, oh-vohlab yotardi.

Tun zaxkash va qorong'i, havoda gala-gala chivinlar vizillashar va Tomning yaralariga qo'nib, og'riqni benihoya zo'raytirardi; lekin Tom, hammadan ham yurakni yondiruvchi tashnalikdan ortiqroq azob chekardi.

Birdan u allakimning oyoq sharpasini eshitdi, uning ko'ziga fonus shu'lasi urdi.

– Kim u? Suv! O'tinib so'rayman, suv bering!

Oldida Cassi paydo bo'ldi. U fonusni yerga qo'ydi; o'zi bilan olib kelgan ko'zadan krujkaga suv quydi-da, Tomning boshini ko'tarib ichirdi. Tom juda tashna bo'lganidan, ketma-ket bir necha krujka suv ichdi.

– Shu tobda sening uchun eng zarur narsa – suv ichish, – dedi Cassi. – suv ichish sen uchun eng muhim ekanligini bilardim. Kaltaklanganlarga tuni bilan suv tashishim birinchi marta emas.

– Tashakkur sizga, beka, – dedi Tom, chanqog'i bosilgach.

– Meni beka dema! Men ham sen kabi baxtsiz qulman, balki, sendan ham baxtsizroqdirman, – dedi u achinib. – Endi, – dedi u, sovuq, ho'l choyshab qoplangan kichkina to'shakni Tomning yoniga yozib, – mana bu yoqqa ko'chishga harakat qil, sho'rlik.

Yarador Tom juda qiyinalib, zo'rg'a to'shakka o'tib oldi va badaniga nam ro'ja tegishi bilan dardi birdan yengilashganday bo'ldi.

Kassi vahshiyona kaltaklangan kishilarni parvarish qiliшга одатланган; шунинг учун у, Томнинг яраларига азобни ўенгиласхтирадиган allaqanday dokalarni ho'llab qo'yib, yaxshilab bog'ladi.

– Sening uchun qo'limdan kelgani shu, – dedi u, Tomning boshiga yostiq o'miga tashlandiq bir quchoq paxtani qo'yib.

Tom unga tashakkur bildirdi. Ayol tizzasini quchoqlab, polga o'tirdi. Uning yuzida achinganlik va g'amginlik bor edi. Shlapasi orqasiga surilgan, uzun gajim qora sochlari mag'rur va g'amgin yuzlariga tushgandi.

– Qilgan ishlaringning hammasi befoyda, – dedi u ni-hoyat. – Sen hech narsadan qo'rmas odam ekansan, ha-qiqat ham sening tomoningda. Ammo hammasi behuda,

kurash mumkin emas. Sen shaytonning qo‘liga tushgan-san. U sendan zo‘r chiqadi, shuning uchun unga bo‘ysu-nishing kerak.

Bo‘ysunmoq! Attang, inson qanchalik zaif! Uning tun bo‘yi tortgan azoblari unga: „Bo‘ysun! Bo‘ysun!“ dema-dimi? Mana endi bu joduko‘z va qayg‘uli yuz xotin ham unga shuni aytynapti, uni shu tomonga suryapti.

– Yo Rabbim! Yo Rabbim! Qanday qilib bo‘ysuna ola-man? – deb oh tortdi Tom.

– Xudoga iltijo qilishning foydasi yo‘q – u hech qachon, hech kimning oh-faryodini eshitgan emas, – dedi ayol o‘jarlik bilan. – Xudo yo‘q demayman, mabodo bo‘lsa ham u bizga qarshi. Hamma bizga qarshi – yer ham, osmon ham.

Tom ko‘zini yumib, cho‘chib tushdi.

– Bu yerda nimalar bo‘layotganini sen hali bilmaysan, – dedi ayol, – men bilaman. Men bu yovuz zolimning zulmi ostida rappa-raso besh yildan buyon yashayman. Uni juda ham yomon ko‘raman. Bizning bu plantatsiyamiz juda olis joyda, botqoqlik orasida, eng yaqin qo‘shni plantatsiya bu yerdan o‘n mil narida; bu yerda birorta oq odam yo‘q, demak, seni tiriklay yondirsalar yoki qozonga solib qaynatsalar, yoki tilka-pora qilsalar, yoki itga tashlab yedirsalar, osib qo‘yib o‘lguningcha ursalar – sudga borib hech kim guvohlik bermaydi. Bu yerda qonun yo‘q, hech kim sening tarafingni olmaydi. Bizning xo‘jayin esa har qanday shafqatsizlikdan qaytmaydi. Agar bu yerda bo‘layotgan ishlarni aytib bersam, odamning sochlari tikka bo‘lib ketadi. Qarshilik ko‘rsatishning hech foydasi yo‘q, nahotki men u bilan yashashni istasam? Men yaxshi to‘pdan chiqqan ma’lumotli xotin emasmidim? U kim edi? Uning o‘zi kim? Lekin uni kecha-yu kunduz qarg‘asam ham, mana shu besh yil davomida u bilan yashadim! Endi esa u yangisini, o‘n besh yasharini olib keldi...

Tom qo'lini qovushtirdi. Atrofni zulmat va dahshat chulg'ab olgandi.

Ayol qat'iyat bilan so'zini davom ettirdi:

– Sen bilan birga ishlayotgan razil ko'ppaklar sening jafo chekishingga arziydilarmi? Shuni bilib qo'yki, ularning har biri payt topgan hamon senga xiyonat qiladi. Ularning o'zları ham bir-birlari bilan shafqatsiz va razillarcha muammala qilishadi. Ularni kaltakdan qutqazaman deb o'zingni shuncha azobga solganiningni ko'r!

– Nimaiki bo'lmasin, ular baxtsiz odamlar! – dedi Tom. – Ularning shafqatsiz bo'lib qolishlarining sababi nima? Agar men ham bo'ysunsam, asta-sekin ularga o'xshab qolaman. Yo'q, yo'q, hech qachon! Men hamma narsani yo'qotdim – xotinimni ham, bolalarimni ham, biror hafta ko'proq yashaganda meni albatta ozod qiladigan saxovatli xo'jaynimni ham – mening uchun aziz bo'lgan hamma kishilarni yo'qotdim, shunday bo'lsa ham shafqatsiz va yomon odam bo'lishni istamayman.

– Bizning hammamiz xo'ranganmiz, oyoq ostida paypaslanganmiz, – dedi Kassi. – Mana, Emmelina ham tag'in kurashmoqchi, sen ham... Ne foyda? Yo taslim bo'lasan, yo o'lib ketasan.

– E, unday bo'lsa jon derdim, – dedi Tom, – mayli, meniga qanday xohlasalar, o'shanday azob beraversinlar, baribir o'limdan qochib bo'lmaydi. O'lganimdan keyin esa hech narsa qilolmaydilar...

Ayol indamadi, uning qora ko'zları polga tikilgandi.

„Ehtimol u haqlidir, – derdi ayol o'ziga. – Bir marta bo'ysungan kishi, keyin hech narsaga umid qilmasligi tabiiy. Biz ifloslik va yomonlik ichida yashaymiz, avval bosh-qalarni yomon ko'ramiz, keyin o'zimizni! Lekin shunday bo'lsa ham o'zimizni o'ldirishga jur'at etolmaymiz! Hech qanday umid yo'q! Hech qanday najot yo'q! Mana endi bu

qizchani olaylik... Men o'sha chog'da necha yoshda bo'lgan esam, u ham shu yoshda..."

– Menga qara, – dedi u Tomga oshig'ich. – Ko'rdingmi, men hozir qanday bo'lib qolibman? Men zeb-ziynatlar ichida o'sgandim. Kichkina qizligimda hashamatli mehmonxonalarda o'ynardim. Meni qo'g'irchoqdek yasatib kiyintirishardi. Menga qarab hamma zavqlanardi. Mehmonxona oynalaridan bog'chamiz ko'rinib turardi, bu bog'chada apelsin daraxtlari ostida aka-ukalarim va singillarim bilan yashin-topoloq o'ynardim. Meni monastirga berishdi, u yerda musiqani, fransuz tilini, chok tikishni o'rgandim. O'n to'rt yoshimda otam o'ldi, uning janozasiga keldim. Otam to'satdan o'lib qolganda, uning ishlarini tartibga sola boshlab, ko'rsalar, mol-mulki qarzlarini to'lash uchun zo'rg'a yetarkan. Kreditorlar uning bor mulkini ro'yxatga olishdi, bu ro'yxatga men ham tushib qoldim, chunki onam cho'ri edi. Otam meni ozod qilaman deb yurgan, lekin baxtga qarshi, orzusiga yetolmay o'lib ketdi. Soppa-sog' va baqvavat otamni bunday tez o'ladi deb hech kim o'ylamagandi. O'lishdan to'rt soat burun u soppa-sog' bo'lgan, lekin o'sha paytda Yangi Orleanda paydo bo'lgan vaboden – eng oldin otam o'lgan. Otamni ko'mganlaridan keyin ertasi, uning xotini hamma bolalarini olib, ota-onasining plantatsiyasiiga ketgan. Ularning bu qilgan muomalasi menga allaqanday g'alati ko'rinardi, lekin men voqeа nimada ekanligini tushunmasdim. Qolgan hamma mulk – ro'zg'or yosh bir yuristning qaramog'ida edi. U uyga har kun kelar va menga yaxshi muomala qilardi. Bir marta u juda chiroyli bir yigitni olib keldi. Bunaqa chiroyli yigitni men hech ko'rma-gan edim. O'sha kechani to o'Igunimcha unutmayman. Bu yigit bilan bog'da sayr qilib yurdim. Ota-onasiz, tanho qolganimdan ma'yus edim, u esa menga juda xush muomala qilar va shirin-shirin so'zlar aytardi... U menga: „Sizni mo-

nastirga bermaslaridan ilgari ko'rganman, sizni sevaman“, dedi-da, keyin „Do'stingiz va himoyachingiz bo'lsam“, deb mendan ruxsat so'radi. Qisqasini aytganda u, menga bu haqda bir og'iz gapirmay, ikki ming dollar to'labdi; ana shundan keyin men uning mulki bo'lib qoldim. Men xursand edim, chunki uni sevardim. Sevardim! – deb takrorladi Kassi va so'zidan bir lahza tindi. – Bu odamni men juda-juda sevardim! Uni men hozir ham sevaman, to o'lgunimcha sevaman! U juda chiroyli, juda olivyjanob edi! U meni ajoyib bir uyga joylashtirib qo'ydi. Xizmatchilar, otlar, ekipaj, mebel va liboslar berdi. U menga pulga nimaniki sotib olish mumkin bo'lsa, o'shaning hammasini berdi. Lekin men uchun uning o'zidan bo'lak hech narsa kerak emasdi. Uni men jonimdan ortiq sevardim, hatto istagan chog'imda ham, unga qarshilik ko'rsatolmasdim.

Men yolg'iz bir narsani istardim: u menga uylansa ekan, derdim. Agar u meni o'z aytganicha yaxshi ko'rsa, menga tortinmay uylanadi va men ozod bo'laman, deb o'ylardim. U, „Seni nikoh qilib ololmayman, lekin biz bir-birimizga sodiq bo'lsak, baribir nikohsiz ham uylangan hisobmiz“, derdi. Chindan ham men bu odamning xotini emasmidim? Men unga vafodor emasmidim? Yetti yil davomida har doim uning ra'yiga qarab ish tutmadimmi? Uni quvontirish uchun o'zimning butun hayotimni baxsh etmadimmi? Unga sariq isitma tegdi. Men yigirma kun va yigirma kecha uning boshida mijja qoqmay o'tirdim: unga dori-darmon qildim, hech qanday yordamsiz uni parvarishladim. U menga „Sen mening farishtamsan, meni o'limdan qutqarding“ derdi... Bizning ikkita juda chiroyli bolamiz bor edi. Kattasi o'g'il edi, unga biz Genri deb ot qo'ydik. U otasiga o'xshardi – ko'zlarji juda chiroyli, peshonasi va qo'ng'ir sochlari xuddi otasining o'zi edi. Kichkina qizimiz Eliza esa otasining aytishiga qaraganda, menga o'xshardi. U menga: „Sen Lui-

zianadagi eng chiroyli xotinsan“, deb aytar va meni hamda bolalarimizni ko‘rib faxrlanardi. U bolalarimizni yasantirishimni sevar, ochiq ekipajda biz bilan birga yurar va boshqalarning bizdan zavqlanganini eshitishni yaxshi ko‘rardi; biz to‘g‘rimizda eshitgan maqtov gaplarini menga doim aytardi. Oh, u kunlarda men nechog‘lik baxtli edim! Lekin tezda boshimga og‘ir kulfatlar tushdi.

Yangi Orleanga uning yaqin qarindoshi keldi, erim u bilan juda inoq bo‘lib qoldi. Men esa nima uchundir, uni bir ko‘rishdayoq, qo‘rqib qoldim. Uning poy-qadami bizga yoqmasligini sezdim. U Genrini birga olib ketar va Genri vaqtini kechalari allaqayerlarda o‘tkazib, uyga soat ikki-uchlarda qaytardi. Men churq etishga jur’at qilmasdim, chunki Genri qiziqqon edi, undan qo‘rqardim. Amakivachchasi uni qimorxonalarga olib borar ekan. Genrining fe’li shunday ediki, u yerga kirdimi, bas, qaytib chiqolmasdi. Keyinchalik ma’lum bo‘ldiki, amakivachchasi uni boshqa xotin bilan tanishtiribdi, qarasam, tez orada Genri mendan sovib qoldi. U, bu ishlarini menga aytmasdi, lekin hamma ishlarini o‘zim payqab oldim. Yuragim poralandi, lekin men bir so‘z aytishga botinolmasdim. Pirovardida, u ablah, Genrini avrab: „Bu xotinni bolalari bilan menga sotib, kartaning qarzlarini uz va o‘zing boshqa xotinga uylan“, debdi. Qarzlar uylanish uchun to‘sinqinlik qilib turgan ekan, shuning uchun Genri bolalarim bilan meni sotibdi. U menga bir kun: „Qishloqqa boraman, ishim bor; ikki-uch haftadan keyin qaytaman“, dedi. U men bilan odatdagicha shirin so‘zlashib, qaytishga va’da berdi, lekin meni aldayolmasdi. Men toshdek qotib qoldim, tilim ham so‘zga kelmasdi, yig‘layolmasdim ham. Meni o‘pdi, bolalarni bir necha bor o‘pdi-da, chiqdi. Uning otga irg‘ib minganini ko‘rdim, keyin to ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha orqasidan qarab turdim, keyin hushdan ketib, yiqilib qolibman.

Keyin u – haligi badburush ablah paydo bo‘ldi! U o‘z mulkiga ega bo‘lish uchun kelgan edi. U menga: „Seni va bolalaringni sotib oldim“, deb hujjatlarini ko‘rsatdi. Uni qarg‘adim va: „O‘lsam-o‘laman, lekin sen bilan yashamayman“, dedim. „Bilganiningni qil. Ammo o‘zingni yaxshi tutmasang, ikkala bolangni sotaman va sen ularni qaytib hech ko‘rmaysan“ – dedi u.

U „Seni sotib olish fikri menda allaqachon, seni birinchi marta ko‘rgan kunimdayoq tug‘ilgandi“, deb iqror bo‘ldi. U meni tezroq sotsin, deb Genrini jo‘rttaga qarzga botirib qo‘ygan ekan. U Genrini boshqa xotin bilan jo‘rttaga tanishtirganiga ham iqror bo‘ldi va menga: „Yig‘lama, baqirib ko‘zyoshi bilan hech narsaga erisholmaysan“, dedi. Taslim bo‘ldim, chunki qo‘lim bog‘langan, bolalarim uning qo‘lida edi; qachon uning biror talabidan bosh tortishga urinsam, doim „Bolalaringni sotaman“, deb qo‘rqitardi, shunda uning talabini bajarishga majbur bo‘lardim. „He, qurib ketsin bunday turmush! Pora-pora bo‘lgan yurak bilan kun kechirish, sevging baxtsizlikka aylangan bo‘lsa-da, to‘xtamay sevmoq va yomon ko‘rgan odamingga bo‘yin egmoqdan ham yomon kun bo‘larmikan! Men Genriga kitob o‘qib berishga, o‘ynashga, vals tushishga, ashula aytib berishga o‘rganib qolgandim; bu odamning xursandchiligi uchun bir narsa qilish esa menga og‘ir azob bo‘lib ko‘rinardi; lekin men uning biror talabini rad etmasdim, chunki undan qo‘rqardim. Bolalarim bilan u shafqatsiz va dag‘al muomala qilardi. Eliza jo‘n va yuvosh qiz edi. Genri esa, otasi singari dovyurak va qiziqqon, o‘z bilganidan qaytmasdi. U odam esa Genriga doim osilar va mudom uni jazolardi. Men bolani odobga o‘rgatishga urinib ko‘rdim; uning ko‘ziga bola kamroq ko‘rinishi uchun harakat qildim, chunki bolalarim jonimdan ham aziz edi, lekin tadbirlarimdan hech bir natija chiqmadi: u bolalarmi

sotib yubordi! Bir kuni u meni ekipajda sayr qilgani olib chiqdi; keyin uyga qaytib kelib qarasam, bolalarim yo'q! U menga „Bolalaringni sotdim“, deb, ularning tanasi va qoni uchun olgan pulni ko'rsatdi. Men juda qattiq g'azablandim va uni shunday qarg'adim – shunday qarg'adim: u mendan qo'rqqandek ko'rindi. Lekin yo'lidan qaytmadi. U menga: „Endi bolalaringni ko'rish-ko'rmasliging o'z yurish-turishingga bog'liq, agar tinchimasang, bolalarining qismati yomon bo'ladi“, dedi. Xayr! Agar siz o'z qo'lingizda xotin kishining bolalarini ushlab tursangiz, uni har narsa qila olasiz. U meni itoat qilishga majbur etdi, meni yuvosh qilib qo'ydi. Shu taxlitda bir hafta o'tdi, ikki hafta o'tdi. Bir kuni turma yonidan o'tishga to'g'ri keldi. Darvoza oldida olomonni ko'rdim va bitta bolaning dodlagan ovozini eshitdim; shu onda kichkina Genriyimni ko'rib qoldim: u o'zini tutib turgan uchta erkak qo'lidan qutulib chiqdi-da, dodlab, menga yugurdi va ko'ylagimga yopishib oldi. Erkaklar yomon so'kinib, uning orqasidan chopdilar, bir erkak – uni hech unutmayman – Genrining orqasidan: „Turmada shunday adabingni beraylikki, ikkinchi qochmaydigan bo'lsan“, deb qichqirdi. Men ulardan iltimos qildim, yalinib-yolvordim, lekin javob o'rniga faqat uni urardilar. Bechora bolam yuzimga termilib dodlardi, u menga shu qadar qattiq yopishdiki, ular bolamni mendan tortib olganlarida yubkamning etagi uning qo'lida qoldi. Ular bolamni yetaklab ketdilar, u esa: „Oyi! Oyi! Oyi!“ deb qichqirardi. O'tkinchi bir kishining menga rahmi kelganday bo'ldi. Unga men yonimda bor pulimning hammasini taklif qilib, bolaga yordam ko'rsatishni so'radim. Lekin u boshini chayqab, shunday dedi: „O'g'lingning xo'jayini aytadiki, o'g'lingiz unga hamma vaqt dag'allik qilar emish, uning gapiga kirmas emish, shuning uchun o'g'lingizning ada-bini berib qo'ymoqchi bo'libdi“. Bu gapni eshitib orqam-

ga qayrildim-da, uyga yugurdim. Uyga yetguncha yo'lda bolamning dodi qulog'imdan ketmadi. Uyga kirdim, nafasim bo'g'ilgancha mehmonxonaga yugurdim; Betler shu yerda ekan. Ko'rgan-eshitganlarimning hammasini aytdim va undan bolaga yordam berib, qutqazib olishni iltimos qildim. Lekin u kulib yubordi va: „O'g'ling qilmishiga yarasha jazosini topibdi. Bolaning kajbasligini yo'qotish kerak; qanchaki tez yo'qolsa, o'shancha yaxshi“, dedi.

Boshim aylanib, ko'zim tindi. Stol ustida katta pichoqqa ko'zim tushganligi esimda; pichoqni olib, o'zimni ablahga tashlaganim ham esimda. Keyin ko'zimni qorong'iilik bosdi va u yog'i nima bo'lganini bilmayman.

Hushimga kelsam, yaxshi bir xonada yotibman. Keksa bir negr xotin meni parvarishlardi; doktor keldi va umuman, hamma menga g'amxo'rlik qilardi. Sekin-sekin bilsam, xo'jayinim ketibdi va meni sotmoq uchun bu uyda qoldiribdi. Mana shuning uchun menga g'amxo'rlik qili-shayotgan ekanlar.

Men tuzalishni istamasdim, o'laman degan umidda edim. Lekin murodimga yetolmadim, isitmam bosildi, sog'ayib, oyoq bosadigan bo'lib qoldim. Har kuni meni yasanishga majbur qilishardi. Mening oldimga jentlmenlar kelishar, sigara chekishib, meni ko'rishar, savollar berishar va menga qancha baho qo'yish mumkinligi ustida o'zarotishishardi. Men shunday xafaqon va indamas edimki, hech kim olgisi kelmadi. „Agar xushchaqchaq va shirinso'z bo'lmasang, kaltakka yotqizamiz“, deb menga po'pisa qilishardi. Bir kuni mening oldimga Stuart degan bitta jentlmen keldi. Uning rahmi keldi shekilli, qayg'umni sezgan bo'lsa kerak, yolg'izligimda oldimga kela boshladidi: nihoyat, unga butun voqeani hikoya qilib berdim. U meni sotib oldi va bolalarimni sotib olish uchun qo'lidan kelgan hamma ishni qilishga va'da berdi. U Genrini Marvarid

daryodan kelgan bir plantatorga sotib yuborganini ayтибдилар. Shu-shu, о‘г‘limning daragini hech eshitmadim. Ammo Styuart qizimni topdi: qizim bir kampirnikida ekan. Styuart qizim uchun katta pul bermoqchi bo‘lsa ham unashmagan. Betler, qizni menga sotib olishmoqchi ekanini eshitib: „U xotinga ayтиб qо‘yingizki, qizini endi hech qachon ko‘rolmaydi“, degan. Kapitan Styuart men bilan yaxshi muomala qilardi. Uning juda yaxshi plantatsiyasi bor ekan, meni o‘sha yoqqa olib ketdi. Bir yildan keyin o‘g‘il tug‘dim. Bu bolanni naqadar sevardim! U mening Genrimga o‘xshardi. Lekin men uning o‘sib katta bo‘lishini istamasdim. U ikki haftalik bo‘lganda qо‘limga oldim, o‘pdim, yig‘ladim, keyin og‘ziga afyun suvini quyib, bag‘rimga bosdim. U uxladi-yu, ikkinchi marta ko‘zini ochmadi. Uning ustida egilib yum-yum yig‘ladim! Hamma meni unga yanglishib afyun berib qо‘ygan deb ishonishardi. Men esa uni o‘ldirganimga hozir ham quvonaman, chunki uni azob-uqubatlardan xalos qildim. Men o‘z bolamga o‘limdan yaxshiroq bir narsa bera olarmidim? Tezda kapitan Styuartga vabo tegib o‘ldi. Yashashni istaganlarning hammasi o‘lishardi, men bo‘lsam... men o‘lishni istasam ham yashardim! Meni yana sotdilar, qо‘ldan qо‘lga o‘ta boshladim, nihoyat, qariy boshladim, yuzimda ajinlar paydo bo‘ldi... Isitma bo‘lib qoldim... O‘shanda meni ablak Legri sotib olib, bu yerga olib keldi... Ana endi bu yerdaman!

Kassi o‘z hayot dostonini allaqanday ichki hayajon bilan hikoya qilardi. U goh Tomga qarab so‘zlar, goh o‘zo‘zi bilan so‘zlashayotgandek ko‘rinardi. Uning so‘zlarida shu qadar ehtiros va zo‘r kuch sezillardiki, Tom goho o‘z jarohatining dardini ham unutib yuborardi. U ba‘zi-ba‘zida tirsagiga suyanib turib, Kassining u burchakdan bu burchakka shoshilib yurishiga va uzun, og‘ir qora sochlarining orqasida silkinishiga qarardi.

— Ular bizning tortgan jafolarimiz, bolalarimizning

tortgan jafolari hech narsa emas, deb o'ylaydilar. Ba'zida ko'chada ketasan, ammo yuragingda shuncha qayg'u to'planib qolganki, unda butun shahar ko'milib ketishi mumkin. Ko'chada yurib ketayotganimda: ikki tomondagi imoratlar boshimga ag'darilib tushsa ekan, oyoq ostimdag'i yo'llar yorilip ketsa ekan, deyman! Qiyomatda ham men Xudo oldida, meni nobud qilganlarga, bolalarimni, jonimni va tanimni nobud qilganlarga da'vogar bo'laman.

U barmoqlarini qirsillatdi, qora ko'zlarida g'azab o'ti yashnadi.

— Legrining esa tez kunda oy-kunini tamom qilaman, — dedi u. — Uni do'zaxga... to'g'ri shaytonning oldiga jo-nataman. Mayli, buning uchun meni tiriklay yondirsinlar, qo'rqlayman.

Bo'sh saroydan uning nihoyatda qattiq kulgi ovozi chiqa boshladi, kulgi, keyin tutqanoqli yig'iga aylandi; u yig'lab turib, polga yiqildi va pitirlab o'zini ura boshladi.

Bir necha vaqtdan so'ng u hushiga keldi. O'zini tutib olgach, sekin o'midan turdi.

— Senga yana hech narsa kerak emasmi, bechora? — deb so'radi u, Tomning yoniga kelib. — Suv ichasanmi?

Tom suv icharkan, achinib uning yuziga qaradi. Bir narsa demoqchi edi, lekin u:

— Qo'y, gapirma, sho'rlik. Uxlayolsang uxla, — deb pi-chirladi. Kassi ko'zani uning yoniga yaqinroq qo'ydi-da, joyini tuzatib, saroydan chiqib ketdi.

XXXV BOB

Belgilar

Legrining uyidagi mehmonxona – katta manqal-pech-kali keng va uzun bir bo'lma edi. Bir vaqtlar uning devorlariga hashamatli va qimmatbaho gulqog'ozlar yopishtiril-

gan, endi bularning rangi o'chib ketgan, yirtilgan va zax devorlardan parcha-parcha bo'lib osilib turardi. Zax bosganligi, iflosligi va odam kirmaganidan, bu xonadan quyuq va kishini kasal qiladigan hid dimog'ga urardi; odamlari ketib, deraza va eshiklari uring tashlangan uylardan, odatda, shunday hid keladi. Gulqog'ozlarda pivo va vino dog'lari ko'rinardi, bo'r bilan allaqanday xatlar va ustun qilib raqamlar yozilgan: go'yo devorda birov hisob masalasini hal qilganga o'xshardi. Manqal-pechkada cho'g' yashnamoqda, chunki havoning issiqligiga qaramay, bu katta xonada kechqurun doim zax va sovuq bo'lardi; bundan tashqari, Legri singari chekish va punshga suv isitish uchun yaqinida olov yonib turishini talab qilardi. Manqal-pechkadan tushayotgan qizil shu'la uy ichidagi egar-jabduq, qamchilar, palto va yerda tartibsiz sochilib yotgan har xil kiyim-kechaklarni yoritib turadi; biz ilgari ko'rgan ko'ppaklar ham xuddi o'z kataklaridagidek behuzur shu yerda yurardi.

Legri o'ziga punsh taylorlardi va jo'mragi uchgan yoriq choynakdan qaynoq suv quyarkan, odati bo'yicha vaysardi:

– Padariga lan'at shu Semboning! Meni qayrab yangi negrimni urdirdi, bachchag'ar! Dala ishlarining eng qizg'in paytida u cho'zilib yotibdi, bir haftagacha ishga chiqmaydi endi!

– Bo'Imag'ur fe'ling bor-da shunaqa, – degan birovning ovozini eshitdi u.

Bu ovoz xonaga bildirmasdan kirgan Kassining ovozi edi.

– Ey, senmisan, shayton! Qaytibsan-da?

– O'z bilganimni qilgani qaytdim, – deb sovuq javob berdi u.

– Bekor aytibsan, men so'zimdan qaytmayman. Yo jo'n yur, yo bo'limasa barakka borib, boshqalar nima yesa o'shani yeb, ishla.

– Sening uyingda yashagandan ko‘ra, eng iflos barakda yashagan ming marta yaxshiroq! – dedi ayol.

– Shunday bo‘lsa ham uyimga kelibsan-ku, – dedi Legri, unga qayrilib qarakan zaharxanda qilib. – Kelganiningdan keyin tizzamga o‘tir, jonim, qulq sol, senga gapim bor, – dedi uni belidan quchoqlab.

– Ehtiyot bo‘l, Saymon Legri! – dedi ayol va ko‘zlarida g‘azab olovi yondi. – Ha, mendan qo‘rqasan-a, Saymon! – dedi yana. – Bu ishing durust! Ehtiyot bo‘l, mening jinim bor!

Keyingi so‘zlarni u Legrining qulog‘iga pichirlab aytdi.

– Rost aytasan, sening jining bor! – dedi Legri uni o‘zidan nari itararkan, hadiksirab qarab. – Qulq sol, Kassi, kel, ikkovimiz yana burungidek do‘sit bo‘laylik.

– Burungidek? – deb takrorladi ayol achinish bilan. Shuni aytdi-yu, birdan indamay qoldi. Shu chog‘ unda juda zo‘r tuyg‘u uyg‘ondi va bundan boshqa bir og‘iz so‘z aytolmay qoldi.

Agar ayolning irodasi kuchli va jo‘sinqin bo‘lsa, eng dag‘al erkak ham bora-bora bunday ayolning ta’siriga beriladi, shuning uchun bo‘lsa kerak, Legri Kassiga tez-tez bo‘ysunib qoladi, Kassi esa qullikning eng dahshatli zulmi ostida asta-sekin asabiy g‘azabdan o‘zini yo‘qotib qo‘yadigan bo‘lib qoldi. Ba’zida u, aqldan ozganday, o‘zini tutolmay qolardi; dag‘al va nodon odamlarning ko‘plari jinnilardan qo‘rqanlari singari, Legri ham Kassining tutqanog‘idan juda qo‘rqardi. Legri Emmelinani uyga olib kelgandan keyin Kassida shu damgacha yashirinib yotgan ayollarga xos mehr-muhabbat tuyg‘ulari namoyon bo‘lib qoldi va u kuchi boricha qizni himoya qila boshladi. Buning natijasida Legri bilan ikkalasi o‘rtasida qattiq nizo tug‘ildi. Legri g‘azablangan holda: „Agar tinchimasang, dalaga ishlagani yuboraman“, deb qasam ichdi. Kassi esa kekka-

yib, nafrat bilan: „Dalaga ishlagani jon-jon deb boraman“, dedi. U do‘q-po‘pisaga nazar-pisand qilmaganini ko‘rsatish uchun, yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, chindan ham da-lada kun bo‘yi ishladi.

O‘sha kun Saymon Legri, garchi hech kimga bildirma-sa ham, ertadan kechgacha ichini it tatalab, o‘zini qo‘ygani joy topolmadi. U Kassining kuchli ta’siridan qutulolmas, bunga ojiz edi. Kassi savatni taroziga qo‘yganda, Legri: „Endi fe’lidan qaytgandir“, deb umid qilib, yarim mazax va murosa ohangida so‘zlay boshlagan edi-yu, Kassi bunga javoban faqat nafrat bildirdi.

Uning Tomga vahshiyona muomalasi Kassini yanada qattiqroq g‘azablantirdi: u Legrini insonga dog‘ tushiradi-gan bu qilig‘i uchun jazolash maqsadida, uning ortidan uyga kirdi.

– Kassi, – dedi Legri, – men bilan yaxshi murosada bo‘lsang...

– Murosa deysanmi?

– Xo‘sh, o‘zingni qanday tutyapsan? Ishning qizg‘in paytida eng yaxshi xizmatkoringni mayib qilding! Ham-masi o‘zingning badjahlligingdan.

– Rost, men ahmoqlik qildim. U bilan janjallahmas-ligim kerak edi, – dedi Legri. – Lekin qul o‘z gapida turib olsa uni qayirish kerak axir.

– Uni qayirolmaysan.

– Qayirolmayman? – dedi Legri, irg‘ib turib. – Ko‘ramiz! Men qayirolmaydigan negr hali dunyoga kelgan emas! Suyaklarining hammasini birma-bir sindiraman, lekin o‘z aytganimni qilaman.

Shu chog‘ eshik ochilib, Sembo kirdi. U egilib ta‘zim qilib Legrining yoniga keldi va qog‘ozga o‘ralgan bir nar-sani uzatdi.

– Bu nima, ko‘ppak? – deb so‘radi Legri.

– Jodugarlik, xo'jayin.

– Nima, nima?

– Jodugarlik. Sehrlangan narsalar. Buni negrlar jodugarlardan oladilar. Kimda shunaqa narsa bo'lsa, qanchalik urmang, baribir unga hech narsa qilmaydi. Mana shu narsani Tomning bo'ynidan topdik. Qora ipga bog'lab osib olgan ekan.

Legri har xil xurofotlarga ishonuvchi mutaassib kishi edi. U qog'ozni oldi-da, juda qo'rqib, uni yozdi.

Uning ichidan kumush dollar chiqdi, keyin yaltiroq, uzun oltin soch chiqib, joni bordek, Legrining barmog'iga o'raldi.

– Padarlan'at! – deb qichqirdi Legri, tepinib va soch xuddi uni chaqib olgandek barmoqlarini siltab. – Qayerdan olding buni? Yig'ishtir! Yondir! Yondir! – deb baqirdi-da, sochni manqal-pechkaga tashladi. – Buni nimaga menga olib kelding?

Sembo taajjublangancha og'zini ochib qoldi. Chiqib ketmoqchi bo'lib turgan Kassi, nima bo'lganiga tushunmay, to'xtab qoldi.

– Har qanaqa bo'limg'ur narsalarni menga ikkinchi bor olib kelma! – dedi Legri, eshikka tisarilib ketayotgan Semboga mushtini o'qtalarkan.

U kumush dollarni olib derazadan tashqariga, qorong'i likka otib yubordi.

Sembo omon-eson qochib qolganiga xursand edi. U ketganidan keyin, Legri o'zining bunchalik qo'rqqani uchun uyaldi. U diqqat bo'lib, kresloga cho'kdi-da, xo'mrayib punshni shimira boshladi.

Kassi bildirmasdan xonadan chiqdi va Tomga qarashib, dardini yengillashtirish uchun uning oldiga jo'nadi.

Ajabo, Legriga nima bo'ldi? Nima uchun bu toshyurak odamni oddiygina och sarig' soch o'rami bunchalik bezov-

ta qilib qo‘ydi? Bu savollarga javob berish uchun biz uning ilgarigi hayotidan picha hikoya qilishga majburmiz.

Bu berahm, jilosiz zolimni ham bir vaqtlar onasining muloyim qo‘llari silab-siypagan. Olis Yangi Angliyada och sariq sochli bir ayol yolg‘iz o‘g‘ilchasinining beshigini tebratardi. Ammo o‘g‘il otasining izidan bordi, ota esa toshyurak va shavqatsiz odam edi. Janjalkash, badjahl va kattalikni sevuvchi Saymon, onasining barcha nasihatlari-ga qulq solmay, yoshligidayoq uydan chiqib ketdi va baxt izlab dengiz safariga jo‘nadi. U uyga faqat bir marta qaytib keldi. Mehribon ona chin yuragidan o‘g‘lini bunday dag‘al va buzuq hayotdan qaytarishga urindi.

Legri tuzalishi mumkin edi. U ikkilanib yurdi. Lekin yomonlik g‘alaba qildi. U o‘z ko‘ksidagi vijdon ovozini qattiq g‘azab bilan bo‘g‘ib tashladi. Piyanistalik qilaverib, so‘kinib, pirovardida burungidan ham battar dag‘al bo‘lib qoldi. Bir kun kechasi ona uning tizzasini quchoqlab: „Bu yurishingni tashla, jon o‘g‘lim!“ deb yolvorgan edi, u onasini polga tepib yubordi. Ona hushidan ketdi. Saymon esa so‘kinib, kemaga o‘tirdi. Bir necha oydan so‘ng u ulfatlari bilan piyanistalik qilib o‘tirganda xat oldi, u konvertni ochdi. Uning ichidan uzun soch o‘rami tushib, Saymonning barmoqlariga o‘raldi. Xatda, onasining o‘lgani va o‘lish oldidan uni afv etgani haqida yozilgandi.

Mutaassib va johil Legri cho‘chib tushdi. Xat bilan soch o‘ramini o‘tga tashladi; lekin u, sochning o‘tda jizg‘anak bo‘lib buralishni ko‘rib, dahshat ichida: „Do‘zaxda men ham shunday yonarmikanman“, deb o‘yladi. U, o‘zining tashvishli fikrlarini yo‘qotmoq uchun tez-tez icha boshladi; lekin goho, jimjit kechalar qo‘qqisdan uning ko‘ziga o‘zi yotgan joyi yonida onasi turgandek va sochlari uning barmoqlariga o‘ralayotgandek ko‘rinardi. Bunday vaqtarda u sovuq terga botib, yuragi yorilgudek karavotdan sapchib turardi.

Hozir esa punsh ichib o'tirarkan, Legri o'z-o'ziga bunday derdi:

– Padariga lan'at bu negrning! Bu sochni qayerdan topdi ekan? Xuddi o'shaning o'zi-ya! Men bo'lsam bu voqiani endi esimdan chiqrganman, deb yurardim. Padar qusur, nahotki bu hech esimdan chiqmasa?.. Yo'q, yolg'iz o'tirishim yaxshi emas. Emmani chaqiraymikin? Bu badjahl maymuncha meni yomon ko'radi. Ey, menga baribir, kelisthga majbur qilaman!

Legri katta yo'lakka chiqdi – bir vaqtlar go'zal aylanma pillapoya orqali bu yo'lakdan yuqoriga chiqilardi. Yo'lak iflos va qorong'i bo'lib, yashiklar va har qanday qaqir-ququrga to'lgandi. Gilam solinmagan zinalar qorong'ida alla-qayoqqa ko'tarilib ketganday ko'rinaridi. Eshik ustidagi oynasi siniq derazadan oy nuri tushardi. Havo zaxkash va go'r singari badbo'y edi.

Legri pillapoyaning pastki zinasida to'xtab, birovning ashula aytayotgan ovozini eshitdi. Bu eski va mash'um binoda ashula g'alati va mavhum sado berardi. Legri juda asabiy edi. Bu nima o'zi?

Yovvoyi va ehtirosli ovoz qullar orasida keng tarqalgan ashulani aytardi:

*O'sha kuni bo'lur ko'z yosh va kulfat,
Uning nomi qiyomatdir, zo'r dahshat.*

– Lan'ati qiz! – dedi Legri. – Bo'g'ib o'ldiraman uni! Emma! Hoy Emma! – deb qattiq ovoz bilan chaqirdi.

Unga o'z chaqirig'ning mazaxli aks-sadosi javob berdi. Ehtirosli ovoz esa qo'shiqni davom ettirardi:

*Ajralgay bola otadan,
Judo bo'lgay onadan,
Yuz ko'rishmas ular abadiy!*

Bo'sh devorlardan naqarot ravshan va qattiqroq chi-qardi:

*O'sha kuni ko'zyosh bo'lur va kulfat,
Uning nomi qiyomatdir, zo'r dahshat.*

Legri qotib qoldi. U o'zining bu holini e'tirof qilishga uyalardi, ammo peshonasida katta-katta ter donalari paydo bo'ldi, qo'rquvdan yuragi og'ir tepardi, qorong'ida uning ko'ziga xira miltillagan bir oq narsa paydo bo'lgandek ko'-rindi, go'yo uning oldida onasi turgandek tuyuldi.

„Endi hamma narsa namoyon, – dedi u o'ziga, mehmonxonaga qaytib kelib, haligi joyiga o'tirarkan. – Bu bach-chag'arni bezovta qilmaslikka to'g'ri keladi. Uning la'nati qog'oziga nimaga qo'l tegizdim? Endi albatta sehrlandim. Haliyam qaltirayapman... Hamma yog'imni ter bosib keldi-ya! Bu sochni qayerdan topdi ekan? Yo'g'-ey, bu soch onamning sochi bo'lmasa kerak! U sochni kuydirib yuborganman, aniq esimda! Juda qiziq bo'ladi-da, agar o'sha soch boshqatdan dunyoga kelsa!“

– Hoy! Bax-bax! – dedi u, itlarga qarab. – Turinglar, mening yonimda o'tiringlar!

Lekin ko'ppaklar uyqisiragan ko'zlarini nim ochdilar-da, yana mudrayverdilar.

– Sembo bilan Kvimboni chaqiray, ashula aytib berishsin yoki shaytonning o'yiniga o'xshagan o'yinlardan birortasini o'ynashsin, diqqatchiligidagi yozishsin, – dedi o'ziga Legri.

Shunday deb u, shlapasini kiydi-da, ayvonga chiqib muguzni chala boshladi-yu, o'zining ikkala laganbardorini, odatda, mana shu yo'sinda chorlardi.

Legri kayfi chog' paytlarda ularni ko'pincha mehmonxonaga chaqirar, aroq ichkizib, qizitib qo'yib, ularning ashulasini eshitar, o'yin va mushtlashini ko'rib rohatlanardi.

Kassi bechora Tom oldidan qaytganda, kechasi soat bir-dan o'tgandi, mehmonxonadan qattiq hayqiriq va dupur-lagan ovoz chiqar, ahyon-ahyonda itlar ham vovillashardi. Ichkilik eng avjiga chiqqan payt edi.

Kassi ayvonga chiqib, derazadan qaradi. Legri va ikka-la nazoratchi negr o'lguday mast, ashula aytib baqirishar, kursilarni yiqitishar, aftlarini irjaytirib va badburish qilib bir-birlarini masxaralashardi.

Kassi kichkina, nozik qo'lini deraza tokchasiga qo'yib, ularga tikilib qaradi.

„Nahotki olamni shunday ablahdan xalos etmoq gunoh bo'lsa?“ deb so'radi u o'zidan.

Keyin qayrilib shoshilgancha pillapoyadan ko'tarildi va Emmelinaning eshigini qoqdi.

XXXVI BOB

Emmelina va Kassi

Qo'rquvdan rangi o'chgan Emmalina bo'lmaning bir burchagida o'tirardi. Kassi kirganda qiz cho'chib, irg'ib turdi, lekin uni tanib, oldiga yugurdi va qo'lini ushladi.

– Sizmisiz, Kassi? Kelganingiz juda yaxshi bo'ldi? Qo'rqiб turgan edim... Bilmaysiz, ular butun kechasi bilan pastda shovqin-suron ko'tarib chiqishdi!

– Bilmaysiz dedingmi? – sovuqqina dedi Kassi. – Birinchi marta eshitayotganim yo'q.

– Hoy Kassi, menga aytинг: bu yerdan qutulib, biror yoqqa ketishning iloji yo'qmi-a? Qayerga bo'lsayam – bari-bir, hatto ilon to'la botqoqlikka bo'lsa ham mayli, ishqilib, shu yerdan nariroqqa qochib ketsak!..

– Faqat „go'rga“ qochib ketishimiz mumkin, – deb javob berdi Kassi.

- O‘zingiz hech qochib ko‘rganmisiz?
- Boshqalarning qochganini ko‘rganman, buning nima bilan tugaganini ham bilaman, – dedi Kassi.
- Men jon-jon deb botqoqda yashardim, daraxtning po‘stlog‘ini chaynardim. Ilondon qo‘rqlayman! Undan ilon yaxshiroq, – qizishib dedi Emmelina.
- Senga o‘xshab gapirganlar bu yerda ko‘p edi, – dedi Kassi. – Lekin botqoqda seni it bilan tutadilar, ana undan keyin... undan keyin...
- U meni nima qilardi? – deb so‘radi qiz va nafasini to‘xtatib, Kassining yuziga tikildi.
- To‘g‘risi: „Meni nimalar qilmasdi?“ deb so‘ragin, – dedi Kassi. – U, bu kasbini Vest-Indiyaning qaroqchilaridan o‘rgangan. Agar uning ba’zi vaqt qiladigan hunarlarini, goh-goh o‘ziga ermak uchun aytadigan hikoyalarini senga aytib bersam, kechalari uyqung kelmaydigan bo‘lib qoladi. Bu yerda men shunday dod-faryodlarni eshitganman, ular bir necha haftalab qulog‘imdan ketmagan. Uyning yaqinida qop qora qurigan daraxt bor, uning tevaragiga, tuproq ustiga kul sepilgan. U yerda nima qilinishini kimdan xohlasang so‘ra, lekin hech kimsa javob berishga jur’at qilmaydi.
- U yerda nima qilishadi?
- Senga aytishni istamayman. Xayolimga kelsa yuragim yorilgudek bo‘ladi. Agar sho‘rlik Tom gapida turib olmoqchi bo‘lsa, Xudo biladi ertaga nima bo‘lar ekan.
- Yomon-ey, qurib ketsin! – dedi Emmelina va yuzidan qon butkul qochdi. – Hoy Kassi, nima qilay, o‘rgatib qo‘ying!
- Men nima qilgan bo‘lsam, shunday qil. Bundan yaxshi chora topolmaysan. Unga itoat qil, ammo la’nat va nafarat bilan.
- U: „Men bilan aroq ich“, deydi. Men esa bu savil qolq‘ur aroqni yomon ko‘raman... – dedi Emmelina.

– Ichaver, – dedi Kassi. – Men ham aroqni yomon ko‘rardim. Endi usiz turolmayman. Har kim bir narsa bilan qayg‘usini unutib turishi kerak. Bu yer shunday dahshatlik, aroqsiz kun kechirolmaysan.

– Onam menga: „Hech ichma!“ degandi.

– Ey, onang „ichma“ debmidi! – dedi Kassi, „ona“ so‘zini ayricha bir g‘amgin va achchiq tarzda ifodalab. – Nima uchun bu onalar o‘z bolalariga nasihat qilishar ekan? Sen sotib olingansan, sening uchun aqcha to‘langan, sen endi, sening-chun pul to‘lagan odamnikisan. Senga maslahatim shu – ichaver. Ko‘targaningcha ich, musibating yengil bo‘ladi.

– Hoy Kassi! Menga rahm eting axir!

– Menga rahm et emish! Senga rahm qilmayapmani? Mening ham qizim yo‘qmi axir? Xudo biladi, qizim qayerda va kimning qo‘lida sargardon bo‘lib yuribdi. U ham onasi bosib o‘tgan va bolalari bosadigan izdan ketyapti! Dunyo tamom bo‘lguncha bu mal’unklik tamom bo‘lmaydi!

– Nega men dunyoga kelgan ekanman! – deb xitob qildi Emmelina qulochini yozib.

– Men ham dunyoga kelganim uchun ko‘p marta pu-shaymon qilganman, – dedi Kassi. – O‘zimni-o‘zim o‘ldirardim, lekin yurak dov bermaydi, – dedi yana u yuzida osuda umidsizlik aks etib: u xotirjam bo‘lsa, yuzida har doim mana shunday kayfiyat zohir bo‘lardi.

– O‘z-o‘zini o‘ldirish yaxshi emas, – dedi Emmelina.

– Nega yaxshimas? Bizga o‘xshab kun sayin azob-uqubat tortib yashagandan, o‘z-o‘zingni o‘ldirganing yaxshiroq.

Emmelina yuziga qo‘lini yopib, teskari qarab oldi... .

Bu vaqt pastda juda ko‘p ichib yuborgan Legri uchib qoldi. Legri kamdan kam o‘lchovdan ortiq ichardi. Sog‘lom va baquvvat bo‘lganidan shuncha ko‘p icha olardiki, uning o‘rnida boshqa odam bo‘lsa allaqachon aqldan ozar yoki

o'lardi. Lekin, odatda, u ehtiyot bo'lar va hushdan ketguncha ichmasdi. Bu kecha esa unda vijdon azobi qo'zg'al-gach, u shu qadar ichdiki, o'zini yo'qotib qo'ydi.

Legri uxlardi. U qattiq uyquda ekan, yuzini o'ragan bir xotin kelib, uning ustiga sovuq va yumshoq qo'lini qo'y-gandek tuyuldi. Yuzini ko'rmasa ham, bu xotin unga tanishdek tuyuldi. Legri cho'chib tushdi. U, o'sha sochning o'z barmoqlariga o'ralayotganini sezdi... yo'q, barmoqqa emas, bo'yniga o'ralayotganini sezgandek bo'ldi; xuddi ilmoqdek soch, uni bo'g'yapti, ana, u hozir nafas ololmayapti. Keyin u, birovning pichirlaganini eshitdi va qo'rqqanidan tomirlarida qon to'xtab qoldi, keyin o'lim dahshati bosgan holda, o'zini tubsiz jar yoqasidan ketayotgandek va allakim qora qo'llari bilan uni jarga itarib tashlashga harakat qilayotgandek ko'rindi. Yonida Kassi turgan emish, kular emish va u ham uni jarga itarayotgan emish. Jar tagidan yuzi yopiq xotin chiqibdi. U yuzini ochibdi. Qarasa, uning onasi emish. Onasi undan yuzini o'girib, pastga, juda pastga uchib ketgan emish, atrofdan esa dod-voy, oh-fig'on va guvullagan kulgilari kelar emish... Legri uyg'onib ketdi.

Tong shafag'ining qirmizi nuri xonaga tusha boshlagandi. Oqarib kelayotgan osmondan yorqin tong yulduzi unga charaqlab boqardi. Har bir yangi kun naqadar tantanali go'zallik bilan tug'iladi! Lekin yirtqich hayvonga aylangan Legri tong lazzatini sezmasdi. U o'rnidan turib, stakanga to'ldirib aroq quydi-da, yarmini ichdi.

– Bu kechani juda yomon o'tkazdim, padarqusur! – dedi u, bo'limga kirgan Kassiga.

– Bunaqa kechalarni hali ko'p ko'rasan. To'xtab tur, – dedi u xotirjamlik bilan.

– Nima demoqchisan, yaramas?

– Yaqinda bilasan, – deb javob berdi Kassi. – Menga qara, Saymon, senga bir maslahat bermoqchiman.

- Maslahatlaring kerakmas menga!
- Maslahatim shuki, Tomga ozor berma, – qat'iyat bilan dedi Kassi, bo'lmani yig'ishtirarkan.
- Senga nima daxli bor?
- Haqiqatan ham, bunga mening hech qanday daxlim yo'q. Sen bir ming ikki yuz dollar pul to'lab birovni olarkansan, keyin uni eng qizg'in ish paytida o'zingga ishlash-dan mahrum qilarkansan – bu bilan mening nima ishim bor! Uning yaralarini bog'lab qo'ydim.
- Yaralarini bog'lab qo'yding? Mening ishimga aralash-sin, deb senga kim ruxsat berdi?
- Sening ishingga aralashganim yo'q, xotirjam bo'l. Sening qullaringni parvarish qilib, bir necha ming dollarringni saqlab qolsam-u, buning evaziga sen menga mana bu xilda tashakkur aytasan. Dalangda hosil boshqalarnikidan kam bo'ladi, o'ynagan garovingni yutqizasan. Tompkins seni masxara qila boshlaydi, sen esa pulni to'laysan, xolos.
- Boshqa ko'pgina plantatorlar singari, Legri o'z dalasi-dan unadigan hosil bilan maqtanishni yaxshi ko'rар va qo'shni shaharchadagi ko'p kishilar bilan „Hammadan ko'p hosil olaman“, deb garov boylashgan edi. Kassi xotinlarga xos ayyorlik bilan uning sezgir joyiga tegib qo'ydi.
- Xo'p, unga endi tegmayman, – dedi Legri. – Lekin u mendan kechirim so'rab, o'zini mo'min tutishga va'da bersin.
- U sendan hech qachon kechirim so'ramaydi, – dedi Kassi.
- Nima? So'ramaydi deysanmi?
- So'ramaydi.
- Nima uchun kechirim so'ramas ekan? Shuni bilmochiman, xonim, – deb so'radi Legri nafrat bilan.
- Chunki u haqli va o'zining haqli ekanligini biladi, shuning uchun haqli emasman, deb aytmaydi.

– Uning bilish yoki bilmasligi bilan kimning ishi bor? Negrga nimani buyursam, shuni aytishi kerak yoki...

– Yoki sen paxtangdan yaxshi hosil ololmay, garovni yutqizasan, chunki mavsumning eng qizg'in paytida uni ishlagani qo'ymaysan.

– Qanday bo'lsa ham, uni qayirib olaman. Nahotki men negrlarni bilmasam? Shu bugun erta bilanoq mendan itdek yalinib afv so'raydi.

– Yo'q, Saymon, so'ramaydi. Bunday odamlarni bilmaysan. Uni tilkalab tashlasang ham o'z deganidan qaytmaydi.

– Xayr, ko'ramiz... Qayerda u? – deb so'radi Legri, eshikka tomon yurib.

– Mashina saroyi oldidagi paxta omborida, – dedi Kassi.

Kassi bilan so'zlasharkan, Legri o'zini juda tetik va tinch tutdi. Lekin uydan chiqarkan, allaqanday bezovtalik his etdi, ilgari o'zini hech bunday sezmasdi. Kechasidagi dahshatli tushlar va Kassining mash'um folbinliklari unga ta'sir qildi. U Tomning oldida o'zimdan boshqa hech kim bo'lmaydi, degan qarorga keldi. Agar Tom oyog'ini tirab olsa-yu, afv o'tinmasa, keyinchalik qulay payt kelganda uning jazosini bermoqchi bo'ldi.

Tantanali tong nuri, beso'naqay deraza orqali Tom yotgan saroyga ham tushardi.

– Salom, og'ayni! – dedi Legri, nafrat bilan Tomni te-pib. – Ahvoling qanday? „Ba'zi bir narsalarni senga o'r-gatib qo'yish qo'limdan keladi“, deb senga aytmabmidim? Qalay, ma'qul bo'ldimi? Kechasi bilan oz-moz esing kirib qolgandir?

Tom javob bermadi.

– Tur, hayvon! – deb baqirdi Legri, uni yana tepib.

Bunday kaltaklanib, holdan ketgan odamning o'rnidan

turishi qiyin edi, lekin Tom turishga urinib ko'rdi. Legri xaxolab kului.

– Bugun uncha abjirmassan, Tom. Oqshom shamolla-dingmi, ishqilib?

Tom oxiri o'midan ko'tarildi va xo'jayini oldida qimir-lamay, tik turdi.

– O, shayton-ey, o'rningdan tura olar ekansan-ku! – dedi Legri, uning u yoq-bu yog'iga qarab. – Demak, seni kecha kam savalashgan ekan. Xo'sh, Tom, oldimda tiz cho'kib, mendan afv so'ra.

Tom qimirlamadi.

– Tiz cho'k, it! – deb qichqirdi Legri va qamchi bilan tushirdi.

– Mister Legri, – dedi Tom, – men sizdan afv so'rayol-mayman. Mening qilgan ishim to'g'ri. Endigi safar ham xuddi shunday qilaman. Siz menga qanday tahdid qilmang, men hech kimni kaltaklamayman.

– Yo'q, mister Tom, seni nima qilishimni hali bilmay-san shekilli. Kechagisi endigisining oldida holva. Seni daraxtga bog'lab, sekin kabob qila boshlaganimdan keyin – ko'ramiz, qanday sayrarkansan. Senga yoqadimi shu?

– Bilaman, xo'jayin, qo'lingizdan eng yomon ishlar keladi, – dedi Tom.

– Sening kajbasligingni yo'q qilaman! – g'azab bilan baqirdi Legri.

– Yo'q, xo'jayin, yo'qotolmaysiz, – dedi Tom. – Mening yordamchim bor.

– Yordamchingiz kim?

– Qudratli Tangrim.

– Voy, ablah! – deb baqirdi Legri va bir mushtlab Tomni ag'dardi.

Birovning sovuq va yumshoq qo'li Legrining qo'lini ushladi. U orqasiga o'girildi, oldida Kassi turardi. Kassi-

ning sovuq va yumshoq qo‘li dahshatli tushni uning yodiga soldi. Uning yuragida tungi qo‘rquvlar qo‘zg‘alib, yangi-dan harakatga keldi.

— Ahmoq bo‘lma, — dedi unga Cassi fransuzchabalab. — Tegma unga! Menga topshir. Yo‘qsa ikkinchi dalaga chiqolmaydi. Senga aytmadimmi, bu odam aytganidan qaytmaydi, deb. Gapim to‘g‘ri ekanmi?

Hatto timsoh bilan karkidon zirhga qoplangan bo‘lish-lariga qaramay, shularning ham nozik joylari bor, deydilar. Har qanday vijdonini yo‘qotgan zolim ablahning ham irimdan qo‘rqishdek nozik joyi bo‘ladi.

Legri Tomga jazo berishni qulayroq paytga qoldirmoq-chi bo‘lib, orqa o‘girdi.

— Sening aytganing bo‘lsin, — dedi u xafaqonlik bilan Kassiga qarab. — Bilib qo‘y, — deb o‘shqirdi Tomga, — bu safar senga tegmayman, faqat shuning uchunki, hozir, dalada ayni ish qizigan paytda menga ishlaydigan odam kerak. Lekin men hech narsani unutmayman! Hamma qilmishlarining hisob-kitobingga yozib qo‘yaman. Bularning tovoni uchun bir kun eski qora po‘sagingni batamom shilib olaman. Buni unutma!

Legri qayrildi-da, chiqib ketdi.

— Ko‘ramiz, o‘z tovoningni qanday to‘larkansan! — dedi Cassi uning orqasidan xo‘mrayib qarab. — Xo‘sh, sho‘rlik, ahvoling nechuk?

XXXVII BOB

Ozodlik

Hozircha Tomni qiynovchilar qo‘lida qoldirib, Jorj bilan Elizaning sarguzashtlariga qaytaylik: ularni biz katta yo‘ldagi fermada, do‘sstar orasida qoldirgan edik.

Tom Loker ham xuddi tobi qochgan bizondek, jan-

jalkash xastalardan edi. U oh-voh qilar, ingrar va Dorkas xolaning onalarcha nazorati ostida oppoq to'shakda yotarkan, o'zini har tomonga urardi.

Viqorli, xushmuomala, ko'kko'z va do'ngpeshona, kumushdek oppoq sochlarini ozoda doka qalpoqcha ostida bekitib turgan novcha ayolni ko'z oldingizga keltiring. Uning ko'kragidagi oq durra uchlari bog'langan; u jigar-rang shoyi ko'ylagini ohista shildiratib xonada yuribdi.

– Hu padarla'nat! – dedi Tom Loker, choyshabga mush-tini urib.

– Senga aytishga majburman, Tomas, bunaqa gaplar-ni gapirma, – dedi Dorkas xola, uning to'shagini sekin tu-zatib.

– Xo'p, acha, – deb javob berdi Tom. – Bunday issiqda so'kinmay ilojim yo'q-da!

Dorkas xola uning bo'ynidan jun sharfni olib, choyshab bilan yaxshilab o'radi, shundan keyin Tom Loker uyasida yotgan ipak qurtiga o'xshab qoldi. Uni o'rarkan, Dorkas xola nasihatomuz dedi:

– Iltimosim shu, do'stim, og'zingni shaloq qilma. Ke-yin sen, umuman, o'z fe'l-atvoringni o'yla.

– He padariga la'nat, – dedi Tom Loker, – o'ylashim-ning nima keragi bor! Boshimda bundan boshqa tashvish yo'qmi, padariga qusur!

Shunday deb u yana pitirladi va joyini ag'dar-to'ntar qildi.

– U olifta xotini bilan hali shu yerdadir? – deb xafaqon so'radi u, biroz indamay yotib.

– Ha, shu yerda, – deb javob berdi Dorkas xola.

– Ular ko'lga borsinlar, – dedi Tom. – Qancha tez ket-salar shuncha yaxshi.

– O'zлari ham shunday qilsalar kerak, – dedi Dorkas xola, xotirjam ish to'qishni davom ettirib.

– Hoy, – dedi Tom. – Sandaskida bizning agentlarimiz bor. Ular paroxodlarning hammasini nazardan o'tkazib turishadi. Endi menga sir saqlashning keragi yo'q. La'nati Merks bilan o'chakishib qoldim: ularning qutulib ketishini endi o'zim istayman, padariga qusur!..

– Tomas! Yana boshlading!

– Butunlay so'kinmasdan turolmayman axir, acha: agar og'zim juda tang'ib qo'yilsa, shishadek yorilib, maydamayda bo'lib ketaman axir... Ha, u xotin to'g'risida... Ularga tayinla, unga boshqa kiyim kiydirishsin, yo'qsa tanib qolishadi. Uning nishonlari haqida Sandaskiga xabar qilingan.

– Biz buni nazarda tutamiz, – dedi Dorkas xola, odadagicha o'zini vazmin tutib.

Tom Loker yoniga ikkinchi bor qaytmaslik uchun shuni aytishimiz lozim: u jarohatlari va bod isitmaning azobini tortib uch hafta yotdi, keyin sog'aydi va burungidan sal aqlliroy bo'lib qoldi. U negr ovlashni tashlab, odam kam boradigan bir o'lkaza jo'nadi hamda u yerda ayiq, bo'ri va boshqa o'rmon jonivorlarini ovlay boshladи va pirovardida butun mamlakatda dong chiqardi.

Agentlarning Sandaskida poylab turganliklari haqida Tom tomonidan ogohlantirilgan qochoqlar ikkiga bo'linishga qaror qildilar. Kampir onasi bilan Jim oldin ketdi, ikki kecha o'tkazib, ularning orqasidan o'z bolalarini olib Jorj bilan Eliza jo'nadilar: Sandaskida ularga mehmondo'st bir oila boshpana berdi, keyin ular ko'ldan o'tishga shaylana boshladilar.

Tun tez o'tdi, ular ustida ozodlik tongining yulduzi porladi. Ozodlik! Qanday jozibali so'z! Buning ma'nosi nima? Nega bu so'zni aytganda Amerikadagi er va ayollarning yuraklari qattiqroq ura boshlaydi? Nega bu so'zni deb ularning otalari o'z qonlarini to'kdilar, onalari esa o'zlarining eng yaxshi farzandlarini o'limga yubordilar?

Ammo, butun bir mamlakatga ozodlik kerag-u, ayrim bir kimsaga ozodlik kerak emasmi? Mamlakatning ozodligi – uning har bir fuqarosining ham ozodligidan iborat emasmi axir? Qora ko‘zлari yashnagan, tomirlariga Afrika qoni aralashgan mana bu yigit uchun ozodlik nima, ya’ni Jorj Garris uchun ozodlik nimadan iborat? Sizning otalaringiz uchun ozodlik – mamlakatning mustaqil bo‘lish huquqini ifodalar-di, Jorj Garris uchun esa ozodlik – kishining hayvon emas, balki inson bo‘lish huquqidan, o‘z xotinini „o‘z xotinim“ deb aytish va har qanday jabr-u zulmdan uni himoya qilish huquqidan, o‘z bolasini asrab tarbiyalash huquqidan, o‘zi-ning xususiy uy-joyiga, o‘z din-e’tiqodiga, birovlar tomoni-dan siqilmaydigan o‘z xususiy didiga ega bo‘lish xuquqidan iboratdir. Jorj josuslarni g‘aflatda qoldirish uchun erkakcha libos kiyayotgan nozik va jonon xotiniga boshini qo‘liga qo‘ygancha qarab turarkan, mana shu haqida o‘ylardi.

– Sochimni qirqishga to‘g‘ri keladi, – dedi ko‘zgu oldida turgan Eliza qalin, ipakdek ko‘rkam qora sochini yozib. – Esizgina sochim, nima deding, Jorj? – deb eriga qaradi u, bir necha tolim sochini kaftiga olib salmoqlab ko‘rarkan. – Esizgina, qirqishga to‘g‘ri keladi.

Jorj ma’yus kulimsiradi, ammo hech nima demadi.

Eliza ko‘zguga o‘girildi-da, kokillarini qaychi bilan bi-rin-ketin qirqa boshladi.

– Tamom, – dedi u, taroqni olib, – endi tarayman, shu bilan ish bitadi.

U qizardi va eriga o‘girilib, kulgancha dedi:

– Qara, chiroyli o‘g‘il bola bo‘libmanmi?

– Qanday kiyim kiyma, baribir chiroylisan, – dedi Jorj.

– Nega bunday ma'yussan? – deb so‘radi Eliza, bir tiz-zasiga cho‘kib, uning qo‘lidan ushlab. – Yigirma to‘rt soat-dan keyin Kanadada bo‘larkanmiz. Bir kun va bir kecha ko‘lda bo‘lamiz, keyin... keyin!..

– Ha, Eliza, – dedi Jorj, uni o‘ziga tortib, – kelajak, butun taqdirim ana shu ko‘ldan o‘tishga bog‘liq. Maqsadga yaqin qolganda hamma narsadan mahrum bo‘lmaylik!.. Agar meni tutib olishsa, o‘zimni o‘ldiraman, Eliza.

– Qo‘rqma, – dedi u umidvor ovoz bilan.

– Bu musibatli yillar oxiriga yetyaptimi-a? Biz ozod bo‘lamizmi-a?

– Bundan ko‘nglim to‘q, Jorj, – qat’iylik bilan oldinga qarab dedi Eliza, uning uzun qora kipriklari orasidan umid va zavq yoshlari tormdi.

– Men senga ishonaman, Eliza, – dedi Jorj, birdan qo‘zg‘alib. – Senga ishonaman! Yur! Vaqt bo‘ldi!

U Elizadan bir qadam chekindi ammo qo‘lini qo‘ymay zavqlanib unga qararkan, davom etdi:

– Sen chindan ham chiroyli o‘g‘il bola bo‘lib qolibsan. Kalta soch senga yarashar ekan. Shapkangni kiy. Biroz mana bu tomonga suribroq kiy. Sen hech qachon bunchalik chiroyli bo‘lgan emassan! Endi borib arava kira qilish kerak. Smit xonim bizning Garriga boshqa kiyim kiyintirdimikin?

Eshik ochildi; xush chehrali bir ayol, qiz bolacha kiyintirilgan kichkina Garrini olib kirdi.

– Juda soz qizcha bo‘libdimi bu! – dedi Eliza unga o‘girilib. – Endi uni Garriyeta deb chaqiramiz. Ismi yaxshi-a?

Bola erkak libosi kiygan onasiga xafaqon qaradi. U garang, indamas va qattiq xo‘rsinardi.

– Garri onasini tanimadimi? – dedi Eliza bolasiga qo‘lini uzatib.

Lekin bola uyalib, Smit xonimga yopishdi.

– „Meni tanisin“ deb ovora bo‘lma, Eliza, – dedi Jorj. – Baribir, kemada uning yonimizga kelishi mumkin emas.

– Xato qilayotganimni o‘zim ham bilaman, – dedi Eliza, – ammo mendan yuzini o‘girganiga dilim og‘riyapti.

Plashim qani? Jorj, erkaklar plashni qanday kiyishadi, menga ko'rsat.

- Mana bunday, – dedi eri, yelkasiga plashni tashlab.
- Shundaymi? – deb so'radi Eliza, uning harakatlariga taqlid qilib. – Endi men qadamni katta-katta tashlashim, etikni taraqlatib, chapanicha yurishim kerak.
- Chapanicha yurmasa ham bo'laveradi, – dedi Jorj. – Yaxshisi, uyatchan yigitga o'xshab yur. Senga shunaqa yurish ko'proq yarashadi.
- Qo'lqob katta ekan! – dedi Eliza. – Buning ichida qo'lim yo'qolib ketdi.
- Qo'lqopingni kamroq yech, – dedi Jorj. – Sening kichkina nozik qo'lchalaring hammamizni halok qilishi mumkin. Xo'sh, Smit xonim, unutmang: sizni biz qo'riqlab boramiz, siz bizning xolamiz bo'lasiz.
- Menga, – dedi Smit xonim: – „Xotini va o'g'li bilan ketayotgan erkakka nazar tashlab borilsin“, deb hamma kapitanlarga topshiriq berilganini aytishgandi.
- Mayli, nazar tashlashaversin! – dedi Jorj. – Agar biz ham yonida xotini va o'g'li bilan ketayotkan erkakni ko'r-sak, darhol kapitanga xabar beramiz.
- Ko'cha eshikka arava kelib to'xtadi; qochoqlarga uydidan boshpana bergen saxovatli oila mehmonlarni kuzatgani chiqdi.

Tom Lokerning aytganini qilishdi – boshqatdan kizinganlaridan so'ng, qochoqlarning qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Kanadada tug'ilgan va o'z vataniga qaytayotgan Smit xonim, ko'ldan o'tayotgan vaqtida kichkina Garrining xolasi rolini bajarishga rozi bo'ldi. Garrini o'ziga o'rgatib olish uchun u ketish oldidan so'nggi ikki kun ichida Garridan ajralmadı. Shirinso'z, pryanik va konfetlar yordami bilan Smit xonim uni batamom o'ziga qaratib oldi.

Arava ularni pristanga olib bordi. Yigitga aylanib qolgan Eliza, Smit xonimga nazokat bilan qo'l uzatib aravadan tushishga yordamlashdi. Jorj yuklar taraddudini qildi, so'ngra hammalari birga paroxodga chiqishdi.

Jorj bilet sotib olarkan, kassa yonida turgan ikki erkanni ko'rди. Ular o'zaro so'zlashardilar.

— Men, kemaga chiqqanlarga birma-bir qarab turdim, — dedi biri. — Ular bu kemada yo'q.

So'zlayotgan kishi kema xizmatkorlaridan edi: uning suhbatdoshi bizning eski tanishimiz Merks bo'lib, u Sandaskiga sayidini ushslash uchun o'ziga xos korchalonlik bilan yetib kelgandi.

— Xotinni oq tanli ayoldan ajratish qiyin, — dedi Merks, — erkagi ham juda oq mulat. Qo'liga tamg'a bosilgan.

Jorjning bilet va pul ushlab turgan qo'li biroz titradi; lekin u xotirjam o'girilib, Merksning ko'ziga beparvo qarab, uni kutib turgan Elizaning yoniga shoshilmaygina jo'nadi.

Smit xonim qizlar ko'yakchasini kiyib olgan Garri bilan xotinlar kayutasiga joylashdi. Bu yerda qorachadan kelgan kichkina qizning go'zalligi hamma ayollarni zavqlantirdi.

So'nggi zang urildi;. Jorj pillapoyadan qirg'oqqa tushayotgan Merksning orqasidan qararkan, o'zida yo'q xursand edi. Kema qimirlab, paluba bilan qirg'oq oralig'i kengaya boshlagandan keyin, u yengil nafas oldi.

Havo ochiq, juda yaxshi kun. Eri ko'lining ko'mko'k to'lqinlari quyoshda jilvalanib o'ynar, yarqirar ham ko'piklanardi. Sohildan orombaxsh shabada esib turardi, dabdabali kema esa oldinga tez suzib borardi.

Har bir kishining yuragi qanchadan qancha yashirin sirlarni o'zida saqlaydi! Palubada uyatchan hamrohi bilan sekin aylanib yurgan Jorjga qaragan kishi uning miyasi-dagi fikrlarni, yuragida qaynayotgan tuyg'ularni bila olarmidi? Soat sayin yaqinlashayotgan baxt Jorjga shu qadar

go'zal va shu qadar ajoyib ko'rinaridiki, u hatto bu baxtning yaqin qolganiga ishongisi kelmasdi. Ko'pdan buyon kutilgan ozodlik yaqinlashgan sayin, Jorj uni qo'lidan boy berib qo'ymasam, deb qo'rqardi.

Kema zo'r berib oldinga suzardi. Vaqt o'tib bozor; ni-hoyat, uzoqda Kanada sohili ko'rindi.

Jorj va uning xotini bir-birlarining qo'llaridan ushla-shib turardilar, shu vaqt kema Kanadaning Axmerstberg degan kichkina shaharchasiga yaqinlashib qoldi. Jorj tez-tez va kalta nafas ola boshladi, ko'zлari tindi, u o'z qo'lida titrab turgan kichkina qo'lchan'i hech nima demasdan siqdi. Zang urilib, kema to'xtadi. Jorj xuddi tushdagi kabi, o'z yukini ko'tarib, hamrohlarini chaqirdi. Kichkina to'da sohilga tushdi va kema ketguncha kutib turdi.

Smit xonim ularni saxovatli bir missionernikiga olib keldi. Bu odam o'zini chegaradan o'tib kelgan qochoq qul-larga boshpana berish kabi olivjanob ishga bag'ishlagandi.

Birinchi ozodlik kunining butun lazzatini qanday tas-virlash mumkin? Har bir kishida, boshqa besh tuyg'udan ko'ra nozikroq va yuksakroq oltinchi hissiyot – alohida ozodlik hissiyoti yo'qmi axir? „Birov meni poylab yurib-di“ demasdan, qo'rqlay yurish, so'zlashish, nafas olish va o'zingizni xafvsizlikda his etish naqadar yaxshi! Ona o'z bolasiga minglarcha dahshatli ofatlarning tahdid qil-ganini eslab, uning tinch uxlashiga qararkan, bu chog'dagi zo'r quvonchini kim tasvirlay oladi? Boshdan kechirilgan hamma mashaqqatlardan keyin bola uning ko'ziga ilgari-gidan ham azizroq ko'rinaridi. Jorj bilan Eliza bir daqiqa ham uxlamacalar. Bu baxtli kechada ularning ko'ziga uyqu kelmasdi! Rost, bu ikki baxtiyorning na bir parcha yerlari bor edi va na bosh suqadigan joylari. Ular pullarini bir dollar ham qoldirmay sarflagan edilar. Shunday bo'lsa ham baxtiyorlikdan ularning ko'zlariga uyqu kelmasdi.

G‘alaba

Turmushning eng og‘ir chog‘ida: „Bu kunimdan o‘lganim yaxshiroq“, deb o‘ylagan odamlar dunyoda ozmi deysiz?

Tom o‘z qiynovchisi oldida turib, uning po‘pisalarini eshitarkan, qo‘rqmadi. U har qanday azoblarga bardosh berish uchun o‘zida yetarli kuch, mardlik borligini his etardi. Ammo jallod ketib, vaqtincha ko‘tarilgan hayajon bosilgach, holsizlangan va shalpaygan badan yana og‘riy boshlaganda, uni umidsizlik chulg‘ab oldi: unga batamom ojizlik va umidsizlik hissi qaytib keldi. Butun kun uni g‘am bosdi.

Hali uning yaralari bitmagandi, lekin Legri uni dalaga ishga yuborishni talab qildi. U dard va charchashdan azob chekardi. Buning ustiga johil xo‘jayin tomonidan hadeb kashf etiladigan har xil nohaq azob va masxaralashlarga bardosh berish zaruriyati qo‘shilardi. O‘rtoqlarining hamisha g‘amgin yurishlariga Tom endi taajjublanmasdi. U burungi xushko‘ngilligini, muloyim tabiatlilagini, quvnoqligini o‘zi ham yo‘qotganligini sezardi. Uning bo‘s sh vaqt bo‘lmadi. Ish qizg‘in chog‘larda, Legri qullarni tong otguncha ishlashga majbur qilardi, yakshanba kunlari ham boshqa kunlardagidek ishlardilar. Nima uchun ular yakshanba kuni ishlamasliklari kerak ekan? Ular qancha ko‘p ishlasalar, Legri o‘shancha ko‘p paxta oladi, qanchaki ko‘p paxta olsa, cho‘ntagiga o‘shancha ko‘p pul kiradi-ku axir. Agar qullar haddan ziyod charchab o‘lib qolsalar, zarari yo‘q – Legri yangisini sotib oladi. Ishdan keyin Tom butunlay holsizlanib, yiqilib qolardi.

Haftalar o‘tar, oylar o‘tar, Tomning dili esa hamon g‘amgin edi. Ofeliyaning Kentukkiga yozgan xati uning

esiga tushdi va hamon: „Meni qaytib sotib olsalar kerak“, deb umid qilardi. U: „Mana kelib qolishar, ana kelib qolishar“, deb har kun kutardi. Lekin hech kim kelmasdi. Goho u Kassi bilan uchrashardi, goho xo'jayinining uyiga kirib, oriqlab ketgan Emmelinaga ko'zi tushardi; lekin ularning hech qaysisi bilan biror marta durustgina so'zlasholmadi. So'zlashish uchun endi uning vaqtini ham yo'q edi.

Bir marta kechasi, qullar baragida hamma uxbab yotganda Tom uyg'onib ketdi va xodalar orasidagi – deraza xizmatini bajaruvchi tuynukda Kassining yuzini ko'rdi. Kassi imo bilan uni tashqariga chaqirardi.

Tom chiqdi. Tungi soat birdan o'tgandi. Oy tiniq va ravshan nur sochardi. Kassining ko'zlar oy yorug'ida allaqanday g'alati bo'lib yaltirardi, uning ko'zida odatdag'i g'amgin umidsizlik ko'rinasdi.

– Bu yoqqa kel, Tom tog'a, – dedi u kichkina qo'lini uning yelkasiga qo'yib va uni qattiq oldinga itarardi, Tom esa: „Buning qo'li po'lat shekilli“, deb o'yldi.

– Bu yoqqa kel, gapim bor.

– Nima bo'ldi, Kassi xonim? – deb so'radi tashvishlangan Tom.

– Tom, ozod bo'lishni istaysanmi?

– Meni ozod qilishadigan vaqt kelib qolar, deb ishonaman.

– O'sha vaqt keldi! – dedi Kassi, allaqanday zavqli jo'shqinlik bilan. – Yur!

Tom yuragi dov bermay to'xtadi.

– Yur! – deb pichirladi u, qora ko'zlarini unga tikib. – Qani, yur deyman! Uxlayapti. Qattiq uxlayapti. U ko'proq uxlasin, deb arog'iga ba'zi bir narsalarni qo'shdim. Afsuski bu doridan menda oz edi, ko'proq bo'lganda sen menga kerak ham bo'lmasding. Yur, orqa eshik ochiq. Boltani dahlizga qo'yib keldim. Yotgan xonasining eshigi ham ochiq. Senga

yo‘lni ko‘rsatib qo‘yaman. Hamma ishni o‘zim qilardim-u, qo‘rqaman, qo‘llarim juda zaif. Yur!

– Dunyoning hamma xazinalarini bergenlarida ham bormayman! – dedi Tom qat’iy suratda va garchi Kassi uning orqasidan itarayotgan bo‘lsa ham, to‘xtadi.

– Bu baxtsizlarni o‘yla axir, – dedi Kassi. – Biz ularning hammasini ozod qilamiz, botqoqlarga ketamiz, u yerda bop-roq qattiq joy topib, o‘sha yerda yashayveramiz. Men bunday voqealarning bir necha marta bo‘lganini eshitganman. Bizni nimaki qilmasinlar, biz uchun bu yerga qaraganda boshqa yerda yaxshiroq bo‘ladi.

– Yo‘q, oltin bersangiz ham bormayman, – dedi Tom qat’iy ravishda. – Yomonlik hech qachon yaxshilik tug‘dirmaydi. Yaxshisi, o‘ng qo‘limni chopib tashlayman.

– Unday bo‘lsa, buni o‘zim qilaman, – dedi Kassi.

– Hoy Kassixon! – deb qichqirdi Tom. – Joningizni shaytonga sotmang! Bu ishingizdan kulfatdan boshqa hech narsa chiqmaydi.

Kassi indamay qoldi. Uning yerga qaragan ko‘zlaridan katta-katta yoshlari oqardi.

– Kassixon! – deb yuragi dov bermay so‘z boshladi Tom, uning indamay qolishidan foydalanib, – yaxshisi, siz bu yerdan qoching... Siz va Emmelina... Qoching, agar buning uchun birovning qonini to‘kish talab qilinmasa, qoching.

– Sen ham biz bilan birga qochasanmi, Tom tog‘a?

– Yo‘q, – dedi Tom. – Mensiz qoching. Bir vaqtlar qochmoqchi bo‘lgandim, lekin endi...

– Bu yerdan faqat qabrga qochish mumkin, – dedi Kassi. – Har bir hayvonning, har bir parrandaning boshpana joyi bor. Hatto ilonlar va timsohlar ham xotirjam dam olish mumkin joylarni biladilar. Lekin biz uchun boshpana yo‘q. Hatto odam borolmaydigan botqoqlarda ham bizni itlar topib oladi. Qayerga qochaylik biz?

Tom indamasdi.

Rostini aytganda, Kassi qochishni allaqachonlar orzu qilardi... U juda ko'p rejalarни tuzib chiqqan, lekin ularning hech birini amalga oshirish mumkin bo'limganidan-qolib ketgandi. Ammo bu safar uning miyasida sodda va bajarilishi mumkin bir fikr paydo bo'ldiki, buning natijasida, unga to'satdan yana umid qaytib keldi.

– Tom tog'a, men qochishga harakat qilib ko'raman, – dedi u qo'qqisdan.

– Xudo ko'mak bersin sizga! – dedi Tom.

XXXIX BOB

Ayyorlik

Legri uyining paramoni boshqa ko'pgina cherdaklar kabi keng, bo'sh, iflos, o'rgimchak uya bosgan eski-tuski narsalarga to'la edi. Bir vaqtlar bu plantatsiyaning egasi bo'lgan boy oila uyga juda yaxshi jihozlar olib kelgandi. Jihozlarning bir qismini uy egalari o'zları bilan olib ketdilar, bir qismi esa cherdakka taxlab qo'yilgandi. Bir vaqtlar mebel solib kelingan ikkita katta yashik ham shu yerda turardi. Cherdakka kichkina darchadan yorug' tushardi. Darchaning oynalarini chang bosib ketgani sababli, undan tushadigan yorug' g'ira-shira bo'lib, ilgari tez-tez tozalanib turgan – orqasi baland kursilar va stollar zo'rg'a ko'rindi. Bu paramonga kirgan kishi ixtiyorsiz sehrgarlik va ajinalar haqida o'ylab qolardi. Shuning uchun bu paramondan hamma qo'rqardi. Afsonalar bu qo'rquvni yanada kuchaytirardi. Irimchi negrlar esa afsonaga o'ch bo'ladilar. Bir necha yil muqaddam Legrining achchig'iga tekkan bir negr ayol bu paramonga qamab qo'yilgan va unda bir necha hafta yolg'iz o'tirgan. U yerda nima hodisa bo'lgani noma'lum.

Negrlar o'zaro pichirlashib har narsalarni gumon qiladilar, lekin shunisi ma'lumki, eng oxiri sho'rlik ayolning o'ligi paramondan pastga olib tushilib, ko'milgandi. Shundan buyon kechalari paramondan qarg'ish, dod-faryod, yolvorish va oh-fig'on ovozi chiqadi, deb aytardilar. Bu ovozlar ni eshitib, Legri g'oyat g'azablandi va: „Kimki paramon haqida og'iz ocharkan, uning hamma sirlari bilan mukammal tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni kishanga solinib paramonga jo'natalidi va u yerda bir hafta yotadi“ deb qasam ichdi. Paramon haqida gaplarni to'xtatish uchun bu po'pisa kifoya bo'ldi, lekin undagi ajinalarga ishonish – zarracha kamaymadi.

Asta-sekin hamma, paramonga olib chiqadigan pillapo-yadangina emas, hatto bu pillapoya solingen dahlizdan ham o'zlarini olib qochadigan bo'lib qoldilar. Kassining miyasi-ga to'satdan: o'zini va Emmelinani ozod qilish uchun, Legrining xurofotlarga ishonib, ajinadan qo'rqishidan foydalanish kerak, degan fikr keldi.

Kassining yotoqxonasi xuddi paramonning tagida edi. U bir kuni Legridan ijozat so'ramasdan o'z yotoqxonasi-dan hamma narsalarni va jihozlarni uyning eng chetidagi boshqa xonaga tashishni buyurdi. Kassi bu ishni boshlamasdan ilgari Legri ot minib sayrga ketgandi. Ivirsinash va shovqin ko'tarib ko'chish ayni qizib turganda Legri qaytib keldi.

– Hoy, Kassi! – deb qichqirdi Legri. – Bu nima qilganing?

– Hech nima, – deb g'ashlanib javob berdi Kassi. – Boshqa xonaga ko'chyapman.

– Nima uchun? – deb so'radi Legri.

– Ko'nglim shuni istadi, – dedi Kassi.

– Bu nima gap! Nima uchun?

– Tinch uqlashni istayman.

– Tinch uqlashni? Sening uyqungga nima xalaqt ber-yapti?

– Quloq solishni istasang, aytib berishim mumkin, – deb sovuq javob berdi Kassi.

– Gapir, it! – dedi Legri.

– Balki, sen u yerda juda tinch uxlarding. Har kun kechasi soat o'n ikkidan tong otguncha cherdakda birov oh-vohlab chiqardi. U yerda allaqanday odamlar mushtlashadi, to'polon ko'tarib, polda yumalashadi.

– Cherdakda odamlar bor emish! – deb xitob qildi Legri, kulishga qiyinchilik bilan o'zini majbur etib, – Bu qanday odamlar ekan, Kassi?

Kassi o'tkir qora qo'llarini ko'tardi va Legriga shunday nazar bilan boqdiki, bu nazar uning suyagigacha teshib o'tdi. Kassi dedi:

– Qanday odamlar deysanmi, Saymon? Ularni sen yaxshiroq bilarsan. Yo bilmaysanmi?

Legri yomon so'kinib, Kassiga qamchi tushirmoqchi bo'lgan edi-yu, u chap berib, eshikka kirib oldi va orqasiga qarab:

– Nimalar bo'layotganini bilging kelsa cherdagingda bir kecha yot, – dedi va eshikni ichidan yopib, keyin qulflab oldi.

Legri baqirar, so'kinar, „Eshikni sindiraman“ deb po'-pisa qilardi, lekin keyin fikridan qaytdi shekili, yuragi bezovta bo'lib, mehmonxonaga jo'nadi. Kassi o'z nayranging muvaffaqiyatli chiqqanini tushundi va shu chog'dan boshlab Legrini yangidan yangi uydirmalar bilan qo'rqtish yo'liga tushdi.

U cherdakda bir yoriq joy topib, unga eski shishanining bo'g'zini joylab qo'ydi. Ozgina shamol essa, shisha og'zi uzun va kishi yig'isiga o'xshagan ma'yus ovoz chiqarardi, qattiq shamol turganda esa bu ovoz chinqiriq sadoga ayla-

nar va irimchi qulqlarga xuddi dahshat hamda umidsizlik bilan to‘lgan kishi faryodidek bo‘lib eshitilardi.

Bu sadoni eshitgan negrlar cherdakda yashovchi aji-na haqidagi afsonani darhol eslariga tushirdilar. Ajinalar dahshati butun uyni bosdi. Legriga bu haqda birov so‘z ochishga jur’at qilmasa ham, umumiy qo‘rquv beixtiyor unga ham o‘tar va zaharlardi.

Kassi allaqanday g‘alati yo‘l bilan Legriga ta’sir qila olardi. Legri uning xo‘jayini, zolimi va qiyonovchisi edi. Legri uni har narsa qilishga qodir bo‘lib, Kassi uning oldida himoyasiz edi, biroq ayol kuchli va qat’iy irodali bo‘lsa, eng badjahl erkak ham bu ayolning ta’siriga berilib qolishi mumkin. Legri sotib olgan vaqtida Kassi nozik va zaif xarakterli xotin bo‘lib, Legri uni ayovsiz ezdi. Ammo vaqt o‘tgan sayin, umidsizlik uni g‘azablantirdi, unga kuch berdi, ashaddiy nafrat alangasini yondirdi. Shuning uchun Legri undan qo‘rqr va ko‘pincha uning gapiga bo‘ysunardi.

Kassi sal aynib qolib, hamma so‘zlarida qandaydir bir yovvoyilik, mavhumlik va tushunib bo‘lmaydigan iboralar paydo bo‘lgandan keyin, bu bo‘ysunish, ayniqsa, kuchaydi.

Oradan ikki kun o‘tdi. Legri esa mehmonxonada, devorga nursiz xira yorug‘ berayotgan o‘t yonida o‘tirardi. Kechki payt edi. Bo‘ron g‘uvullardi. Bunday bo‘ronli kechalarda qarovsiz qolgan hamma band uylarda g‘alati ovozlar eshitilib turadi. Derazalar zirillar, darpardalar shildirar, shamol o‘kirar, mo‘ridan g‘uvullab o‘tib, xonani ajinalar galasiga o‘xshagan tutun oqimlari bilan to‘ldirardi. Legri avval hisob-kitobini to‘g‘rilash bilan band bo‘ldi, keyin gazetalarni ko‘rib chiqdi. Kassi esa burchakdagi o‘tga g‘amgin qarab o‘tirardi. Nihoyat, Legri gazetani qo‘ydi-da, stol ustidagi eski kitobga ko‘zi tushdi. Kechki payt bu kitobni Kassi o‘qiyotganini esladi. U, kitobni olib, varaqlay boshladi. Yomon nashr qilingan bu kitob, odam o‘ldirish-

lar, ajinalar, o'liklar, narigi dunyodan keladigan arvoхlar haqida yozilgan hikoyalar to'plami edi. Kitobda anchagina suratlar ham bor edi.

Legri tomoq qirib, ijirg'andi, shunday bo'lsa ham kitobni birmuncha varaqladi, keyin uni polga otdi-da, so'kindi.

— Ajinalarga ishonmaysan-ku, Kassi? — deb so'radi u, manqal-pechkani kosov bilan titarkan. — Sen aqlli xotinsan va har qanday tasodify shovqindan qo'rqmasang kerak.

— Ishonamanmi, ishonmaymanmi, senga baribir emasmi? — g'amgin dedi Kassi.

— Men kemada xizmat qilgan chog'imda matroslar meni har xil dahshatli afsonalar bilan qo'rqiitmoqchi bo'lardilar, — deb davom etdi Legri, — lekin menga bular kor qilmasdi. Har qanday behuda gaplarga ishonadigan ahmoq emasman.

Kassi qorong'i burchakdan unga tikilib qaradi. Uning ko'zlarida Legrini har doim qo'rqiitadigan g'alati alanga chaqnardi.

— Bu shovqinning hammasini kalamushlar bilan shamol ko'taradi, — dedi Legri. — Xususan, lan'ati kalamushlar. Ke-ma tryumini ostin-ustin qilib taraqlatishganlarini ko'p eshitganman. Shamol-chi... Azbaroyi Xudo, shamol quturib guvullaganda har baloni eshitish mumkin.

O'zining tikilib qarashidan Legrining qo'rqiayotganligini Kassi juda yaxshi bilardi va shuning uchun allaqanday sirli ko'zlarini undan uzmasdi.

— Nega indamaysan, hoy xotin? Yo so'zim noto'g'-rimi?

— Ustdidan qulflab, kursi tirab qo'yilgan eshikni kalamushlar ocha oladimi? — deb so'radi Kassi. — Kalamushlar sening karavoting atrofida yurib-yurib, keyin ustingga mana bunday qilib changallarini qo'ya oladilarmi?

Kassining chaqnayotgan ko'zлari Legriga tikilgan va Legri ham Kassiga qo'rqinchli tushda ko'rgandek qarab

turar edi. Kassi unga muzdek sovuq qo'lini tegizganda, u orqaga tisarilib, so'kina boshladи.

– Bo'limgan gaplarni gapirmsang-chi, xotin! Gapirayotgan hodisalariningni o'zing ko'rghanmisan?

– Yo'q, ko'rghanmasman, albatta... Men „ko'rdim“ deb aytdimmi? – deb javob berdi Kassi, nafratomuz sovuq kulumisrab.

– Lekin... ayt... ko'rghanmisan? Ayt, Kassi, ayt... – dedi Legri.

– O'sha xonada bir kecha yot, – dedi Kassi, – keyin hammasini bilasan.

– Kassi, cherdakdan tushadimi u?

– „U“ deganining nimasi! – deb so'radi Kassi.

– O'zing aytding-ku axir...

– Senga hech nima deganim yo'q, – deb achchig'i chiqib va xafaqon javob berdi Kassi.

Legri hayajonlanib xonada yura boshladи.

– Men buning hammasini tekshiraman. Shu kechayoq aniqlayman. To'pponchalarimni olay...

– Tekshirib ko'r, – dedi Kassi. – Mening ilgarigi xonamda uxlagan yot. O'sha yerda yotib ko'rishingni juda xohlayman. To'pponchalariningni ot. Tekshir.

Legri yer tepinib, juda shaloq so'kindi.

– So'kinma, – dedi Kassi. – Shu tobda gaplaringga kim qulq solib turgani noma'lum. Jim! Bu nima?

– Nima? – deb so'radi Legri cho'chib.

Burchakda turgan eski gollandiya soati o'n ikki marta sekin zang urdi.

Legri indamas va qimirlamasdi. Uni g'oyat qattiq qo'rquv bosdi. Kassi masxaraomuz ko'zini yashnatib uning yuziga qarar va zangni sanardi.

– O'n ikki, – dedi u. – Endi hammasini ko'ramiz.

U dahlizning eshigini ochdi-da, ostonada to'xtab, qu-loq sola boshladi.

– Jim! Bu nima? – dedi u, barmog‘ini ko‘tarib.

– Shamol, – dedi Legri. – Bugun u quturgandek hay-qiryapti.

– Bu yoqqa kel, Saymon, – dedi Cassi pichirlab va uning qo‘lidan ushlab pillapoyaga qarab sudradi. – Bu ni-ma? Quloq sol.

Yuqoridan juda xunuk ovoz eshitildi. Bu ovoz ularga cherdakdan eshitildi. Legrining oyog‘i titradi. Qo‘rquvdan yuzi oqardi.

– To‘pponchalaringni nega olmaysan? – deb so‘radi Cassi kulimsirab. Bu kulimsirashni ko‘rib Legrining to-mirlaridagi qoni qotib qoldi. – Axir, hammasini tekshirib chiqmoqchi eding-ku. Yuqoriga chiq, ular yuqorida.

– Kerakmas! – dedi Legri so‘kinib.

– Nima uchun? „Ajina bo‘lmaydi“ deb o‘zing aytyapsan-ku. Yur!

Kassi pillapoyaga biroz ko‘tarildi-da, kulib orqasiga qaradi:

– Yur yuqoriga!

– Shayton – xuddi o‘zing bo‘lasan! – dedi Legri. – Qayt, jodugar! Qayt, Cassi! U yoqqa chiqa ko‘rma!

Kassi qattiq qahqaha otib pillapoyadan yuqoriga yugurib chiqib ketdi. Legri uning cherdakka olib boradigan eshikni ochganini eshitidi. U qo‘lida sham ushlab turgandi, qattiq shamol shamni o‘chirdi. U, dahshatli, g‘ayritabiiy uv-v-v ovozlarini eshitidi. Bu ovozlar uning qulog‘ini o‘yardi.

Qo‘rquvdan tepa sochi tik turgan Legri mehmonxonaga yugurib kirdi, uning ortidan Cassi ham qaytib kirdi. Uning rangi o‘chgan, xotirjam va qasoskor kabi sovuq edi. Ko‘zlarida ilgarigidek dahshat soluvchi alanga yashnardi.

– Xo'sh, ko'rdingmi, xursandmisan endi? – deb so'radi Kassi.

– Jin ursin seni, Kassi! – dedi Legri.

– Nega? – deb so'radi Kassi. – Men faqat yuqoriga chiqib, eshikni yopib tushdim. Nima deb o'ylaysan, Saymon, seningcha, cherdakda nima bor?

– Sening ishingmas! – dedi Legri.

– Shunaqami? Mening ishim emasmi? Yana yaxshi, – dedi Kassi. – Shunga sevinamanki, endi cherdak tagida yotishdan qutuldim.

Kassining nayrangi juda sodda edi. U kechasi shamol bo'lshini bilib, qosh qorayish oldidan paramonga ko'tarildi-da, deraza bilan eshikni ochib qo'ydi. Shuning uchun shamol kirib, shamni o'chirdi.

U mana shunday nayranglar bilan Legrini ahmoq qila boshladi, natijada Legri shu darajaga borib yetdiki, birov unga: „Cherdakka chiqasanmi yoki boshingni sherning og'-ziga tiqasanmi?“ desa, u boshini albatta sherning og'ziga tiqishga rozi bo'lardi. Kechalari uyda hamma uxlaganda, Kassi paramonga sekin-sekin oziq-ovqat tashidi, shuning soyasida u yerda oz-moz ovqat g'amlab qo'ydi, keyin u yerga o'zining va Emmelinaning kiyimlarini olib chiqdi. Nihoyat, hamma narsa tayyor bo'ldi va ular o'z rejalarini amalga oshirishga kirishish uchun qulay paytnigina kuta boshladilar.

Keyingi vaqtida Kassi Legriga, ayniqsa, xushmuoma-la bo'lib qoldi. U bir marta Legrining kayfi chog' bo'lgan vaqtdan foydalanib, Qizil daryo bo'yidagi qo'shni shaharchaga birga olib borishga ko'ndirdi. Bu shaharchaga borarkan, u, atrofga diqqat bilan qarab, yo'llarning har bir muyulishini yodiga olib, bu yo'llarni piyoda bosish uchun kerak bo'lgan vaqtni hisobladi.

Qaytgach u, endi rejani bajarishga kirishish mumkin, degan qarorga keldi.

Kun kech bo'lib borardi. Legri uyda yo'q – u qo'shni fermaga ketgandi. Kassi ancha kundan buyon unga juda shirinso'z va uning qosh-qovog'iga qarab ish tutardi; Legri fermaga ketayotganda Kassi uni juda yaxshi kuzatib qo'ydi. Endi Kassining ortidan Emmelinaning xonasiga kiraylik. Bu yerda ular o'z buyumlarini ikki tugunchaga solib bog'layaptilar.

– Bizga ortiq hech narsa kerakmas, – dedi Kassi. – Shlapachangni kiy. Vaqt bo'ldi!

– Hali yorug', – dedi Emmelina. – Bizni ko'rib qolishlari mumkin.

– Ko'rishaversin, – dedi Kassi xotirjamlik bilan.

– Ularga bizning orqamizdan „qidir-qidir“ qilish imkoniyatini berish kerakligini bilmaysanmi? Mening planim mana shunday: biz orqa eshikdan chiqib, baraklarning yonidan qo chamiz. Sembo bilan Kvimbo bizni albatta ko'radilar va ovni boshlaydilar. Orqamizdan quvadilar, biz esa botqoqlikka qarab qo chamiz. Undan keyin ular odam chaqira boshlaydilar, itlarni qo'yib yuboradilar, o'zaro janjallasha boshlaydilar. Biz esa vaqtdan foydalanib, ariqqa tushamiz-da, suvning ichi bilan uyga qaytamiz; itlar izimizni yo'qotadilar, chunki it suvda hid olmaydi. Hamma bizning orqamizdan quvib ketadi va uy bo'shab qoladi. Biz dahlizning orqa eshididan kirib, cherdakka chiqamiz. U yerda men katta yashikning ichiga juda soz joy tayyorlab qo'yanman. Paramonda ancha vaqt o'tirishga to'g'ri kelar, chunki Legri bizni topish uchun yer va osmonni ag'dar-to'ntar qiladi. U, qo'shni plantatsiyalarda gi hamma nazoratchilarni chaqirib, qidir-qidir qiladi. Ular botqoqlikning har bir qarichigacha titib chiqishadi, axir, bilasan-ku, u: „Menikidan hali hech kim qochib ketolganmas“, deb maqtanishni juda yaxshi ko'radi. Mayli, agar vaqt bo'lsa ov qilaversin.

– Rejangiz juda soz, Kassi! – dedi Emmelina. – Sizdan boshqa hech kim qochish yo'llarini har tomondan bunday yaxshi o'ylab qo'ymaydi.

Kassining ko'zlarida na zavqlanish va na shodlik bor edi – unda yolg'iz qat'iy qarordan boshqa hech narsa ko'-rinmasdi.

– Yur! – dedi u Emmelinaning qo'lidan ushlab.

Qochoqlar uydan ohista chiqdilar-da, quyilib borayotgan oqshom ko'lankalari orasidan baraklar bo'ylab yugurdilar. G'arbda kumushdek oppoq yarim oy, qorong'ilik boshlanishini to'xtatib, nur sochardi. Ular, plantatsiyani o'rab olgan botqoqliklarga yetayozgan edilarki, birdan „to'xta!“ degan ovozni eshitdilar. Ular orqasidan Kvimbemas, balki Legrining o'zi chopib borardi; u, dahshat va g'azab bilan yugurardi. Uning ovozini eshitib, Emmelina sarosimalandi. U Kassining qo'lini qo'yib yuborib:

– Hozir behush bo'lib yiqilaman! – deb pichirladi.

– Agar behush bo'lib yiqilsang, o'ldiraman seni! – dedi Kassi va yonidan kichkina yarqiroq xanjarni olib qizning ko'zi oldida, po'pisa qilgan yo'sinda silkib qo'ydi.

Po'pisa ta'sir qildi. Emmelina Kassining orqasidan botqoqzorga kirib ketdi. Botqoqzor esa shunday qalin va qorong'i ediki, Legri ularni bu yerdan yordamchisiz topishga umid ham qilolmasdi.

– Xo'p, – dedi u, dahshatliliklarni. – Ular o'zlarini o'zlarini tuzoqqa ilintirdi. Mayli, u yerda pitcha o'tirsinlar. Hayal o'tmay hisob-kitoblarni to'g'rileyman.

U baraklarga qarab jo'nadi; u yerda ishdan endigina qaytgan erkak va ayollar to'planishib turardi.

– Hoy, Sembo! – deb baqirdi u, – Kvimbo! Hoy, negrlar! Ikkita xotin botqoqlikka qochdi. Qaysi negr o'shalarni ushlasa, unga besh dollar beraman. Itlarni yechib yuboringlar! Yo'lbarsni, Furyani va boshqa hamma itlarni qo'yvoringlar!

Qochish haqidagi xabart negrlarga juda qattiq ta'sir qildi. Ba'zi erkaklar oldinga yugurib chiqib, o'z xizmatlarini taklif qildilar. Ularning ba'zi birlari va'da qilinmish mukofotga uchgan, ba'zilari esa xo'jayinga qullarcha laganbardorlik qilmoqchi edi. Birovlar yog'li qarag'ay tayoqlarini yondirib, ularni mash'al kabi havoda aylantirar, boshqalari dahshatli hurishi hamma yoqni bosayotgan itlarni yechardi.

– Xo'jayin, ularni mabodo tutolmasak, otsak ham maylimi? – deb so'radi Sembo, Legridan miltiq olarkan.

– Xohlasang Kassini ot, u o'zining eski og'aynisi shaytonning oldiga ketaversin – vaqtি bo'lган. Yoshiga tegma, – dedi Legri. – Qani, yigitlar, ildamroq bo'linglar, ivrisimanglar. Ularni kim tutsa besh dollar oladi. Qolganlarga bir stakandan aroq!

Yorqin yonayotgan mash'allar nurida bu kishilar galasi itlar galasi bilan birga hurib, baqirishib, qiyqirishib botqoqlikka yugurishib ketdi. Qolgan negrlar – plantatsiyadagilarning hammasi – biroz keyinroqda, bu galaning orqasidan jo'nadi. Shuning uchun Kassi bilan Emmelina uyga qaytganlarida uy mutlaqo bo'sh edi. Ta'qibchilarning qichqiriqlari hamma joydan eshitilib turardi. Kassi va Emmelina, mehmonxona derazasidan qarab, botqoqlik chetida miltillayotgan mash'allarni ko'rdilar.

– Qidir-qidir boshlandi! – dedi Emmelina. – Uni qara, chiroqlar o'ynay boshladи! Jim! Ana itlar! Agar u yerda qolsak, holimiz nima bo'lardi. Yashirinish kerak. Tezroq!

– Shoshilish kerakmas, – dedi Kassi xotirjamlik bilan. – Ular ov bilan ovora va bu tomosha butun kechasiga yetadi. Zarur bo'lган holda tepaga chiga qolamiz. Ungacha, – deb davom etdi u, Legri shoshilib polga tushirib qoldirgan kallitni nimchasining cho'ntagidan olib, – ungacha men yo'il xarajati uchun pul olay.

U yozuv stolining tortmasini olib, bir dasta pul oldi va sanadi.

– Kerakmas! – dedi Emmelina. – Qo‘ying!

– Qo‘ymayman, – dedi Kassi. – Botqoqlarda ochlikdan o‘lishni istaysanmi? Bu pul bilan ozod shtatlarga yetib olamiz. Pul bilan har nima qilish mumkin, yaxshi qiz.

Shunday deb, u pulni qo‘yniga soldi.

– Axir bu o‘g‘irlik emasmi? – achinib pichirladi Emmelina.

– O‘g‘irlik deysanmi?! – deb xitob qildi Kassi va ijirg‘anib kului. – Bizning tanimiz va jonimizni o‘g‘irlagan odamdan o‘g‘irlash – o‘g‘irlik bo‘lmaydi. Bu dollarning har biri ochlikdan o‘layotgan, horigan, xo‘jayinlari foyda olsin uchun halok bo‘lib ketayotgan baxtsiz odamlardan o‘g‘irlab olingan. Biz emas, u o‘g‘irlaydi!.. Xayr, cherdakka chiqadigan vaqt bo‘ldi. U yerga men bir talay sham bilan bir nechta kitob chiqarib qo‘yanman, diqqat bo‘lmaysan. Ishonamanki, ular bizni izlab paramonga chiqishga jur‘at qilmasalar kerak. Lekin, agar u yerga chiqib qolsalar, mening o‘zim ajinaga aylanaman.

Cherdakda Emmelina bir vaqt mebel tashish uchun xizmat qilgan katta yashikni ko‘rdi, bu yashikning ochiq tomoni devorga, to‘g‘riroq aytganda tomning yon tomoniga aylantirib qo‘yilgandi. Kassi kichkina lampani yoqdi va ular tomoning yon chetidan o‘rmalab yashikka kirdilar. Yashikda ikkita kichkina matras va bir necha yostiq bor edi, tepalatib sham va oziq-ovqat bilan to‘ldirilgan sandiqcha ham shu yerda edi. Ularning safariga kerakli hamma kiyim-kechakni Kassi ikkita kichkina tugunchaga joylagandi.

– Shu yerda yashaymiz, – dedi Kassi, lampani yashik devoriga qoqib qo‘yilgan mixga ilarkan. – Ma’qulmi senga bu yer?

– Ular bizni cherdakka chiqib axtarmasliklariga ishonasizmi?

– Koshki edi, Legrining cherdakka chiqishini maza qilib tomosha qilardim-da! – dedi Cassi. – Yo‘q, bu yerga u chiqmaydi. Oltin sochib qo‘yganda ham chiqmaydi. Negrlar esa otlishga rozi bo‘ladilarki, ammo paramonga chiqmaydilar.

Andak ko‘ngli tinchigan Emmelina yostiqqa cho‘kdi.

– Cassi, nega meni „o‘ldiraman“ dedingiz? – deb so‘radi soddadillik bilan.

– Behush bo‘lib yiqilmasliging uchun, – deb javob berdi Cassi. – Agar behush bo‘lib yiqilganingda, seni muqarrar o‘ldirardim. Behush bo‘lib yiqila ko‘rma, Emmelina! Bizga behush bo‘lib yiqilish aslo to‘g‘ri kelmaydi. Agar o‘sanda yiqilishingga yo‘l qo‘ysam, hozir u ablahning panjasida bo‘larding.

Emmelina cho‘chib tushdi.

Ular anchagacha indashmadilar. Cassi fransuzcha kitob o‘qirdi, mojarolar vaqtida charchab qolgan Emmelina mud-ray boshladi. Allakimlarning qichqirib gapirishi, tuyoqlar ovozi, itlarning hurishi uni uyg‘otdi. U sapchib tushib, keyin sekingina qichqirib yubordi.

– Ovchilar qaytishdi, – dedi Cassi ohista. – Qo‘rqma. Mana bu teshikka qara. Ularning hammasi pastda ekanligini ko‘rmayapsanmi? Bugun endi Saymon ov qilmaydi. Otining iflosligini ko‘r, botqoqda juda ko‘p chopgan bo‘lsa kerak. Itlar ham charchashganidan cho‘zilib qolishyapti. Ey saxovatli to‘ram, hali ko‘p yugurasiz. Ilvasiningiz izlagan yerda emas.

– Jim! – dedi Emmelina. – Eshitib qolishsa nima bo‘ladi?

– Eshitishsa tumtaraqay qochishadi, – dedi Cassi. – Qo‘rqmasak ham bo‘laveradi. Qancha ko‘p shovqin qilsak, shuncha tezroq murodimizga yetamiz.

Uy faqat yarim kechada tindi. Legri o‘z nomardgar-chiligin la’natlab, uxlagini kirib ketdi. U: „Ertaga qochoqlarni albatta tutib olib, boplab jazosini beraman“, deb qasamyod qildi.

XL BOB

Jafokash

Kassi bilan Emmelinaning qochishi Legrini g‘oyat g‘azablantirdi va u butun g‘azabini himoyasiz Tomning boshiga yog‘dirdi – zotan bunday bo‘lishini kutish ham kerak edi.

Legri ayollarning qochganini qullarga shoshilib e’lon qilgan vaqtda Tomning ko‘zлari shodlikdan yashnadi. Legri buni sezdi. Tomning ovda qatnashmaganini ham bildi.

Legri avval Tomni majbur qilmoqchi bo‘ldi, lekin Tomning inson sha’niga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarga qatnashishdan naqadar qattiqlik bilan bosh tortishini tajribada ko‘rgani uchun, badbaxt negrni vaqt-soati kelguncha tinch qo‘yishga qaror qildi.

Omadi yurishmay, pushaymon va nomus bilan qaytgan Legri, uning o‘z quliga nisbatan va anchadan beri bosib kelinayotgan qahr-g‘azabi juda qattiq qo‘zg‘aldi. Bu odam huv sotib olingen kunidan boshlab unga zo‘r berib, qat‘iy, og‘ishmay, nafrat bilan qaramadimi? Bu odamda Legrini jahannam alangasi kabi kuydirgan sokin kuch bo‘limgan-midi axir?

– Uni yomon ko‘raman! – dedi Legri, kechasi karavotdan sapchib. – Juda yomon ko‘raman! Nahotki u mening mul-kim bo‘lmasa? Nahotki uni istaganimcha jazolash qo‘lim-dan kelmasa? Kim menga xalaqit berarkan, bilib qo‘yay!

Shunday deb, u mushtini tugdi.

Biroq Tom juda qimmatbaho xizmatkor edi. Bu mulo-

haza Legrining nafratini zarracha kamaytirmasa ham, har holda uni birmuncha ilgarigi shashtidan tushurdi.

Ertalab u Tomga hech nima demadi. U qo'shni plan-tatorlarni miltiq va itlari bilan chaqirtirib kelib, botqoq-likni hamma tomondan o'rashga va uning har qarichini qoldirmay tintib chiqishga qaror berdi. Agar qochoqlar tutilsa – yaxshi, agar tutilmasa – Tom javob beradi. Shun-day fikrlar ekan, Legri tomirlaridagi qonning qaynayot-ganini sezib, tishlarini g'ijirlatdi. – „Yo uning kajbasligini yo'q qilib tashlayman, yoki...“

Ichkaridan chiqqan ovoz mabodo Tomning kajbasligini yo'qtib bo'lmasa, uni nima qilish kerakligi haqida razilona bir maslahat berdi.

Deydilarki, xo'jayining manfaatlari – qulning eng yax-shi himoyachisi emish. Bunda shuni nazarda tutadilarki, qahr-g'azabi avj olgan paytlarda hamma manfaatlarini esdan chiqarib, faqat „o'z deganim bo'lsin“, deydigan ki-shilar ham bo'ladi.

– Juda soz, – dedi Kassi yoriqdan qarab, – bugun yana ov bo'ladi.

Bir necha otliqlar uy oldida to'xtadilar. Boshqa plantatsiyalardan kelgan bir necha it galalari hurib, vangillab, qopishib, o'zlarini jangga tashlamoqchi bo'lardilar va negrlar ularni zo'rg'a bosib turishardi.

Otliqlarning ikkitasi qo'shni plantatsiyalardan kelgan nazoratchilar edi, qolganlari esa Legrining qovoqxona ul-fatlari bo'lib, Legri ularni yaqindagi shaharchadan chaqir-gandi. Bunday qabih gazandalar to'dasini tasavvur etish qiyin. Legri oqlarga ham va atrof plantatsiyalardan yordam uchun kelgan negrlarga ham aroqni mo'l-mo'l quyib berardi. Quldarlar orasida odam ovini – „qidir-qidir“ga qat-nashadigan negrlar uchun bir bayramga aylantirish rasm bo'lib qolgandi.

Kassi qulog‘ini yoriqqa qo‘yib tinglardi. Ertalabki shamol to‘g‘ri uyga qarab esgani tufayli, u hovlida aytilgan so‘zlarining ko‘pini eshitib oldi. Kassi ularning joyni qanday o‘zaro taqsim etganliklarini, itlarining qonxo‘rligini ta’riflab maqtanishlarini, qanday holatda otish kerakligini oldindan tushuntirishlarini va qochoqlar qo‘llariga tushgach, ularni nima qilar ekanliklari haqida qattiq ovoz bilan aytilgan so‘zлarni eshitarkan, qoracha yuzida g‘amgin tabassum paydo bo‘ldi.

Nihoyat, Kassi orqaga tisarildi-da, qulochini yozib, qattiq hayajonlangan holda Emmelinaga dedi:

– Agar sen bo‘lmasang edi, o‘zim ularning oldiga chiqardim-u, meni otib tashlaydigan odamga rahmatlar aytardim. Menga ozodlikning nima keragi bor? Ozodlik menga bolalarimni topib yoki yoshligimni qaytarib beradimi!

Qayg‘u-hasrat bilan aytilgan bu so‘zlar bolalarcha soddadil Emmelinani qo‘rqtib yubordi. U qattiq hayajonlanib, bunga javob bermay, sekin Kassining qo‘lini ushladi.

– Kerakmas! – dedi Kassi uni o‘zidan itarib tashlashga urinib. – Sen o‘zingni sevdirishga majbur qilyapsan. Men esa endi hech kimni sevmoqchi emasman.

– Bechora Kassi! – dedi Emmelina. – Bu fikrlaringizni tashlang. Ozod bo‘lganingizdan keyin, balki, qizingizni toparsiz. Agar topolmasangiz, sizga men qiz bo‘laman. Sho‘rlik onamni qaytib ko‘rishga endi umid qilmayman. Meni sevmasangiz ham sizni sevaman!

Bu yuvosh bolaning shirinso‘zligi Kassini yengdi. U Emmelinaning yoniga o‘tirib, bo‘yndan quchoqladi-da, uning yumshoq jigar rang sochlarini silay boshladi. Emmelina uning yarqirab yosh oqib turgan ko‘zining go‘zalligiga qarab hayratda qoldi.

– Oh, Emma! – dedi Kassi. – Bolalarimni naqadar so'ginganimni bilsang edi! Ularni shunday ko'rgim keladi! – deb u ko'kragiga urdi. – Agar bu qalbning naqadar puchligini bilsang edi!

Zo'r berib uzoq ov qildilar, ammo bundan hech natija chiqmadi. Legri uy oldiga kelib otdan tushdi. Kassi char-chagan va ruhi tushgan Legriga g'amgin tabassum bilan qarardi.

– Hoy Kvimbo! – deb baqirdi Legri, mehmonxonadagi divanga cho'zilib. – Tomni olib kel, tez bo'l! Ularining qayerdaligini bu qari dog'uli biladi. Uning qora po'stagidan bitta ham gap qoldirmay sug'urib olaman.

Bir-birlarini yomon ko'rgan Sembo bilan Kvimbo Tomni jon-jahdlari bilan yomon ko'rardilar. Tom kelgan vaqtida birinchi kunlardayoq Legri: „Tomni bosh nazoratchi qilmochchiman“, deb ularga aytgandi. Ularining Tomni yomon ko'rib qolishlariga mana shu sabab bo'lgandi: Tom xo'jayinning qahri ostiga tushib qolganini sezganlaridan keyin esa uni yanada qattiqroq yomon ko'rdilar, chunki ular lagambardor, xushomadchi va ko'p yillardan buyon malaylik qilib aynib ketgandilar.

Kvimbo Legrining buyrug'ini jon-jon deb bajargani ketdi.

Tom nima uchun yo'qlatilganini darhol tushundi. U, qochoqlarning hamma rejalarini va hozir qayerda ekanliklарини bilardi. U yuzma-yuz bo'ladigan odamning kimligini va uning behad zolimligini ham bilardi. Lekin u o'zining o'limiga rozi bo'lsa bo'ladiki, ammo himoyasiz ayollarning qayerdaligini aytmasligini ham bilardi.

U savatini yerga qo'ydi va Kvimbo g'azab bilan yoqasidan ushlaganda ham aslo qarshilik ko'rsatmadı.

– Endi toza kaltakni yeysan-a! – derdi ulkan Kvimbo, uni oldiga solib turtarkan. – Bu safar omon qutulmaysan!

Yo‘q! Qochoq negrlarni yashirishning foydasini ko‘rasan!
Kaltakni yeysan-a!

Lekin Tom uning so‘ziga qulq solmasdi. U o‘zida qudratli ruhiy kuch his etardi. Daraxtlar, nihollar va qullarning bostirmalari miltillardi. Unga shunchalik musibat keltirgan bu xafaqon joy uning yonidan tez o‘tib boradi. – Tomga go‘yo tez yurib ketayotgan vagon derazasidan bu joyga qarayotgandek tuyulardi. U o‘limining yaqinligini sezdi.

– Salom, Tom! – bir-biriga bosib olgan tishlari orasidan ovoz chiqarib baqirdi Legri qahr-g‘azab bilan va uning oldiga yugurib borib yoqasidan ushladi. – Shu bugunning o‘zida joningni olishga qaror qilganimni bilasanmi?

– Shunday bo‘lishini sezyapman, xo‘jayin, – dedi Tom ohista.

– Seni... men... o‘ldirishga... qaror qildim, – deb takrorladi Legri, nihoyatda dahshatli xotirjamlik bilan. – Agar sen bu xotinlar to‘g‘risida bilganlaringni batamom aytmasang, hozir o‘ldiraman.

Tom indamasdi.

– Eshitdingmi? – deb quturgan arslondek bo‘kirdi Legri. – Gapir!

– Gapiradigan so‘zim yo‘q, xo‘jayin, – dedi Tom, ohista va qat’iy.

– „Ularning qayerdaligini bilmayman“, deb aytishga jur’at ham qilasanmi? – dedi Legri.

Tom indamadi.

– Gapir! – deb o‘shqirdi Legri, uning yoqasidan siqib, g‘azab bilan siltarkan. – Hech nima bilmaysanmi?

– Bilaman, xo‘jayin. Lekin ayta olmayman... O‘lishga roziman.

Legri nafas ololmay qoldi. Qahrini qiyinchilik bilan bosarkan, Tomning qo‘lidan ushlab oldiga tortdi-da, yuzini-yuziga yaqinlashtirib, dahshatli ovoz bilan dedi:

– Hoy, Tom! Agar seni bir marta omon qo'yvorgan ekanman, bugun ham omon qo'yvoradi, deb o'ylaysanmi? Yo'q, endi men qaror qilib qo'yanman hatto ziyonlarni ham hisoblaganman. Sen mudom mening ziddimga yurgansan. Ammo seni yo qayirib olaman, yo o'ldiraman. Menga bo'ysunmas ekansan, qoningni tomchi-batomchi oqizaman.

Shunday deb u og'zi ko'piklangan holda o'z qulini yerga yiqitdi...

– Joni chiqay deb qoldi, xo'jayin, – dedi Kvimbo, Tomni piypalarkan, uning mute'ligidan beixtiyor ta'sirlanib.

– O'z ishingni qilaver! – deb baqirdi Legri. – To iqror bo'Imaguncha qonini oqizaman.

Tom ko'zini ochib xo'jayinga qaradi.

– Bechora odam! – dedi u. – Qo'lingdan boshqa hech narsa kelmaydi...

Shunday deb hushidan ketdi.

– Haqiqatan, o'lib qolganga o'xshaydi, – dedi Legri uning yoniga kelib, yuziga termulib qararkan. – Tamom bo'libdi. Mayli, endi og'zini ochavermaydi-ku, shu ham foyda.

Lekin Tom hali o'Imagandi.

Tomning ajoyib mardligi uni piypalagan ikki negrning yuragini larzaga soldi va Legri ketgach, ular uni hushiga keltira boshladilar.

– Attang, juda yomon ish qildik-da! – dedi Sembo. – Ishonamanki, buning uchun narigi dunyoda biz emas, xo'jayin javob beradi.

Ular Tomning yaralarini yuvdilar, taxtadan unga dag'al yotoq joy qilib, avaylab yotqizib qo'ydilar. Ulardan biri yugurib uyga kirdi va Legridan „o'zimga“ deb ozgina aroq so'rab oldi. Qaytib kelib, aroqni Tomning og'ziga quydi.

– Hoy, Tom, biz seni qiy nab o'ldirayozdik!

– Sizlarni chin yuragimdan afv etaman! – dedi Tom, eshitilar-eshitilmash.

XLI BOB

Yosh xo'jayin

Oradan ikki kun o'tgach, yengil ekipajda o'tirgan bir yigit, xitoy daraxtlari o'tqazilgan xiyobon ichidan ekipajini tezlatib o'tdi-da, Legrining uyi oldida to'xtadi. U otining orqasiga tizginni shoshib tashlab, ekipajdan irg'ib tushdi va: „Xo'jayinni ko'rish mumkinmi?“ deb so'radi.

U yigit Jorj Shelbi edi.

Ofeliyaning Shelbi xonimga yozgan xati tasodifan bir pochta bo'limida ikki oycha qolib ketgan. Tabiiyki, xat o'z egasiga yetguncha Tomni sotib yuborganlar va uni Qizil daryo botqoqliklariga olib ketganlar.

Shelbi xonim xatni juda hayajonlanib o'qidi, lekin o'sha onda u biror tadbir ko'rishga ojiz edi, chunki uning eri qat-tiq isitma bo'lib, talvasada yotar, Shelbi xonim kasal erining boshidan qimirlayolmasdi. Bu vaqt ichida katta yigit bo'lib qolgan Jorj Shelbi otasining ro'zg'or ishlarini yurgizishda onasiga zo'r berib yordamlashardi. Xayriyatki, Ofeliya Sen-Klerlarning ishini o'z zimmasiga olgan advokatning nomini o'z xatida yozib yuborgandi. Shuning uchun Shelbi xonim bu advokatga xat yozib, Tomning taqdiri qanday bo'lganini xabar qilishni so'radi. Bir necha kundan so'ng mister Shelbi o'ldi va ona bilan o'g'ilning boshiga ko'pgina tashvishlar tushdi.

Mister Shelbi o'z xotininining qobiliyatiga ishonch bildirib, qo'rg'onchadagi ishlar yuzasidan uni yagona boshqaruvchi qilib tayinlagandi. Bu esa uning ustiga ko'pgina majburiyatlarni yuklardi.

Shelbi xonim eridan meros bo'lib qolgan mushkul ishlar chigalini o'ziga xos g'ayrat bilan yoza boshladi. U Jorj bilan birga hamma vaqtini hisob-kitoblarni tekshirishga, mulk sotib qarzlarni to'lashga sarfladi: chunki u birinchi galda hamma qarzlarni uzib, keyin qoladigan mol-mulkni ravshan aniqlab olishni istardi. Xuddi shu vaqtda advokatdan xat keldi. Advokat o'z xatida Tomning auksionda sotib yuborilganligidan boshqa, uning haqida hech nima bilmasligini yozgandi.

Bu javob na Jorjni qanoatlantirdi va na Shelbi xonimni. Olti oy o'tgach, Jorj onasining ishi bilan Janubga borarkan, Yangi Orleanga ham o'tib, Tomni topishga va uni qaytarib sotib olishga qaror qildi.

Bir necha oy muvaffaqiyatsiz surishtiruvlardan keyin Jorj Yangi Orleanda bir odamni uchratdi: bu odam unga zarur bo'lган hamma narsani aytib berdi. Ana shundan keyin yosh qahramonimiz o'zining eski do'stini topib, uni qutqarib olish uchun cho'ntagiga pul solib, Qizil daryoga jo'nadi.

Legri mehmonni ancha dag'al qabul qildi.

– Mening bilishimcha, – dedi yigit, – siz Yangi Orlean-da Tom degan negrni sotib olgansiz. Bir vaqtlar u otamning qo'rg'onchasida yashardi, men o'shani sizdan qaytarib sotib olmoqchi edim...

Legri qovog'ini soldi-da, sabrsizlik bilan uning so'zini bo'ldi:

– Padarla'natni bu Tomni men haqiqatan sotib olganman! U fitnachi va tinib o'lmas ko'ppak ekan! Mening negralarimni avrab qochirib yubordi. Har biri sakkiz yuz-bir ming dollar turadigan ikkita xotinni olib ketdi. Undan „Xotinlar qayerda?“ deb so'rasam, „Bilaman-u, aytmayman“, deb javob berdi. Hech kimdan hech qachon yemagan kaltaklarini yog'dirsam ham aytmadi. Hozir u o'lim to'shagida yotibdi, lekin bu niyatiga yetisha olmasa kerak.

– Qani u? – seskanib va shoshilib so‘radi Jorj. – Uning o‘zini ko‘rayin!

Yigitning yuzi qizardi, ko‘zida alanga porladi, lekin o‘zini bosib, ortiq hech nima demadi.

– Hu u yerda, saroyda, – dedi Jorj otining yuganini ushlab turgan negr bola.

Legri bolani bir shapaloq urib, qattiq so‘kdi. Jorj esa hech nima demasdan, orqasiga qayrilib, saroyga qarab ketdi.

O‘sha falokatli kechadan boshlab Tom ikki kundan buyon saroyda yotardi. U tanasida og‘riq his etmasdi, chunki, vahshiyona piyptalanishdan so‘ng uning sezgisi qotib qolgandi. U deyarli hamma vaqt o‘zini unutish holatida edi.

Baxtsiz qullar, qisqa vaqtli istirohat chog‘idan voz kechib, tun qorong‘isida uning oldiga yashirinib kirishar va hanuzgacha yupatib kelgan kishilarini endi o‘zlar yupati-shardi. Ular unga sovuq suvdan boshqa hech narsa olib kelolmasdilar.

Ularning ko‘zyoshlari Tomning pok, lekin endi hech nima sezmayotgan yuziga tomardi.

Yashirin joyidan goh-goh chiqib turadigan Kassi Tomning uni va Emmelinani qutqarish uchun o‘z hayotini qurbon qilganligini tez orada bildi va bundan bir kun ilgari xafv-xatarni pisand qilmay, Tomni ko‘rgani keldi. U Kas-siga zo‘rg‘a pichirlab bir necha og‘iz so‘z aytdi: bu so‘zlar uning dilini qoplاب olgan muzni eritdi va behad umidsizlangan ma‘yus ayol uning ustida yig‘lab yubordi.

Jorj saroyga kirarkan, boshi aylanib, yuragi orziqayotganini sezdi.

– Bu nima gap?.. Bu nima gap? – derdi u, Tomning oldiga cho‘kkalab. – Tom tog‘a, bechora qadrdon do‘stim!

Uning ovozi o‘layotgan Tomning qulog‘iga yetdi, u bo-shini ohista qimirlatib, kulimsiradi.

Yigit ko'zidan mard yurakka yarashadigan yoshlari oqa boshladi.

– Hoy, Tom tog'ajonim! Ko'zingni och!.. Men bilan so'zlash! Menga qarasang-chi! Men mister Jorjman, sening kichkina mister Jorjing bo'laman! Meni taniyapsanmi?

– Mister Jorj! – dedi Tom zaif ovoz bilan va ko'zini ochdi. – Mister Jorj!

U haliyam hech nima tushunmayotgandek ko'rindi.

Lekin u sekin-sekin hushiga kela boshladi. Murda ko'zlarda jon va nur paydo bo'ldi, yuzi batamom yashnadi. U qadoq qo'llarini qovushtirdi va yuzidan yosh oqa boshladi.

– Orzumga yetishdim... Ular meni unutmagan ekanlar! O'zimni endi yaxshi his etyapman. Endi xotirjam o'laman. Xudoga shukr!

– Sen o'lmaysan! O'lmasliging kerak, yo'q! Men seni qaytarib sotib olib, uyga olib ketgani keldim, – dedi Jorj hayajon va jo'shqinlik bilan.

– E, mister Jorj, vaqt o'tgandan keyin keldingiz.

– O'ima! Sen o'lsang men ham o'laman! Sening qancha azob chekkaningni o'ylasam, yuragim pora-pora bo'ladi... Shunaqa eski saroyda yotibsan... Bechora, bechora!

– Meni bechora demang! – dedi Tom tantanali suratda. – Men bechora edim, ammo hozir bunday emas. Men eshik yonidaman, farog'atga boraman! Hoy, mister Jorj, osmon yaqin! Men yengdim.

Jorj unga diqqat bilan tikilardi. Atrof jim edi.

Tom uning qo'lini siqib, dedi:

– Meni qanday ahvolda uchratganiningizni bechora Xloyaga ayta ko'rmang. Uning uchun juda ham yomon bo'ladi... Oh, bechora bolalarim... kichkinam! Ularni o'ylaganimda bag'rim yonadi? Mendan xo'jayinga, dilbar va saxovatli bekaga, hammaga... hammaga salom aiting.

Ularning hammasini nechog‘lik yaxshi ko‘rishimni siz bil-maysiz!

Saroy eshigi yoniga Legri keldi. U yasama beparvolik bilan eshikdan qarab, orqasini o‘girdi.

– Qari shayton! – deb qichqirdi qahr-g‘azab bilan to‘lgan Jorj.

Yosh xo‘jayin bilan uchrashuv shodligi natijasida paydo bo‘lgan tetiklik yo‘qoldi. Tom bo‘sashdi, ko‘zлari yumildi, yuzi tinch va tantanali qiyofa oldi.

U xirillab og‘ir nafas olardi, uning keng ko‘kragi og‘ir-og‘ir ko‘tarilib va tushib turardi.

Jorj unga chuqur ehtirom bilan qarab turdi. O‘lganidan keyin uning ko‘zini Jorj o‘zi yumdi.

Orqada xo‘mrayib Legri turardi. Jorj qayrilib uni ko‘rdi.

– Siz undan olishingiz mumkin bo‘lgan narsaning hammasini olibsiz, – dedi Jorj, murdani ko‘rsatib. – Uning jasadi uchun qancha olishni istaysiz? Uni men izzat-ikrom bilan ko‘mmoqchiman.

– Men o‘lik negr bilan savdo qilmayman, – xo‘mrayib javob berdi Legri. – Xohlagan yeringizga ko‘mavering.

– Hoy yigitlar! – deb buyruq bergansimon qichqirdi Jorj murdaga qarab turgan uchta negrga. – Qani bu yoqqa kelib, yordamlashing, buni aravamga olib boraylik. Menga bitta kurak ham olib keling.

Negrlardan biri kurakka yugurdi. Qolgan ikkitasi Jorjga yordamlashib, Tomning jasadini aravaga olib borishdi.

Jorj Legriga bir og‘iz so‘z demadi, hatto unga qaramadi, lekin Legri ham Jorjning buyruqlariga aralashmadni, faqat yasama bamaylixotirlik bilan hushtak chalardi.

Jorj arava kengroq bo‘lsin uchun undan o‘tirg‘ichni oldi, tagiga o‘z plashchini yozib, Tomning jasadini ohista qo‘ydi. Keyin o‘girilib Legriga qaradi va zo‘rg‘a o‘zini bosib, dedi:

– Sizning ablahlarcha odam o'ldirishingiz haqida qanday fikrda ekanligimni hali o'zingizga aytganim yo'q. Hozir vaqt emas va bu yer gaplashadigan joy ham emas. Lekin, ser, bu gunohsiz to'kilgan qon uchun odil sud qasos oladi. Yo'l ustidagi birinchi shahardayoq sizning jinoyatingizni hukumat idoralariga aytaman.

– Aytavering, – dedi Legri, nafrat bilan barmoqlarini shaqillatib. – Ko'ray-chi, qo'lingizdan nima kelarkan. Sizning da'vongizni tasdiqlaydigan guvohlaringiz bormi?.. Aytavering!

Legrining so'zi to'g'rilingini Jorj darhol tushundi. Bu atrofda birorta odam yo'q edi. Janubning sudyalari esa negrlarning guvohliklarini e'tiborga olmasdi.

– O'lik negr uchun shuncha shovqin ko'tarish – arzimaydigan ish-da! – dedi Legri.

Bu so'zlar Jorjga bochkasidagi miltiq dorisiga tushgan uchqun qabi ta'sir qildi. Ketukkilik yigit o'zini tutib turolmadi. U Legrining yuziga aylantirib bir musht soldiki, Legri yerga ag'darilib tushdi, g'azabdan cho'g' bo'lib ketgan Jorj esa ajdarni yenggan bahodir kabi uning tepasida turardi.

Ba'zi odamlarga kaltak naf qiladi: ular o'zlarini yaxshilab urib, loyga yiqitgan kishiga darhol hurmat bilan qaray boshlaydilar. Legri ham mana shunday odamlardan edi. U o'midan turib, kiyimining changini qoqdi-da, uzoqlashib borayotgan aravaning orqasidan oshkora hurmat bilan qarab turdi. U, ekipaj ko'zdan g'oyib bo'lguncha hatto og'zini ham ochmadi.

Plantatsiya chegarasidan o'tgach, Jorj, bir necha darraxt ko'karib turgan quruq qum tepalikni ko'rdi. Shu yerda negrlar Tom uchun qabr qazishdi.

– Plashingiz nima bo'ladi, xo'jayin? – deb so'rashdi negrlar, qabr qazilgach.

– Qabrga qo‘yinglar. Senga boshqa hech nima berolmayman, Tom, hech bo‘lmasa plashimni ol.

Tomni qabrga tushirdilar. Negrlar ovoz chiqarmay, uning ustiga tuproq tashladilar, yangi go‘r ustiga ajriq sep-dilar.

– Boring endi, yigitlar, – dedi Jorj, ularning har qaysisi-ga chorak dollardan berib.

Lekin ular ketmadilar.

– Yosh xo‘jayin bizni sotib olsalar... – dedi ularning biri.

– Unga sadoqat bilan xizmat qilardik, – dedi ikkinchisi.

– Bu yerda qiyin, xo‘jayin, – dedi birinchisi. – Bizni sotib olsangiz-chi, xo‘jayin!

– Yo‘q, sotib ololmayman! – qiynalib, ovozini zo‘rg‘a chiqarib pichirladi Jorj va qo‘li bilan: „Joylaringga borave-ringlar“ degandek imo qildi. – Yo‘q, mumkin emas.

Bechoralarning hushlari uchdi va indamay qaytib ketishdi.

Jorj, sho‘rlik do‘sining qabri oldida tiz cho‘kib:

– Qasamyod qilaman! – dedi u. – O‘z vatanimdan shar-mandali qullik tamg‘asini yuvib tashlash uchun shu ondan boshlab hayotimni bag‘ishlashga qasamyod qilaman!

XLII BOB

Bir arvoh haqida ishonchli hikoya

Legrining xizmatkorlari orasida arvoхlar haqida bu kунлардаги каби gap-so‘z hech qachon bo‘lgan emasdi, endi esa bunchalik bo‘lishiga ayrim sabablar bor edi.

Odamlar bir-birovlariga pichirlashib: „Har kun kecha-si birov cherdakdan pillapoyani bosib tushib uyga kira-di“, deb gapirishardi. Yuqori eshikni qulflatib qo‘yardilar,

ammo bu ham foyda bermasdi. Yoki arvoorda yana bir kalit bor, yoki u hamma arvochlarda azaldan bo'lgan imtiyozdan foydalaniib, kalit solinadigan teshikdan o'tardi. Arvoch kechasi bilan butun uy bo'yab shu qadar yengil sayr qilardiki, hammaning yuragini yorardi.

Ajinaning qiyofasi haqida bilarmanlarning fikrlari xilma-xil bo'lib chiqdi. Bunga sabab shu ediki, negrlarda va bizga ma'lum bo'lishicha, ko'pgina oqlarda shunday odat bor: „arvoch paydo bo'ldi“ deguncha ular boshlariga ko'rpa, yubka yoki boshqa biror narsani yopib olardilar. Ko'z yopiq bo'lgan mahalda kishi sezgisining o'tkirroq bo'lib qolishini kim bilmaydi! Hamma bostirmalarda ajinaning qiyofasini, boshdan oyoq, lekin turlicha qilib tasvirlardilar. Har kim „meniki rost“ deb qasam ichardi. Faqat bitta narsa, ya'ni hammaning bir og'izdan: „U kafanga o'ralgan“ deb gapirishi, haligi qarama-qarshi fikrlarni bir-biriga yaqinlashtirib qo'yardi. Negrlar qadimgi zamon tarixini o'qib o'rghanishmagan va Shekspirning ajina-arvochlар libosi haqida yozgan so'zlarini bilmasdilar. Shekspir esa uni shunday tasvirlagandi:

...Oq kafanga o'ralgan murda

Rim ko 'chalarida

Chiyillar, vahshiy uvullar...

Shunday qilib, bizga aniq ma'lumki, ajinalar sevadigan Legrining uyida oq kafanga o'ralgan novcha bir narsa yurar, hamma eshiklarni ochar, goh ko'rinar, goh g'oyib bo'lar va nihoyat o't o'chirish pillapoyasidan chiqib, falokatlari paramonga kirib ketardi. Erta bilan esa go'yo hech narsa bo'lmagandek, hamma eshik yana qulflangan bo'lardi.

Bu haqdagi ovozalar Legriga ham borib yetdi. Bu to'g'-ridagi xabarni yashirishga qancha zo'r berib harakat qilmasinlar, Legri shu qadar qattiqroq hayajonlanardi. U har qachongidan ko'proq ichkilikkа berila boshladi, ilgarigidan

ham qattiqroq baqirib so'kinardi, kechalari xunuk tushla ko'rardi. Tom o'lgan kun kechqurun u shaharga borib, im kon boricha kayf-safo qildi. Uyga charchab kech qaytdi eshikni qulfladi-da, kalitni olib uxlaganı yotdi.

Ha, shunday, u eshikni qulfladi, kursi bilan uning oldin to'sdi, karavotning bosh tomoniga jinchiroqni yoqdi, kara vot yoniga to'pponchalarini qo'ydi, derazalarning hamma darpardalarini va tiragichlarini tekshirdi, na arvoh va na shaytondan qo'rmasligi haqida qasamyod qilib, uplashgi urindi.

Ha, u uxbab qoldi, chunki horigan edi, qattiq uxladi. Lekir qattiq uyqu orasida ham allaqanday dahshatli bir narsaning yaqinlashayotganini yuragi yorilgudek bo'lib sezdi. Uning ustida allaqanday bir ko'lanka engashdi. Legri: „Onamning kafani ko'rinyapti“, deb o'yADI: holbuki u, Kassi ushlat turgan oq matoni ko'rardi. U, allaqanday dod-voy va ohfig'on sadolarini eshitardi; u hamon uxlayotganini bilar va qiynalib, uyg'onishga harakat qilardi. Shunday holatda u yarim uyquda yotdi. U xonada birovning yurganini, eshik ochiqligini sezar, ammo qo'lini ham, oyog'ini ham qimirla ta olmasdi. Nihoyat u kuchi boricha harakat qilib, to'satdar ikkinchi biqiniga aylandi: eshik haqiqatan ham ochiq edi; u birovning qo'lini ko'rdi: qo'l jinchiroqni o'chirdi.

Derazadan xira oy nuri tushardi. Allaqanday oq narsa xonada yurardi! Legri hatto arvoh kafanining shildiragar ovozini ham eshitdi. Bu oq narsa karavotning xuddi yonida to'xtadi. Legri sovuq bir qo'lning tekkanini sezdi va uch marta pichirlagan ovozni eshitdi:

— Yur! Yur! Yur!

Legri qo'rqqanidan terga pishib yotarkan, ajina g'oyit bo'ldi. U karavotdan irg'ib turib, eshikka yugurdi. Eshik qulf edi. Legri hushidan ketdi.

O'shandan buyon Legri ilgarigidan yanada ko'proc

icha boshladi. U har qanday o'lchov va ehtiyyotkorlikni yo'qotib, kuchining boricha, to'xtovsiz ichardi.

Ko'p vaqt o'tmay, tevarak-atrofda: „Legri qattiq betob, erta-indin o'larmish“, degan ovozalar tarqaldi. Unda oq isitma boshlandi. U shu qadar qo'rqinchli ediki, hech kim uni kelib ko'rgani botinolmasdi. U so'kinar, bo'kiran, ho'ngrar, hayqirar, arvoхlar haqida shunday dahshatli narsalarni aytardiki, uni eshitgan kishilarning tomirlarida qon yurmay qolardi. Kechalari uning o'lim to'shagi oldida dahshatli oq xotin paydo bo'lar va qattiq turib olib:

– Yur! Yur! Yur! – deb takrorlardi.

Legriga arvoх ko'ringan kechadan keyin erta bilan tashqari eshik allanechuk ochiq qolganligi va negrlarning ba'zi birovлari ikkita oq narsaning xiyobondan katta yo'lga o'tib borayotganini ko'rganliklari ma'lum bo'ldi.

Quyosh chiqmasdan oldinroq Kassi bilan Emmelina shahardan uzoqda bo'lмаган katta chakalakzorlarga kirdilar.

Kassi boshdan oyoq qop-qora kiyindi – u o'zini ispan kreolkasi qilib ko'rsatishga qaror qildi. Ispan kreolkalari esa faqat qora libos kiyadilar. To'r bilan bezangan qora shlapacha va qora vual uning yuzini mutlaqo yopib turardi. Emmelina o'zini atoqli kreolkaning xizmatchisi qilib ko'rsatishi kerak edi.

Kassi kichkinaligidan badavlat xonadonda o'sgani uchun hozir o'zini bemalol atoqli xonimlar singari tutar va so'zlashardi. Unda hali ham toza liboslardan saqlangan-di. Yaxshi libos va bir qancha qimmatbaho narsalarning yordami bilan u, o'zini kishi ko'ziga ko'ngildagidek qilib ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi.

Shaharga kiraverishda u yaxshi bir chamadon sotib oldi. Shu yerning o'zidayoq bir odamni yollab, unga chamadonni ko'tarib yurishni topshirdi. Shunday qilib, Kassi

chamadon ko'targan xizmatkor va quticha hamda savat-chalar ko'targan Emmelina hamrohligida bir xonim qiyofasiga kirib, kichkina musofirxonaga keldi.

Uning musofirxonada birinchi ko'rgan kishisi – Jorj Shelbi bo'lib, u ham paraxod kutardi.

Kassi Jorjni cherdak darchasidan ko'rgan, Degrini yuziga urganini xursand bo'lib tomosha qilgan, Tomning jasdini olib ketganini ham ko'rgandi. Uyda arvoh qiyofasida yurganda negrlarning Jorj haqida aytgan hamma so'zlarini eshitgandi va uning kimligini hamda Tomga qanday munosabatda bo'lganini bilardi. U Jorjga darhol ishonch his etdi va u bilan bir paraxodda ketishini bilib sevindi.

Kassining afti-angori, qaddi-qomati, xulqi va eng muhimi pulni ayamasdan sarf qilishi, unga nisbatan har qanday gumonsirash imkoniyatini yo'qotdi. Ko'p odamlarning nazarida, boylik insonning asosiy fazilati bo'lgani uchun katta-katta pullar sarf qilgan kishiga hech kim gumonsirab qaramaydi. Kassi, odamlarning bu xususiyatini allaqachonlar bilar va shuning uchun ehtiyyotdan pul g'amlab olgandi.

Kechqurun paraxod keldi. Jorj Shelbi kentukkiliklarga xos odob bilan Kassining qo'llitig'idan oldi va palubaga olib chiqib, uning uchun alohida kayuta topib berdi.

Kassi o'zini kasallikka soldi va qizil daryoda borarkalar, bir marta ham kayutadan chiqmadi. Oqsochi esa zo'r berib uni parvarish qilardi.

Missisipiga yetganda Jorj, kreolkaning ham daryoning yuqorisiga ketishini bildi va unga ko'chib o'tadigan para-xoddan alohida kayuta topib berishni va'da qildi, shu bilan birga g'oyat nazokat bilan uning betobligi uchun taassuf izhor etdi, yo'lda keta turib, uning har qanday xizmatini bajarishga tayyor ekanligini bildirdi.

Shunday qilib, ularning uchovlari ham eson-omon „Sin-

sinnati“ paraxodiga o‘tdilar va daryo yuqorisiga tez sur’at bilan suzib ketdilar.

Kassi tuzala boshladı. U palubaga chiqib, ko‘pchilik bilan birga ovqatlanadigan bo‘lib qoldi. Paraxoddagilar u haqida: „Bu xotin yoshligida go‘zal bo‘lgan ekan-da“, deb so‘zlay boshladilar.

Jorj uni ko‘rishi bilanoq, allaqanday bir kishiga o‘xshatib, g‘oyat taajjublangan, ammo o‘xshatgan odamining kim ekanligini sira yodiga keltira olmasdi. Shuning uchun u, razm solmasligini istamagani holda, doim undan ko‘zini uzmasdi. Kassi, stol yonida yoki o‘z kayutasining eshigi oldida o‘tirarkan, bu yigitning ko‘zi unga tikilganligini hamisha sezardi. U: „Qarayvermang, xijolat bo‘lyapman“ degandek qilib qovog‘ini solganda, Jorj tushunib, kamtarlik bilan undan o‘z nazarini olardi.

Kassi tashvishga tushib, „Bu yigit mendan shubhalanmayaptimikin?“ degan fikrgacha bordi. Axiyri u: „Uning oliyhimmatligiga ishonish xafvsizroq bo‘ladi“ degan qarorga keldi-da, o‘z tarixini unga hikoya qilib berdi.

Jorj, Legrining plantatsiyasini g‘azablanib eslarkan, undan qochgan har bir kishiga chin qalbidan xayrixohlik qilishga tayyor edi, shuning uchun uning yoshiga xos dov-yuraklik bilan oqibatda ro‘y berishi mumkin xafv-xatarni pisand qilmay, Kassi bilan Emmelinaga qo‘lidan kelgan yordamni ko‘rsatishga va’da berdi.

Kassining kayutasi yonidagi kayutani o‘n ikki yashar dilbar qizi bilan ketayotgan de-Tu xonim degan bir fransuz ayoli ishg‘ol qilgandi.

Bu xonim Jorjning kentukkilik ekanini eshitib, u bilan tanishishni istadi. Yo‘l yiroq – ikki hafta davom etar, tabiiyki, yo‘lovchilar zerikardilar, zerikishni de-Tuning quvnoq chiroyli qizchasi yozib borardi. De-Tuning Jorj bilan tani-shuvi mana shu qizchaning yordami bilan bo‘ldi.

Jorj ko'pincha de-Tu xonim kayutasining eshigi yonda, kresloda o'tirar va paluba chekkasida o'tirgan Kassi, ularning so'zlarini eshitardi.

De-Tu xonim undan Kentukki haqida so'rardи – xonimning aytishicha, u Kentukkida ancha yil yashagan ekan. Jorj bu xonimning bir vaqtlar ularning yeriga qo'shni bo'lib yashaganligini ham bilib oldi. U Jorjning tug'ilgan okrugida bo'lган ko'pgina voqealarni bilar va bu bilan Jorjni hayratda qoldirardi.

– Garris degan familiyali odamni bilmaysizmi? – deb so'radi de-Tu xonim, undan bir kuni. – Uning joyi sizlarga yaqin.

– Bilaman, shunday bir chol bor. Uning joyi otamning yeriga yaqin, – dedi Jorj, – lekin biz u bilan kam uchramoshamiz.

– U juda katta quldlardan shekilli? – dedi de-Tu xonim, o'z hayajonini yashirishga qo'lidan kelgancha urinib.

– Shunday, – dedi Jorj va unga taajjublanib qaradi.

– Balki, siz eshitgandirsiz... uning quli bor edi, bola... Jorj degan mulat?..

– Bo'lmasam-chi! Jorj Garris! Yaxshi bilaman uni. U onamning xodimasiga uylangandi, hozir Kanadaga qochib ketdi.

– Qochib ketdimi? – deb shoshilib so'radi de-Tu xonim. – Xudoga shukr!

Jorj unga taajjublanib va qiziqib qaradi, ammo hech nima demadi.

De-Tu xonim qo'lini yuziga yopdi-da, yig'lab yubordi.

– U mening ukam bo'ladi, – dedi u.

– Sizning ukangiz, xonim?! – deb xitob qildi Jorj chuqr hayratda qolib.

– Ha, – dedi-da, de-Tu xonim boshini g'urur bilan ko'

tardi va ko'zyoshlarini artdi. – Mister Shelbi, Jorj Garris mening ukam bo'ladi!

– Buni hech kutmagandim! Bu juda ajoyib ish-ku! – dedi Jorj va kreslosini orqaga surib, de-Tu xonimga boshdan oyoq qaray boshladi.

– U bolalik vaqtida, meni Janubga sotdilar, – dedi u. – Meni bir saxovatli va himmatli odam sotib oldi. U meni Vest-Indiyaga olib ketdi, u yerda ozod qilib menga uylandi. Yaqinda u o'ldi. Men hozir Kentukkiga boryapman. Ukanni topib, qaytarib sotib olmoqchi edim.

– U menga: „Emmeli degan opam bor, Janubga sotilib ketgan“ deb aytardi, – dedi Jorj.

– Rosti bilan-a? O'sha Emmeli men bo'laman, – dedi de-Tu xonim. – U hozir qanaqa, aytib bering...

– Ancha vaqt qul bo'lib yurishiga qaramay, juda yaxshi yigit bo'lib chiqqan-da, – dedi Jorj. – Ajoyib, aqli, oliyjanob yigit. Men uni yaxshi bilaman, chunki u bizning uydagi qizlardan biriga uylangan.

– Xotini qanday? – qiziqib so'radi de-Tu xonim.

– Mo'jiza! – dedi Jorj. – Chirolyi, aqli, xushmuomala. Uni onamning o'zi tarbiyalab, o'z qizidek muomala qildi. U o'qish-yozishni biladi, juda chevar. Yaxshi ashula ham aytadi.

– Sizning uyingizda tug'ilganmi? – deb so'radi de-Tu xonim.

– Yo'q. Otam uni bir marta Yangi Orleanga borganda sotib olib, onamga sovg'a qilgandi. U vaqtida u sakkiz yo to'qqiz yashar qizcha bo'lgan. Otam bu qiz uchun qancha to'laganini onamga hech aytmagandi, lekin bir kuni uning qog'ozlarini kavlayotganimizda bir eski hisobot chiqib qoldi. Shundan bildikki, otam uning uchun juda katta pul to'lagan ekan. Qiz juda chirolyi edi, shuning uchun qulfrushlar katta pul talab qilgan bo'lsalar kerak.

Jorj Kassiga orqasini o'girib o'tirardi, shuning uchun ham uning naqadar zo'r e'tibor bilan bu tafsilotlarga qulog solayotganini ko'rmasdi.

Birdan Kassi Jorjning qo'lidan tutdi-da, rangi o'chgan holda so'radi:

– Qizni sotgan odamlarning nomlari nima ekan?

– Agar yanglishmasam, bu oldi-sotdini Simmons degan bir kishi qilgan. Har holda soliq xatda „Simmons“ degan imzo bor.

– Yo Rabbim! – deb xitob qildi Kassi va behush bo'lib kayuta poliga yiqildi.

Jorj bilan de-Tu xonim nima bo'lganini tushunmay, irg'ib turdilar. Kassining hushdan ketishining sababi ularga no'ma'lum edi; lekin ular bunday hodisa yuz berganda, odatda, ko'riladigan tadbirlarning hammasini ko'rdilar. Jorjning insонparvarlik hislari kuchayib, hovliqqanidan ichida suvi bor ko'zani ag'darib yubordi va ikkita stakan sindirdi; birovning mazasi qochganligini eshitgan xonimlar kayuta eshigiga tiqildilar va bu tufayli kayutaga toza havo kirmay qoldi.

Bechora Kassi! Hushiga kelgach, devorga o'girildi-da, yig'lab yubordi. Onalar, siz uning nima uchun yig'layotganini fahmlasangiz kerak. U, o'z qizini ko'rish umidi paydo bo'lgani uchun yig'lardi... Bir necha oydan so'ng, u qizini ko'rdi ham... Lekin biz juda ilgari chopib ketyapmiz.

XLIII BOB

Bu voqealar nima bilan tamom bo'ldi

Qolganini hikoya qilish shart emas. Romantik voqealar yigitlarni juda hayajonlantirib qo'yadi; bu voqealarning romantikligi Jorj Shelbiga ham juda qattiq ta'sir qildi. Buning

ustiga, Jorjning xushko'ngilligini ham qo'shib qo'yish kerak. Shuning uchun u imkon bo'lishi bilanoq, Elizaning sotilishi haqidagi hujjatni Kassiga yuborish uchun butun kuchini sarf qildi. Hujjatda ko'rsatilgan vaqt va imzo Kassingin o'z qizi va uning qismati haqida bilganlarining hammasiga tamom to'g'ri tushardi, shuning uchun Kassingin Eliza o'z qizi ekanligiga zarracha shak-shubhasi yo'q edi. Endi qochoqlarni topish qoldi, xolos.

Kutilmagan holda o'z qismatlarining bir xilda bo'lib chiqishi tufayli bir-birlariga bog'lanib qolgan Kassi bilan de-Tu xonim darhol Kanadaga jo'nadilar va qochoq negrlar, odatda, boshpana topadigan qishloqlarda surishtirish, qidirib topishga kirishdilar.

Amxerstbergada, Jorj bilan Eliza ikkovi Kanada chegarasidan o'tgach, uyida to'xtashgan missionerni axtarib topdilar. Missioner ularni Monrealga jo'natdi.

Jorj bilan Eliza besh yildan buyon ozod yashardilar. Jorj bir mo'tabar mexanikning ustaxonasida ishlar va endilikda yanayam ko'payib qolgan oilasini qiynalmasdan boqa olardi, Eliza qiz tug'ib bergen edi.

Chiroyli va qobiliyatli kichkina Garri maktabga qatnab, yaxshi o'qirdi.

Jorj Kanada chegarasidan o'tib ketayotganda unga boshpana bergen Amxerstbergning e'tiborli pastoride-Tu xonim bilan Kassingin ishlarini yengillashtirishga juda harakat qilib, hatto Jorjni axtarib topish uchun Monrealga birga borishga ham rozi bo'ldi. Safar chiqimlarining hammasini de-Tu xonim o'z zimmasiga oldi. Monreal atroflaridagi ozodagina, bejirim bir kichkina uyni tasavvur eting. Oqshom yaqinlashmoqda. Manqal-pechkada rohatbaxsh olov yonadi. Oppoq dasturxon solingen stol ustida kechki ovqat tayyor. Burchakda ko'k movut qoplangan yana bir stol turadi; uning ustida chizmakashlik taxtasi,

qalam-qog‘ozlar yotibdi; tepasida – yaxshi kitoblar terilgan tokcha.

Bu joy – Jorjning kabinet. Qizg‘in havaskorligi soyasida, u eng og‘ir vaqtarda o‘qish va yozishni o‘rgangan edi. Mana shu havaskorligi uni butun bo‘shtini bilimni orttirish uchun sarflashga undaydi.

Mana u, stol yonida o‘tirib „Oilaviy kutubxona“ degan bir kitobdan allanimalarni ko‘chirmoqda.

– Bo‘ldi, Jorj, – dedi Eliza. – Butun kun uyda bo‘lmaysan, bu yerga kelib ham biz bilan ishing bo‘lmaydi. Kitobingni qo‘y, choy damlagunimcha gaplashib o‘tiraylik.

Kichkina Eliza onasining iltimosini quvvatlab, otasidan kitobni tortib oldi va uning tizzasiga chiqdi.

– Ha, sho‘x qiz! – dedi Jorj va bunday chog‘larda hamma erkaklar o‘zlarini qanday tutsalar, u ham shunday tutib, qizchasining amriga bo‘ysundi.

– Ana bu ish joyida! – dedi Eliza, keyin nonni kesa boshladi.

Eliza biroz ulg‘aygan va andak semirib qolgan sochini ham yoshi ulug‘ xotinlar kabi taragan. Lekin bunda mamnunlik aks etadi.

– Garri, bolam, mактабда berilgan masalangni yechdingmi? – dedi Jorj, qo‘lini o‘g‘lining boshiga qo‘yib.

Garrining boshida chegaradan qochib o‘tayotganda qilingan kokillar yo‘q, lekin uning peshona, kiprik va ko‘zları ilgarigi kabi. U faxrlanganidan qizarib javob berdi:

– Yechdim. O‘zim yechdim. Hech kim yordam bergani yo‘q!

– Barakalla! – dedi Jorj. – Hammasini o‘zing qil, o‘g‘lim. O‘qish uchun otanda unchalik imkon bo‘lmadi, senda esa imkoniyat bor.

Shu chog‘ allakim eshikni taqillatdi. Eliza eshik yoniga kelib uni ocharkan, sevinib baland ovoz bilan dedi:

– Voy, sizmisiz?!

Bu ovozni eshitib dahlizga eri ham chiqdi. Amxerstberglik mo'tabar pastor bu uyning aziz mehmoni. Uyga u bilan birga ikki ayol ham kirdi. Eliza ulardan o'tirishni so'radi.

Rostini aytsak, sofdil pastor bo'lajak uchrashuv rejasi ni oldindan o'ylab qo'ygan va yo'lda kelisharkan, ayollar dan uning ko'rsatmalariga amal qilishni qayta-qayta so'ragan edi.

U ayollarni o'tirg'izdi, cho'ntagidan dastro'mlchasini olib, og'zini artdi va allaqachon o'ylab qo'ygan nutqini boshlashga tayyorlandi. Ammo xuddi shu onda de-Tu xonim uning hamma rejasini buzib, Jorjni quchoqladi-da:

– Hoy, Jorj! Meni taniyapsanmi? Men opang Emili bo'laman-ku! – deb qichqirdi.

Rejalari barbod bo'lgan pastoring kayfi juda buzildi.

Kassi o'zini ancha bosiq tutardi va, ehtimol, o'z rolini oxirigacha bajardi. Ammo bir hol ishni buzdi: uning oldida to'satdan kichkina qiz Eliza paydo bo'ldi; u yuz, bo'y, va sochining har bir tolasi, bir vaqtlar Kassidan tortib olishgan kichkina Elizaning xuddi o'zginasi edi; shuning uchun kassi ham o'zini to'xtatolmadи va nabirachasini bag'riga bosib:

– Jon qizim, men sening onang bo'laman! – dedi. Bu so'zining chin haqiqat ekanligiga uning imoni komil edi.

Bunday uchrashuvlarni ilgaritdan o'ylab qo'yilgan reja bilan o'tkazish qiyin, albatta. Shunday bo'lsa ham hammaning hayajoni birmuncha bosilgach, pastor uchrashuv oldida aytmoqchi bo'lgan nutqini so'zladi. Bu nutq kechikib aytilgan bo'lishiga qaramay zo'r taassurot qoldirdi. Tinglovchilar shu qadar oh tortib yig'lardilarki, xoh hozirgi zamonning va xoh qadim zamonning har bir notig'i ham bunday muvaffaqiyatdan to'la qanoat hosil qilardi.

Mana endi do'stlarimiz stol tevaragida birga o'tirib-dilar. Kutilmagan shodlik natijasida paydo bo'lgan qattiq hayajon bosilgan va ular qizg'in suhbatlashyaptilar. Stol ustida turli noz-ne'matlar yozilgan, faqat Kassigina kichkina Elizani tizzasiga o'tirg'izib, uni bag'riga mahkam bos-gan va labini qattiq yumib olib, qizcha og'ziga tiqmoqchi bo'lgan pirogning yeyishdan bosh tortadi. U kichkina Eliza-ga: „Bugun pirogsiz ham qornim to'q, endi mening har qanday piroglardan ham shirinroq va a'loroq narsam bor“, deydi va qizcha buni eshitib hayron bo'ladi.

Kassi ozodlik sharoitida ikki-uch kun yashashi bila-noq shunday o'zgarib ketdiki, uni tanib bo'lmasdi. Uning yuzidagi xafaqon qilib turgan umidsizlik nishonalari yo'qoldi va uning o'rniga ohista mehribonlik va dilkash-lik belgilari paydo bo'ldi. Axir u, oilasini ko'rish muro-diga erishdi va o'z yuragidagi barcha mehr-u muhabbatni bolalarga bag'ishlay oladigan baxtli kunni ko'rdi, qullikda esa bundan mutlaqo mahrum edi! Kichkina Elizaga nis-batan bo'lgan mehribonlik o'z tug'gan qiziga bo'lgan meh-ribonlikdan ham ortiqroq ko'rinardi, chunki bu qizcha yuz va bo'y-basti jihatidan bir vaqtlar undan tortib olingan qizchaning xuddi o'zi edi. Kichkina Elizaga bunday mu-habbat soyasida ona bilan qiz yaqindan tanishib, mahkam bog'lanishdilar.

Birinchi uchrashuvdan keyin bir-ikki kun o'tgach, de-Tu xonim o'zining hol-ahvolini ukasiga mufassal gapirib berdi. Unga eridan anchagina davlat qolgan ekan; shuning uchun u, Jorjga pul bermoqchi bo'ldi. Jorjdan: „Nimani istaysan? Qancha pul kerak?“ deb so'ragan edi, Jorj:

– Menga o'qish uchun imkon tug'dirib ber, Emili. Mening orzum – ilm olish. Qolganini o'zim topaman, – deb javob berdi.

Har tomonlama muhokamadan keyin oilaning hamma-

sini Fransiyaga ko'chirib ketishga qaror qilindi. Tez kunda ular Emmelinani ham olib yo'lga chiqdilar.

Kemada, okeanda suzib ketayotganlarida go'zal Emmelinaga kapitanning birinchi yordamchisi oshiq bo'ldi va portga yetib kelgach, unga uylandi.

Jorj fransuz universitetlaridan birida to'rt yil o'qidi, charchamasdan zo'r berib ishladi va keng ma'lumotli odam bo'lib yetishdi.

Biz endi Oqliya bilan Topsi haqida bir necha so'z aytishimiz lozim. Jorj Shelbiga esa navbatagi xayrlashuv bobini bag'ishlaymiz.

Ofeliya Topsini o'z vatani Vermontga olib ketdi. Yangi Angliyaning martabali kishilar buni ko'rib taajjublandilar. Ularga Topsining bu yerga keltirilishi avval ma'qul tushmadni, lekin o'z burchiga sodiq Ofeliya qizni zo'r berib o'qitib tarbiyaladi va bu sohada shunday muvaffaqiyatlarga erishdiki, Topsi hamma qo'shnilar uchun erka qiz bo'lib qoldi.

Ehtimol, ba'zi onalarga xushxabar bo'lar, shuning uchun xotima so'zimizda shuni aytib o'taylik: de-Tu xonim tez orada Kassining o'g'lini ham topdi – Kassining o'g'li – juda g'ayratli yigit bo'lib, onasidan ko'ra bir necha yil ilgariroq qochishga muvaffaq bo'lgandi. Shimolda mazlumlarning do'stlari uning ham ilmli kishi bo'lib yetishishiga yordam berdilar.

XLIV BOB

Ozod etuvchi

Jorj Shelbi onasiga qisqacha xat yozib, uyg'a qachon borishini xabar qildi. Tomning o'lganligi haqida xatda hech narsa yozmadni, chunki bunga yuragi dov bermadi. Bu to'g'rida ham bir necha so'z yozay, deb qanday o'lganligi-

ni tasvirlashga urinib ko'rdi, lekin qo'liga qalam olishi bilan kayfi buzilardi. Qog'ozga ko'zyoshlarini oqiza-oqiza, o'rnidan turib ketar va o'ziga taskin berardi.

Shelbining uydigilar yosh mister Jorj keladigan kuni sevinishib, ivirsiy boshladilar.

Kuz oqshomi, sovuq edi. Shelbi xonim o'zining shinam mehmonxonasi dagi manqal-pechka yonida o'tga isinib o'tirardi. Eski oshnamiz Xloya xola esa kechki ovqat uchun stolga dasturxon yozar, kumush va billur idishlarni qo'yardi.

U yangi chit ko'yak kiygandi; oldiga pokiza fartug tutgan, boshiga yaxshilab oxorlangan baland qalpoqcha kiygan, uning yaltiroq qora yuzi mammun edi. Bekasi bilan to'yib gaplashish imkonni bo'lsin uchun u stolga dasturxonni sekin yozardi.

— Hayallahsyapti. Uzoq yo'l, hayallahsa ajab emas, — dedi u. — Uning tarelkasini o'tga yaqinroq qo'ydim. Mister Jorj issiqda o'tirishni yaxshi ko'radi. Bizning eng yaxshi choynagimiz qani? Sellı uni nega keltirmabdi? Rojetstvoda mister Jorj bekaga sovg'a qilgan kichkina yangi choynak qani! Uni mana bu yerga qo'yaman! Xonim, mister Jorjdan xat oldilarmi? — deb so'radi u qiziqib.

— Oldim, Xloya. Xati juda qisqa. U xatida: „*Bugun kechqurun uyga yetib boraman*“, debdi, boshqa hech gap yozmabdi.

— Cholim to'g'risida yozmabdimi? — deb so'radi Xloya, stol ustiga hamon stakan va piyolalarini terarkan.

— Yo'q, yozmagan. U boshqa hech narsa yozmagan, Xloya. Kelganida hammasini o'zi aytib beradi.

— U kishi shunaqa. Mister Jorj hamma narsani o'z og'zi bilan aytib berishni yaxshi ko'radi. Uning bu fe'lini men allaqachon bilganman. Tushunmayman, nega bu oq odamlar uzundan uzun xat yozishni yaxshi ko'risharkan? Axir xat yozish juda qiyin, sertashvish ish-ku!

Shelbi xonim kului.

– Cholim kelib qolsa, na o‘g‘il va na qizlarini taniydi endi. Xudoyim, qizimiz Tolli kap-katta bo‘lib qoldi-ya! Yaxshigina sho‘x qiz. Uni mayiz pirogiga qarab turgin, deb uyda qoldirib keldim. Men cholimga mayiz pirog qilyapman; u mayiz pirogni juda yaxshi ko‘rardi. Cholimni olib ketishayotgan kuni erta bilan ham shunaqa pirog qilgandim. O‘scha kun juda qattiq qayg‘urgandim-da!

Shelbi xonim uf tortdi: u dilida g‘ashlik his etdi. O‘g‘li dan kelgan xatning qisqaligi uni shuhaga solib qo‘ygandi.

– Bekam hisobotlarni tayyorladilarmi? – deb so‘radi Xloya.

– Ha, tayyorladim, Xloya.

– Men konditerdan olgan hisobotlarimni cholimga ko‘rsatmoqchiman. Konditer: „Menikida yana ishlab tur“, deydi; „Rahmat, xo‘jayin, – dedim, – yaqinda cholim keladi; bekam ham mensiz qiynaladi“, dedi unga. Xo‘jayinim Jon yaxshi odam ekan!

O‘z xizmatlari nimalarga qobil ekanini isbot qilish uchun Xloya konditer unga to‘lagan maoshlarining hama hisobotlarini eriga ko‘rsatmoqchi edi. Shuning uchun u Shelbi xonimdan: „Bu hisobotlarni ehtiyyot qiling“, deb qattiq iltimos qilgan, Shelbi xonim ham uning iltimosini bajargandi.

– Cholim Pollini tanimaydi... Uni olib ketganlariga besh yil bo‘ldi-ya! U vaqtida Polli kichkina edi... zo‘rg‘a yurardi. Yurmoqchi bo‘lsa: „Hoy, ehtiyyot bo‘l, yiqiladi“, deb qo‘rqardi cholim... Ana kelishyapti!

Shu chog‘ g‘ildirak ovozlari eshitildi.

– Mister Jorj! – deb qichqirdi Xloya xola, derazaga qarab.

Shelbi xonim eshikka shoshilib borib, o‘g‘lining quchog‘iga tashlandi. Xloya xola tashvishlanib qorong‘ilikka qarardi.

– Bechora Xloya xola – dedi Jorj uning yoniga kelib va qora qo'llarini achinib ushlab. – Uni birga olib kelish uchun butun davlatimni berishga rozi edim. Ammo u dunyodan o'tdi.

Shelbi xonim oh tortib qichqirdi. Ammo Xloya ovozini chiqarmadi.

Ular oshxonaga kirdilar. Xloya xolani juda faxrlantirgan hisobotlar hamon stol ustida yotardi.

– Bularni oling! – dedi Xloya qo'llari titragan holda, hisobotlarni yig'ishtirib bekaga uzatarkan. – Ularni ko'rishimning keragi yo'q. Shunday bo'lishini ilgaridan bilar-dim. Uni sotib, o'sha yoqda, plantatsiyada o'ldirishdi.

Xloya orqasiga qayrildi-da, g'urur bilan uydan chiqib ketdi. Shelbi xonim sekin uning izidan chiqdi, qo'lidan ushlab kresloga o'tirg'izdi va o'zi uning yoniga o'tirdi.

– Bechora, yaxshi Xloyam! – dedi u.

Xloya uning yelkasiga boshini tashladi va ho'ngrab:

– Oh, bekam, afv eting! Yuragim pora-pora bo'ldi! Bundan boshqa so'zim yo'q, – dedi.

– Bilaman, bilaman, – dedi Shelbi xonim, unga qo'shilib yig'larkan.

Jimlik boshlandi. Hammalari yig'ladilar. Nihoyat, Jorj Xloyaning yoniga o'tirib qo'lidan ushladi-da, Tomning qanday o'lganini, Tomning unga aytib qo'yish uchun topshirgan hamma shirin so'zlarini aytди.

Oradan bir oycha vaqt o'tdi. Shelbining mulkida yashagan barcha qullar katta uyga chaqirildi. Ularga: „Yosh xo'-jayin, sizlar bilan so'zlashmoqchi“, deb xabar qilindi.

Jorj hammani taajjublantirgan holda zalga bir to'p qog'ozni ko'tarib kirdi; bular – qullarning ozod qilinishini bildiradigan hujjatlar – erkinnomalar edi. Jorj har bir hujjatni navbatma-navbat o'qib, uni o'z egasining qo'liga topshirardi. Yig'i-sig'i va shodlik ovozlari eshitilardi.

Biroq, Jorjni o'rab, „Bizni haydamang“, deb yolvorgan qullar ham bo'ldi. Ular zo'r tashvishga tushib, Jorjga o'z erkinnomalarni qaytardilar.

– Biz hozir ham ozodmiz. O'zimizga zarur bo'lgan hamma narsamiz bor. Biz tug'ilgan joylarimizdan ketishni xohlamaymiz. Xo'jayinni va bekani tashlab ketishni istamaymiz, – deyishardi ular.

– Do'stlarim, – dedi Jorj, hammani jimmijit qilib, – bu yer dan sizni hech kim quvmaydi. Dalaga ham, uyga ham ilgari qancha bo'lsa, hozir ham o'shancha odam kerak. Ammo sizlar endi ozod odamlarsiz. Sizning mehnatingiz uchun sizlarga maosh to'layman. Mabodo men qarzdor bo'lib, ishlarim chatoqlashib qolsa yoki o'lib-netib qolsam, sizlarga hech kim tegmaydi, sotib yubormaydi. Men bu yerda sizlarning orangizda yashayman va sizlarga ozod kishi o'z huquqidan qanday foydalanishi kerakligini o'rgataman. Sizlarning yaxshi shogird bo'lishlaringizga ishonchim komil. Men esa, yaxshi muallim bo'lishga harakat qilaman.

Ozod etilganlar sevinib bir-birlarini tabrikladilar.

– Yana bir necha og'iz aytay, – dedi Jorj. – Bizning saxovatli qari tog'amiz Tom esingizda bormi?

Jorj, Tomning qanday o'lganini qisqacha hikoya qildi. Tomning o'lish oldidan o'z og'aynilariga yuborgan do'stona vidolashuv so'zlarini ularga aytdi-da, o'zidan qo'shimcha qilib, dedi:

– Do'stlarim, uning qabri ustida men: „Hech qachon menda qul bo'lmaydi, mening aybim bilan hech kimsa oilasidan ajratilib, plantatsiyaga – o'limga yuborilmaydi“, deb qasamyod qilganman. Siz o'z ozodligingiz uchun shodlanarkansiz, saxovatli keksa Tom sharofati bilan bunga ega bo'ldingiz. Undan minnatdor bo'lib, xotini va bolalariga g'amxo'rlik qiling. Tom tog'aning kulbasi yonidan o'tganingizda har qachon o'z ozodligingiz haqida o'ylang...

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
XVIII bob	5
XIX bob	20
XX bob	34
XXI bob	51
XXII bob	57
XXIII bob	63
XXIV bob	72
XXV bob	79
XXVI bob	84
XXVII bob	98
XXVIII bob	103
XXIX bob	113
XXX bob	123
XXXI bob	135
XXXII bob	141
XXXIII bob	149
XXXIV bob	158
XXXV bob	169
XXXVI bob	177
XXXVII bob	184
XXXVIII bob	192
XXXIX bob	195

XL bob.....	208
XLI bob.....	214
XLII bob	220
XLIII bob.....	228
XLIV bob.....	233

Adabiy-badiiy nashr

GARRIET BICHER-STOU

TOM TOG‘ANING KULBASI

Roman

Ikkinchi kitob

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo‘rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
27.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.
Ofset qog‘izi „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 12,6. Adadi 5000. Shartnoma № 116–20.
Buyurtma raqami 451-20.

„Ziyo nashr“
Mas‘uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

26910

GARRIET BICHER-STOU

**TOM TOGANING
KULBASI**

ROMAN || KITOB



ISBN 978-9943-6439-1-8

A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 643918